«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOIY XARAKATI MARKAZIY KENGASHI

Nodira G'ayratovna Komilova

# XULQI OG'ISHGAN YOSHLAR PSIXOLOGIYASI

O'quv qo'llanma

Xulqi og'ishgan yoshlar psixologiyasi. O'quv qo'llanma / Muallif: N.G'.Komilova. – Toshkent: KYIXMK, 2013. 178 b.

O'quv qo'llanmada shaxsning og'ishgan xulqini psixologiyasining dolzarb masalalari: ushbu ko'rinishning fenomenologiyasi, turlarining tasnifi, determinasiya va ishlash mexanizmlari, ijtimoiy-psixologik prevensiya va intervensiyaning usullari ko'rib chiqiladi.

Muammoning nazariy tahlili xatar guruhidagi bolalar bilan ishlashda va sud-psixologik ekspertizada, shuningdek, psixologik maslahat hamda psixoterapiya amaliyotida tajribaga ega bo'lgan muallifning amaliy xulosalari bilan uyg'unlashadi.

Oliy o'quv yurtlarining talabalari, amaliy psixologlar uchun. O'z faoliyatida shaxs deviant xulqining turli ko'rinishlari bilan to'qnashuvchilar uchun ham foydali bo'lishi mumkin.

Taqrizchilar: psixol.f.d., prof. Z.T.Nishonova
psixol.f.d., prof..B.M.Umarov

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni Muvofiqlashtirish qo'mitasining "Talaba yoshlar orasidagi huquqbuzarlik muammosini ilmiy amaliy asoslarini yaratish" nomli A-1-080 raqamli grant loyixasi doirasida tayyorlandi.

*Uslubiy qo'llanma "KAMOLOT" YOSHLAR IJTIMOIY XARAKATI MARKAZIY KENGASHINING 2013 yil 6 avgustdag 3 sonli bayyonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.*

# KIRISH

Hammamiz ham deyarli har kuni ijtimoiy istalmagan axloqning turli-tuman ko'rinishlari – tajovuzkorlik, zararli odatlar, qonunga zid harakatlar bilan to'qnashamiz... Shu kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar ko'p yillardan beri qator savollarga javob izlamoqdalar.

Bunday axloqning sababi nimada bo'lishi mumkin?! Nima insonni qayta-qayta o'ziga va atrofdagilarga zarar keltirishga majburlaydi? Bundan qanday qutulish mumkin? Va nihoyat, "og'ishgan xulq" atamasidan foydalanish qonuniymikin?

Deviantlik, og'ishgan xulq psixologlar, shifokorlar, pedagoglar, huquqni himoyalovchi organlar xodimlari, sosiologlar, faylasuflarda jonli qiziqish uyg'otib kelgan. Og'ishgan xulq mavzusi sohalararo va munozarali xarakterga ega. Atamaning "ijtimoiy me'yor" tushunchasi bilan payvasta ekanligi muammoni ko'p marotaba murakkablashtiradi, chunki me'yorning chegaralari o'ta shartli, insonda esa barcha ko'rsatkichlar bo'yicha absolyut me'yorning o'zi mavjud emas. Yondoshuvlarning turli-tumanligi shaxs xulqini og'ishganligini tashhis qilish, uni profilaktikalash va ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish davomida bartaraf etish kabi amaliy vazifalarni yechishda ham ko'zga tashlanadi.

Deviantologiya kursining asosiy maqsadi o'quvchilarda shaxs og'ishgan xulqi muammolarining zamonaviy holati haqida ilmiy asoslangan, yaxlit tasavvurning shakllanishida yordamlashishda ko'rinadi. Og'ishgan xulqni tushuntirish uchun turlicha psixologik konsepsiyalar qimmatini tan olgan holda biz asosida kognitiv-axloqiy yondoshuv yotuvchi konsepsiyani ustuvor sifatida ajratamiz.

Ushbu kursni o'qitish tajribasi shuni ko'rsatdiki, materialni anglashda ba'zi bir qiyinchiliklar mavjud ekan. Birinchidan, "og'ishgan xulq" tushunchasining ko'p ma'noliligi va bu bilan bog'liq bo'lgan terminologik chalkashliklar. Ikkinchidan, har birimizning ichki dunyomizga xos bo'lgan shaxsiy ozodlik ehtiyoji va jamiyatning cheklashlari orasidagi qarama-qarshiliklar. Og'ishgan xulq fenomeni mavjudligining o'zi "ozodlik yoki zaruriyat" dilemmasi faktini tasdiqlaydi, hatto jamiyatning umidlariga qarshi har bir odamning shaxsiy tanlovchi predmeti hisoblanadi. Yana bir ma'lum murakkablik shundaki, og'ishgan xulq muammosi bo'yicha ma'lumotlarni turli fanlar, masalan, sosiologiya, tibbiyot, huquq, psixologiya, pedagogikadan izlash lozim bo'ladi. Mavjud bo'lgan

adabiyotlar, qoidadagidek, yoxud o'ta ixtisoslashtirilgan, yoki o'ta ommaviy xarakterga ega. Og'ishgan xulq psixologiyasi bo'yicha adabiyotlar unga ta'sir qilishning samarali texnologiyalari yetishmagani kabi, shubhasiz, yetishmaydi.

O'quvchiga taqdim etilayotgan ish o'zida mavjud bo'lgan ilmiy yondoshuvlarni ko'rib chiqishga intilishni va muallifning psixologik aspektda ko'rib chiqiluvchi shaxs og'ishgan xulqini o'rganish hamda uni bartaraf etishdagi amaliy tajribalarini umumlashtirishni aks ettiradi.

# I-bob. MUAMMOGA KIRISH

## 1-Bo'lim. TA'LIM PREDMETI

**Reja**

1. Axloq – shaxsning psixologik kategoriyasi va xususiyati sifatida
2. "Og'ishgan xulq" tushunchasini aniqlash mezonlari
3. Tushunchaning ta'rifi

### Axloq – shaxsning psixologik kategoriyasi va xususiyati sifatida

Ushbu qismning asosiy vazifasi "shaxsning og'ishgan xulqi" tushunchasini ta'riflash hisoblanadi.

Tushunchani ta'riflash – uning mazmunini ochish. ya'ni mavjud belgilar to'plamini ajratish demakdir.

Ta'rifning birinchi bosqichi tur orqali - tur tushunchalarining hajmi bo'yicha aniqlanayotgan tushunchani birmuncha keng yoritishdir. Og'ishgan xulq – bu hammadan avval shaxs axloqining allaqanday shakli. albatta, unga insoniy axloqning barcha xususiyatlari xos. biz ham o'z tahlilimizni aynan shuni ko'rib chiqishdan boshlaymiz.

Psixologiyada axloq atamasidan tur va *inson faolligi darajasini* uning faoliyati. mushohadasi. tafakkuri. muloqoti kabi ko'rinishlari bilan bir qatorda belgilash uchun keng foydalaniladi. Inson axloqi to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar XX asrning boshlarida bixevioristlar uni psixologik fanning predmeti [1] deb e'lon qilgan vaqtdan boshlab. ayniqsa. shiddatli rivojlanish tusini oldi.

Dastlab axloq tushunchasi ostida shaxsning istalgan tashqi

kuzatiluvchi, "rag'bat – reaksiya" sxemasi bo'yicha ishlaydigan reaksiyasini (harakatlanuvchan, vegetativ, nutqiy) tushundilar. Empirik ma'lumotlarning to'planish darajasi bo'yicha inson axloqining tabiati yanada chuqurlashdi. 1931 yilda esa axloqiy psixologiyaning asoschilaridan biri Djon Uotson axloq to'g'risida "tuxumni mahsuldor qilish lahzasida dunyoga keluvchi va organizmning rivojlanishi darajasi bo'yicha yanada murakkablashib boruvchi faollikning uzluksiz oqimi" haqida gapirgan kabi gapirgandi [1, 224-b.].

Axloqning zamonaviy tushunchasi tashqi rag'batga reaksiyalar to'plami doirasidan ancha chetga chiqadi. Shunday qilib, psixologik lug'atda axloq "tirik mavjudotga xos bo'lgan, ularning ichki va tashqi faolligi vositasidagi atrof-muhit bilan o'zaro ta'sirdir" [13, 276-b.]. Odamning tashqi faolligi ostida har qanday tashqi ko'rinish: harakat, faoliyat, muomala, mulohaza, vegetativ reaksiyalar tushuniladi. Quyidagilar axloqning ichki tarkibi bo'lib hisoblanadi: motivasiya va maqsad qo'yish, kognitiv ishlov berish, hissiy reaksiyalar, o'z-o'zini boshqarish jarayonlari [12]. Kelgusi muhokamalarda axloq tushunchasi ostida biz *shaxsning individual xususiyatlari va shaxsning tashqi harakat hamda muomalasi shaklida ifodalanuvchi ichki faolligida bevosita ifodalangan muhit bilan o'zaro harakati jarayonini tushunamiz.*

Ta'rifga ega bo'lgach o'rganilayotgan reallikning asosiy belgilarini ajratishga urinamiz. Inson axloqining birmuncha muhim xususiyatlaridan biri - bu uning o'z mohiyati bo'yicha *ijtimoiyligi*dir, u jamiyatga shakllanadi va amalga oshadi. Inson axloqining boshqa muhim xususiyati – bu uning *nutqiy boshqaruv va maqsad qo'yilganligi bilan mustahkam aloqasi* hisoblanadi. Yaxlit olganda insonning axloqi uning *ijtimoiylashuvi* jarayonini – *jamiyatga integrasiyasini* aks ettiradi. Ijtimoiylashuv, o'z navbatida, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda ijtimoiy muhitga moslashishni ko'zda tutadi. Moslashuv – individuallashuv jarayonlarining nisbati bo'yicha, shuningdek, jamiyatda shaxs mavqei yuzasidan ijtimoiy moslashuvning quyidagi variantlarini ajratish mumkin:

- *radikal moslashuv* – shaxsning mavjud ijtimoiy hayotda o'zgarishi orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;
- *gipermoslashuv* – shaxsning o'z oliy yutuqlari vositasida ijtimoiy hayotga ta'siri orqali o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;
- *uyg'unlashgan moslashuv* – shaxsning jamiyatda ijtimoiy

talablarga orientasiyasi vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi;

- *konformistik moslashuv* – individuallikni bostirish, o'z-o'zini ro'yobga chiqarishni birlashish hisobiga;
- *deviant moslashuv* – mavjud bo'lgan ijtimoiy talab (me'yor) lardan chiqish vositasida o'z-o'zini ro'yobga chiqarish;
- *ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik* – o'z-o'zini ro'yobga chiqarish va moslashish jarayonlarini blokirovkalash holati.

Muayyan inson axloqida ijtimoiylashuvning istalgan variantida axloqning umumiy tavsifnomasidan foydalanib, quyidagilarni ifodalash mumkin:

- *asoslanganlik* – shaxsning ehtiyojlari va maqsadlariga yo'naltirilgan harakatlanishga ichki tayyorlik;
- *o'xshashlik* – aniq vaziyat bilan kelishish;
- *moslashish* – ijtimoiy muhitning yetakchi talablariga muvofiqlik;
- *haqqoniylik* – individuallik axloqining mosligi, uning ushbu shaxs uchun tabiiy ekanligi;
- *mahsuldorlik* – ongli maqsadlarni amalga oshirish. Shaxs xulqining shunday belgilari borki, ular anchagina xususiy, biroq kam bo'lmagan ahamiyatga egadir:
- faollik darajasi (energiyalilik va tashabbuskorlik);
- hissiy ifodalanganlik (namoyon etilayotgan affektlarning kuchi va xarakteri);
- jo'shqinlik;
- turg'unlik (turli vaqt va turlicha vaziyatlarda ko'rinishlarning doimiyligi);
- onglilik (o'z axloqini tushunish uni so'z bilan tushuntira olish qobiliyati);
- ixtiyoriylik (o'z-o'zini nazorat);
- egiluvchanlik (muhitning o'zgarishiga javoban axloqni o'zgartirish).

"Axloq" turidagi tushunchaning barcha ko'rib chiqilgan tavsifnomalari

uning "shaxsning og'ishgan xulqi" kabi turiga ham to'la ma'noda taalluqlidir.

**"Og'ishgan xulq" tushunchasini aniqlash mezonlari**

Biz uchun muhim bo'lgan "shaxsning og'ishgan xulqi" tushunchasini ta'riflashga o'tishdan oldin biz psixologik ko'rinishlarni baholash etalonini berishimiz lozim.

Ko'pgina fanlarda ko'rinishlarni "me'yoriy" va "anomal"ga bo'lish qabul qilingan. J.Godfruaning haqqoniy e'tirozi bo'yicha *"Qanday axloqni me'yoriy deb hisoblash mumkin?"* degan savol inson axloqini, shu jumladan, og'ishgan xulqni tushuntirish uchun markaziy hisoblanadi [4, t. 2, 126-b.]. "Normal"/"anomal" axloq tushunchasining ma'nosiga qat'iy ta'rif berish murakkab, ular orasidagi chegara esa o'ta noaniq.

Shunga qaramay, ilmda va kundalik hayotda ushbu tushunchalar birgalikda foydalaniladi. Bunda normal axloq atamasi ostida, qoidadagidek, *og'riqli xafagarchilik bilan bog'liq bo'lmagan, shu bilan birgalikda, ko'pchilik odamlar uchun xarakterli bo'lgan me'yoriy-ma'qullangan axloq* tushuniladi.

Shunga o'xshash, nome'yoriy axloqni quyidagicha bo'lish mumkin: me'yoriy-ma'qullanmagan, patologik, nostandart.

"Me'yoriy" deb qat'iy mazmunda ushbu fanda ayni vaqtda qabsl qilingan me'yor-etalonga muvofiq keluvchi barcha narsa hisoblanadi. Me'yorlarni olish usullarini ko'pincha mezon deb ataydilar. Eng ko'p tarqalgan va umumiy hisoblangan mezonlardan biri – populyasiyada uchraydigan chastotalarni hisoblash yordamida istalgan ko'rinish uchun me'yorni aniqlashga imkon beruvchi ***statistik mezon*** (usul) hisoblanadi. Matematik statistika nuqtai nazaridan tez-tez, ya'ni 50 foizdan kam bo'lmagan hollarda uchraydigan hamma narsa me'yoriydir. Me'yoriy taqsimot qonuniga muvofiq ravishda 2-3 foiz odamlar "me'yoriy"dan ikki tomon bo'yicha ko'pchilik muayyan bir sifat bo'yicha (intellekt, obshitelnost, hissiy turg'unlik) axloqning yaqqol buzilishiga. har ikki tomondan 20 foizi esa nisbatan katta bo'lmagan og'ishlarga ega. Shubhasiz, axloqning aniq shakli (masalan, chekish) me'yoriy qabul qilinishi mumkin, qachonki u ko'pchilik odamlarda uchrasa. Haqiqatan, Sankt-Peterburgda chekishni og'ishgan xulqqa tegishli deyish o'rinsiz bo'lardi. sababi katta yoshli aholi o'rtasida chekuvchilar chekmaydiganlarga nisbatan ehtimol ko'proqdir.

Statistik mezon ifodalanish va *hayot uchun xatar darajasi* bo'yicha axloqning *sifat-miqdoriy bahosi* bilan uyg'unlashadi. Masalan, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish aqlli chegaralarda (katta bo'lmagan doza va chastotada) me'yoriy ko'rinish deb tan olinadi, biroq uni suiiste'mol qilish og'ishganlikni anglatadi. Boshqa tomondan odamning o'zi yoki atrofdagilar hayoti uchun to'g'ridan-to'g'ri xavf tug'diruvchi axloq uning chastotasi, ba'zan esa ifodalanganlik darajasidan qat'i nazar og'ishgan sifatida baholanadi, masalan, suisid yoki jinoyat.

Gumanitar fanlar statistik bilan bir qatorda shaxs axloqining me'yoriyligi/nome'yoriyligini baholashning maxsus mezonlaridan ham foydalaniladi: psixopatologik, ijtimoiy-me'yoriy va individual-psixologik.

***Psixopatologik mezonlar***dan tibbiyotda foydalaniladi. Uni shaxsning og'ishgan xulqi va boshqa sohalarda qo'llashga qiziqtiradigan narsa mavjud. Ehtimol, bu deviant xulq tadqiqotlarining an'anaviy ravishda klinik sharoitlarda olib borilishi bilan bog'liqdir, medikamentoz terapiya esa bunday hollarda keng tarqalgan edi.

Psixopatologik mezon nuqtai nazaridan barcha axloqiy ko'rinishlarni ikkiga: "sog'lik – kasallik" ma'nosida *me'yoriy* va *patologik*ka ajratish mumkin. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining nizomida *sog'lik* "kasallik va jismoniy nuqsonlarning yo'qligi sifatidagina emas, balki to'liq jismoniy, ma'naviy va ijtimoiy farovonlik holati" sifatida ta'riflanadi [14, t. 2, 391-b.].

Kasallik – "organizmning tuzilmasi va funksiyasidagi zararlar uning to'ldiruvchi-moslashuvchi mexanizmlarida sifatli-o'ziga xos shaklida reaktiv mobillashuv davrida ichki va tashqi omillar ta'siri ostida o'z oqimida buzilgan hayot; kasallik ko'pincha bemor hayotiy faoliyatida ozodlikning cheklanishi va muhitga moslashuvning umuman yoki qisman susayishi bilan xarakterlanadi" [14, t. 1, s. 148]. Bunda *patologiya* – tibbiy me'yorlar mazmunida "me'yordan har qanday og'ishdir". Yoki boshqacha aytganda "bu aniq nozologik birliklarning umumiy nomi", ya'ni *kasallik va uning belgilari tasnifida sanab o'tilgan hollardan biriga mos tushadi* [14, t. 3, 302-b.].

Kasalliklar tasnifida *og'ishgan xulq* alohida nozologik birlik sifatida ajratilmagan, shubhasiz, u na patologiyaning shakli, na qat'iy belgilangan tibbiy tushuncha hisoblanadi. Ayni damda og'ishgan xulq *me'yor* va xarakter aksentuasiyasi, vaziyatli reaksiya, rivojlanishning buzilishi,

kasallik oldi kabi *patologiya o'rtasida* yotuvchi ko'rinishlar qatorida keng ko'rib chiqiladi.

Sanab o'tilgan shakllar muammoning xarakteri bilan uyg'unlashgan murakkabliklar va tashhisiy belgilarning noaniqligi bilan xarakterlanadi. Masalan, "*xarakter aksentuasiyasi* – bu uning me'yorida boshqalarga nisbatan yaxshi va hatto ko'tarinki mustahkamlikda psixogen ta'sirlarning muayyan turiga munosabatda tanlangan zaiflik ma'lum bo'ladigan alohida chiziqlari o'ta kuchaytirilgan oxirgi variant [10, 10-b.]. Ma'lumki, qator hollarda aksentuasiya qonunga qarshi harakat, suisidal axloq, giyohvand moddalarni iste'mol qilish kabi og'ishgan xulq bilan uyg'unlashadi. Ayni damda aksentuasiyalangan xarakterli ko'pchilik odamlarning axloqi og'ishgan hisoblanmaydi. K.Leongardning fikriga ko'ra rivojlangan davlatlarda aholining 50 foizi aksentuasiyali shaxsga taalluqlidir [11, 19-b.]. Bunda ularning ko'pchilik qismi me'yoriy axloqni namoyish qiladi va hatto jamiyat oldida alohida xizmatlarga ega.

Shunga o'xshash psixik patologiya (psixopatiya, nevrozlar, psixozlar va h.k.) sohasidagi istalgan parokandalik har doim ham og'ishgan xulq bilan bog'liq emas. Ba'zi hollarda psixik kasalliklar patogen moslashmaslikni chorlagan holda axloqiy buzilishlar bilan birga borishi mumkin. Psixik parokandalikning boshqa hollarida axloqiy og'ish bo'lmaydi.

Navbatdagi ***ijtimoiy-me'yoriy mezon*** jamiyat hayotining turli sohalarida o'ta muhim ahamiyatga ega. Har bir odamning axloqi har kuni baholanadi va turli-tuman ijtimoiy me'yorlar yordamida boshqariladi. (Ijtimoiy me'yorlar, uning turlari va harakat mexanizmlari tushunchalari keyingi bo'limda yoritiladi.) *Ijtimoiy-me'yoriy mezonlarga muvofiq axloqning ayni damda jamiyat talablariga mos tushishi me'yoriy deb anglanadi va ma'qullanadi.* Og'ishgan xulq esa aksincha, asosiy jamoaviy ko'rsatmalar va qadriyatlarga ziddir.

Jamiyatning o'zi o'zgarsa, unda amal qilayotgan ijtimoiy me'yorlar ham o'zgaradi. Masalan, sho'rolar davlatida "kommunizm quruvchisi" sifati burch tuyg'usi, g'oyaga sadoqat, jamoaviy mas'uliyat, birlashgan tafakkur kabi keng yoyilgandi. Qayta qurish vaqtidan boshlab shaxsiy tashabbuskorlik, mustaqillik, epchillik muhim rol o'ynay boshladi.

Ijtimoiy-me'yoriy mezon nuqtai nazaridan axloq me'yoriyligining yetakchi ko'rsatkichi *shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasi*

hisoblanadi. Bunda me'yordagi, *muvaffaqiyatli moslashuv* qadriyatlararo, individning xususiyatlari va uni o'rab turgan ijtimoiy muhitdagi talablar, qoidalarning maqbul muvozanati bilan xarakterlanadi. Shubhasiz, ijtimoiy talablarni yaqqol inkor etish kabi individuallikni barobarlash, masalan, konformizm shaklida – shaxs manfaatlarini muhit bosimiga to'liq bo'ysundirish ham birdek muammo hisoblanadi. Tegishlicha, *moslashmaganlik* – bu shaxsiy ahamiyatli bo'lgani kabi muhit talablarini qabul qilish va bajarishga shuningdek, o'z individualligini aniq ijtimoiy sharoitlarda ro'yobga chiqarish sust layoqat holati.

Moslashmaganlikning ijtimoiy va individual ko'rinishlarini ajratish mumkin. *Moslashmaganlikning ijtimoiy ko'rinishlari* quyidagilar hisoblanadi:

- past o'zlashtirish, o'z mehnati bilan mablag' ishlab topishga layoqatsizlik;
- hayotiy muhim sohalarda surunkali yoki yaqqol ifodalangan omadsizlik (oilada, ishda, shaxslararo munosabatlarda, sog'liqda;
- qonun bilan nizolar;
- yakkalanib qolish.

*Moslashmaganlikning individual ko'rinishlari* sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish mumkin:

– ijtimoiy talablarga munosabati yuzasidan salbiy ichki tartib (ular bilan kelishmaslik, tushunmaslik, norozilik, qarshi harakat);

– o'zining mas'uliyatdan qochishga intilishida atrofdagilarga ko'tarinki e'tiroz bildirish, egosentrizm;

– surunkali hissiy noqulaylik;

– o'z-o'zini boshqarishning besamarligi;

– janjalkashlik va kommunikativ ko'nikmalarning zaifligi;

– reallikni kognitiv buzib ko'rsatish.

Odam turlicha tuyg'ularni – yengil xavotir va o'ziga ishonchsizlikdan tortib, chidab bo'lmas darajadagi nochorlik, qo'rquv, umidsizlik jazavalarigacha boshidan kechirishi mumkin. Bunda shaxsning real ijtimoiy maqomi va uning individual ongi o'rtasida bo'linishi yuzaga kelishi mumkin.

So'nggi mezon - ***individual-psixologik mezon*** har bir shaxs. uning individualligining o'sib boruvchi barcha qadriyatlarini aks ettiradi.

Ushbu mezonga muvofiq insonga zamonaviy talablar ijtimoiy farmoyishlarni bajarishga uning qobiliyatini cheklamaydi. biroq *shaxsning o'z-o'zini anglashi* va *o'ziga xosligi*ni ham ko'zda tutadi. Shu bilan bog'liq ravishda bizning zamonda shaxsning asos soluvchi sifatlari deb quyidagilarni aytish mumkin: tashqi olam va o'ziga nisbatan uning ichki pozisiyasi. qaror qabul qilish va tanlash layoqati. shuningdek. shaxsiy axloqiga mas'uliyati. Ijtimoiy borliqda o'z-o'zini aniqlash va shaxsiy potensialning o'z-o'zini ro'yobga chiqarishi unda individual rivojlanishning yetakchi vazifasi deb tan olinadi.

## Tushunchani ta'riflash

Bizning ta'limotimiz predmeti shaxsning shunday axloqiy aspektiki. uni og'ishgan xulq sifatida tasniflash mumkin. ***Og'ishgan xulq*** psixik fenomenlar qatorida o'zining shaxsiy javonini egallaydi. U psixik kasalliklar. patologik holat. nevrozlar. psixosomatik parokandalik va h.k. kabi ko'rinishlar qatorida mavjud. Ushbu fenomenlar tibbiy me'yorlar nuqtai nazaridan "sog'liq – kasallik oldi – kasallik" o'qida ko'rib chiqiladi. Shaxsning og'ishgan xulqini. bizning nazarimizda. psixopatologiya nuqtai nazaridan ko'rib chiqish ma'nosizdir. *Og'ishgan xulq "ijtimoiylashuv moslashmaganlik yakkalanish" o'qida shaxsning ijtimoiy-psixologik maqomini aks ettiradi.*

Ma'lumki. maxsus adabiyotlarda "og'ishgan xulq" atamasi ko'pincha ***deviant axloq*** (deviatio – lotin tilida og'ishgan) sinonimi bilan almashtiriladi. Kelgusida biz o'zaro bir-birining o'rnini to'ldiruvchi sifatida har ikkala atamani qo'llaymiz - "og'ishgan". "deviant". bunda birinchi atama aniq va o'rganilgan bo'lgani sababli afzal ko'riladi.

O'rganilayotgan tushunchaning yaqqol ko'rinib turgan murakkabligiga hammadan avval uning *fanlararo xarakteri* sababdir. Hozirgi vaqtda atamadan ikki asosiy mazmunda foydalaniladi. Deviant axloq "rasman o'rnatilgan yoki haqiqatda ushbu jamiyatda yuzaga kelgan me'yorlarga mos kelmaydigan *muomala. inson harakati*" [13. 257-b.] ma'nosida psixologiya. pedagogika va psixiatriyaning predmeti sifatida yuzaga chiqadi. "Inson faoliyatining ommaviy va mustahkam shakllariga nisbatan ifodalanuvchi va rasman o'rnatilgan yoki ushbu jamiyatda haqiqatda mavjud bo'lgan me'yorlar va umidlarga mos tushuvchi *ijtimoiy ko'rinish*"

[3, 7-b.] ma'nosida u sosiologiya, huquq, ijtimoiy psixologiyaning predmeti hisoblanadi. Ushbu ishda biz og'ishgan xulqni birinchi aspektdagi afzallikda – *individual faollikning ko'rinishi* sifatida ko'rib chiqamiz.

Tushunchani ta'riflash ko'rinishning muhim belgilarini ajratishni ko'zda tutadi. Shaxsning og'ishgan xulqining shunday maxsus xususiyatlarini ajratish maqsadga muvofiqki, u bizga bu xulqni boshqa fenomenlardan farqlashda, shuningdek, aniq bir odamda uning mavjudligi hamda dinamikasini aniqlash zaruratida yordam bersin.

1. *Shaxsning og'ishgan xulqi bu umumqabul qilingan yoki rasman o'rnatilgan ijtimoy me'yorlarga mos tushmaydigan axloq.* Boshqacha aytganda, bu harakat mavjud qonunlar, qoidalar, an'analar va ijtimoiy buyruqlarga mos tushmaydi. Deviant axloqni me'yordan og'ishgan axloq sifatida aniqlaganda shuni esda tutish kerakki, ijtimoiy me'yorlar o'zgaradi. Bu, o'z navbatida, og'ishgan xulqqa tarixan o'tkinchi xarakterni beradi. Misol sifatida davr va davlat, chekishga munosabatdan qat'i nazar turli narsani keltirish mumkin. Shubhasiz, deviant axloq - *bu har qanday me'yor emas, balki ushbu jamiyat uchun shu vaqtda birmuncha muhim bo'lgan ijtimoiy me'yorlarninggina buzilishidir.*

2. *Shaxs va deviant axloq, uning namoyon bo'lishi boshqa odamlar tomonidan salbiy baholanadi.* Salbiy baho jamoatchilik muhokamasi yoki ijtimoiy sanksiya , shu jumladan, jinoiy jazo shakliga ega bo'lishi mumkin. Dastavval, sanksiyalar istalmagan axloqning oldini olish vazifasini bajaradi. Biroq boshqa tomondan ular shaxs stigmatizasiyasi - unga tamg'a osish kabi salbiy ko'rinishga olib keladi. Masalan, jazo muddatini o'tab, "me'yoriy" hayotga qaytgan odamning moslashuvdagi qiyinchiliklari yaxshi ma'lum.

Insonning yangi hayot boshlashga intilishi ko'pincha atrofdagi odamlarning ishonmasligi va ularni rad etishi natijasida barbod bo'ladi. Deviant (giyohvand, jinoyatchi, o'z-o'zini o'ldiruvchi va h.k.) tamg'asi sekin-asta deviant barobarlikni (o'z-o'zini his qilish) shakllantiradi. Shunday qilib, axmoqona shuhrat xavfli yakkalanishni kuchaytiradi, ijobiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiladi va deviant axloqning takrorlanishini chaqiradi.

3. *Og'ishgan xulqning xususiyatlari shaxsning o'zi yoki atrofdagilarga ahamiyatli tarzda* hayot sifatini pasaytirgan holda *real zarar keltirishi hisoblanadi.* Bu mavjud tartibning noturg'unligi, ma'naviy

va moddiy zarar keltirish, jismoniy zo'rlik va dard-alam yetkazish, sog'ligining yomonlashishi bo'lishi mumkin. Deviant axloq o'zining eng keyingi ko'rinishlarida *hayot uchun* bevosita *xavf* tug'diradi, masalan, suisidal axloq, zo'ravonlik jinoyatlari, "og'ir" giyohvand moddalar iste'mol qilish. Zararning psixologik markeri o'sha odamning o'zi yoki uning atrofidagilarning *aziyat chekishidir.*

Ushbu belgi shaklidan – *destruktiv* yoki *autodestruktiv* bo'lishidan qat'i nazar og'ishgan xulqning parchalovchi ekanini bildiradi. Bizning nazarimizda radikallik, *kreativlik* va *marginallik* kabi yaqin ijtimoiy ko'rinishlar *og'ishgan xulq bo'la olmaydi* va ushbu belgini qoniqtirmaydi. Garchi ular ham umumqabul qilingan me'yorlardan cheklanib, aholining konservativ holatga mayli bo'lgan qismida g'ashlik uyg'otsa-da, bu fenomenlar jamiyat uchun xatardan ko'ra foydaliroqdir. Xullas, radikal moyil bo'lgan shaxslar jamiyatni tubdan yangilashni maqsad qiladilar, bu esa ularda istiqbolli o'zgarishlarga sabab bo'ladi. Kreatorlar nostandartligi bilan farqlanib, tadqiqotchilar va ilk ochuvchilar sifatida chiqadilar. Marginallar ijtimoiy me'yorlarning chegaralarini kengaytirgan holda o'zlarini ko'pchilikka qarshi qo'yadilar. Sanab o'tilgan fenomenlar uyg'unlashishi mumkin. Masalan, ko'pincha o'smirlar axloqi barcha uchta tendensiyani o'zida aks ettiradi Pirsing, tatuirovka yoki hatto chandiq bilan eksperiment o'tkazgan o'smirni, albatta, deviantlar guruhiga kiritish mumkin emas. Biroq geroin iste'mol qiluvchi o'smir hayot uchun yuqori xatarli og'ishgan xulqni yaqqol namoyish qiladi. Shunday qilib, og'ishgan xulq o'z mohiyati bo'yicha destruktivdir.

4. *Ko'rib chiqilayotgan axloqni muqim takrorlanuvchi (ko'p marotaba yoki uzoq muddatli) deb xarakterlash mumkin.* Agar yetti yoshli bola ota-onasidan so'ramay shirinliklar uchun uncha katta bo'lmagan mablag'ni olgan bo'lsa, kelgusida ijtimoiy tartibni buzmasa, ushbu axloqni og'ishgan sifatida ta'riflash odobdan bo'lmaydi.

Aksincha, o'smir tomonidan sistematik tarzda anglangan holda pul o'g'irligi sodir etilsa – bu og'ishgan xulq shakllaridan biri hisoblanadi. Boshqa tarqalgan misol: hodisalar qatorida spirtli ichimlik iste'mol qilish to'liq yo'l qo'yilgan yoki hatto foydali deb tan olinadi.

Ushbu qoida istisno ega. Masalan, hatto bir martalik suisidal urinish jiddiy xavf tug'diradi va shaxsning og'ishgan xulqi sifatida baholanishi mumkin.

5. *Axloqni og'ishgan deb kvalifikasiya qilish uchun u shaxsning umumiy yo'nalganligi bilan muvofiqlashishi zarur.* Bunda axloq nostandart vaziyatlar oqibati (masalan, jarohatdan keyingi sindrom doirasidar axloq), krizisli vaziyat oqibati (masalan, yaqin odamining o'limi tufayli birinchi oy davomidagi qayg'u reaksiyasi) yoki o'z-o'zini muhofazalash oqibati (masalan, hayot uchun real xavfning mavjudligida) bo'lmasligi lozim.

6. *Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri u tibbiy me'yorlar chegarasida ko'rib chiqiladi.* U garchi patologik holat bilan uyg'unlashsa-da, psixik kasalliklar yoki patologik holat bilan tenglashtirilmasligi darkor. Psixik parokandalik holida psixik kasal odamning patologik axloqiga o'rin bor. Patologik axloq tibbiy me'yorlardan og'ishadi, birinchi darajasi tibbiy aralashuvni talab qiladi va psixiatriyada, masalan, psixik kasallarning deviant axloqi sifatida o'rganiladi.

Patologik axloq kasallik holati ta'siri ostida shaxsning o'z harakatlarini anglash va nazorat qilish qobiliyati ahamiyatli tarzda pasayishini nazarda tutadi.

Ayni damda muayyan sharoitlarda og'ishgan xulq patologikka o'tishi mumkin. Masalan. muhtoj bo'lib qolgan axloq tizimli kasallikka o'sib o'tishi mumkin - piyonistalik. giyohvandlik. Shunday qilib. og'ishgan xulqli shaxs "sog'liq – kasallik oldi – kasallik" psixopatologik o'qida istalgan joyni egallashi mumkin.

7. Og'ishgan xulqning xususiyatlaridan biri – u ijtimoiy moslashmaganlikning turlicha ko'rinishlari bilan birga boradi. Ushbu axloq kasallik yoki o'limga olib kelishi shart emas. biroq u tabiiy suratda ijtimoiy moslashmaganlik holatini uyg'otadi yoki kuchaytiradi. Moslashmaganlik holati, o'z navbatida. shaxsdagi og'ishgan xulqning mustaqil sababi tufayli bo'lishi mumkin.

8. Og'ishgan xulqning oxirgi belgisi sifatida uning ifodalangan individual va yosh-jinsiy o'ziga xosligini ta'kidlash mumkin. Og'ishgan xulq dastavval, shaxsning jamiyatda tashqi mavjudligini aks ettiradi. U "ichki" jihatdan o'ta turli-tuman bo'lishi mumkin. Deviant axloqning bir xil turlari har xil odamlarda turli yoshda turlicha ko'zga tashlanadi.

Odamlarning individual farqlanishi axloq sabablari. ko'rinish. dinamika shakllari. ifodalanganlik chastotasi va darajasiga daxl qiladi. Masalan, deviasiya shakli va uning ifodalanganlik darajasi shaxsning og'ishgan xulqini birmuncha yaqqol tavsiflash hisoblanadi. Ular to'la

beozor ko'rinishdan shaxsning hayotiy faoliyatini total buzilishigacha o'zgartirishi mumkin.

Boshqa muhim individual xususiyat odamning og'ishgan xulqni qanday- o'zi uchun begona, istalmagan xulq sifatidami, vaqtinchalik qoniqtiruvchi yoki oddiy va maftunkor xulq sifatida qarashiga taalluqli.

Shaxsning og'ishgan xulqqa munosabati (shaxsiy nuqtai nazari) ko'p holda uning taqdirini belgilaydi.

Deviant axloqning *yosh* va *jinsiy* farqlanishi garchi asosiy mavzularni ko'rib chiqishda inobatga olinsa-da, bizning ta'limotimiz predmeti hisoblanadi. Shuni ta'kidlash zarurki, "og'ishgan xulq" atamasini 5 yoshdan kichik bo'lmagan bolalarga nisbatan qo'llash mumkin, qat'iy ma'noda esa - 9 yoshdan keyin. 5 yoshdan oldin bolaning ongida ijtimoiy me'yorlar haqidagi zaruriy tasavvurlar bo'lmaydi, o'z-o'zini nazorat qilish esa kattalar yordamida amalga oshiriladi. Faqat 9-10 yoshidagina bolada ijtimoiy me'yorlarga mustaqil rioya qilish qobiliyatining mavjudligi haqida gapirish mumkin. Agar 5 yoshdan kichik bo'lgan bolalarda axloqi yosh me'yoridan ahamiyatli tarzda og'sa, bunda uni etilmaganlikning, asabiy reaksiya yoki psixik rivojlanish buzilishining bir ko'rinishi sifatida ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Barcha yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, *og'ishgan (deviant) xulqqa* quyidagicha ta'rif berish mumkin – bu *shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'uvchi, jamiyat yoki uning o'ziga real zarar yetkazuvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi turg'un axloqi.*

Ushbu ta'rif deskriptiv (tasviriy) xarakterga ega va dastavval og'ishgan xulqi mavjud bo'lgan odamlar bilan amaliy ishlashga mo'ljallangan. (Ushbu ko'rinishning konseptual-tushuntirish modeli qo'llanmaning keyingi bo'limlarida ko'rib chiqiladi.) Bu ta'rif aniq hollarda og'ishgan xulqni tashhis qilish, professional ta'sirni loyihalash, shaxs axloqining dinamikasini va u bilan ishlash samaradorligini baholash kabi professional maqsadlarni amalga oshirishda yordam berishi mumkin.

Bundan tashqari, u boshqa axloqiy fenomenlarda deviant axloqni differensiyalash imkonini beradi.

Deviant axloqni ko'rib chiqayotib, biz yaqqol salbiy assosiasiyani uyg'otuvchi so'zni qo'llashga majburmiz: deviant, addikt, noijtimoiy va

ijtimoiy xulqqa qarshi va h.k. Shu bilan birgalikda, aniq shaxs bilan ishlashda biz ongli ravishda kamsituvchi ohangli atamalardan foydalanishdan, shuningdek, tamg'a osishdan tiyilmog'imiz kerak. Shuni esda tutish lozimki, birinchidan, axloqiy muammolar o'ta keng tarqalgan. Ikkinchidan, og'ishgan xulq chegaralarini aniqlash ko'pincha murakkab. Jamiyatdagi o'zgarishlar me'yorlarning, albatta, axloqiy deviasiya turlarining o'zgarishiga olib keladi. Biroq me'yorlarning o'zi va ulardan og'ishish har qanday ijtimoiy tizimning ajralmas qismidir. Binobarin, *ijtimoiy darajada og'ishgan xulq – bu faqat jamiyat va shaxs orasidagi o'zaro munosabatning mumkin bo'lgan shakllaridan biri.* Og'ishgan xulqni ijtimoiy ko'rinish sifatida "tugatish" ehtimoli dargumon. Bundan tashqari, maxsus ko'rib chiqishda deviasiyalar jamiyat uchun me'yoriy va foydali ekanini isbotlash mumkin, chunki unda istiqbolli o'zgarishlarni rag'batlantiradi.

Individual darajada deviant axloq anchagina muammoli ko'rinadi, chunki shaxsning o'zi va atrofdagi odamlar hayoti uchun real zarar, deviant shaxsning ijtimoiy muhit bilan janjali, uning ijtimoiy moslashmaganligi kabi salbiy fenomenlar bilan bog'liqdir.

Xususan, *og'ishgan xulq* shaxsiy darajada – bu *shaxsning deviant usul va hayot tarzi shaklida yuzaga chiquvchi ijtimoiy nuqtai nazari.* Ma'lumki, ko'pchilik odamlar istasalar jamiyatga nisbatan o'z nuqtai nazarlarini o'zgartirishlari mumkin.

## Nazorat savollari va topshiriqlar

1. "Axloq" atamasining mazmunini ochib bering va inson axloqining asosiy tavsiyanomasini sanab o'ting.

2. "Og'ishgan xulq" tushunchasini ta'riflashning mezonlari qanday?

3. "Shaxsning moslashmaganligi" tushunchasining ahamiyatini ochib bering.

4. "Og'ishgan xulq" va "patologik axloq" tushunchalarining o'xshash va farqli tomonlari nimada?

5. Og'ishgan xulq nima? Uning belgilari qanday?

6. Sizning nazaringizda quyida sanab o'tilganlardan qaysilari og'ishgan xulq hisoblanadi: tabak chekish, odam o'ldirish, nikohdagi xiyonat, geroin iste'mol qilish, suisidal harakat, yolg'on, bolani jismonan

jazolash, gomoseksual munosabat, meksika seriallariga o'ta qiziqish, kartani pulga o'ynash, sababsiz maktab darslarini qoldirish, qurolli o'g'rilik, xakerlik, sektaga kirish, qomatni korreksiyalash maqsadida kuchdan ketkizuvchi ochlik, qo'pollik.

7. Bir-biriga yaqin tushunchalar mazmunini ochib bering: "deviasiya", "og'ishgan xulq", "ijtimoiy og'ish", "noijtimoiy axloq", "antiijtimoiy axloq", "autodestruktiv axloq", "moslashmaganlik", "desosializasiya".

## OG'ISHGAN XULQ DETERMINASIYASI

## SHAXS OG'ISHGAN XULQINING DETERMINASIYASIDA IJTIMOIY VA TABIIY BIRLIK

**Reja**

- Muammoga kirish
- Og'ishgan xulqning ijtimoiy omillari
- Axloqiy deviasiyalarning biologik zamini.

### *Muammoga kirish*

Og'ishgan xulq muammosi ilmiy bilimning turli sohalarida tadqiqotchilarning o'ta qiziqishini uyg'otadi. Ya.I.Gilinskiy ta'kidlaganidek: "Deviant axloqqa bag'ishlangan minglab tomlar yozib bo'lindi, biroq hanuzgacha uning nimaligi butkul aniq emas" [3, 6-b.].

Shaxsning deviant axloqi haqidagi zamonaviy bilimlar biz o'zaro bog'liq omillar tizimida determinasiyalangan shaxs ijtimoiy axloqining o'ta murakkab shakli bilan ish olib borayotganimizni tasdiqlashga imkon beradi. Afsuski, shaxs ohishgan xulqining yagona nazariyasi hali yaratilganicha yo'q.

Ayni damda ushbu masala bo'yicha kenggina ma'lumot turli ilmiy fanlarda jamlangan: tibbiyot, biologiya, psixologiya, sosiologiya, huquq. Bundan tashqari, bilimning ba'zi sohalarida deviasiyani o'rganuvchi maxsus bo'limlar ajratiladi. Sosiologiyada, masalan, bu tadqiqot predmeti ijtimoiy og'ishganlik hisoblanuvchi *deviantologiya.*

Muammoning qandaydir bitta aspektiga, ayniqsa, e'tiborni qaratgan



Nizomiy nomli
T D P U
kutubxonasi
Ч-76931/1

alohida yondoshuvlar qonunan bir birini to'ldiradi. Masalan, klinik yondoshuv deviantlikning psixopatologik tabiatini o'rganadi, sosiologik nazariyala uning ijtimoiy determinantlarini ko'rib chiqadi, psixologik konsepsiyalar ushbu ko'rinishning ichki shaxsiy mexanizmlariga asosiy urg'u beradilar.

Turli nazariyalar sharhi, bizning nazarimizda, u haqidagi zamonaviy bilimlar olamida o'rganilayotgan ko'rinishning nisbatan yaxlit tasvirini olish imkonini beradi. Shunday qilib, ushbu bo'limda og'ishgan xulq tabiatiga tarixiy va zamonaviy ilmiy nazarlar ko'rib chiqiladi: uning determinasiyasi, shakllanish qonunchilik, ishlash mexanizmlari.

Og'ishgan xulq determinasiyasi haqidagi masala alohida diqqatga sazovor. ***Determinasiya*** tushunchasi ostida *og'ishgan xulqni chaqiruvchi, qo'zg'atuvchi yoki qo'llovchi omillar yig'indisi* tushuniladi. Determinasiyalovchi omillar shaxs shu tizimostining biri hisoblanadigan ijtimoiy tashkilotlarning turlicha darajalarida amal qiladi. "Jamiyat-shaxs" tizimi bir vaqtning o'zida bir necha darajada ishlaydi: geofizik, makrojamoatchilik, ijtimoiy-guruhli, mikroijtimoiy, individual-shaxsiy, psixofiziologik.

Ajratilgan darajalarga muvofiq shaxs og'ishgan xulqini determinasiyalovchi quyidagi omillar guruhini aniqlash mumkin:

- jismoniy muhitning tashqi sharoitlari;
- tashqi ijtimoiy sharoitlar;
- ichki nasliy-biologik va konstitusional zamini;
- og'ishgan xulqning ichki shaxsiy sabablari va mexanizmlari.

Ushbu bo'lim materiali- deviantlikning tashqi ijtimoiy omillariga diqqatni uning ichki, konstitusional-biologik sharoitlari haqidagi ilmiy tasavvur orqali jamlovchi sosiologik nazariyalardan tortib, og'ishgan xulqning individual-shaxsiy mexanizmlarini ochib beruvchi psixologik konsepsiyalargacha tashqi sharoitdan ko'rinishning ichki sabablariga o'tish tamoyillari bilan tuzilgan.

Qabul qilingan tasnifga muvofiq og'ishgan xulq omillarining tahlilini o'tkazamiz.

***Deviant axloqning tashqi jismoniy shartlari***ga iqlimiy geofizik, ekologik va boshqa omillarni kiritish mumkin. Masalan, shovqin, torlik,

stresni potensiyalovchi geomagnit ikkilanish kabi ko'rinishlar tajovuzkor va istalmagan axloqning nomaxsus sabablari bo'lishi mumkin [2, 157-173-b.].

Avstriyalik rejissyor Ulrix Zaydlning "Jazirama issiq" hujjatli filmida havoning yuqori harorati inson psixik holatiga ta'siri g'ayritabiiy tarzda aniq tasvirlab berilgan. (Film 2002 yildagi Venesiya festivalida "Oltin novda" mukofoti bilan taqdirlangan.)

Aksincha, *tashqi muhitning xotirjam sharoiti deviasiya ehtimolini pasaytiradi.* Inson axloqi va jismoniy sharoitlar orasidagi bog'liqlikka qaramay, ushbu omil bizning ta'limot doirasidan chiqadi. Bundan tashqari, u yetarlicha ahamiyatli deb tan olinmaydi, chunki juda bilvosita harakatlanadi va odamlar o'sha birgina (odatiy) jismoniy sharoitlarda o'zlarini turlicha tutadilar.

Inson shaxsiga ta'sir etuvchi ancha muhim omil deb ***tashqi ijtimoiy sharoit***ni tan olish lozim. Ularga quyidagilar taalluqlidir:

– jamoatchilik jarayonlari (ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, davlat siyosati, an'analar, moda, ommaviy axborot vositalari va boshqalar);

– shaxs mansub bo'lgan ijtimoiy guruh tavsifnomasi (irqiy va sinfiy mansublik, etnik ko'rsatmalar, submadaniyat, ijtimoiy maqom, o'quv-professional guruhga mansublik, referent guruh);

– mikroijtimoiy muhit (oila hayotining darajasi va uslubi, oiladagi psixologik iqlim, ota-onalar shaxsi, oilada o'zaro munosablatlar xarakteri, oilaviy tarbiya uslubi, do'stlar, boshqa ahamiyatli odamlar). lyudi).

### *Og'ishgan xulqning ijtimoiy omillari*

Odam axloqiga jamiyat jarayonlari va ijtimoiy guruhlarning ta'siri dastavval ijtimoiy yondoshuv doirasida ko'rib chiqiladi. (Mikroijtiomiy sharoitlar ko'pincha psixologik-pedagogik tadqiqotning predmeti sifatida chiqadi va keyingi bo'limlarda ko'rib chiqiladi.)

Sosiologik nazariyalar deviant axloqni ushbu jamiyat ichida tasdiqlangan jamoatchilik jarayonlari va me'yorlari kontekstida ko'rib chiqadi. Ijtimoiy deviasiya ijtimoiy qonunchilikka bo'ysunadi, ular vaqt va jamiyatga bog'liq, ularni prognoz qilish, qator hollarda esa ularni boshqarish mumkin.

Ushbu yo'nalishning birmuncha mashhur vakillari quyidagilar hisoblanadi: O. Kont, G. deTard, A. Ketle, E.Dyurkgeym, M. Veber, T. Parsons, R. Merton. Huquq bo'yicha deviant axloq sosiologiyasiga asos solgan fransuz sosiologi *Emil Dyurk-geym* (1858-1917) hisoblanadi. Jinoyatchilik muammosining tadqiqoti E.Dyurkgeym ishlarida ahamiyatli o'rin egallaydi, o'z-o'zini o'ldirishni tahlil qilishi esa klassik sosiologik tadqiqot hisoblanadi [7, 8].

Ijtimoiy deviasiyani tushuntirish uchun E.Dyurkgeym anomiya konsepsiyasini taklif qildi. "Anomiya" atamasi fransuz tilidan tarjima qilganda "qonunning, uyushganlikning yo'qligi" deganidir. Bu ijtimoiy uyushmaganlik – ijtimoiy vakuumning shunday holatiki, eskirgan me'yorlar va qadriyatlar real munosabatlarga mos tushmaydi, yangilari bo'lsa hali mustahkamlanmagan. E.Dyurkgeym ijtimoiy patologiyaning turli shakllarini aynan jamoatchilik ko'rinishi sifatida tushuntirish zaruriyatini ta'kidlaydi. Masalan, o'z-o'zini o'ldirish miqdori individning ichki xususiyatlaridan ko'ra odamlarni boshqaruvchi tashqi sabablarga ko'proq bog'liqdir [7].

E.Dyurkgeym ijtimoiy og'ishlarning ob'ektiv tabiatidan shunchalik shubhalanmasdiki, hatto jinoyatchilikning "me'yoriyligi"ni tasdiqlardi. Uning fikricha, me'yoriy ko'rinishning bahssiz belgilariga egalik qilgan boshqa hech qanday fenomen yo'q, axir "jinoyatchilik turli tipdagi barcha jamiyatda kuzatiladi... jinoyatchilik insoniyat rivojlanishining darajasi bo'yicha pasaymaydi" [8, 86-b.].

Bundan tashqari, "deviasiya har qanday sog'lom jamiyatning tarkibiy qismi" [8, 86-b.]. "Sosiologiya--"da E.Dyurkgeym shunday yozadi: "Jinoyat zarur... axloq va huquqning me'yordagi evolyusiyasi uchun foydali ... shunday bo'ladiki, u o'zgarishga tayyorlaydi" [8, 90-b.]. Masalan, afinaliklar huquqiga muvofiq Suqrot (470-399 yy. R. X.gacha) jinoyatchi – yoshlar aqlini ma'naviy jihatdan buzuvchi odam bo'lgan. Shunga qaramay, uning jinoyati – fikrning mustaqilligi – insoniyat uchun ham, uning vatani uchun ham foydali bo'lgan. U Afina muxtoj bo'lgan yangi ma'naviyatga tayyorgarlik bo'lib xizmat qildi, chunki an'analar hayot sharotlariga javob bermay qo'ygandi.

Shunday qilib, E.Dyurkgeym *ijtimoiy og'ishlarni, ayniqsa, jamiyatning me'yoriy-qadriyatli dezintegrasiyasi* sifatida ko'rib chiqadi. Uning g'oyalari deviant axloqning yetakchi sabablari sifatida sinflar va

turli ijtimoy kuchlar, masalan, novatorlar va konservatorlar o'rtasidagi qarama-qarshilik sifatida tan oluvchi tadqiqotchilar (shu jumladan, V.Pareto, L. Kozera) ning ishlarida kelgusida rivojlanishni oldi [3, 6-b.].

E.Dyurkgeymning birmuncha yorqin davomchilaridan biri bo'lmish R.Merton deviant axloqni *madaniyat tomonidan belgilangan intilishlar va ularni qoniqtirishga mablag' beruvchi ijtimoiy tuzilmalar o'rtasidagi kelishmovchilikning oqibati* sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, zamonaviy amerika madaniyatida [illegible] martabada yuqori individual muvaffaqiyat [illegible] usulli [illegible] Ijtimoiy [illegible] orqali madaniyat nafaqat maqsadlarni. balki ularga erishishning legiim usullarini aniqlaydi. Xullas, agar odam astoydil mehnat qilsa, uning "amerikacha orzulari" va nihoyat reallikka aylanadi.

Hamma odam (sinf) lar ham omadga erishish uchun bir xil sharoitga ega emas, biroq ular yuzaga kelgan qarama-qarshilikka bir necha yo'llar bilan moslashishlari mumkin. Moslashuvning shunday yo'llari sifatida R. Merton quyidagilarni ajratdi:

- *konformizm* (ijtimoiy ma'qullangan maqsadlar va vositalarni to'liq qabul qilish, ularni amalga oshirish);
- *innovasiya* (maqsadlarni qabul qilish, ularga erishishning legitim usullarini inkor qilish);
- *ritualizm* (topshirilgan yoki odatiy vositalardan noepchil nusxa ko'chirish);
- *retrizm* (ijtimoiy me'yorlarni bajarishdan passiv ketish, masalan, giyohvandlik shaklida);
- *isyon* (faol isyon – ijtimoiy me'yorlarni rad etish) [9, 11-b.]."

Ularga erishish maqsadi va vositalari o'rtasida nizo anemik zo'riqish, frustrasiya va moslashuvning noqonuniy usullarini izlashga olib kelishi mumkin. Ushbu holat past ijtimoiy qatlam orasida jinoyatchilik nisbatan yuqori darajadaligini qisman tushuntiradi.

Ijtimoiy deviasiyaning boshqa ob'ektiv omillari deb quyidagilar tan olinadi: ijtimoiy o'zaro ta'sir ishtirokchilari va umidlarning amalga oshmasligi o'rtasidagi farq (T.Parsons); odamlarning shaxsiy sifatlari va yaxshilikni taqsimlashdagi nomuvofiqlik (P.Sorokin); deviant submadaniyat va ta'limga me'yorning ta'siri (R. Klauord, L. Oulin). Xullas, erta yoshlikdan deviant submadaniyatga (jinoiy, nizoli yoki retristik) jalb

qilingan shaxs katta ehtimol bilan deviant axloqqa tegishli shakllarni namoyon etadi.

*Zamonaviy submadaniyatning* deviant axloqqa ta'siri garchi yetarlicha o'rganilmagan masala bo'lsa-da, o'ta muhim hisoblanadi. Ayni damda yaxshi ma'lumki, shaxs qaysidir bir ijtimoiy guruhga mansub. Qator hollarda guruhli ehtiyojlar ustunlik qiladi – guruhga kirgan bo'lish, uning me'yorlariga amal qilish, uning ishtirokchilariga taqlid qilish, o'zini boshqa guruhlarga qarshi qo'yish. Shu negizda eng turli-tuman submadaniyatlar o'sib chiqadi – aristokratik elita, xippi, metallistlar, rokerlar, geylar, skinxedlar va h.k. Odamlar ko'p hollarda genosid, rasizm, fashizm kabi ommaviy deviasiyalarning mavjudligini tushuntirib beruvchi guruh sardorlari va ularning ideallariga (shu jumladan, destruktiv) o'xshashga moyildirlar.

Boshqa yaqqol muammo deb "kasb - deviant axloq" aloqasining noaniqligini aytish mumkin. Professiona muhit inson shaxsiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi. Professional stress, professional "kuyib qolish" va shaxsning professional deformasiyasi kabi salbiy fenomenlar yaxsh ma'lum. Shunga qaramay, *shaxsning deviant axloqiga kasbning ta'siri* muammosiga bag'ishlangan nashrlar deyarli yo'q.

Ko'rib chiqilgan ob'ektiv ijtimoiy omillar qatorida deviant axloqning sub'ektiv sabablari deb nomlanuvchilari ham amal qiladi. Deviasiyaning *stigmatizasiya nazariyasi*ga (E.Lemert, G. Bekker) muvofiq jamiyatning o'zi (aniqrog'i, ijtimoiy guruh) shaxsga mavhum qoidalar (*dastlabki deviantlik*) bilan aniq odamning harakatiga nisbat yo'li bilan tegishli yorliqlarni yopishtiradi. Sekin-asta individni deviant rolida (*ikkilamchi deviantlik*) ushlab turishga majburlaydigan reputasiya shakllanadi [9, 13-b.].

I.Gofman stigmalarning uchta turini ajratadi: *jismoniy stigma* (tug'ma anomaliyalar va jismoniy mayiblik); *iroda nuqsonlari* (piyonistalik, giyohvandlik, qalb kasalliklari); *irqiy stigmalar* ("qoralar") [9, 14-b.].

Sazerlend 1939 yilda deviant axloq – murakkab va axloqning differensiasiyalangan shakliga muvofiq differensiasiyalangan assosiasiya nazariyasini ifodalagan. Unga interaksiya (o'zaro harakat) ni o'rgatishadi. Bu jarayon deviant motivasiyani o'zlashtirish, deviant axloqni oqlash va texnik jihatdan amalga oshirishdan iborat.

Deviant axloq "ijtimoiy rol" yoki "shaxsning ijtimoiy vazifasi" (Dj.

Mid. M. Doych, R. Kraus) tushunchalari yordamida ifodalangan bo'lishi ham mumkin. Rol - bu inson axloqiga nisbatan umidlar tizimi. insonning shaxsiy axloq modeli haqidagi tasavvuri, va nihoyat egallagan holati - maqomi bilan muvofiq axloq. Bu bilan muvofiq tarzda odamlar o'zlariga turlicha rolli, shu jumladan deviant rolini qabul qilishlari mumkin.

Nihoyat, og'ishgan xulqning sub'ektiv sababi *ijtimoiy me'yorlarga shaxs (guruh)ning o'zining munosabati* (G. Sayk, D. Matza) bo'lishi mumkin. Masalan, axloqiy talablardan ozod bo'lish va o'zini oqlash uchun odam harakatlarini quyidagi usullar bilan "neytrallashi" mumkin: oliy tushunchalarga bahona qiladi (do'stlik. guruhga sadoqat); jabrlanuvchi mavjudligini rad etish; o'z axloqini deviantlik bilan oqlash yoki u tomonidan g'alamislik qilish; o'z mas'uliyatini rad etish; o'z axloqining zararini rad etish [9. 15-b.].

Zamonaviy mahalliy tadqiqotchi Yu.A.Kleyberg o'smirlar deviantligi misolida shaxsning madaniy normalarga munosabati orqali deviant axloqni ochib beradi. Og'ishgan xulq – bu "*shaxsning unga qadrli munosabatni namoyon qilishi vositasida ijtimoiy me'yor va kutishlarni o'zgartirishning maxsus usuli*" [9. 17-b.]. Buning uchun alohida usullardan foydalaniladi: sleng, simivolika, moda, manera, harakat va h.k. O'smirlarning deviant harakatlari ahamiyatli maqsadlar. o'z-o'zini tasdiqlash va razryadka vositasi sifatida chiqadi.

Shunday qilib, *sosiologik va unga yaqin ijtimoiy-psixologik nazariyalar deviant axloqni jamiyat va aniq shaxs o'rtasidagi murakkab o'zaro munosabatlarning ijtimoiy jarayonlai sifatida ko'rib chiqadilar.* Bir tomondan biz jamiyatning o'zida og'ishgan xulq uchun jiddiy sabablar borligini ko'ramiz, masalan, ijtimoiy uyushmaganlik va ijtimoiy notenglik. Boshqa tomondan biz qonunan aniq insonning uning shaxsini ijtimoiylashuvi jarayonidagi *individuallik rolini* tushunishga kelamiz.

Sosiologik nazariyalar aynan bitta ijtimoiy sharoitlarda turli odamlar turli axloqni. masalan. kambag'al qatlamning barcha vakillari bo'lmasa-da. delinkventlikni namoyon etishlari va aksincha bo'lishini tushuntirmaydi. Tan olish lozimki. ijtimoiy sharoitlar haqiqatan ijtimoiy deviasiya xarakterini belgilaydi (jamiyat yoki ijtimoiy guruhda ushbu ko'rinishning tarqalish masshtabi). Biroq ular aniq shaxs og'ishgan xulqining sababari va mexanizmlarini tushuntirish uchun yaqqol yetarli emas.

### *Axloqiy deviasiyalarning biologik zamini*

Shaxs axloqiga ta'sir etuvchi boshqa muhim omil bo'lib, shubhasiz, ichki, biologik, sharoit – istalgan tashqi sharoit o'zaro harakatlanuvchi o'sha tabiiy tuproq chiqadi. Biologik zamin quyidagilardan iborat: nasliy-genetik xususiyatlar, individning tug'ma xislatlari (qorin ichidagi rivojlanish va tug'ilish vaqtida egallangan), imprinting (ontogenezning ilk bosqichida muhrlangan).

Biologik omil faktor individual borlikning quyidagi tavsifnomalarini boshqaradi:

– ontogenez jarayonidagi individual o'ziga xoslik (shu jumladan, yetilish/qarish jadalligi);

– gender (jinsiy) farq;

– yosh xususiyatlari;

– jismoniy konstitusiya;

– sog'liq va bardoshlilik;

– asab tizimlarining holati va tipologik xislatlari.

Biologik nuqtai nazardan og'ishgan xulqni tushuntiruvchi nazariyalar, ehtimol, dastlabkilaridan biri bo'lib paydo bo'ldi. Tadqiqotchilar dastlab preimushestvenno konstitusional xususiyatlarga e'tiborni qaratdilar. V XIX asrda italyan shifokor-psixiatri va kriminalist *Chezare Lombrozo* (1836-1909) insonning jinoiy axloqini uning anatomik qurilishi bilan bog'laydigan ***biososiologik nazariyani*** taklif qildilar. Quyidagilar diqqat bilan qaragan e'tibor ob'ekti bo'lib hisoblanadi: bosh suyagi, miya, burun, quloq, sochning rangi, tatuirovka, xusnixat, terining ta'sirchanligi, jinoyatchining psixik xususiyatlari. Antropometrik usuldan foydalanib, tadqiqotchi "tug'ma jinoiy tur"ning taxminan 37 tavsifnomasini ajratdi, ularning ichida: juda katta pastki jag', yalpaygan burun, siyrak soqol, quloqning o'sib ketgan solinchog'i [9]. Ch. Lombrozoning nazariyasi garchi tarixga ilmiy fikr bo'lib kirgan bo'lsa-da, biroq keyinroq ilmiy asossiz deb tan olindi.

Ushbu yo'nalishning boshqa yorqin vakili bo'lib temperament (va axloq) turlari, shuningdek, insonning somatik qurilishi tiplari orasidagi aloqani asoslagan amerikalik shifokor va psixolog *Uilyam Sheldon* (1898-1984) chiqdi [16, 252-261-b.]. Tana tuzilishining uchta yetakchi turi: endomorfli, mezomorfli, ektomorfli – temperamentning uchta tipi bilan korrelyasiyalanadi: visserstoniya, somatotoniya, serebrotoniya.

Ularning uyg'unlashuvini aniq psixotip beradi. Masalan, somatotoniya uchun qoniqishga ehtiyoj, energiyalilik, hukmronlik va hokimlikka intilish, xatarga, tajovuzkorlikka, ta'sirlanmaslikka moyillik kabi chiziqlar xarakterli. Aksincha, serebrotoniyada vazminlik, ta'sirchanlik, sosiofobiya, yolg'izlikka moyillik kuzatiladi.

Biologik nazariyalar orasida alohida o'rinni tabiiy tanlov va naslchilik qonunlariga asoslangan Charlz Darvin tomonidan taklif qilingan ***evolyusion yondoshuv*** egallaydi. Evolyusion yondoshuv tarafdorlari bu yondoshuv tanqidchilari hayvonlar axloqining qonunlarini inson psixologiyasiga o'tkazishni asossiz deb hisoblagan bir vaqtda insoniy axloqning turlicha aspektlarini nasliy dasturlarning turli ko'rinishlari sifatida ko'rib chiqadilar.

Darvin g'oyalarini riojlantiruvchi Konrad Lorensning (1903-1989) etologik yondoshuvi inson axloqining turli fenomenlarini, masalan, tajovuzkorlikni, avvalambor, yashash uchun kurashning tug'ma instinkti deb tushuntiradi. "Ko'rinishi ko'pincha o'lim instinkti ko'rinishlari bilan o'xshash tajovuzkorlik - bu xuddi boshqa instinktlar kabi bo'lib, bu ham ular kabi hayot va turni saqlab qolishga xizmat qiladi" [14, 6-b.]. Ushbu instinkt evolyusiya davomida biologik jihatdan maqsadga muvofiq sifatda rivojlandi. Tadqiqotchilarning fikriga ko'ra tajovuzning kuchi tajovuzkor axloqni uloqtirib yuboruvchi yig'ilib qolgan tajovuzkor energiya va kuchning maxsus rag'bati miqdoriga bog'liq. Odamlarda hayvonlardan farqli ravishda o'z shaxsiy turi vakillariga nisbatan zo'ravonlik keng tarqalgan. Tajovuzkorlik barcha oliy mavjudotlar uchun instinktiv ravishda shartlangan tuhma xususiyat hisoblanishini tasdiqlab va ko'plab ishonchli misollarda buni isbotlab K. Lorens quyidagi xulosaga keladi: "Bizda ichki tur tajovuzini insoniyatga madaniy-tarixiy va texnik rivojlanishning zamonaviy sharoitida birmuncha jiddiy xavf deb hisoblashga jiddiy asos bor" [14, 37-b.].

Inson axloqi biologik determinantining zamonaviy tadqiqotlari bir necha sohalarda: biologiya, tibbiyot, kriminologiya, fiziologiya va ayniqsa genetikada faol amalga oshirilmoqda.

Psixogenetika rivojlanishining boshlanishi XIX asrning mashhur olimlari *Frensis Galton* (1822-1911) va *Gregor Mendel* (1822-1884) nomi bilan bog'liq. 1865 yili ular psixogenetika yoki yevgenika sohasida dastlabki tadqiqotlarining natijalarini nashr qildilar. Keyingi yillarda F.

Galton egizakli va statistik usuldan ilk bor foydalangan holda individual farqlarni tizimli o'rganishni olib bordi [18]. Uning ishlari aqlning nasliy determinanti bo'yicha ko'plab tadqiqotlarni boshlab berdi.Shaxsiy tavsifnomalar va axloq hiyla kam darajada o'rganildi.

Dunyoning ko'pgina davlatlarida olib borilgan *ekstraversiya* va *neyrotizm* tadqiqotlari ko'p bo'lmagan istisnolardan biri hisoblanadi. Masalan. Amerika. Avstraliya va Yevropada (1992) shved olimi Nensi Peterson tomonidan qabul qilingan ko'ndalang kesim usulida 15 ming qarindosh juftliklarni o'rganish ikki asosiy xulosaga kelish imkonini berdi:

1) neyrotizm va ekstraversiya xususiyatlari barcha ontogenez davomida genetik shartlanganlik bilan xarakterlanad:

2) yosh kattalashish bilan nasllilik ko'rsatkichi pasayadi (ayniqsa. neyrotizm holatida) [18, 406-b.].

Modomiki. neyrotizm va ekstraversiya inson axloqining turli ko'rinishlariga ta'sir ko'rsatarkan. demak og'ishgan xulqni genetik shartlangan (garchi oposredovanno) deb hisoblash mumkin. Masalan. G.Ayzenk. maxkumlarning individual-tipologik xususiyatlari bilan aloqani o'zganib. xulosa qildiki. ekstravertlar introvertlarga qaraganda jinoyat qilishga moyildirlar. uning fikricha. biologik jihatdan determinant. Boshqa tadqiqotchilar kimyoviy bog'liqlik va yuqori ta'sirchalik va stressni boshdan kechirishga pasaygan qobiliyat kabi tavsifnomalar o'rtasidagi mustahkam aloqani ta'kidlaydilar [15].

*Biokriminologiya* doirasida deviant (jinoiy) axloq va odamning nasliy xususiyatlari o'rtasidagi aloqani o'rnatishga bo'lgan maqsadga yo'naltirilgan urinishlar qilindi. Ushbu aloqaning isbotlaridan biri XX asr 60-yillarining o'rtalarida U. Pirs olib borgan genetik tadqiqotlar natijasi hisoblanadi. Uning tadqiqotlari erkaklarda ortiqcha 7-xromosomaning mavjudligi ularning jinoiy axloqqa (maxkumlar orasida bunday anomaliya odatdagidan 15 marta ko'p namoyon bo'ladi) moyilligi borligini aniqlaydi degan xulosaga olib keldi. Bir vaqtning o'zida ushbu yondoshuv tanqidchilari ortiqcha 7-xromosoma tashuvchi deviantlik xromosomalar anomaliyasining oqibati emas. balki u bilan bog'liq bo'lgan baland bo'y. tez yetilish. past intellekt kabi individual xususiyatlar bo'lishi ham mumkin [2. s. 231].

Axloqning hali aniqlanmagan qandaydir aniq ko'rinishiga javob beruvchi genga qaramay. nasliylik va axloq o'rtasidagi korrelyasiyani

ko'pchilik mutaxassislar tan olmoqdalar. Og'ishgan xulqning boshqa biologik determinanti orasida *gormonlar ta'siri* (shu jumladan, testosteron) ni aytishadi. Dabbs va Morris (1990) 4 ming nafar urush veteranlari misolida testosteron darajasi va jamiyatga qarshi axloqqa moyillik o'rtasida aloqaning mavjudligi haqidagi xulosaga kelishdi [2. 235-b.].

Deviant axloqning boshqa biologik omillari quyidagilar bo'lishi mumkin: bosh miyaning lat yeyishi (ayniqsa, peshona qismi), miyaning organik kasalliklari, asab tizimining muayyan xususiyatlari.

Ma'lumki, asab tizimlari xususiyati inson *temperamenti* – uning psixik hayotini dinamik tashkil etuvchilarni aniqlaydi. Bolalar hayotining birinchi yilini Nyu-York longityud tadqiqoti hayotning birinchi oylarida yetakchi rolni prenatal sharoit va tug'ishning xususiyatlari kabi omillar o'ynaydi degan xulosa qilishga imkon berdi. Dinamik tavsifnomalar (ya'ni temperament) muhitida genetik berilgan individuallik taxminan 9-oydan boshlab namoyon bo'ladi. Bola axloqining dinamikasini ifodalovchi 9 ta komponent ajratildi: faollik; fiziologik reaksiyalarning ritmliligi; paydo bo'lgan rag'batlarga javob tariqasida yaqinlashish yoki uzoqlashish reaksiyasi; yangi vaziyatga moslashuv; har qanday belgining hissiy reaksiya jadalligi; reaktivlik ostonasi; ustunlik qiluvchi kayfiyat; chalg'iganlik; e'tiborni saqlashda qat'iylik va davomlilik. "Og'ir temperament sindromi" ajratildi. Uning belgilari quyidagilar hisoblanadi: past ritmlilik, salbiy kayfiyatga ega bo'lish, zaif reaksiya, yomon moslashuv va reaksiyalarning yuqori jadalligi. Bu sindrom hayotning birinchi yillarida mustahkam ekan [17. 241-b.].

A.Torgersenning egizakli tadqiqoti ma'lumotlari bo'yicha 6 yoshda og'ir temperamentning beshta komponentlarida uchtasi yuqori genetik tashkil etuvchiga ega: zaif reaksiya, reaksiyalarning yuqori jadalligi, past ritmlilik. Bir vaqtda yomon moslashuv, ayniqsa, umumoilaviy muhitda belgilanadi, salbiy kayfiyat esa – individual muhitda (garchi nasllilik ham qayd qilinsa-da) [17. 243-b.].

Umuman olganda zamonaviy bilimlarda aytilishicha, og'ishgan xulqning aniq shakli emas, deviantlikning shakllanish ehtimolini kuchaytiruvchi muayyan individual-tipologik xususiyatlar, masalan, impulsivlik yoki sardorlikka intilish nasldan naslga o'tadi.

Faqat biologik omillar nuqtai nazaridan axloqiy deviasiyani

onaning psixik kasalligi kabi mikroijtimoiy sharoitlar bilan ancha zich bog'liq ekani haqidagi xulosaga keldilar [2. 248-b.].

Qandaydir biologik shaxsiy tavsifnomalarning mavjudligi istisno emas, masalan. ko'tarinki hissiy rag'batlantirish yoki deviant axloqq moyillik va biologiya o'rtasidagi zich aloqa ko'rinishini yaratuvchi ustunlikka intilish.

Biz quyidagi xulosalarga keldik. Ichki biologik jarayonlar og'ishgan xulqning shakllanishida ma'lum bir rol o'ynaydi. Ular har qanday muhitli ta'sirda *bizning reaksiyalarimiz kuchi va xarakterini belgilaydi.*Og'ishgan xulqning biologik asosini tasdiqlovchi dalillar mavjudligiga qaramay, ular faqat muayyan ijtimoiy muhit kontekstida ta'sir qiladi. Shu bilan birga, ijtimoiy sharoitlar o'z-o'zidan organizmda. masalan, asab tizimi reaktivligi yoki gormonal fonni aniqlagancha to'liq biologik o'zgarishni uyg'otishi mumkin.

Umuman olganda shaxsning og'ishgan xulqi shaxslar munosabati tizimi orqali sinuvchi ijtimoiy va biologik omillarning murakkab o'zaro harakati natijasi hisoblanadi.

**Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. Shaxs og'ishgan xulqining determinasiyasi nima?
2. Deviant axloqning ijtimoiy determinantlarini sanab o'ting.
3. Og'ishgan xulqning biologik zaminini sanab o'ting.
4. Shaxs axloqi ijtimoiy va biologik omillarining o'zaro harakati xarakterini ochib bering.

## SHAXS OG'ISHGAN XULQINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

**Reja**

# SHAXS OG'ISHGAN XULQINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

## Reja

- Deviant axloqqa ekzistensional-gumanistik yondoshuv
- Og'ishgan xulqning psixodinamik aspektlari
- Og'ishgan xulq – o'rgatish natijasi sifatida
- Og'ishgan xulq tahlilining sxemasi.

### *Deviant axloqqa ekzistensional-gumanistik yondoshuv*

Biz axloqiy deviasiya shakllanishiga yordamlashuvchi ijtimoiy va biologik sharoitlami ko'rib chiqdik va nihoyat shaxs og'ishgan xulqining psixologik mexanizmlari haqidagi masalaga yetib keldik. Nima uchun aynan bir xil sharoitlarda odamlar, shu jumladan, genetik o'xshash bir tuxumli egizaklar ham turlicha axloqni namoyon qiladilar? Qaysi tuzilmaosti va shaxs xislati og'ishgan xulq uchun javobgardir? Qanday psixologik mexanizmlar deviantlikni chiqaradi va ko'maklaydi? Nihoyat, shaxsning qaysi xislatlari og'ishgan xulqning shakllanishiga qarshik qiladi? Ushbu bo'limda biz shaxs og'ishgan xulqining mohiyatiga nur yog'diruvchi yetakchi psixologik konsepsiyalar sharhi yordami bilan qo'yilgan savollarga javob topishga urinamiz.

Shaxs va uning axloqini ko'rib chiquvchi ekzistensional-gumanistik yondoshuv bilan sharhni insonning ahamiyatli tavsifnomasi aspektidan boshlaymiz. Bizning nazarimizda bu munosabatda avstriyalik psixiatr va psixolog *V. Frankl* (1905-1997) konsepsiyasi kattagina qiziqish uyg'otadi. Y3 uning tushunchasida maxsus insoniy tavsifnomalar – bu dastavval *e'tiqod, ozodlik va mas'uliyat* [20]. Insonning ruhiy mavjudligi o'z vijdoni va Olloh oldida mas'uliyatni his qilgan holda qadriyatlar olamida (uning hayotining ob'ektiv holatini inobatga olib) erkin o'z-o'zini aniqlash shaklida mazmunli mavjud bo'lishni ko'zda tutadi. Axloq muammolari u yoki bu darajada ko'rib chiqilgan noyobliklar, ya'ni *e'tiqodsizlik* ko'rinishlari bilan bog'liq.

V. Frankl fikricha odamlardagi fundamental motivasiyali kuchi *mazmunga intilish* hisoblanadi. Odamlar nimaga yashayotganlarini tushunishlari uchun mazmunni topishlari talab qilinadi. "Mazmunni berish

mumkin emas, uni topish kerak" [20, 37-b.], chunki u har bir inson uchun noyob va ularning o'zlari tomonidangina amalga oshirilishi mumkin. Agar inson o'zidan tashqarida mazmun ko'rmasa, ekstremal vaziyatda yashash maqsadsiz, mazmunsiz va mumkin emas. Giperrefleksiya (o'ta o'z-o'zini refleksiyalash) va giperintensiya (o'z istaklarini qoniqtirishga o'ta e'tibor qaratish) – odamlar o'z *Men*lari doirasidan chiqib ketmasliklari uchun foydalanishni lozim ko'rgan ikkita asosiy usul. O'zidan tashqarida nimadadir mazmunni uchta turlicha usul bilan topish mumkin: 1) nimadir qilish, hayot berish (*ijodkorlik qadriyatlari*)', 2) hayotdan nimanidir olish (*kechinmalar qadriyatlari*); 3) o'zgartirish imkoni bo'lmagan, masalan, tuzalmaydigan kasallikda taqdirga munosabat bo'yicha muayyan mavqeni egallash (*munosabatlar qadriyatlari*). Bundan tashqari, o'tmishda o'rni bo'lgan kechinmalar va din – bu odamlar mazmun topishi mumkin bo'lgan ikki soha.

Mazmunga intilish frustrasiyalanganda (nima bilandir o'rab qo'yilgan) *ekzistensial frustrasiya holati* tug'iladi. Apatiya va zerikish – uning asosiy tavsifnomalari. Ekzistensial frustrasiya o'z-o'zidan na patologik, na patogen hisoblanmaydi. Odamlar xavotiri, hatto ularning hayot mazmunini behuda izlash bilan shartlangan umidsizligi – bu kasallikdan ko'ra ruhiy kambag'allikdir. Hayotning bemazmunligi tuyg'usi bir vaqtning o'zida intellektual samimiy va vijdonlilik belgisi bo'lishi mumkin. Shaxsning me'yoriyligi va anomalligi V.Frankl fikricha, uning hayotga, o'limga va o'z taqdiriga munosabati bo'yicha nuqtai nazari xususiyatlari bilan belgilanadi. "Azoblanish, gunoh va o'lim – men aytib o'tgan inson mavjudligining uchta birligi – hayot mazmunini hech bir darajada kamaytirmaydi, biroq aksincha, qandaydir ijobiy narsaga transformasiyalanadi", - deb yozadi. V.Frankl [20, 23-b.]. Inson mazmunni amalga oshira turib, o'z-o'zini ham ro'yobga chiqaradi. "Iztirobdagi maxkum mazmunni amalga oshirarkan, biz insonda eng odamiylikni ro'yobga chiqaramiz" [20, 43-b.].

*Shaxsning anomal nuqtai nazari* V. Frankl tomonidan *fatalistik* kabi belgilanadi. Bu holda odam o'zini qadriyatlarda o'z-o'zini aniqlash uchun mas'ul sifatda va albatta, o'z shaxsiy hayotining faol ishtirokchisi sifatida qaramaydi. Buning oqibatida u turli-tuman – tabiiy, ijtimoiy va psixologik – determinantlarga o'z hayotiy yo'lini belgilashga imkon beradi. Bu holda odamning o'zi mazmunsizlik, bo'shliq va ma'nosizlikdan azoblanadi. Ichki bzo'liq holatini V.Frankl ekzistensial vakuum deb ataydi. Ekzistensial frustrasiya va ekzistensial vakuum – alohida "noogen nevrozlar"ning

bevosita sabablaridir. V.Frankl noogen nevrozini "ruhiy muammo, ma'naviy yoki etik nizolar orqali chaqiriluvchi" sifatida ta'riflaydi [20, 312-b.].

Ekzistensial vakuum alohida odamlarda nafaqat mazmunsizlik va nevrozni chaqiradi, balki ruhiy azoblanish holati, giyohvandlik va tajovuzkorlik kabi muallif ularga nisbatan "ommaviy nevrotik triada" atamasini ishlatuvchi jamoatchilik falokatini ham tug'diradi. Masalan, o'z-o'zini o'ldirish kabi ruhiy azoblanish holatining bunday oqibati V.Frankl fikriga ko'ra 85 foizda ekzistensial frustrasiya oqibati hisoblanadi. Giyohvandlikka kelsak, past hayotiy maqsadlarga ega bo'lgan (yoki maqsadi bo'lmagan) odamlar hayotda aniq belgilangan yuqori maqsadi bo'lgan odamlarga qaraganda yuqori darajadagi ehtimol bilan mazmunni giyohvand moddalardan topishni sinab ko'radilar. Va odamlar tajovuzkor bo'lib qoladilar, qachonki ularni bo'shliq va mazmunlik tuyg'usi qamrab olsa. V.Frankl taxmin qiladiki, ekzistensial vakuum va ekzistensial frustrasiya yildan yilga yanada kengroq tarqalmoqda. Yoshlar taqlid qilish uchun (hayotdan mazmun topgan tarbiyachilar va kumir) ijobiy namunalar yetishmasligidan yaqqol azoblanmoqdalar.

Shunday qilib, V. Frankl qarashlariga muvofiq *og'ishgan xulq* shuning uchun yuzaga keladiki, chunki odamlar o'z ruhlarini bostiradilar. mazmunni izlash mas'uliyatidan qochadilar. Og'ishgan xulqli odamga yordam ko'rsatish degani unga o'z ruhiy menini anglash va kelgusida uning o'z mavjudligi mazmunini ochish bilan o'z taqdiri uchun mas'uliyatni qabul qilishda yordamlashish demakdir.

Ekzistensial psixologiyaga insonparvar nazariyalar, masalan. ***K. Rodjersning*** (1902-1987) ***mijozga markazlashgan psixologiya (psixoterapiya)***si yaqindan yondosh holda turadi. Ushbu tizimda tayanch o'rinni o'zligi va o'z-o'zini dolzarblashtirish tushunchalari egallaydi. O'zlik yoki Men-konsepsiyasi – bu insonning o'zi haqidagi tajriba natijasi hisoblanuvchi va hayoti davomida uzluksiz o'zgarib boruvchi tasavvurlari yig'indisi. *O'z-o'zini dolzarblashtirish* – shaxsning o'ziga boshidan joylangan potensial imkoniyatlariga muvofiq o'sish va rivojlanishga bo'lgan intilishi. O'z-o'zini dolzarblashtirish tendensiyasi odamda yaqqol ko'zga tashlanadi va shaxsiy farovonlik belgisi hisoblanadi. *O'z-o'zini dolzarblashtiruvchi* shaxs qator maxsus tavsifnomalarga ega: yangi tajribaga ochiqlik. o'z organizmiga ishonish. nazoratning ichki lokusi (qaram emaslik. mustaqillik. mas'uliyatlilik). jarayonda mavjud bo'lishga

intilish (o'sish va rivojlanish). Me'yordagi (sog'lom) shaxs nisbatan o'z-o'zini dolzarblashtiruvchi shaxs idealiga yaqin [16].

*Anomal shaxsda* o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayoni o'rab blokirovka qilingan va faqat imkoniyatda mavjud. K.Rodjersning fikricha, asosiy to'siq *shartli qadriyatlar* deb nomlanuvchi tizimda ildiz otgan. Shartli qadriyatlar shunga olib keladiki, odam o'ziga va boshqa odamlarga faqat ular qaysidir shartli ideallarga mos tushgan hollardagina ijobiy munosabatda bo'ladi. *Shubhasiz ijobiy munosabatda* odam oliy qadriyat sifatida ko'rib chiqiladi va uning qandaydir shartsiz ideal-talablarga muvofiq qabul qilinishga sazovor bo'ladi.

Shartli qadriyatlar bolalikda oilada shakllanadi, masalan, ona bolaning muhabba va hurmatga ehtiyojidan foydalanib, o'zining aniq talablarini bajarmaganligi uchun salbiy munosabat bildiradi. Keyin bolaning o'z-o'zga hurmati onasi zo'rlab tiqishtirgan qadriyatlar va ularga munosiblik layoqatiga bog'liq bo'lib qoladi. Qat'iy zo'rlab tiqishtirgan shartli qadriyatlar ostida shaxs mohiyati bo'yicha maskulichinaga aylanadi.

Shunday qilib, me'yoriy rivojlanish uchun odam o'z-o'zini ifodalash tajribasiga ega bo'lishi lozim.

Aksincha. o'zi to'g'risidagi noreal. noto'g'ri tasavvur. qarama-qarshi tajriba. o'z-o'zini ro'yobga chiqarishga bo'lgan ehtiyoj va tashqi bahoga bog'liqlik o'rtasidagi ichki nijo - bularning barchasi shaksiz muammoli axloqni uyg'otadi. Albatta. shaxsiy va axloqiy muammolarni bartaraf etish uchun maxsus sharoitlar yaratgan holda dolzarblashtirish jarayonini rag'batlantirish zarur. Masalan. mijozga markazlashgan terapiya davomida bu - shaxsga samimiy qiziqish. insonni shartsiz ijobiy qabul qilish. unga nisbatan bahosiz munosabat.

Shaxsning o'z-o'zini dolzarblashtirish tushunchasi ***A.Maslou*** (1908-1970) uchun ham tayanch hisoblanadi. Uning qarashlariga asosan inson yaxlit tizim sifatida ijtimoiy sharoitlar ta'siri ostida amalga oshuvchi tug'ma ehtiyojlarga muvofiq harakat qiladi. Ehtiyojlar ierarxiyani yaratadi – quyidan yuqoriga:

- fiziologik ehtiyojlar:
- xavfsizlikka ehtiyoj:
- muhabbat va mehribonlikka bo'lgan ehtiyoj:
- tan olinish va bahoga ehtiyoj:

- o'z-o'zini dolzarblashtirishga ehtiyoj – inson imkoniyatlari, iqtidori va qobiliyatini amalga oshirish.

Oliy ehtiyojlar faqat qachonki quyilari qondirilgach faollashadi. o'z-o'zini dolzarblashtirish qobiliyat sifatida ko'pchilik odamlarda mavjud, biroq faqatgina kamchilikda u qaysidir darajada sodir bo'lgan hisoblanadi. Bunday odamlar – o'z-o'zini dolzarblashtiruvchi shaxslar – me'yoriy rivojlanish namunasi bo'lib chiqadilar, chunki eng yuqori darajada inson mohiyatini to'la mujassamlashtiradi [19, 197-b.].

O'z-o'zini dolzarblashtirish konsepsiyasidan quyidagi xulosalar oqib chiqadi. Og'ishgan xulq sabablaridan biri o'z-o'zini dolzarblashtirish jarayonini blokirovkalash jarayoni bo'lishi mumkin.

Bu shuni anglatishi mumkin: bazali ehtiyojlarni frustrasiyalash (ularni qondirish yo'lidagi to'siqlar); quyi darajadagi ehtiyojlarni individual fiksasiyalash; oliy ehtiyojlar yoki nofarovon ijtimoiy sharoitlarning rivojlanmaganligi. Agar turli sabablar kuchida *muhabbat, ijodkorlik* va ruhiyat orqali o'z-o'zini dolzarblashtirish mumkin bo'lmasa, u deviant axloq orqali o'z-o'zini ifodalash bilan almashtirilishi mumkin.

***E.Fromm*** (1900-1980) ijodi ko'rib chiqilayotgan g'oya bilan ohangdosh (uning "neofreydizm" deb nomlanuvchi rasmiy mansubligiga qaramay). E.Frommnin fikriga ko'ra, o'zi va tabiat bilan uyg'unlashuvga intilib, odam *ekzistensial qarama-qarshilikni* yengishga majbur. Bu - hayot va o'lim dixotomiyasi; barcha imkoniyatlarni amalga oshirishga intilish va buning uchun hayotning davomiyligi etarli emasligi o'rtasidagi nizolar: yolg'izlik tuyg'usi va boshqa odamlar bilan bog'liqlik o'rtasidagi qarama-qarshilik.

Odam bu ob'ektiv qarama-qarshiliklarni bartaraf eta olmaydi. biroq ularga turlicha reaksiya qilishi mumkin. Inson o'zining dunyoga qarshi turishi, yolg'izlik va kusizlikni turlicha mexanizmlar yordami bilan yenga oladi. Bu mexanizmlar "ozodlikdan qochish"ga olib keladi. Ular "ijobiy ozodlik"ka – *muhabbat va mehnat orqali dunyo bilan asl aloqaga* qarshi turadi [24. 25. 26].

E.Fromm avtoritar xarakterning birinchi mexanizmini belgiladi. Avtoritarli shaxs o'z shaxsiy Menidan. ozodlik va avtonomlikdan voz kechadi. Uning oxirgi ko'rinishi sadomazoxistlik kompleksi hisoblanadi. Qochishning bu turi birmuncha to'liq qismi sardorlar bilan simbiotik tarzda qo'shilib ketuvchi totalitar davlatlarda ko'zga tashlanadi.

Qochishning ikkinchi mexanizmi – inson individuallikni yo'qotib ijtimoiy shablonni taqdim etuvchi shaxs turini to'liq o'zlashtiruvchi *avtomatlashtirilgan konformizm*dir. Uchinchi yo'l – *destruktivlik* – uni parchalash orqali olamdan begonalashish bilan bog'liq. Sadistlikdan farqli ravishda destruktivlik hukmronlikka intilmaydi, biroq u barcha tiriklikni o'likka aylantiradi.

Xullas, ekzistensial-gumanistik psixologiya inson shaxsining *ruhiy mavjudligi* va *o'z-o'zini dolzarblashtirishi* kabi oliy ko'rinishlariga urg'u beradi. Ruhiy mavjudlik o'z shaxsidan chegaralaridan chiqishni ko'zda tutadi. U insoniy qadriyatlarda o'z-o'zini aniqlash, o'z individualligi va o'z-o'zini ro'yobga chiqarishning muhimligini tan olish bilan bog'liq. U erkinlik va mas'uliyat, burch, xayrixohlik, hurmat, qiziqish, muhabbat, umid, ijod quvonchi kabi oliy tuyg'ularda aks etadi. Deviantlik holatida biz butunlay boshqa kartinani kuzatamiz. Shuning uchun og'ishgan axloqni, shubhasiz, shaxsning ekzistensial muammolari va uning ruhiy rivojlanishining buzilishi sifatida ko'rib chiqish mumkin.

### *Og'ishgan xulqning psixodinamik aspektlari*

***3.Freydning*** (1856-1939) ***psixotahlilidan*** chiqqan psixodinamik nazariyalar insoniy axloqning ongsiz mexanizmlarini ochib beradi.

Og'ishgan xulqni psixoanalitik atamalarda ifodalash asosiy tushunchalar va psixik hayotning modeliga dastlabki kiritishni talab qiladi.

Dastlab shaxs rivojlanishining freyd nazariyasi biologik jihatdan asoslangan edi va jarayonlarning birinchi instinkti – ichki talablarni ta'kidladi. 3.Freyd ikkita yetakchi instinktlarni ajratdi: *hayot instinkti* va *o'lim instinkti*. Tajovuzkor instinkt ishlab chiqaruvchi va o'lim instinktining bosh ko'rinishi, tajovuzga moyillik esa – barcha odamlar uchun xarakterli boshlang'ich instinktiv tendensiya deb tan olindi.

3. Freyd insonning psixik hayotini ongli va ongsizga ajratdi. Ongsizi o'z ichiga ong uchun bosim tufayli (shaxsan ongsiz) kirib bo'lmaydiganini, ongsizdan ong (ongoldi) ga oson o'tishi mumkin bo'lganini oladi. Ongli nutq yordamida ularni anglanadigan qiluvchi ichki va tashqi qo'zg'atuvchilar, instansiyalar bo'lib chiqadi.

Boshqa tayanch lahza psixik apparat tuzilmasini kiritish hisoblanadi. 3. Freyd tomonidan taklif qilingan tuzilmaviy model uch tizim yoki kuchdan iborat: Id, Ego va super-Ego [22]. Shaxsning psixologik

farovonligi bu uch tuzilmaosti qanchalik o'zaro samarali ta'sir etishiga bog'liq.

*Id* – sodda istaklar, impulslar, irrasional intilishlar, "qo'rquv – xohish" uyg'unligi va fantaziyalardan iborat psixikaning o'sha (kattagina) qismini belgilash uchun foydalangan atama. Bu "tartibsiz, qaynovchi hissiyotlar to'ldirilgan doshqozon". Id faoliyati *qoniqish tamoyiliga muvofiq* ehtirosning erkin razryadkasini ta'minlashga yo'naltirilgan. Id verbalgacha o'zini obrazlar va ramzlarda ifodalaydi, vaqt, axloq, cheklovlar yoki qarama-qarshiliklar bo'lmasligi mumkinligi haqidagi tushunchalarga ega emas. 3.Freyd bilimning bu ibtidoiy darajasini tush ko'rish, hazil va gallyusinasiyalar, tafakkurning boshlang'ich jarayoni tilida yashashni davom ettiruvchi deb atadi. Id nisbatan o'zgarmas va to'la ongsiz, biroq uning mavjudligi va hukmronligi *derivatlar* – fikrlar, harakatlar va hissiyotlardan chiqarilishi mumkin.

Ego – Id intilishlarini boshqarish uchun ushbu oila chegaralarida ochiq bo'lgan yo'lni topish va hayot talablariga moslashish imkonini beruvchi o'sha vazifalar nomidir. Ego butun hayot davomida uzluksiz, biroq birmuncha tezroq – ilk go'daklikdan boshlab rivojlanadi. Ego reallik tamoyiliga muvofiq ishlaydi va tafakkurning ikkinchi jarayoniga beshik hisoblanadi (ketma-ket, mantiqiy, prognozlashga mo'ljallangan). Shunday qilib, Ego Idning talablari va muhit cheklovlari orasidagi vositachi hisoblanadi. U ongli bo'lganiday, ongsiz aspektlarga ham ega. Ongli Ego – ko'pchilik odamlar "Shaxsiy Men" yoki "Men" atamasi ostida tushunadigani, ongsiz Ego o'z ichiga himoyaviy imkoniyatlarni oladi.

Qoidadagidek, Ego Iddan zaifroq, shuning uchun u Idning xohishlarini harakatda go'yoki o'zining shaxsiy xohishlari kabi ro'yobga chiqaradi. Chiqib ketish yo'lini topmagan tuyg'ular razryadka talab chiluvchi va xavotir kabi his qilinadigan ichki zo'riqish manbaiga aylanadi. Z.Freyd xavotirni qoniqmaslikning maxsus holati, real yoki potensial xavfga universal reaksiya sifatida ta'riflaydi. Xavotir quyidagicha bo'lishi mumkin: realistik (tashqi dunyoda xavfni tug'diruvchi); axloqiy (super-Ego bilan nizoda chaqirilgan); asabiy (Idning instinktiv impulslari bilan nizoda tug'ilgan). Xavotir ko'pchilik axloqiy va shaxsiy muammolar asosida *tuzilmaviy nizo* mavjudligi haqida xabar beradi.

Id va Egodan tashqari ota-onalar ta'sirining qoldiq aksi hisoblanuvchi psixik apparatning bir qismi uchun *super-Ego* tushunchasi kiritilgan.

Z.Freyd fikri bo'yicha super-Egoning bosh vazifasi Id talablarini *Egoga ma'naviy ta'sir* vositasida bostirish hisoblanadi. Ushbu instansiyaning asosiy vazifalari bo'lib *ideal, o'z-o'zini nazorat* va *vijdon* chiqadi.

Ichki standartlar va taqiqlar asosida dastavval ota-ona figuralari bilan o'xshashlari yotadi. Bola, avvalo, muhabbatni yo'qotish qo'rquvi yoki tashqi, ota-onalar e'tibori tomonidan tajovuzga uchrashdan xavotirlanib o'z-o'zini cheklashga tutinadi. Oqibatda u ichki avtoritet - super-Ego oldida qo'rquvdan kelib chiqib harakat qilishni boshlaydi. Vijdon ovoziga qarshi sodir etilgan harakatlar to'laqonli bo'lmagan tuyg'ular, aybdorlik hissi yoki jazoga ehtiyojni uyg'otishi mumkin. *Shaxsiy muammolar teng darajada yetarlicha shakllanmaganlik oqibati bo'lganiday, o'ta qat'iy super-Ego ko'rinishi bo'lishi mumkin.*

Masalan, suisidal axloq ko'pincha sevimli odamini yo'qotish oqibatida ruhiy azoblanish holati fonida shakllanadi. Ba'zi odamlar bunday vaziyatda "me'yoriy" g'am o'rniga o'zini his qilishining keskin yomonlashishi va *Men*ning qashshoqlashishi bilan alohida melanxoliya (ruhiy azoblanish) holatini boshdan kechiradilar. Muhabbat ob'ekti real tarzda emas, insonning ichki dunyosida o'lishi mumkin. 3.Freyd aytadiki: "Ob'ekt muhabbat ob'ekti sifatida yo'qotilishi mumkin. Qayg'uda kambag'allashgan atrofdagi olam. melanxoliyada esa – Menning o'zi" [23. 217-b.]. Super-Egoning shafqatsiz tanqidiga uchragach munosib bo'lmagan , hech nimaga yaramaydigan, o'z-o'ziga hurmatni yo'qotgan bo'ladi. Bunda aslida o'z-o'zini tanqid qilish insonning o'z shaxsiga kam mos tushadi. biroq diqqat bilan qaralganda uning sevgan shaxsiga taalluqlidir. Qolgan ob'ekt bilan Menning o'xshashligi – tenglashishga o'rin bor.

Ob'ektning yo'qolishi Menning yo'qolishiga aylanadi. tanqid esa – o'z-o'zini tanqidga. Agar voz kechish mumkin bo'lmagan (ayni vaqtda real ob'ektdan voz kechdilar) muhabbat o'ziga narsisstik o'xshashlikda chiqish topsa. unda bu (ichki) ob'ektga nisbatan nenavist namoyon bo'ladi. Aynan shu ob'ektga sadistlik qoniqishigacha bo'lgan azoblanish yetkaziladi. "Faqat bu sadistlik o'z-o'zini o'ldirishga moyillik topishmog'ini yechib beradi". – deb ta'kidlaydi Z.Freyd [23. 221-b.].

Z.Freyd tomonidan shaxsning tiklanishi *psixojinsiy rivojlanish stadiyasi* sifatida ko'rib chiqiladi. Bu preimushestvenno diqqatni tananing muayyan qismiga – oral fazadan. anal va fallik chorqali genitalga

yo'naltirilgan ketma-ket o'tish stadiyasidir. Klassik drayvlar nazariyasi (instinktlarning psixik ko'rinishlari) ni asos qilib olgan: agar bola o'ta frustrasiyalangan yoki o'zining psixojinsiy rivojlanishini qaysidir bosqisida o'ta qoniqish olsa, unda u ushbu bosqichda qayd qilinadi.

*Xarakter* shu kabi fiksasiyaning ifodasi sifatida tushuniladi. Xarakterning buzilishi va albatta inson axloqi ham shunday fiksasiya bilan tushuntiriladi. Masalan, agar odamga taxminan bir yarim yoshida (oral faza) e'tibor bermay qo'yilsa yoxud erkalatib yuborilsa, shaxsning ruhiy azoblanish xislatini shakllantirishni chaqirishi mumkin. Odamning nimaga fiksasiya qilingani va unda nima markaziy ekaniga qarab, uning xarakterini oral, anal yoki fallik deb ifodalashgan.

Z.Freydning keyingi ishlari bugungi kunda psixotahlilning *"himoya"* umumiy tushunchasida birlashtiriladigan jarayonlarni ko'rib chiquvchi ***egyupsixologiya*** kabi yo'nalishining rivojlanishiga turtki bo'lib xizmat qildi. Rivojlanishning nizoli fazalaridan kelib chiqib biz odamni qanday tushunishimizga o'xshab odamlarni ham ular uchun xarakterli bo'lgan xavotirni uddalash usullariga muvofiq tasniflashimiz mumkin.

Tug'ilgan vaqtidan boshlab va yetarlicha uzoq muddatda bola himoyasiz va qaram bo'ladi, buning natijasida *ob'ekt (ahamiyatli inson) ni yo'qotish qo'rquvi* bilan bog'liq tuyg'u yuzaga keladi. Bu qo'rquv, o'z navbatida, sevimli bo'lish ehtiyojini tug'diradi. Bolaning Egosi nisbatan zaif, bu bosqichda ob'ektni yoki *muhabbatni yo'qotish* ancha keyingi bosqichlarda saqlanib qoladigan xavotirni tug'diradi. Keyinroq xavotirning bosh manbalari *kastrasiya qo'rquvi* (fallik stadiyada) va *super-Ego oldidagi qo'rquv* (latent davomida va u tugaganidan keyin) bo'ladi.

Egoning asosiy vazifasi shaxsiy Menni xavotirdan himoyalash hisoblanadi degan tasavvur ***Anna Freydning*** (1895-1982) *"Men* psixologiyasi va himoyalovchi mexanizmlar" nomli klassik ishida rivojlantirilgan (1936). Himoyalovchi mexanizmlar ongsiz ishlaydi va qiyinchiliklar bilan kurashda individual usulning qismi bo'lib qoladi [21]. Ushbu odamda qanday himoyalar ustunlik qilish quyidagi omillarning o'zaro ta'siriga bog'liq: 1) bolaning tug'ma temperamenti; 2) ilk bolalikda kechirilgan stresslar tabiati; 3) ota-onalar va boshqa ahamiyatli odamlarning himoya usuli; 4) hayotda himoyadan foydalanish tajribasi (madad).

Birmuncha muhim himoyalovchi mexanizmlar deb quyidagilar tan

olinadi:

- *bosim o'tkazish* (siqib chiqarish) - vositasida nomaqbul impuls yoki g'oya ongsiz bo'ladigan (boshqa barcha himoya turlari asosida yotuvchi bosh yashirin mexanizm) jarayon;
- *rad etish* – tashqi dunyoning qandaydir talablari, shaxs uchun uning kasalliklari oqibatini inkor qilish;
- *proeksiya* – vositasida indivud uchun nomaqbul istak yoki tasavvur tashqi dunyoga qo'shimcha yozib qo'yiladigan jarayon;
- *reaksiyaning shakllanishi* impulsni uning qarama-qarshisiga aylantirish (masalan, onaga bo'lgan siqib chiqarilgan nafratni u haqida o'ta hamxo'rlikka);
- *regress* – rivojlanishning kam yetilgan darajasiga qaytish; sublimasiya – ijtimoiy maqbul o'zanda instinktiv impulslar yo'nalishi, masalan, intellektual muhitga, ijodga.

Himoyalarni jo'n (odatiy, arxaik) va hiyla yetuk (ikkilamchi) ga bo'lish qabul qilingan. *Arxaik himoyalar* orasida quyidagilar ajratiladi: oddiy izolyasiya, inkor etish, buyuk nazorat, sodda ideallashtirish va qadrsizlanish, proeksiya, introeksiya va proektiv o'xshashlik, parchalash, dissosiasiya [1, 130-b.].

Oddiy izolyasiya namunasi bo'lib, go'dak shunchaki uxlab qolishi, ya'ni avtomatik ravishda o'ta ta'sirlanish yoki qoniqmaslikdan boshqa holatga o'tishi vaziyati xizmat qilishi mumkin. Kattaroq yoshda zo'riqishdan qochishga intilishda shu ongsiz maqsad bilan kimyoviy moddalardan foydalanishga moyillik namoyon bo'ladi.

Boshqa misol piyonistalik (giyohvandlik) ka bog'liqligi bo'lgan, muammo mavjudligini uporno rad etuvchi va vaziyatni nazorat qilishiga ishonuvchi inson axloqi bo'lishi mumkin. Ushbu holda rad etish kabi himoya mexanizmi qo'shiladi. Bu reaksiya - ildizi bilan Bolalar egosentrizmiga ketuvchi arxaik jarayonning toyushi , bunda ongni "Agar men buni tan olmasam, demak u sodir bo'lmagan" deguvchi dologik ishonch boshqaradi.

Proeksiya va introeksiya, o'z navbatida, sadistlik, eksplozivlik (portlash), yaqin odamning o'limi holatida ruhiy azoblanish holati kabi ko'rinishlar asosida yotishi mumkin. Shunga o'xshash odamlar qo'rquv vaziyatlarida salbiy tuyg'ularni egallashga va azob beruvchi (proektiv

o'xshashlik) sifatini taqlid qilib o'rganib olishga harakat qiladilar.

Shunday qilib, xavotirni yengishda ongsiz mexanizmlar kabi arxaik himoyadan foydalanish psixologik qochishga yoki hayotni bezovta qiluvchi omillarni kam hosilli rad etishga olib kelishi mumkin.

*Ikkilamchi, ancha yetuk, himoyaviy mexanizmlar* taxminan psixojinsiy rivojlanishning ancha keyingi bosqichlarida shakllanadi va nisbatan hiyla mahsuldor - ichki nizolarni yaxshi yechishga hamda reallikka yaxshi moslashishga ko'maklashuvchi hisoblanadi. Bu – siqib chiqarish, regressiya, izolyasiya, intellektualizasiya, rasionalizasiya, moralizasiya, ajralgan tafakkur, o'ziga qarshi aylana, aralashtirish, reaktiv ta'lim, somatizasiya, bekor qilish, reversiya, o'xshashlik, tashqaridan reaksiya qilish, seksualizasiya, sublimasiya [11, 155-b.].

Umuman olganda psixologik himoyalovchi deb nomalanadigan fenomenlar ko'plab foydali vazifalarga ega. Ular sog'lom moslashuv va ijodkorlik shaklida namoyon bo'lishi mumkin. Ular hatto *Men*ni qandaydir xavfdan himoyalaydi. Axloqi himoya xarakterini namoyish qilgan shaxs ongsiz tarzda quyidagi vazifalardan birini bajarishga intiladi: 1) ba'zi xavf soluvchi ulkan affektdan qochishga (masalan, xavotir yoki g'am) yoki uni egallashga; 2) o'z-o'zini hurmatlashni saqlab qolish; 3) tashqi xavfdan ketish.

Shaxs rivojlanishida Egoning muhim roli "Ego kuchi" tushunchasida aks etgan. Ego kuchi - bu shaxsning reallikni hatto u o'ta qabul qilinmaydigan paytda ham qabul qilishga layoqati (e'tirozga o'xshash soddagina himoyani jalb etmay). O. Kernberg ko'rsatishicha, Egoning kuchi xavotirga, impulslar nazorati va sublimator faoliyatga yaxshi tolerantlikda namoyon bo'ladi [5].

Shaxs muammosi (shu jumladan, axloqiy) me'yoriy moslashuv uchun hatto himoyalar noteng yoki yetarli bo'lmagan taqdirda ham paydo bo'ladi. Z. Freyd keyingi ishlarida psixopatologiyani unga qarshi odatiy kurashlarga qaramay xatar his qilinib, himoya ishlamaydigan va qachonki xatarni niqoblovchi axloq keng ma'noda o'z-o'zini parchalovchi hisoblangan holat sifatida ko'rib chiqadi.

Psixoanalitik tasavvurlarga muvofiq Ichki nizolar dinamikasida muhim rolni bola dunyosida bosh ob'ekt bo'lib chiquvchi ota-onalar o'ynaydi. Psixotahlilda ancha keyingi yo'nalish ***ob'ekt munosabatlari nazariyasi*** ketma-ket ob'ekt munosabatlarida notinchlik bilan bog'liq

bo'lgan psixologik muammolar haqidagi g'oyani rivojlantiradi. Bolaning ota-onasi bilan munosabatni qanday kechirishi, u tomonidan ahamiyatli ob'ektlarning qanday tuyg'ulari internalizasiyalashadi, ota-onalarning qanday obrazlari uning butun hayoti davomida shaxs axloqiga ta'sir qilib, uning ongsiz mavjud bo'lishda davom etishi ulkan ahamiyat kasb etadi [13. 226-b.].

***Self-psixologiya doirasida*** (shaxsiy *Men* psixologiyasida) himoya shaxsiy Menning qarama-qarshi bo'lmagan, ijobiy tuyg'ularini qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Masalan, ikkita bir xil suisidal maqsadli odam sub'ektiv kechinmalar bo'yicha farqlanishi mumkin. Bittasi o'zini yomon his qiladi, o'zining hech nimaga arzimas mavjudligi uchun gunohkor sezadi. Ob'ekt munosabatlari nazariyasi tilida u uni yomon deguvchi internalizasiyalangan ob'ektlar bilan to'lib toshgan. Boshqasi o'zini axloqsizdanda ko'ra ichki bo'shlig'i bor, nuqsonli, xunuk deb his qiladi. Sub'ektiv ravishda u o'zini yo'llashi mumkin bo'lgan internalizasiyalangan ichki ob'ektlardan maxrum.

Psixotahlil (neofreydizm) dan chiqqan psixoanalitik oqim va yondoshuvlar ichida inson xarakteri va axloqini zamonaviy tushunishda ahamiyatli ta'sir ko'rsatuvchi bir necha nazariyalar mavjud. Ular quyidagi g'oyalarni o'z ichiga oladi: analiticheskoy psixologii Karl Yungning analitik psixologiyasi; Alfred Adlerning individual psixologiyasi; Otto Rankning tug'ma jarohat nazariyasi; Bernning transakt tahlili. Shaxsning og'ishgan xulqini tushuntirish uchun Adler nazariyasi birmuncha foydali bo'ldi.

***Alfred Adlerning individual psixologiyasi*** (1878-1937) og'ishgan xulq psixologik sabablarining ko'plab shakllarini tushunishga yordamlashdi. A.Adler asosiy *hayotiy maqsadni* individuallikni rivojlantirishni belgilovchi asosiy omil deb hisobladi. Umumiy ko'rinishda bu boshqalar ustidan ustunlikka erishish maqsadi. Uning aniq mazmuni o'ta turli-tuman bo'lishi mumkin: hokimlik, go'zallik, boylik, kuch, mashhurlik, bilimlilik va h.k. ga intilish. Ustunlikka erishish maqsadi o'z zaifligini boshdan kechirishda tug'iluvchi to'laqonli bo'lmagan tuyg'uga reaksiya kabi hayotning birinchi yillarida paydo bo'ladi. Zaiflik *to'laqonli emaslik tuyg'usi* sifatida boshdan kechiriladi. To'laqonli emaslik tuyg'usi Adler fikricha, dastlab 4-5 yoshda paydo bo'ladi. Uni ikkita asosiy omillar kuchaytiradi. Birinchidan, tug'ma Nuqsonlar (sog'likning zaiflashuvi, jismoniy etishmovchiliklar, o'ta past bo'y), ikkinchidan, bu Bolani oilada

noto'g'ri tarbiyalash (o'ta erkalatish, bolaga muhabbatning yetishmasligi). To'laqonli emaslik tuyg'usi Bolaning muhit talablarini qay darajada uddalashiga qaytma proporsionaldir [1].

Ustunlik maqsadiga erishishga yo'nalganlik me'yori boshqa odamlar (*umumiylik tuyg'usi* asosida) bilan hamkorlikka yo'nalish bilan uyg'unlashgan, demak insonning shaxsiy yutuqlari umuman olganda odamlarning jamoatchilik hayotini yaxshilashga xizmat qiladi. Har qanday me'yordagi odamga to'laqonli emaslik tuyg'usi va unda tug'ilgan *o'z-o'zini tasdiqlash* (mukammallik, ustunlik) *ga intilish* o'rtasidagi ichqi nizo begona emas. To'laqonli emaslik tuyg'usini yengishning ikkita asosiy usuli mavjud: *kompensasiya* (saqlanganlarini kuchli rivojlantirish hisobiga buzilgan xislatlar ko'rininishini kamaytirish) va yetishmovchiliklarni *yuqori kompensasiyalash* (buzilgan xususiyatni yuqori ishlash darajasiga kuchaytirilgan mashq olib borish). Tug'ma *ijtimoiy tuyg'ular* ham inson zaifligini to'ldiradi. Odamlar to'laqonli emaslik tuyg'usini kompensasiyalash uchun turlicha yo'llardan foydalanadilar. Boshqalari esa "qonuniy" usulga murojaat qiladilar - muvaffaqiyat, hukmronlik, guruhlarga birlashish.

To'laqonli emaslik tuyg'usini yetarlicha bo'lmagan yoki axloqsiz tarzda kompensasiyalash o'ta o'tkir kechiniladi va to'laqonli emaslik kompleksiga o'tadi. Bu to'laqonli emaslik tuyhusining niqoblangan ko'rinishida ifodalanuvchi ko'rsatmalar, tasavvurlar yoki harakatlar yig'indisi.

A. Adler ushbu mexanizmning anomal va me'yoriy ko'rinishlari keng doirasiga ratqatdi. To'laqonli emaslik kompleksi bir vaqtning o'zida nafaqat jiddiy muammolar, balki shaxsiy rivojlanishning ichki rag'bati ham hisoblanadi.

Buzilgan axloq holida to'laqonli emaslik kompleksi teng bo'lmagan hayotiy ko'rsatma va rivojlanmagan ijtimoiy tuyg'u bilan uyg'unlashadi. Anomal shaxsda ustun hayotiy yo'nalish umumiylik tuyg'usining paydo bo'lishi va rivojlanishiga deyarli to'liq qarshilik qiladigan yaqqol ifodalangan ustunlikka erishishga intilish hisoblanadi. Bunday inson odamlarni shaxsiy foydasiga erishish vositasi deb qabul qiladi, jamiyatda dushman kuchini ko'radi, boshqalar bilan hamkorlikni istamaydi va qila olmaydi. Bu konfrontasiya jamiyatning har qanday talablariga qarshi e'tirozning gipertrofik reaksiyasini namoyish qiladi: boshqalarni hurmat

qilish, haqiqatni gapirish, o'qish va ishlash, boshqalarning haqligini tan olish, minnatdor bo'lish... Ustunlik g'oyasi bo'ysunish, yerga urish va boshqalarni diskreditasiyalash harakatlarini uyg'otadi. Natijada shaxsning mustahkam salbiy - chidamsizlik, hasad, o'z fikrini ustun qo'yish, shubhalilik - shaxsning axloqi kabi umuman uning hayotiy yo'lini aniqlaydigan chiziqlari shakllanadi.

Biz shaxsning ishlashidagi chuqur mexanizmlarini ochib beruvchi psixodinamik konsepsiyalarni tahlil qildik. Ushbu nazariyalar dastavval quyidagi savollarga javob berish imkonini beradi: *nima uchun odamlar o'zlarini ma'lum bir obrazda tutadilar? Ularning axloqidagi motivasiya qanday va u qay tarzda shakllangan?*

### *Og'ishgan xulq – o'rganish natijasi sifatida*

Agar psixoanalitik yondoshuv ko'proq shaxs rivojlanishining ichki dinamikasini o'rganish sifatida mo'ljallangan ekan, unda bixeviorizmdan kelib chiquvchi nazariya bevosita kuzatilgan axloqni o'rganadi. Ushbu yo'nalish bizning ta'limotimiz predmeti shaxs axloqi (garchi og'ishgan) hisoblansa-da, o'zida alohida qiziqishni aks ettiradi.

***Bixeviorizm (axloqiy psixologiya)*** mustaqil yo'nalish sifatida XX asrning boshlarida ajralib chiqdi. Uning asosi E.Torndayk, Dj.Uotsi, B. Skinner kabi nomlar bilan bog'liq.

Axloqiy psixologiyaning asosiy nizomlari quyidagi postulatlarda shakllantirish mumkin:

1. Psixologiya real (kuzatilayotgan) inson axloqi va uni boshqarishning oldindan aytib bilan shug'ullanishi lozim.

Har qanday axloqning maqsadi - muhitga moslashish.

Axloq - shaxsning bevosita ichki faollik va tashqi harakatlarda namoyon bo'luvchi individual xususiyatlari, muhit bilan o'zaro ta'sir jarayoni. (Dastlab "axloq" tushunchasi ostida faqat tashqi ko'rinish – dvigatelli, hissiy, vegetativ, nutqiy tushunilardi.) Ushbu jarayon quyidagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi: rag'bat – oraliq o'zgarishlar – reaksiya. Oraliq o'zgarishlar ostida hozirgi vaqtda reaksiya ortida yashiringan barcha narsalarni tushunish mumkin. Bu - hissiy jarayonlar (ayniqsa, xavotir), axloqning ushbu shakli motivasiyasi (uyg'otuvchi omillar), kognitiv jarayonlar (anglashning xususiyatlari, vazifani tushunish va h.k.), o'z-o'zini

boshqarish jarayonlari.

Axloq shubhasiz reflekslar va instinktiv dasturlar (organizmning bir butun kabi nasliy, shablon reaksiyalari) asosida shakllanadi.

Inson axloqining shakllanishida asosiy mexanizmlar o'rganish hisoblanadi. O'rganish – yuzaga kelgan vaziyatga reaksiya asosida axloqning muayyan turlarini egallash va saqlash jarayoni. Istisno, qachonki faollikning o'zgarishi tug'ma reflekslar, yetilish yoki muvaqqat holatlar (charchash, giyohvandlik kayfi) bilan bog'liq bo'lgan hollardan iborat.

*Bixeviora nazariyasi – bu qonunlar yoki inson axloqi tamoyillarining* tajribalari asosida ta'riflanuvchi keng qamrovli nazariya [12].

***I. P. Pavlov*** tomonidan (Sh-1936) ixtiro qilingan klassik shartlashish axloqiy psixologiyaning birinchi qonunlaridan bo'ldi va axloq qonunchiligining keyingi barcha tadqiqotlariga fundamental ta'sir ko'rsatdi. *Klassik shartlashish (shartli yoki repondent, refleks)* – bu shubhasiz rag'bat bilan (organizmning tug'ma reaksiyasini uyg'otuvchi) vaqt va makonda birlashgan shartli reaksiyani o'rganish (indifferent rag'batga reaksiya). Masalan, totli taom tasviri (shartli rag'bat), shuningdek, ovqatning og'izga tushishi (shubhasiz rag'bat) ham so'lak ajratishni chaqirishi mumkin. Har bir harakat agar u shubhasiz yoki shartli reflekslarga asoslangan hamda taqdirlangan bo'lsa takrorlash tendensiyasiga ega. Takrorlanuvchi harakat odatga aylanadi. Agar harakatlar takrorlanmasa yoki mustahkamlanmasa, ular so'nadi.

Axloqiy psixologiyaning asoschilaridan biri haqli ravishda axloqiy psixologiyaning tamoyillarini, shuningdek, shartlashish qonunlarini rasmiylashtirgan ***Dj. B. Uotson*** (1878-1958) dir.

Dj. Uotson [3] nazariyasiga muvofiq odam ham, hayvon ham nasliy zehn va bilimdan foydalanish vositasida atrofdagi muhitga moslashadi. Reaksiya chaqiruvchi *rag'bat*, yoki predmet tashqi yoki ichki muhitda turgan ob'ektlardan chiqishi mumkin. Shartlashish diapazoni vositasida odamlar reaksiya qiladigan rag'bat yanada kengaymoqda. Hamma reaksiyalarni *ochiq* va *yashirin*, *egallangan* va *tug'ma*ga ajratish mumkin. Tug'ma reaksiyalar kam sonli va o'zida go'daklikning birinchi kunlaridan nima qilishlarini o'z ichiga oladi. Shu jumladan, ularga qon aylanishi va nafas olish, shuningdek, odatlarning shartliligi va shakllari tegishli. Tug'ma reaksiyalar tug'ilgandan keyin tezda shartlangan bo'ladi. Bolalarni

kuzatish shuni ko'rsatadiki, odatda, instinkt deb ataluvchi barcha narsalar ahamiyatli darajada o'rganish yoki shartlilik natijasi hisoblanadi, bunday axloq sifatida inson egallagan axloqning qismi hisoblanadi. Dj. Uotson fikriga ko'ra rag'bat - qo'rquv (masalan, bolaning juda baland tovushdan tug'ma qo'rquvchi), g'azab va muhabbatga egallanmagan hissiy javobning faqat uchta turi mavjud.

Axloqiy psixologiyaning rivojlanishiga alohida hissa qo'shgan ***B. F. Skinner*** (1904-1990) inson axloqiga uning oqibatlari muhim ta'sir ko'rsatishini aniqladi [12, 127-b.]. Shu bilan bog'liq holda B. Skinner *operant shartlashish mexanizmlarini* taklif qildi. Operant axloqda moslashish rag'batga javob beruvchi axloq shaklida emas, insonning shaxsiy faolligi yo'li bilan sodir bo'ladi. Masalan, sinov va xatolar natijasida qoniqish yoki noxushliklarni bartaraf etishga olib keluvchi, ya'ni o'z-o'zini mustahkamlovchi axloqning aniq shaklida muvaffaqiyatga erishish mumkin.

B. Skinner ta'kidlaydiki, reaksiyani oldindan ko'ra olish yoki nazorat qilish mumkin emas, oldindan aytish mumkin bo'lgan yagona narsa – bu uning kelajakda yuzaga kelish ehtimoli. Axloq ilmining birligi *operant* – ushbu (o'z) oqibati bilan aniqlangan axloq. *Operant axloq* – oqibatni keltirib chiqarib, atrof-muhitda operasiyalanadigan axloq.

Agar I.P.Pavlov uning kuchuklari axloqini kuchaytiruvchi barcha hodisalarni "madad" deb, axloqda bu hodisa sabab bo'lgan o'zgarishlarni esa - "shart qilib qo'yish" (rag'bat bilan mustahkamlanuvchi aloqa) deb nomlagan bo'lsa, unda operant axloq konsepsiyasiga asosan podkreplenie javobga bog'liq (rag'batga reaksiya bilan mustahkamlanuvchi aloqa). Klassik sabablar va operant sabablar - shart qilib qo'yishning ikki yagona mumkin bo'lgan turi [12].

Garchi atrofni o'rab turgan muhit axloqning shakllanishi va qo'llab-quvvatlanishida katta rol o'ynasa-da, axloqning o'zi oqibatlarni yetishtirib, atroq-muhit keltirib chiqarayotgan oqibatlarga ham bog'liq bo'lib, atrof-muhitga ta'sir ko'rsatadi. Organizm va uni o'rab turgan muhit o'rtasidagi o'zaro harakatning istalgan o'xshash ifodasi ta'rifning uchta elementidan iborat bo'lmog'i zarur: a) ushbu reaksiyaga o'rin bo'lgan vaziyatlar; b) javobning o'zi; v) mustahkamlovchi oqibatlar. Bu uch elementning o'zaro aloqasi *tutash madadlar* asosida yotadi.

Reaksiya tug'ilishining ehtimoli ijobiydan keyin bo'lgani kabi *salbiy*

*madad*dan keyin ham o'sib boradi. *Ijobiy madad* nimanidir (masalan, maqtov. mukofot) taqdim etishni nazarda tutadi.

Salbiy madad ushbu vaziyatdan qandaydir noxush narsani yo'qotish (masalan, jazodan qochish) ni nazarda tutadi. Og'ishgan xulqqa taalluqli spirtli ichimliklar iste'mol qilish, masalan, bir vaqtning o'zida qoniqish olish (iliqlikni his qilish, totli taomdan lazzatlanish, energiyaning quyilishi, do'stlarning e'tibori, bayram tafti) va muammodan ketish bilan (zo'riqishni olib tashlash, o'ziga ishonchsizlik tuyg'usini kamaytirish, g'amxo'rlik va mas'uliyatdan chalg'ish) mustahkamlanadi. Umuman olganda axloq ehtimoli quyidagi quvvatda kuchayadi:

– noxushliklarni bartaraf etish;
– e'tiborni jalb etish (B.Skinner fikriga ko'ra bizga e'tiborli bo'lgan odamlargina bizning axloqimizni mustahkamlaydi);
– affektasiya (kuchli hissiyotlar namoyishi);
– jilmayish yoki ma'qullashning istalgan shakli;
– sevimli faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyatini taqdim etish;
– hokimlini taqdim etish;
– qoniqish – universal mukofot (shirin taom, jinsiy aloqa va h.k.).

Bu mustahkamlovchi rag'batlarni biz *mukofotlash* deb atashga odatlanganmiz.

B.Skinner hisoblaydiki. barcha madadlar oxirgi hisobda evolyusion tanlovda o'z kuchini oladi va muayyan buyumlar yordamida ma'lum bir usullar bilan odamlar uchun xarakterli bo'lgan madadni oladi. Masalan. ozuqaning ijobiy madadi va xavfdan qutulishdagi salbiy madad, ma'lumki. yashash uchun zarur. Faqat axloqning kam qismi tezda yaqqol biologik ahamiyatga ega bo'lgan ozuqa. jinsiy aloqa yoki boshqa omillar bilan quvvat oladi. (Bunday madadlar. yuqorida ta'kidlanganidek, mutlaq yoki dastlabki madad deyiladi).

Axloqning katta qismi - bu dastlabki madad bilan assosiasiyalangan yoki u bilan shartlangan madadga reaksiya. Masalan, agar bayram vaqtida yoqimli kompaniyada har gal chekishni olsak. bunda kompaniya *shartlangan madad beruvchi sabab* bo'lib qoladi.

Shartlangan madad bittadan ortiq madad bilan birlashsa generallashadi. Bu dalil katta ahamiyatga ega. chunki *generallashgan*

*shartlangan madad*, masalan, pul ko'rinishida, foydali, chunki nafaqat deprivasiyaning (masalan, ochlik holati) bitta aniq holatiga, balki boshqa shunga o'xshash holatlarda ham qo'llaniladi. Albatta, madadning bunday turida reaksiyaning tug'ilish ehtimoli katta bo'ladi.

Boshqa generallashgan shartlangan madad e'tibor, ma'qullash va mehr qo'yish hisoblanadi.

B. Skinner "o'rganish" atamasini "operant shartlab qo'yish"ga ekvivalent deb hisoblamagan. "O'rganish" atamasidan foydalanish yuqori darajada axloqning shakllanishini nazarda tutadi, ayni damda "operant shartlab qo'yish" atamasini qo'llash teng darajada axloqni ham shakllantirish, ham saqlashni nazarda tutadi.

odamlar (masalan, jinoy guruhlar) asosida tuzilgan axloq shakllanadi. Atrofdagilarning tajovuzni kuch bilan bostirishga urinishlari ko'p hollarda qarama-qarshi kutilgan samaraga olib keladi.

*Katta odamlarda* tajovuzkor axloq ko'rinishi ancha turli-tumandir, chunki ko'pincha ularning ***individual xususiyatlari*** bilan aniqlanadi. Individual-shaxsiy tavsifnomalar sifatida [2], potensiyalanadigan tajovuzkr axloq, odatda, jamoatchilikning ma'qullamasligi, jizzakilik, shubhalilik, xurofiy odatlar (masalan, milliy), shuningdek, gunoh o'rniga uyalish tuyg'usini his qilishga moyillik kabi chiziqlar ko'rib chiqiladi. Zo'rlikka moyillikni quvvatlashda muhim rolni insonning o'z taqdiri (ba'zida esa boshqa odamlarning ham taqdiri) ga yagona hokim hisoblanishiga ishonchi, shuningdek, uning tajovuzga (foydali yoki me'yoriy ko'rinishga) ijobiy munosabati o'ynashi mumkin.

Alohida kategoriyadagi odamlar – tajovuzni yoxud tez-tez, yoxud oxirgi shaklda namoyish etuvchi *ekstremistlar* haqida gapirish mumkin. Ekstremistlar, o'z navbatida, yaqqol ikki guruhga bo'linadi: past va yuqori o'z-o'zini nazorat qilish bilan. Birinchilari zaif rivojlangan o'zini tutuvchi mexanizmlari kuchida tajovuzni doimiy namoyon etsalar, ikkinchi guruhdagilar – hatto kuchli qo'zg'atuvchilardan uzoq muddat saqlanishlari, biroq ichki resurslar so'ngach tajovuzning oxirgi ko'rinishlarini (brutalga qadar) namoyish qiladilar.

Shaxsning tajovuzkor axloqiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa xususiyat uning frustrasiyaga chidash berish qobiliyati hisoblanadi. Ma'lumki, frustrasiya ostida ehtiyojni qoniqtirish yoki maqsadga erishish yo'lidagi to'siqlar bilan chaqirilgan holat tushuniladi. Ba'zi mualliflar frustrasiyani tajovuzkor axloqning yetakchi sabablaridan biri sifatida ko'rib chiqadilar. Umuman olganda frustrasiya - juda ham tarqalgan ko'rinish, va odamlar uni uddalashda qobiliyatlari bo'yicha juda farqlanadilar. Agar tajovuzkor axloq frustrasiyani bartaraf etishga muvaffaqiyatli tarzda yordamlashsa, unda ta'limning qonunlariga muvofiq katta ehtimollikda kuchayadi. Shuningdek, agar odam frustrasiyaga yuqori ta'sirchan bo'lsa, yana unda frustrasiyani yengishning ijtimoiy maqbul usullari ishlab chiqilmagan bo'lsagina, muammo yuzaga kelishi mumkin.

Agar boshqa ta'sirni – jinsiy (gender) omilni baholasak, – unda erkaklar (o'g'il bolalar) ancha yuqori to'g'ridan-to'g'ri va jismoniy, ayollar (qiz bolalar) esa – bilvosita va verbal tajovuzni namoyon qiladilar.

Umuman olganda, ayni damda ayollar ko'pincha va muvaffaqiyatli tarzda uning psixologik variantiga murojaat qilsalar erkak jinsiga jismoniy kuch ishlatishga katta moyillik qayd qilinadi.

Yosh, gender va individual omillarning butun muhimligiga qaramay, tajovuzkor axloqning shakllanishida, ko'plab tadqiqotchilar fikriga ko'ra, ***shaxs rivojlanishidagi ijtimoiy sharoitlar*** etakchi ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy axborot vositalari (OAV) ning shaxs tajovuzkor axloqiga ta'sirini birmuncha munozarali masalalardan biri deb hisoblash mumkin. OAVning salbiy ta'siri tarafdorlari odamlar o'zlarini tajovuzkor tutishga, avvalo, boshqalarning tajovuzini kuzatib o'rganadilar degan dalildan kelib chiqadilar. M.Xyusmann tadqiqotchilar guruhi bilan televizion ko'rsatuvlarni ko'rish va tajovuzkorlik o'rtasidagi korrelyasiyani 20 yil davomida kuzatdilar [2, 115-b.]. Ular aniqladilarki, 30 yoshda sodir etilgan jinoyatlarning og'irligi 8 yoshda afzal ko'riladigan teleko'rsatuvlarga mos tushadi. Televideniya vositasida tajovuzkor axloqning shakllanish mexanizmi quyidagi obrazda ko'rinishi mumkin: teleko'rsatuvlarga o'ta qiziqish – tajovuzkor fantaziyalar – personaj bilan o'zini o'xshatish – muammoni hal qilish va odamlarga ta'sir ko'rsatishning tajovuzkor usulini o'zlashtirish – tajovuzkor harakatlarni takrorlash – shaxslararo munosabatlarda muammoni yechish uchun tajovuzdan foydalanish – madad olish – tajovuzkor odatlar – rivojlanmagan ijtimoiy va o'quv malakalari – frustrasiya – teleko'rsatuvlarni o'ta ko'p tomosha qilish – va h.k.

*Kuzatish orqali tajovuzkor axloqning shakllanishi* bir necha shartlarni bajargandagina mumkin. Birinchidan. ko'rilganlar real ko'rinishi va odamni chulg'ab olishi zarur. Ikkinchidan, ko'rilganlar aynan tajovuz sifatida anglanmog'i kerak. Uchinchidan, tajovuz qachonki tomoshabin o'zini tajovuzkor bilan o'xshatsa. tajovuzning potensial ob'ekti esa aniq shaxs uchun filmdagi tajovuz qurboni bilan assosiasiyalansagina tajovuz taqlid qilib o'rganiladi. O'rganishning keyingi prinsipial sharti tajovuz natijasida qahramonning tomoshabin uchun ahamiyatli bo'lgan lazzat olishi yoki maqsadga erishishi hisoblanadi.

Umuman olganda. tajovuzkor sahnalarni ko'rish, chamasi, ko'pchilik katta odamlarga ko'zda tutilgan to'g'ridan-to'g'ri salbiy ta'sir o'rsatmaydi. chunki qabul qilishning o'zi ichki va tashqi sharoitlar yig'indisini belgilaydi. Zo'ravonlik sahnalariga odamlarning reaksiyasi turli-tuman

bo'lishi mumkin: jirkanish, yoqimsiz, virtualizasiya (tasvirlangan hodisani noreal sifatda qabul qilish), faqat ba'zi hollarda - qoyil qolish yoki taqlidga intilish. Shunga qaramay, OAV ning bolalar va o'smirlar rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi haqqoniy xavfyni tug'diradi va maxsus o'rganishni talab qiladi.

Shaxs axloqiga ommaviy axborot vositalarining ta'siri to'la tushunarsiz bo'lib qolgan bir paytda *oila*ning tajovuzkor axloqning shakllanishida asosiy ijtimoiy manba bo'lib qolayotgan hozirgi vaqtda tan olinmoqda. Yaxshi ma'lumki, tajovuz nafaqat dushmanlarga notanish odamlar yoki raqiblarga nisbatan namoyon bo'ladi. Psixologik yoki jismoniy zo'rlik ko'pgina oilalar uchun mutlaqo kam uchraydigan hodisa emas. Oilada tajovuz ko'rinishlarining shakli turli-tumandir. Bu to'g'ridan-to'g'ri jismoniy yoki jinsiy zo'rlik, sovuqqonlik, taxqir, salbiy baho, shaxsga bosim, bolani hissiy qabul qilmaslik bo'lishi mumkin. Oila a'zolari o'zlari tajovuzkor axloqni namoyon qilishlari yoki bolaning istalmagan harakatiga madad berishlari mumkin, masalan, mushtlashishda uning g'alabasidan g'ururlanishni ifodalab.

Bolaning tajovuzkor axloqiga turli oilaviy omillar ta'sir ko'rsatadi, masalan, oilaning past darajada qovushganligi, janjalkashlik, ota-onalar va bola o'rtasidagi yetarlicha bo'lmkagan yaqinlik, bolalar o'rtasidagi o'zaro noxush munosabatlar, oilaviy tarbiyaning noteng uslubi. Masalan, o'ta qattiq nazoratdan foydalanuvchi (giperopeka), nihoyatda qattiq jazoni qo'llovchi ota-onalar ko'pincha o'z farzandlarining tajovuzi va quloq solmasligiga duch keladilar. Shuningdek, otaning onaga nisbatan tajovuzkor munosabati (jismoniy zo'rlik yoki aniq ma'naviy kamsitish) ham bolaga yaqqol salbiy ta'sir ko'rsatadi, degan fikrlar mavjud.

A.Bandura va R. Uolter [1] ushbu "oilaviy" masalani o'rganishga maxsus tadqiqotni bag'ishladilar va quyidagi ma'lumotlarni oldilar. Tajovuzkor o'g'il bolalarning ota-onalari bolalarining yutuqlariga nazorat guruhidagi (tajovuzkor axloqi bo'lmagan) ota-onalarga nisbatan kamroq talab qo'yganlar va ularni bolalikda kamroq cheklaganlar. Ayni vaqtda ko'rib chiqilgan o'smirlar ota-onalarining ta'siriga kuchliroq qarshilik ko'rsatganlar. Tajovuzkor axloqli o'g'il bolalar otalaridan ko'ra onalariga ancha bog'lanib qolgan. Nazorat guruhidagilar ichki o'z-o'zini nazorat qilishni rivojlantirish, masalan, ishoish usulidan keng foydalangan bir vaqtda tajovuzkor o'smirlarning ota-onalari ko'pincha majburlash usuliga tayanganlar. Tajovuzkor o'g'il bolalarning otalarikeskinlik va ko'pincha

bolalarni jazolash tendensiyasi bilan xarakterlangan bir vaqtda onalar zaif umumiy kelishuvda talabchan emaslik va o'zaro munosabatlarda yetarlicha bo'lmagan samimiyligi bilan xarakterlanadi. Tajovuzkor o'g'il bolalar o'z otalari bilan kam o'xshashdirlar. ular nazorat guruhidagi o'smirlarga qaraganda ko'pincha otalarining tanqidiy va dushmanlik munosabatlariga javob qaytaradilar Bularning barchasi. tadqiqotchilar fikriga ko'ra. ota-onalik qadriyatlari tizimini o'zlashtirish va ularning talablarini bajarishni murakkablashtiradi.

A.Bandura va R.Uolter o'smirlarning ijtimoiylashuvi va ularning oilaviy sharoitlari o'rtasidagi aloqani o'rganib. bola axloqini belgilovchi uchta asosiy xususiyatlarni ajratdilar: *uning tobe (samimiy-shaxsiy) munosabatlar o'rnatishga tayyorligi. vijdon rivjlanganligi darajasi. tajovuzga motivasiya kuchi.* Mualliflar fikriga ko'ra. oila samarali ijtimoiylashuvning eng kam darajadagi sharoitini yaratishi kerak [1. 35-b.]. Bolaning atrofdagilarni qiziqishi. e'tibori va ma'qullashini istashga o'rgatadigan bevosita birinchi muhim shart mehribonlik motivasiyasidir. Ikkinchi zaruriy shart deb tadqiqotchilar izchil talablar va cheklovlar (shu shart bilanki. ota-onalarning o'zlari ijtimoiy me'yorlarni bo'ladilar) shaklidagi "ijtimoiylashuvning bosimi"ni ataydilar. Aksincha. axloqning dushmanlik shakli oilada ota-onalik muhabbatiga ehtiyoj frustrasiyasi. doimiy jazoni qo'llash (istalgan axloqni rag'batlantirish ustidan uning ustunligi). ota-onalar tomonidan talablarning kelishmaganligi. ota-onalarning o'zlarini tajovuzkorligi natijasida paydo bo'ladi.

Shunday qilib. "asosial tajovuz nazariyasi"ga muvofiq bolaning tajovuzkor axloqi dastavval bitta yoki ikkala ota-ona tomonidan nozik g'amxo'rlik va mehribonlik yetishmasligidan tug'iladi. Ko'ngil qo'yish frustrasiyasi bolada doimiy dushmanlik tuyg'usining paydo bo'lishiga olib keladi. chunki *o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan kattalarga* (shu jumladan. uning hissiy ko'rinishlari) taqlid qilish orqali rivojlanadi. Bolaning ota-onalari bilan munosabatida rivojlangan ko'rsatma va axloqi oqibatda boshqa odamlarga ko'chiriladi (sinfdoshlar.o'qituvchilar. turmush o'rtog'i). Agar aniq odamga tajovuz ko'rinishining oldi olinsa (yoki boshqa sabablar kuchida mumkin bo'lmaydigan bo'lib qolsa). tajovuz yangi "ancha xavfsiz" (dostupniy) ob'ektga siljishi mumkin.

Shuni aniqlash lozimki. yuqorida ko'rib chiqilgan eksperimentda asosan o'g'il bolalar ishtirok etdilar. Ko'pchilik tadqiqotchilar oilada har xil jinsdagi bolalarga yomon murojaatning ta'siri turlicha ekanini

ta'kidlaydilar. Qator mualliflarning fikriga ko'ra. bolaligida shafqastizlik namoyon etilgan qiz bolalar mazoxistik patterna axloqining rivojlanishiga moyildirlar. o'g'il bolalar bunday holda o'zlarini tajovuzkor bilan o'xshatadilar va katta ehtimollik bilan sadistik yo'nalishda rivojlanadilar [7. 335-b.].

Tajovuzkor axloqning sodir bo'lishida oilaning yetakchi roli haqidagi gipoteza foydasiga yana bir isbot - bu ma'lum sharoit - bolalar muassasalarida tarbiyalanuvchi bolalarda tajovuzkorlik bilan bog'liq bo'lgan buzilishning ustunligi (asrab olingan bolalardan farqli ravishda) hisoblanadi. Bir vaqtning o'zida zaruriy ota-onalik g'amxo'rligidan maxrum bo'lgan barcha bolalar ham tajovuzkor bo'lavermaydilar. Oilaviy deprivasiyaning boshqa oqibati odamovilik. yuqori bog'liqlik. bo'ysunishga ortiqcha tayyorlik yoki chuqur xavotirlilik bo'lishi mumkin (pirovard. ehtimol. deprivasiyaning darajasi. bolaning yoshi. uning konstitusional xislatlari va boshqa sharoitlarga bog'liq).

Shunday qilib. ichki va tashqi omillarning noxush ta'sirida tajovuzkor mayl haqiqatan tajovuzkorlik va jamoatchilik uchun xavfli shaklgacha bo'lgan turg'un barbod qiluvchi axloq shakliga ega bo'ladi. Biroq tajovuz salbiy oqibatlarga olib kelishi shart emas. Masalan. u nafaqat yangi va yangi ob'ektlarga aralashib ketishi. balki faoliyatning turli shakllariga - biznes. o'qish. sport. sardorlik va h.k. larga *qo'shilishi (sublimasiya qilmoq)* mumkin.

Albatta. me'yorda tajovuz muhofaza xarakteriga ega va yashashga xizmat qiladi. U shuningdek. individning *faolligi manbai.* uning ijodiy potensiali va yutuqlarga intilishi bo'lib yuzaga chiqadi. Shaxs tajovuzning turli ko'rinishlarini taniy olishi. tajovuzni ijtimoiy maqbul shakllarda ifodalashi va nihoyat. boshqalar yoki o'zining ustidan zo'ravonlik qilishdan qochishi kerak va mumkin.

Shaxsiy tajovuz taqdiri – har bir katta insonning shaxsiy tanlagan ishi o'z tajovuziga egalik qilish esa – umuman murakkab psixologik vazifalardan biridir.

### Tajovuz va delinkvent axloq

Tajovuz va delinkvent (qonunga qarshi) axloq o'zaro aloqador ekani yaqqol fakt. Haqiqatan. qonunga zid harakatlarning kattagina qismi tajovuzkor harakatlar bilan birga boradi. Bu instrumental xarakterga ega tajovuz. ya'ni qandaydir maqsadga erishish uchun xizmat qiladigan g'arazli

jinoyat bo'lishi mumkin (yashashga maydonni olish uchun qotillik, o'g'rilikda jismoniy zo'ravonlik, pul undirish maqsadidagi tahdid). Boshqa zo'ravonlik jinoyati hollarida bevosita dushmanlik axloqi namoyon bo'ladi. Zo'ravonlik umuman olganda, tajovuzkor axloqning birmuncha xavfli shakli sifatida qonun bilan taqiqlanadi va davlat tomonidan nazorat qilinadi.

Shaxsning delinkvent axloqi va tajovuz o'rtasidagi o'zaro aloqa bir narsa emas. Qonunlarni buzish darajasiga yetgan tajovuzkor axloq dastavval *taqlid oqibati* bo'lishi mumkin. Taqlid uchun namuna sifatida qarindoshlar, tengdoshlar, boshqa ahamiyatli odamlar bo'lishlari mumkin. Tajovuzkor axloqni quvvatlashda alohida rolni delinkvent submadaniyat o'ynaydi. Asosial guruh, banda, nihoyat, ozodlikdan maxrum qilish joyi - bu barcha ijtimoiy institutlar turg'un tajovuzkor axloqni shakllantiradi.

Boshqa hollarda tajovuzkor qonunga qarshi axloq asabiy jihatdan shartlangan bo'lishi mumkin, masalan, agar u kuchli xavotir va anglanmagan gunoh tuyg'usi bilan motivasiyalansa. Qonunga qarshi harakatlarga moyillik boshqa odamlarga dushmanlik munosabati hayot usuli hisoblanuvchi *shaxsning antiijtimoiy yo'nalganligi* holida ham kuzatiladi. Tajovuzkor axloqnig keyingi shakli *asab tizimining organik buzilishi bilan* bog'liq bo'lishi mumkin. Bunday qonunbuzar, ayniqsa, samaradorlik, kechinmalarida turib qolish, impulsivlik yoki intellektual pasayish oqibatida zo'ravonlikka moyil. Alohida (ko'p sonli bo'lmagan) guruhdagi qonunbuzarlarni og'riqli holati tajovuzning (ularning antijamoatchilik yo'nalganligi bilan kam bog'liq bo'ladigan) kutilmagan motivasiyalanmagan portlashi bilan birga boradigan *psixik kasallar* ham tashkil etadi.

Amaliyotda, masalan, mas'uliyat choralari va jazolash turini aniqlash uchun *tajovuzkor axloqning patologik* va *nopatologik shaklini* farqlash muhim. Nopatologik shakl, qonundagiday, xulq xafagarchiligining qo'pol bo'lmagan ifodalanishi va yoqimli sharoitlarda konpensasiyalash layoqatida xarakterlanadi. Masalan, o'smirlarning tajovuzkor axloqi yosh reaksiyasi xarakterini olishi va umuman olganda atrofdagilar bilan o'zaro munosabatni buzmachligi mumkin. Patologik tajovuz esa, aksincha, zo'ravonlik axloqini tashkil etuvchi, psixik faoliyat va ularning dinamikasidagi og'riqli o'zgarishlarga sabab bo'luvchi sifat o'zgarishlari bilan bog'liq. Patologik o'zgarishlarning quyidagi belgilarini ajratish mumkin: hissiy muhitda o'zgarish va affektiv-yovuz reaksiyalarning

yuzaga kelishi bilan tajovuzkor axloq; o'ch olish, xafagarchilikning qadriyatlardan tashqari g'oyalari mavjud bo'lgan tajovuzkor axloq; asosiy belgisi boshqa odamga ma'naviy azob yoki jismoniy og'riq yetkazishda ijobiy hislarni boshdan kechirishda namoyon bo'ladigan mayllar muhitida, shu jumladan, sadistlik tajovuzi [1, 5, 8]. Masalan, patologik tajovuz holida oddiy tanqidiy ogohlantirish zulmning shunday darajasini qo'zg'atishi mumkinki, unda ong buziladi va odam o'zini unutgan holda qotillik sodir etadi.

Tajovuzkorlikning alohida holati *seriyali* va *tashqi jihatdan deyarli motivasiyalanmagan* qonunga qarshi harakatni aks ettiradi. E.Frommning [10] fikriga ko'ra, yovuz barbod etuvchi va sadistcha shafqatsizlik xarakteriga ega, to'satdan va atrofdagilar hamda yaqin kishilar uchun kutilmaganda yuzaga chiqadi. Tajovuzning bunday shakli, muallif fikricha, aniq biologik yoki iqtisodiy sabablarga ega emas va real insoniy muammoni tashkil etadi.

Tajovuzning qonunga qarshi tabiati haqidagi savolga javob berishga intilar ekanlar A.Bandura va R.Uolter [1] turg'un antijamoatchilik axloqi bo'lgan o'smirlarning tiklanishi va shaxsiy xususiyatlarining ijtimoiy sharoitlarini tadqiq etdilar. Mualliflar fikriga ko'ra asosial tajovuzli o'smirlar ijtimoiy planda ancha muvaffaqiyatlar o'z tengdoshlaridan ahamiyatli tarzda farqlanadilar. Ular ko'pincha va hiyla bevosita o'z tajovuzlarini ifodalaydilar (ayniqsa, uyda).

Mualliflar otasi bilan ijobiy munosabat o'rnatishga qodir bo'lmaslik o'g'il bolalarda antijamoatchilik yo'nalishining shakllanishida hal qiluvchi omillarda biri bo'lishini taxmin qiladilar.

Qonunni buzuvchi tajovuzkor o'smirlar atrofdagilarga ishonmaydilar, hissiy bog'lanib qoladigan vaziyatlardan qochadilar. Ular tengdoshlariga kamroq xayrixoh munosabatda bo'ladilar, ko'pincha jinsiy aloqa va tajovuzni aralashtiradilar, tajovuzkor axloqlari uchun ayblarini deyarli his qilmaydilar. Ular ko'p narsalarda impulsi ichki cheklovlarga qaraganda tashqilariga bo'ysunuvchi kichkina bolalarni eslatadilar. Bunday o'smirlar o'zlariga amaliy zarar yetkazadilar, chunki o'z harakatlari natijasida ko'ngil qo'ygan odamlaridan yanada ko'proq maxrum bo'ladilar va na hurmat, na ishonchni his qilmaydigan hokimiyat vakillarining qattiq nazorati ostiga tushadilar. Shu bilan birgalikda, qat'iy reglamentlangan tashqi nazorat (qamoq) sharoitida ular o'zlarini hatto ba'zida ozodlikdagidan ko'ra

qulayroq his qiladilar.

Tajovuzkor antiijtimoiy axloqning takroriy va jiddiy jazolanishi faktiga qaramay og'ir tugatiladi, ko'p tadqiqotchilarni bunday buzg'unchi deyarli tajribada o'rganishga qodir emas degan xulosaga olish keladi. Ehtimol, bu harakatdan keyin tezda munosib jazo berilmasligi yoki umuman jazosiz qolishlari bilan bog'liqdir. Tajovuz (jinoyat) ning jazosiz qolishiga bo'lgan ishonch antiijtimoiy axloqni quo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib, tajovuzkorlik va delinkventlik zich bog'langandir. Tajovuzkor asosial axloq umuman olganda jamiyatning turg'un salbiy munosabatini uyg'otadi va shaxs bilan uning atrofidagi odamlar o'rtasida jiddiy to'siq hisoblanadi. Shuni tan olish kerakki, aniq ifodalangan tajovuzkor axloqli shaxsga qator ijtimoiy ta'sir sabablarining kuchi ko'pincha kam samaralidir. Chunki tajovuz chuqur biologik va ijtimoiy ildizlarga ega, tajovuzkor axloqni ildizi bilan quritish, barcha ko'rinishlar bo'yicha mumkin emas. Faqat bir necha bosqichlarda - jamiyat, oila va kichik guruhlar, shaxsning o'zida samarali ijtimoiy nazorat tizimini yaratish orqali uning ko'rinishlarini kamaytirish haqidagi gapirish mumkin.

Afsuski, hech bir jamiyat zo'ravonlikning ko'rinishlaridan ozod emas. Shu bilan birga, tarix ko'plab misollarni biladiki, davlatning o'zi ham jinoiy harakatlar tashabbuskori bo'lib chiqqan. Qator davlatlar siyosatining oqibatlari Insoniyatga qarshi jinoyatchilik deb tan olindi: fashistlar tomonilan millionlab yevrey millatiga mansub odamlarni yo'q qilinishi, stalincha repressiya va deportasiya, turklar tomonidan armyanlarning ommaviy o'ldirilishi, chechenlar urushi.

Biz deviant axloqning aniq turlarini yoritishni oldini olib, tajovuz va tajovuzkor axloqning faqat ba'zi tomonlarinigina ko'rib chiqdik.

Ushbu mavzuni tugatib, yana bir bor ta'kidlash zarurki, tajovuz (muhabbat bilan bir qatorda) insoniy mavjudlikning eng turli-tuman shakllarida ishtirok etadi. Og'ishgan xulqning barcha asosiy turlari - delinkvent, tobe va suisidal - albatta, faqat tajovuzkor harakatlarning shakli va yo'nalganligi bilan farqlanuvchi o'z mohiyati bo'yicha barbod etuvchi axloq sifatida ko'rib chiqish mumkin.

### *Nazorat savollari va vazifalar*

1. Quyidagi tushunchalarning mazmunini ochib bering va taqqoslang: "tajovuz". "tajovuzkor mayl". "tajovuzkorlik", "tajovuzkor axloq".

2. Tajovuzning salbiy va ijobiy ko'rinishlarini ayting.

3. Tajovuz va tajovuzkor axloqning asosiy turlarini ayting.

4. Yosh xususiyatini inobatga olgan holda tajovuzkor (istalmagan) axloqning asosiy belgilarini sanab bering.

5. Tajovuzkor axloqni tushuntiruvchi asosiy psixologik nazariyalarni keltiring (ushbu bo'lim va oldingi qismning 4-bo'limiga asosan).

6. Tajovuzkor axloq shakllanishining shartlari va mexanizmlari qanday?

7. Shaxs tajovuzkor axloqining paydo bo'lishi va namoyon etilishiga qarshilik qiluvchi sharoitlarni ifodalang.

8. Shaxsning tajovuzkor va delinkvent axloqi o'rtasidagi aloqani ochib bering.

## 2-Bo'lim

## DELINKVENT AXLOQ

### Reja

- Delinkvent axloq – shaxs og'ishgan xulqining shakli sifatida
- Delinkvent axloqning shakllanish shartlari
- Qonunga qarshi motivasiya
- Antiijtimoiy (sosiopatik) shaxs

### Delinkvent axloq – shaxs og'ishgan xulqining shakli sifatida

Biz deviant axloqning alohida turlari ifodasini deviant axloq tavsifnomasidan boshlaymiz. Delinkvent (qonunga zid. antijamoaviy)

axloq muammosi ko'plab ijtimoiy fanlarning tadqiqoti uchun marqaziy hisoblanadi, chunki jamoatchilik tartibi yaxlit olganda davlat kabi uning har bir alohida fuqarosining rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi.

Qonunga qarshi axloqqa nisbatan turlicha yondoshuvlar va tushuncha apparatidan foydalaniladi. Psixologik adabiyotlarda uni ko'pincha ***delinkvent axloq*** sifatida ko'rsatadilar. Tushuncha lotin tilidan olingan bo'lib, "noo'rin xatti-harakat" deganidir. Bu atama ostida biz *shaxsning qonunga qarshi axloqi – ushbu jamiyatda va ushbu vaqtda o'rnatilgan qonunlardan og'ishgan, boshqa odamlar yoki ijtimoiy tartibning tinchligiga xavf soluvchi va o'zining oxirgi ko'rinishlarida jinoiy jazolanadigan aniq shaxsning harakati*ni tushunamiz. Qonunga qarshi axloqni namoyon etuvchi shaxs ***delinkvent shaxs (delinkvent)*** sifatida tavsiflanadi, harakatning o'zi esa – ***delikt***dir.

***Kriminal axloq*** umuman delinkvent axloqning bo'rttirilgan shakli hisoblanadi. Umuman olganda, delinkvent axloq jamiyatning aniq ifodalangan qoida (qonun) lariga, bevosita davlat hayotining mavjud me'yorlariga qarshi yo'naltirilgan.

Maxsus adabiyotlarda ko'rib chiqilayotgan atamadan turli ma'nolarda foydalaniladi. A.Ye.Lichko [15, 52-b.], o'smir psixiatriyasining amaliyotiga "delinkventlik" tushunchasini kiritib, uning o'z ortidan jinoiy javogarlikni olib kelmaydigan mayda antijamoatchilik harakatlarini chekladi. Bu, masalan, maktabga bormaslik, asosial guruh bilan muloqot qilish, mayda bezorilik, zaiflar ustidan tahqirlash, mayda pulni olib qo'yish, motosiklni olib qochish. V.V.Kovalev [7], delinkventlikning bunday sharhlashga qarshi delinkvent axloq jinoiy axloq hisoblanishini ko'rsatib, e'tiroz bildiradi.

Keng tarqalishni olgan "delinkvent" atamasi xorijda voyaga yetmagan jinoyatchilarni ifodalash uchun qo'llaniladi. Xullas, Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining materiallarida delinkvent boshqa individ yoki guruhga zarar keltiruvchi va ushbu lahzada jamiyat rivojlida me'yoriy ijtimoiy guruhlar tomonidan o'rnatilgan chegaradan o'tuvchi axloqli 18 yoshgacha bo'lgan shaxs sifatida ta'riflanadi. Voyaga yetgach delinkvent avtomatik tarzda antiijtimoiy shaxsga aylanadi.

Psixologik adabiyotlarda delinkventlik tushunchasi umuman qonunga qarshi axloq bilan bog'lanadi. Bu – *jamoatchilik tartibi me'vorlarini buzuvchi har qanday axloq*. Ushbu axloq jinoyatchilik darajasiga

yetmagan ma'naviy-etuk me'yorlarni mayda buzuvchi shaklga ega bo'lishi mumkin. Bu yerda u asosial axloq bilan mos tushadi. U Jinoiy kodeksga muvofiq jazolanuvchi jinoiy harakatlarda ham ifodalanishi mumkin. Bu holda axloq kriminal, antiijtimoiy bo'ladi.

Delinkvent axloqning keltirilgan turlarini qonunga qarshi axloqning shakllanish bosqichlari sifatida ham, uning nisbatan mustaqil ko'rinishlari sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.

Jamoatchilik qoidalarining ko'p obrazliligi qonunga qarshi axloqning katta miqdorini tug'diradi.

Delinkvent axloqning turli shakllarini tasniflash muammosi sohalararo xarakterga ega.

Ijtimoiy-huquqiy yondoshuvda qonunga qarshi harakatlarni zo'ravonlik va zo'ravon bo'lmagan (yoki g'arazli) ga ajratish keng ishlatiladi.

Klinik tadqiqotlar doirasida V.V.Kovalevning bir necha o'q bo'yicha qurilgan qonunbuzarlikning komplek sistematikasi qiziqish uyg'otadi. Ijtimoiy-psixologik o'qda - intizomga qarshi, jamoatchilikka qarshi, qonunga qarshi; klinik-psixopatologikda - nopatologik va patologik shakllar; shaxsiy-dinamiklikda - reaksiya, rivojlanish, holat. A. G.Ambrumov va L.Ya.Jezlovlar qonunbuzarlikning ijtimoiy-psixologik shkalasini taklif qildilar: intizomga qarshi, antiijtimoiy, delinkvent - jinoiy va autotajovuzkor axloq (ta'kidlash lozimki, ushbu mualliflar delinkventlikka faqat jinoiy axloq mansub deydilar) [9, 115-b.].

Bunday masalalarni hal qilish uchun delinkventlikning ifodalanganlik darajasini va shaxsga ta'sir chegarasini aniqlash kabi qonunbuzarlar tipini sistemalashtirish ham muhim ahamiyatga ega.

1932 yili N. I. Ozereskiy tomonidan voyaga yetmagan qonunbuzarlar tipologiyasini bugungi kunda ham dolzarb bo'lgan ifodalanganlik darajasi va xarakteri bo'yicha deformasiiyasini taklif qildi: *tasodifiy, odatiy, turg'un va professional qonunbuzarlar* [9, 116-b.].

Qonunbuzarlikni sodir etgan o'smirlar orasida A.I.Dolgova, Ye. G. Gorbatovskaya, V. A. Shumilkin va boshqalar [5], o'z navbatida, quyidagi uch tipni ajratadi:

1) *izchil-kriminogen* - ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'sirda jinoiy axloq shaxsning kriminogen "hissasi" hal qiluvchi hisoblanadi, jinoyat

axloqning odatiy usulidan kelib chiqadi, u sub'ektning maxsus qarashlari, ko'rsatmalari va qadriyatlari bilan shartlanadi;

2) *vaziyatli-kriminogen* – axloqiy m'yorlarning buzilishi, jinoiy bo'lmagan xarakterdagi qonunbuzarlik va jinoyatning o'zi ahamiyatli darajada notinch vaziyatlar bilan shartlangan; jinoiy axloq sub'ektning rejalariga mos tushmasligi, uning nuqtai nazarida ekssess bo'lishi mumkin; bunday o'smirlar ko'pincha qonunbuzarlikning tashabbuskori hisoblanmay, spirtli ichimliklar kayfidagi holatda guruhda jinoyat sodir etadilar;

3) *vaziyatli tip* – salbiy axloqning ahamiyatsiz ifodalanganligi; individ aybi bilan yuzaga kelmagan vaziyatning hal qiluvchi ta'siri; bunday o'smirlar hayotining usuli ijobiy va salbiy ta'sirlar kurashi bilan xarakterlanadi.

V.N.Kudryavsev [13] ham xuddi shunga o'xshash professional (muntazam jinoyat sodir etuvchi, undan keladigan daromadlar hisobiga yashovchi shaxslar), vaziyatli (sharoitdan kelib chiqib harakatlanuvchi), tasodifiy jinoyatlar (qonunni faqat bir marta buzgan).

Delinkvent axloq shaxs deviant axloqining shakli sifatida qator xususiyatlarga ega.

Birinchidan, bu *shaxs og'ishgan xulqining kamroq ma'lum bo'lgan turlaridan biri.* Masalan, jinoiy deb tan olingan harakatlar doirasi turli davlatlar, turli vaqt uchun turlichadir. Qonunlarning o'zi bir xil emas, ularning takomillashishi kuchida katta yoshdagi aholining katta qismi "jinoyatchilar" kategoriyasiga kiritish mumkin bo'lib qoladi, masalan, soliq to'lashdan qochish yoki kimgadir jismoniy og'riq yetkazish. Shunga o'xshash hamma biladiki, aldash mumkin emas. Biroq haqiqatni hech bir sharoitga qaramay har doim va hamma joyda gapiradigan odam joyida yolg'on gapiradiganlar qaraganda ancha noadekvat bo'lib ko'rinadi.

Ikkinchidan, delinkvent axloq, *ayniqsa, qonuniy me'yorlar* – qonunlar, me'yoriy aktlar, intizomli qoidalar *bilan boshqariladi.*

Uchinchidan, qonunga qarshi axloq *deviasiyaning birmuncha xavfli shakllaridan biri* deb tan olinadi, chunki o'z asosi bilan ijtimoiy qurilish – jamoatchilik tartibiga xavf soladi.

To'rtinchidan, shaxsning bunday axloqi *faol muhokama qilinadi* va *har qanday jamiyatda jazolanadi.*

Istagan davlatning asosiy vazifasi qonunlarni yaratish va ularning ijrosi ustidan nazorat qilish hisoblanadi, shuning uchun delinkvent axloq deviasiyaning boshqa turlaridan farqli tarzda maxsus ijtimoiy institutlar: sudlar, tergov organlari, ozodlikdan maxrum qilish joylari tomonidan boshqariladi.

Nihoyat, beshinchidan, muhimi shuki, qonunga qarshi axloq o'z mohiyati bo'yicha *shaxs* va *jamiyat* – individual intilishlar va jamoatchilik manfaatlari *o'rtasidagi nizoning mavjudligini* anglatadi.

### *Delinkvent axloqning shakllanish shartlari*

Fuqarolarni o'rnatilgan qonunlar va qoidalarga amal qilishni uyg'otishga yo'naltirilgan jamiyatning turli-tuman choralariga qaramay, ko'pchilik odamlar uni har kuni buzadilar. Ko'pincha ko'rinishidan to'la oddiy ko'ringan odamlar to'satdan jiddiy jinoyat sodir etganliklarini tushunish og'ir bo'ladi. Ko'p hollarda bu psixik jihatdan sog'lom shaxslar, shu jumladan, bolalar va o'smirlar.

Qonunga qarshi harakatlar determinasiyasini ko'rib chiqishda, odatda, shunga o'xshash axloqni uyg'otuvchi tashqi sharoitlar va ichki sabablar yig'indisi haqida gapiradilar. Shubhasiz, har bir aniq holda omillarning noyob uyg'unligi o'ringa ega, shunga qaramay, delinkvent axloqning shakllanishida ba'zi umumiy tendensiyalarini aniqlash mumkin.

***Ijtimoiy sharoitlar*** qonunga qarshi axloqning sodir bo'lishida ma'lum bir rol o'ynaydi. Ularga dastavval ko'p darajali jamoatchilik jarayonlari taalluqlidir. Bu, masalan, zaif hokimlik va qonunchilikning mukammal emasligi, ijtimoiy kataklizmalar va hayotning past darajasi.

R.Mertonga asosan [15, 202-b.], ba'zi odamlar delinkent axloqdan voz kecha olmaydilar, chunki hozirgi jamiyatda har qanday baho bilan daromadga, ehtiyoj va muvaffaqiyatga intilish kuchlidir. Jamiyat farovonligidan u yoki bu darajada "chetga surib tashlangan" odamlarga *qonuniy yo'l bilan istagan maqsadlariga erishish og'ir*.

Aniq shaxsning jamiyatga qarshi axloqidagi ijtimoiy sabab *jamiyatning yorliq osishga moyilligi* bo'lishi ham mumkin. Qator hollarda mustahkam jamiyatga qarshi axloq illatli doira tamoyili bo'yicha shakllanadi: dastlabki, tasodifan sodir etilgan jinoyat – jazo – zo'ravonlik munosabatlar tajribasi (qamoqxonalarda eng yuqori darajada taqdim

etilgan) – "jinoyatchi" yorlig'i oqibatida ijtimoiy moslashuvdagi keyingi qiyinchiliklar – ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklar yig'indisi va ikkilamchi delinkventlik – anchagina og'ir jinoyat – va h.k.

Ushbu tragik holat Stivena Kingning "Shoushenkadan qochish" qamoq drama kinoversiyasida ajoyib tarzda taqdim etilgan (1994 y., F.Darabont postanovkasi). Filmning bosh qahramoni Endi Dyufreyn o'zi sodir etmagan xotinining o'limi uchun butun umrga qamoq jazosiga maxkum etilgan. Uning qonunlashtirilgan zo'ravonlikka qarshilik ko'rsatish qobiliyati, uning genial tarzda tayyorlangan qamoqdan qochishi – umumiy qoidadan odatdan tashqari, istisnodir. Dramaning boshqa personaji – kutubxonachi Bruks Xatmid, 45 yil qamoqda o'tirib, "uyida" qolish uchun muvaffaqiyatsiz tarzda yangi jinoyat qilishga urinadi. "Majburiy" ozod qilingach, u ozodlik yukini ko'tara olmay o'z-o'zini o'ldiradi. Bu holda shaxs zo'ravonlik va ijtimoiy stereotiplar qurboni bo'ladi.

P.Kuter [15, 203-b.] ko'rsatishicha, ko'pgina qonunga bo'ysunuvchi odamlar tajovuzkor-kriminal impulsga egadirlar, aniq harakatlarda amalga oshirmaydilar, biroq boshqa odamlarga proeksiyalanadi, masalan, qonunbuzarlikni sodir etuvchilarga. Ushbu proektiv jarayonlar natijasida qonunbuzarlik o'ta qattiq baholanishi va nohaq jazolanishi mumkin, bu esa, o'z navbatida, delinkventlikning kuchayishiga olib keladi.

Delinkvent axloqning bunyodga kelishida muhim rolni mikroijtimoiy vaziyat o'ynaydi. Uning shakllanishiga, masalan, quyidagilar ko'maklashadi: asosial va antiijtimoiy muhit (ota-onalarning piyonistaligi, asosial va antiijtimoiy oila yoki kompaniya); nazoratsizlik; ko'p bolali va to'liq bo'lmagan oila; oila ichidagi nizolar; ahamiyatli boshqalar bilan surunkali janjallar.

V.N.Kudryavsev jinoyatchini hatto erta yoshida yuzaga keluvchi *o'z muhiti*dan *begonalashish holati*ni ko'rsatadi. Xullas, 10 foiz tajovuzkor jinoyatchilar onalari ularni bolalikda sevmagan deb hisoblaydilar ("me'yoriy" tanlovda faqat 0,73 foiz) [12].

Adabiy ma'lumotlarni yig'ib, delinkventlikni chaqiruvchi quyidagi mikroijtimoiy omillarni sanab o'tish mumkin:

- bolalarning nozik g'amxo'rlik va ota-onalari tomonidan mehribonligiga ehtiyoji frustrasiyasi (masalan, o'ta qattiqqo'l ota yoki yetarlicha g'amxo'r bo'lmagan ona), o'z navbatida, bolada erta jarohatli

kechinmalarni uyg'otadi;

- oilada jismoniy yoki psixologik shafqatsizlik yoki kuch kulti (masalan, jazoning haddan tashqari yoki doimiy qo'llanilishi);

- ma'naviy ongning me'yoriy rivojlanishini qiyinlashtiruvchi ota ta'sirining yetishmasligi (masalan, uning yo'qligi);

- jarohatli sharoitlarni qayd qilish bilan o'tkir jarohat (kasalllik, ota-onaning o'limi, zo'ravonlik, ajrashish);

- bolani uning xohishlarini bajarishda erkalatish; ota-onalarning yetarli bo'lmagan talabchanligi, ularning o'sib boruvchi talablarni qo'yishga yoki ularning bajarilishiga erishishga noqodirligi;

- bolani o'ta rag'batlantirish – ota-onaga, aka-uka va opa-singilga juda ham jadal erta sevgili munosabat [2, 61-b.];

- ota-onalar tomonidan bolaga nisbatan talablarning kelishmaganligi oqibatida unda axloqning aniq tushunchasi paydo bo'lmaydi;

- ota-onalar (vasiylar) ning almashinuvi;

- ota-onalar o'rtasidagi surunkali aniq ko'zga ko'ringan nizolar (ayniqsa, qachon shafqatsiz ota onani do'pposlagan vaziyat xavfli);

- ota-onalarning istalmagan shaxsiy xislatlari (masalan, talabchan bo'lmagan ota va erkalatuvchi onaning uyg'unligi);

- bolaning o'rganish orqali oilada yoki guruhda delinkvent qadriyatlarni (ochiq yoki yashirin) o'zlashtirishi.

Qoidadagiday, dastlabki onlarda bola frustrasiyani kechirayotib, og'riqni his qiladi, tushunish va yumshatish bo'lmaganida bu *ixlosi qaytish* va *yovuzlik*ka o'tadi. Tajovuz ota-onalar e'tiborini tortadi, bu esa o'z-o'zidag bola uchun muhim. Bundan tashqari, tajovuzdan foydalanib, bola ko'pincha atrofdagilarni boshqarib, o'z maqsadiga erishadi. Sekin-asta tajovuz va qoidalarni buzish sistematik tarzda istalgan natijani olish usuli sifatida foydalaniladi. Delinkvent axloq mustahkamlanadi.

M.Ratter va D.Gidler [25] "Voyaga yetmaganlar jinoyatchiligi: tendensiya va istiqbollar" tadqiqotida oilada erta bolalik rivojlanishining xislatlari va individ bo'ysunishining keyingi darajasi o'rtasidagi aniq aloqani ko'rsatadilar, biroq ta'kidlaydilarki, oilaning bunday ta'siri mexanizmlari avvalgiday noaniq bo'lib qolmoqda. Shuningdek, ular ijtimoiy o'zgarishlar va jinoyatchilikning o'sishi o'rtasidagi korrelyasiyani

bu aloqa mexanizmlariga tegishli bilimlarning etishmasligini qayta ta'kidlaga holda ta'kidlaydi. Voyaga yetmaganlar misolida tadqiqotchilar shunday xulosaga keldilar, jinoiy axloq uchun ko'plab sabablar mavjud. Bular tengdoshlar guruhi, ijtimoiy nazorat va ijtimoiy o'rganish, biologik va vaziyatli omillar bo'lishi mumkin. Ularning nuqtai nazarlari bo'yicha profilaktikaning yagona tushuntirishi yoki yagona strategiyani izlash bema'nilikdir.

Qonunga qarshi axloqning **individual determinantlari** psixologik tahlil uchun alohida qiziqishdan iboratdir.

O'z navbatida, individual xususiyatlar ***jinsiy farq bilan*** ahamiyatli tarzda belgilanadi. Masalan, yaxshi ma'lumki, qonunbuzar axloq ko'proq erkak jinsi uchun xarakterlidir. Ayollar jinoyatchiligining o'sishiga qaramay uning nisbiy ko'rsatkichlari erkaklarnikidan past, masalan, Rossiyada 1998 yilda ayollar jinoyatchiligi qayd qilingan umumiy holatning 15 foizini tashkil etadi [14].

Ayollar yoki erkaklarga xos bo'lgan jinoyatlar haqida gapirish mumkin. Bolalarni o'ldirish, fohishabozlik, magazinda o'g'rilik qilish kabi deliktlarni ko'pincha ayollar sodir etadilar.

Erkaklar ko'pincha avtomobilni olib qochadilar, bosqinchilik qiladilar, o'g'rilik qiladilar, tan jarohati yetkazadilar, o'ldiradir. Tipik erkakcha jinoyat ham mavjudki, u zo'rlashdir.

***Yosh omili*** ontogenezning turli bosqichlarida o'ziga xos axloqni belgilaydi. Qonunbuzarlikning yosh tezligi dinamikasi quyidagi obrazda ko'zga tashlanadi: ko'pchilik jinoyatchilarning yoshi 25 bilan 35 orasida kolebletsya; jinoyat miqdori hech so'zsiz 14 dan 29 yoshgacha o'sadi; eng ko'p hollarda jinoyat sodir etish 29 yoshga to'g'ri keladi; 29 dan 40 yoshgacha sekin-asta pasayish kuzatiladi; 40 dan keyin jinoyat qilish siyraklashadi [14].

Shubhasiz, antiijtimoiy axloq (masalan, tajovuzkordan farqli ravishda) haqida, ma'lum bir yoshga etgandan keyingina gapirish mumkin bizning nazarimizda, 6-8 yoshdan avval emas. Qoidadagiday, kichkina bola o'z axloqini, uni nazorat qilish va ijtimoiy me'yorlarga nisbatan yetarlicha anglashi mumkin emas. Faqat maktabdagina bola ilk bor va haqiqatan prinsipial ijtimoiy talablar bilan to'qnashadi hamda maktab yoshidan boshlab boladan axloqning asosiy qoidalariga qat'iy amal qilishni kutish mumkin.

Turli yoshda delinkvent axloqning "sifatli" xususiyatlarining ko'rinishiga o'rin bor. *Ontogenezning ilk bosqichida* ijtimoiy axloqning buzilishi bolaning psixik rivojlanishidagi muammolarni yoki avloddan-avlodga o'tuvchi xarakterga ega bo'lgan asabiy reaksiyani o'zida aks ettiradi. Masalan, bolaning besh yoshida o'g'rilik qilishi giperfaollik, e'tibor va muhabbatga aabiy ehtiyoj, yaqin odamini yo'qotish reaksiyasi, intellektual rivojlanishdagi to'xtalish, zaruriy ozuqa va buyumlarni olish imkonsizligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Maktabga chiqish lahzasidan vaziyat prinsipial tarzda o'zgaradi - bolada ulg'aygan psixik imkoniyatlari sharoitida shaxsning jadal ijtimoiylashuvi bosqichi boshlanadi. Shu vaqtdan boshlab bolaning ma'lum bir harakatlarini haqiqatan qonunbuzarlikka yaqin sifatda ko'rib chiqish mumkin.

*Kichik maktab yoshida* (6-11 yosh) delinkvent axloq quyidagi shakllarda ko'rinishi mumkin: mayda bezorilik, maktab qoidalari va intizomni buzish, dars qoldirish, uydan qochib ketish, yolg'onchilik va o'g'rilik.

Rossiyadagi ijtimoiy-iqtisodiy krizis delinkvent axloqning, shu jumladan, yosh bolalar guruhlarida ham o'sishiga ko'maklashganini ta'kidlash lozim. Aholi bir qismining qashshoqlashuvi, jamoatchilik tarbiya institutlarining parchalanishi, jamiyat ko'rsatmalarining o'zgarishi – bularning barchasi qarovsiz turdagi asosial bola shahar ko'chalarining odatiy qahramoniga aylanishiga olib keldi.

Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining ko'cha bezoriliklari (o'g'rilik, telefon avtomatlari yaqinidagi qalloblik, ta'magirlik) daydilik, giyohvand moddalar va spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bilan uyg'unlashadi. Albatta, bunday hollarda bolalarning deviant axloqi qonunan o'smirlar va katta yoshdagilarning delinkvent axloqiga o'tadi. .

*O'smir yoshida* (12-17 yosh)gi qonunbuzarlik harakatlari anchagina anglangan va ixtiyoriy hisoblanadi.

Ushbu yosh uchun "odatiy" buzilishlar – o'g'il bolalarda – o'g'rilik va bezorilik, qizlarda – o'g'rilik va fohishabozlik bilan bir qatorda yangi shakllar ham keng tarqaldi – giyohvand moddalar va qurol bilan savdo-sotiq qilish, reket, qo'shmachilik, muttahamlik, biznesmen va xorij fuqarolariga tashlanish.

1998 yili 190 mingga yaqin voyaga yetmagan jinoyatchilar (qonunni buzuvchilarning umumiy sonini 10 foizi) ro'yxatga olingandi [14]. Statistik ma'lumotlarga qaraganda o'smirlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlarning katta qismi guruh bo'lib amalga oshirilgan. Guruhda jazodan qo'rquv pasayadi, tajovuz va shafqatsizlik keskin kuchayadi, o'ziga va sodir bo'layotganlarga nisbatan tanqid susayadi.

Guruhli qonunbuzarlik axloqining birmuncha yuqori ko'rsatkich namunasi futbol matchidan keyin yoshlar ko'pchilikni tashkil etuvchi ishqivozlarning "sayri" hisoblanadi.

V.N.Kudryavsev [12] hisoblaydiki, jinoiy karera, qoidadagidek, yomon o'qish va maktabdan begonalashishdan (unga salbiy-dushmanlarcha munosabat) boshlanadi. Keyin oilaviy muammolar va tarbiyaning "nopedagogik" usuli fonida oiladan begonalashish sodir bo'ladi. Keyingi qadam esa jinoiy guruhga kirish va jinoyat sodir qilish o'ladi. Bu yo'lni bosib o'tishga o'rtacha 2 yil talab qilinadi. Mavjud bo'lgan ma'lumotlarga qaraganda 60 foiz professional jinoyatchilar (o'g'rilar va moshennikov) bu yo'lga o'n olti yoshlarida qadam qo'yganlar.

Determinasiya bo'yicha o'smir huquqbuzarlarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

Birinchi guruhni ularning harakatlarga hissiy reaksiyasini noto'g'ri yo'naltiruvchi qator sabablar oqibatida rivojlanmay qolgan oliy tuyg'ular (uning xabari, majburiyat tuyg'usi, mas'uliyat, yaqinlariga ko'ngil qo'yish) yoki yaxshilik yoki yovuzlik haqidagi tasavvurlarga ega o'smirlar tashkil etadi.

Ikkinchi guruhga *gipertrofik yosh reaksiyasi bo'lgan* o'smirlarni kiritish mumkin, bu ularning oppozision va antiijtimoiy axloq xarakteriga o'tishini ko'rsatadi (boshqa yoqimli sharoitlarda).

Uchinchi guruhni delinkvent axloqni bevosita o'z atrofidagilarga turg'un yuzaga chiqaruvchilar va kim uchun bunday *axloq odatdagi me'yoriy* (o'z o'zining salbiy obrazi, o'z-o'zining nazorati yo'qligi, sust rivojlangan vijdon, odamlarga ehtiyojiy munosabat bilan) *hisoblanganlar* tashkil etadi.

To'rtinchi guruhga *psixik* va *asabiy* xafagarchiligi bo'lgan o'smirlar taalluqlidir (ularda delinkvent axloq bilan birgalikda og'riqli simptomlar yoki intellektual rivojlanmaganlik belgilari ishtirok etadi).

Nihoyat, o'smirlarning *ongli ravishda delinkvent axloqni tanlovchi* (psixik xafagarchilik bilan azoblanmaydigan yetarlicha o'z-o'zini nazorat qilishga ega va o'z tanlovining oqibatlarini tushunuvchi) beshinchi guruhi ajratiladi.

Birmuncha noxush prognostik belgilar (kelgusida antijamoatchilik axloqini shakllanishi planida) deb quyidagilarni hisoblash mumkin: vijdon va aybdorlik tuyg'usining yo'qligi, patologik aldamchilik, odamlarga ehtiyojiy munosabat, beparvolik, irkitlik, aniq ko'rinib turgan psixopatologiya.

Jinsiy va yoshdan tashqari, *konstitusional omil* ajratiladi. Tadqiqotchilar konstitusional xususiyatlar shaxs rivojlanishini antiijtimoiy tomonga yo'naltirishi mumkin, deb ta'kidlaydilar.

Masalan, bolaning ishtiyoqi shu qadar kuchli bo'lishi mumkinki, u ochlik holatiga qiyinchilik bilan chidaydi, buning ta'siri ostida u o'g'rilikka qo'l urishi mumkin. Yoki ehtimol, kichik bolalarda yaqin munosabatlar o'rnatish qobiliyatida aniq ko'rinib turgan individual farq mavjud [2, 54-b.].

*Psixopatologiya*ning (har qanday yoshda) shaxs delinkvent axloqiga ta'siri haqidagi masala munozarali bo'lib qolmoqda. "Psixik og'ishlar va antijamoatchilik axloq munosabatlarining muammosi - psixiatriyada eng murakkab va chalkashlaridan biridir". - deya ta'kidlaydi V.V.Korolev [10, 5-b.]. Delinkvent axloq bilan uyg'unlashuvchi anomaliyalarning birmuncha tarqalgani sifatida quyidagilarni aytadilar: *psixopatiya, piyonistalik; asabiy xafagarchilik; bosh suyagi-miya jarohatlar va bosh miyaning organik kasalliklarining qoldiq ko'rinishlari; intellektual yetishmovchilik* [9, 10, 16].

Psixik anomaliyaga ega bo'lgan odamlar intellektual yoki hissiy-ixtiyoriy patologiya oqibatida o'z harakatlarini anglash va nazorat qilishning past layoqatini namoyon etadilar. Ayni damda tibbiy me'yordan og'ishishni garchi ular qator hollarda uyg'unlashsa-da, jinoiy harakatlarni chaqiruvchi aniq sabablar deb hisoblab bo'lmaydi.

Psixik xafagarchilikning muayyan sharoitlar bilan uyg'unlashuvida odamning *o'z jinoyati uchun qonun oldida javob bera oladigan* ahamiyatli tarzda pasaytiruvchi, ya'ni o'z harakatlarini anglash va ularni nazorat qilishga qodir *patologik affekt*ning yuzaga kelishini kutish mumkin.

Ko'pgina mualliflar ham kam dalillangan, ko'pincha atrofdagilar uchun kutilmagan shafqatsiz qotillikni aynan patologik axloqning ko'rinishi sifatida ko'rib chiqadilar. Yu.B.Mojginskiy [19] ko'rsatishicha, psixik xafagarchilik belgisisiz o'smirlar tomonidan sodir etilgan shunga o'xshash jinoyatlar holida ikkita *patologik tendensiya* kuzatiladi: *affektning buzilishi* (ruhiy azoblanish holati, distimiya) va *shaxs krizisi* (psixopatik rivojlanish). Ushbu buzilishlar shaksiz aniq ijtimoiy-psixologik kontekst bilan uyg'unlashadi. Ular orasida muallif nizoli vaziyatlar, uzoq muddatli stress (oilada cho'zilib ketgan janjal), o'smir guruhlarining ta'siri (guruhli qadriyatlar va qodilara), to'laqonli emaslik kompleksi, ahamiyatsiz bo'lgan tashqi xavfni nomlaydi.

X.Remshmidt [27] o'smirlar delinkvent axloqining etiologiyasida boshqa psixik kasalliklar belgisisiz *yengil hissiy zararlar*: qo'rquv, sog'inch yoki axloqning zo'ravonlik usuli bilan manifestlanadigan *aniq ko'rinib turgan hissiy buzilishlar*ni ajratadi.

Qator hollarda *kayfiyatning buzilishi mayl patologiyasi* bilan uyg'unlashadi, masalan, kuydirish (piromaniya) yoki o'g'rilik (kleptomaniya) ga davriy yengib bo'lmas *qiziqish* bo'lgan patologik axloq. Shu qatorda qiziqishlar buzilishiga qochish va daydilikka moyillik taalluqlidir. Umuman olganda, *buzilgan qiziqishlar sindromi* quyidagilar bilan xarakterlanadi: impulsivlik, turg'unlik, shaxs uchun begonalik va yengib bo'lmaslik. X.Remshmidt, ruhiy azoblanish holatidagi delinkventlarni yoritib, "qiziqish va tajovuzning kuchayishi" hamda "qiziqishning mutlaq yo'qolishi" holatining almashinishi haqida gapiradi [24].

Keltirilgan ma'lumotlar *affektiv ixtisosi* shaxsning antiijtimoiy axloq bilan bog'langan va o'z navbatida, ichki hamda tashqi omillar yig'indisiga bo'ysunuvchi birmuncha ahamiyatli xislatlaridan biri hisoblanishi haqida gapirishga imkon beradi.

Shunday qilib, axloq determinasiyasi bo'yicha delinkvent shaxsning bir necha asosiy guruhlarini ajratish mumkin:

*Vaziyatli qonunbuzar* (ko'pincha vaziyat taqozosi bilan qo'zg'atilgan qonunga qarshi harakatlar);

*Submadaniyatli qonunbuzar* (antiijtimoiy qadriyatlar guruhlari bilan o'xshash bo'lgan buzuvchi);

– *Asabiy qonunbuzar* (intrapsixik nizo va xavotir natijasida chiquvchi asosial harakatlar);

– *"Organik" qonunbuzar* (impulsivlik. intellektual yetishmovchilik va affektivlik ustunligi bilan miya jarohati oqibatida sodir etiladigan qonunga qarshi harakatlar);

– *Psixotik qonunbuzar* (og'ir psixik buzilish - psixoz, ongning xiralashishi natijasida sodir etiladigan deliktlar);

– *Antiijtimoiy shaxs* (shaxsiy chiziqlarining maxsus uyg'unligida yuzaga kelgan antijamoatchilik harakatlari: dushmanlik. oliy tuyg'ularning rivojlanmaganligi. yaqinlikka qodir bo'lmaslik).

### *Qonunga qarshi motivasiya*

Yuqorida ko'rib chiqilgan ichki va tashqi sharoitlar delinkvent axloqning shakllanishiga imkon beradi.

Ayni damda. qonunbuzarlikni yoritib. ko'pchilik mualliflar delinkvent axloqning paydo bo'lishida *shaxs antiijtimoiy yo'nalganligining hal qiluvchi roli* haqidagi xulosaga yonbosadilar. Gap qonunga qarshi axloqning bevosita sababi bo'lib chiquvchi ***maxsus motivasiya*** haqida boradi. V.N.Kudryavsev [11] *shaxsning antijamoatchilik oriyentasiyasi* to'g'risida so'zlaydi. Boshqa mualliflar o'xshash atamalardan foydalanadilar: *shaxsning kriminogenli deformasiyasi. antijamoatchilik ko'rsatmalari. antiijtimoiy yo'nalganlik. qonunga qarshi motivasiya.* Ushbu atamalar shaxsning birmuncha turg'un va ustun bo'lgan sabablar - ichki ishonch istagi. ehtiyoj. ko'rsatmalar. qadriyatlar. manfaatlar va e'tiqod tizimini belgilaydi.

Qonunga qarshi motivasiya ifodalanishning turli manba. shakl va darajasiga ega bo'lishi mumkin.

V.V.Luneev [17] qonunga qarshi harakatlarning quyidagi yetakchi motivasiyalarini ko'rib chiqadi: g'arazli-ta'magir. zo'ravon-egoistik. anarxistik-individualistik. yengiltabiat mas'uliyatsizlik. qo'rqoq jur'atsizlik.

A.I.Dolgova [5] o'smirlar misolida shaxs deformasiyasining zo'ravon va g'arazli tiplarini ajratadi *Zo'ravonlik* tipida o'z-o'zini tasdiqlashga

intilish. o'zini kuchli. haqiqatgo'y. har doim yordamga tayyor mehribon natura deb tasavvur etish xohishi mavjud. Biroq haqiqatgo'ylik haqidagi tasavvur bunday shaxslarda noto'g'ri. ish mohiyati bo'yicha ularning axloqi jinoyatchining axloqi hisoblanadi. Ular uchun guruhli egoizm, norasmiy guruhlarga zich bog'langanlik. shafqatsizlik. kuchga ibodat qilish. o'z axloqining to'g'riligiga ishonch tipikdir. *G'arazli tip* uchun guruhli emas. individual egoizm xarakterli. Uning vakillarida qadriyatli orientasiya ancha nuqsonli. ular o'z harakatlarining qonunga qarshi xarakterini to'la anglaydilar. Bunday o'smirlarni sirlilik. axloqsizlik. g'arazli ko'rsatmalarning mavjudligi. anchagina chuqur ijtimoiy qarovsizlikni farqlaydi. Amaliyotning kattagina qismida ko'rsatilgan tiplarning kombinasiyasi bilan ish olib borishga to'g'ri keladi.

Qonunga qarshi motivasiya aniq shaxs motivlaridan ustunlik qiluvchi mustahkam tizim sifatida bevosita uning huquqiy ongi bilan bog'liq. *Huquqiy ong* quyidagilarni ko'zda tutadi: 1) qonunlarni bilish va ularni tushunish: 2) qoidalarni shaxsga ahamiyatli kabi qabul qilish. ularning foydaliligi va haqqoniyligiga ishonish: 3) qonun va qoidalarga muvofiq tayyorlik. malaka va odatlarni harakatlantirish. Shubhasiz. me'yoriy ijtimoiy rivojlanish madaniy (shu jumladan. huquqiy) me'yorlarni individual qadriyatlarga aylanish jarayonini ko'zda tutadi. Shaxsiy mazmun tizimi orqali singan huquqiy me'yorlar ixtiyoriy boshqaruv bilan uyg'unlashib. shaxsning *qonunga bo'ysunish* kabi sifatini ta'minlaydi.

N.F.Kuznesova [5] katta odamlarning qonunga bo'ysunishining motivasiyasini aniqlash maqsadida so'rovnoma o'tkazdi (1984). So'ralganlar orasida 52.3 foizi qonun va tartibning foydaliligiga o'z ishonchlarini: 27.4 foizi - qonunga amal qilish odatini ta'kidladilar. Yakka javoblar (4 tadan *1.5 foizgacha*) boshqalar namunasining ta'siri. atrofdagilarning ishonchini yo'qotish qo'rquvi. shaxsiy hisob-kitob. muhokamadan qochish istagi. Faqat 0.9 % respondentlar qonunga bo'ysunishning sababi sifatida jazodan qo'rqish ekanini ta'kidlaganlar. Yoshlarda jazodan qo'rqish hiyla ifodalangan: 7 foiz so'ralganlar shu sababni aytganlar. Biroq umuman olganda jazodan qo'rqish jinoyat sodir etishga qarshilik qilmaydi. Tadqiqotlar ma'lumotlari bo'yicha 2 mingta maxkumlardan faqat 4 foiz respondentlargina jinoyat sodir etayotib uning ortidagi jazo haqida o'ylanganlar. Ushbu tadqiqotlarning ko'rsatishicha. jinoyatchilarda qonunga bo'ysunish me'yoriy odamlarnikiga qaraganda 5-9 marta past.

Shunday qilib, qoidalarni bajarish yoki uni buzishning motivasiyalari turli-tuman bo'lishi mumkin ekan. Qonunga qarshi harakatlarni qo'zg'atuvchi alohida sabablar quyidagilar bo'lishi mumkin: tezda lazzat olishga intilish, o'z-o'zini tasdiqlashga, qulaylikka yoki yuqori ijtimoiy mavqega intilish, oppozision axloq (buzishga ichki intilish, taqiqlar), axloqiy stereotiplar (kriminal muhitda bo'lish tajribasi), tajovuz va sadistlikka moyillik, ijtimoiy stereotiplar va an'analarga ergashish, guruhga mansublikni his qilish va uni ma'qullashga ehtiyoj, zerikish, xatar va o'tkir hissiyotlarga intilish, frustrasiya, majburiy himoya zarurati, altruizm (boshqa odamlar yoki yuqori maqsadlar evaziga qonunbuzarlik).

Rejissyor Lyuk Bessonning "Leon" (1996) filmida delinkvent axloqning ikkita motivasion chiziqlarni qarama-qarshi qo'yadi.

Birinchi chiziq – "tozalovchi", vijdonli kallakesar, boshidanoq tanlash imkoniyatidan maxrum bo'lgan Leon obrazida gavdalantirilgan. Italiyadan kelgan savodsiz emigrant Leon (Jan Reno) Amerikaga hech bir kasb va yashash uchun mablag'siz keladi. "Marhamatli qariya" Toni Leonga killerlik ishini topib berib, undan foydalanganicha "yordamlashadi". Leon yashashni istash va hayotni sevish nima ekanini bilmaydi. U shunchaki yolg'iz o'zi bu shafqatsiz hayotda yashaydi. U o'z ishini "faqat ayollar va bolalar emas" qat'iy tamoyilga rioya qilgan holda vijdonan bajaradi. Uning hayotida oilasini yo'qotgan Matilda ismli qizning tasodifan paydo bo'lishi Leonda insoniy mohiyatni xayrixohlik, g'amxo'rlik, muhabbatni uyg'otadi. Leon o'zining yagona sevgisini himoya qilgancha asl qotillar bilan kurashda halok bo'ladi.

Ikkinchi chiziq qahramon Garri Oldman giyohvand moddalar bilan kurash bo'yicha bo'limni boshqaruvchi psixopat-polisiyachi bilan taqdim etilgan. Hokimiyatni beruvchi o'tkir shaxsiy sifatlarga ega bo'lib, ulardan nozik jinoyatlarni sodir etishda foydalanadi. Bu, shubhasiz, delinkvent shaxsning yagona qonuni qonunsizlikdir. Ko'p narsaga ega bo'lib, u faqat bitta narsadan boshqa odamning yuzida o'lim qo'rquvining mushohadasidir.

Albatta, delinkvent axloq bilan to'qnashib, biz dastavval uning ortida yashiringan sabablarni tadqiq etmog'imiz zarur. Ongsiz motivasiyani ochuvchi psixoanalitik tadqiqotlarda delinkventlik ichki nizo va oddiy himoya natijasi sifatida ko'rib chiqiladi. Antiijtimoiy axloq holatida delinkventlikning quyidagi ongsiz sabablari harakatlanishi mumkin [2, 15, 19, 30].

- tezkor qoniqishni talab qiluvchi istak;

- kuchsiz g'azab, umidsizlik - razryadka izlovchi tajovuzni boshdan kechirish;

- o'ch olishni talab qiluvchi xafalik;

- haqiqatni tiklashga sabab bo'luvchi hasad;

- ishonchsizlik va masofani saqlashga intilish;

- ulug'vorlik va qudratlilik fantaziyasi.

Shaxsiy dinamika A.Ayxorn nuqtai nazaridan delinkventlikning ikkita asosiy tipning mavjudligini ko'rsatadi:

*Antiijtimoiy axloq bilan chegaradosh asabiy holat*; qachonki shaxs ichki nizo holatida bo'ladi va uning qaysidir qismi aybdorlik tuyg'usini uyg'otib, delinkvent axloqni ta'qiqlaydi. Aybdorlik tuyg'usi ustunligida delinkvent o'zini g'alati tutadi, masalan, o'g'irlangan shapkada yuradi yoki o'g'rilikdan foyda olmaydi. U aniq fosh bo'lishni istaydi va ko'pincha shunday bo'ladi ham. Uning tushiga dahshatlar kirib chiqadi. U jazodan keyin yengillikni his qiladi. Qator hollarda jinoyatchilarda aybdorlik hissi jinoyat sodir etishdan oldin paydo bo'ladi. Bunda delinkventlik super-Ego bosimidan engillashish olish istagi tufayli vujudga keladi;

*Asabiylik belgilarisiz* antiijtimoiy axloq. Bu holda nizo "tashqariga chiqarilgan" - bu libido istaklarning erta frustrasiyasi sababli atrofdagilar bilan ochiq nizo.

## Antiijtimoiy (sosiopatik) shaxs

Aniq shaxsda ustunlik qiluvchi va birmuncha tez-tez ko'zga tashlanuvchi sabablar *shaxsning umumiy yo'nalganligini* belgilaydi. Xorijiy psixologik a tibbiy adabiyotlarda katta odamlardagi (18 yoshdan boshlab) delinkvent axloqni ifodalash uchun quyidagi atamalar keng qo'llaniladi: "antiijtimoiy", "sosiopatik", "psixopatik" shaxs. Ushbu tushunchalar biz uchun odatiy bo'lgan – "kriminal shaxs", "xarakterologik psixopat" tushunchalari bilan bir xil emas – tibbiy tashhis sifatida ham yuzaga chiqmaydi. *Sosiopatik (antiijtimoiy) shaxs o'zida shaxs ishlashining chuqur psixologik mexanizmlari orqali yoritiladigan psixologik tipni aks ettiradi.* Sosiopatik dinamikani o'rganishga asosiy hissa psixotahlichi tomonidan qo'shildi. Og'ir o'smirlarga bag'ishlangan

o'z ishlari bilan *mashhur Avgust Ayxorn* (1876-1949) delinkventlikni "noto'g'ri ma'no berishni keltirib chiqaruvchi psixik kuchlar o'zaro ta'sirining natijasi, dinamik ko'rinish" sifatida ta'riflaydi [2, 48-b.].

Ushbu buzilish dastavval Ego va super-Ego o'rtasidagi o'zaro munosabatning buzilishi bilan bog'liq. Super-Ego (tanqidiy Instansiya sifatida) shakllanmagan bo'lishi, boshqa hollarda esa u o'ta qattiq - jazo beruvchi bo'lishi mumkin. Nihoyat, Ego-ideal (super-Egoning qismi sifatida) antiijtimoiy o'xshashlikdan iborat bo'lishi mumkin [15, 30].

N.Mak-Vilyame [18] sosiopatik *shaxsni boshqalar ustidan hokimlikni his qilishning aini ko'rinib turgan* ehtiyoji orqali yoritad. Bu odamlarga ta'sir ko'rsatish, ularni manipulyasiya qilish, ularning ustidan "ko'tarilish" ga intilish sifatida namoyon bo'ladi. Ko'pchilik mualliflar ushbu xarakter *insoniy ko'ngil qo'yishga noqodirlik* asosi bilan bog'liq deya ta'kidlaydilar.

Bunda ijtimoiy moslashuv darajasi turlicha bo'lishi mumkin. A. Ayxorn *aniq* va *latent delinkventlik* tushunchasini kiritdi. Agar birinchi holda antiijtimoiy harakatlarga o'rin bo'lsa, ikkinchisida - bu holat mavjud, biroq tashqaridan ko'zga tashlanmaydi.

Shaxsning antiijtimoiy tashqilotchiligi bo'lgan odam albatta jinoyat sodir etmaydi, ammo uning hayoti umuman olganda o'ziga xos motivasiya bilan belgilanadi. Bir qancha hurmatli kasb vakillari, shubhasiz, boshqalarga qaraganda yuqori darajada o'z individualliklarini jamiyat manfaatlari bilan uyg'unlashtirgan holda bosim va nazoratga (pedagoglar, sudyalar, xirurglar) moyillikni namoyon etadilar.

Qonunni buzish yo'lida turgan shaxslar ushbu psixologik tashhis nuqtai nazaridan yetarlicha aniq ifodalanishi mumkin. Eng qiziq fakt shundan iboratki, agar sosiopatik shaxs qamoq yoki o'z-o'zini barbod etishdan omon qolsa, u o'rta yoshida (qirq yoshlarda) "yonib ketish" tendensiyasiga ega bo'ladi, ko'pincha "namunal fuqaro" Darajasigacha erishadi.

Psixotahlilchi *delinkventlarni o'z ichki nizolarini hal qilsh holatidagilar sifatida ko'rib chiqadi* [15, 18]. Antiijtimoiy odamlar reallikdan uziladilar va ichki haqiqatdan qutuladilar, qonun bilan ta'qiqlangan va davlat barham beradigan ta'qiqlangan harakatlarni qo'llaydilar. Sosiopatik odamlarning asosiy psixologik himoyasi vsemogushiy nazorat hisoblanadi. Ular, shuningdek, proektiv o'xshashlik, ko'plab nozik dissosiativ jarayonlar va tashqaridan o'yinni tugatishdan

foydalanadilar. Mak-Vilyam ko'rsatishicha, *bosim o'tkazishga ehtiyoj*, ayniqsa, ahamiyatga ega [18, 199-b.]. U uyatni himoyalaydi (ayniqsa, qo'pol psixopatlarda) yoki jinsiy perversiya izlashdan (xuddi shunday asosida kriminallik yotadigan) chalg'itadi.

Delinkvent axloqda ko'pincha shaxsiy salbiy sifatlarni jamiyatga *proeksiyasidan* foydalaniladi. Bunda jamiyat haqiqatda boridan ko'ra illyuziyali tarzda yomon bo'lib ko'rinadi, huquqni himoyalovchi organlar vakillari esa eng salbiy tavsifnomalar bilan "ment"gacha tushiriladi.

Sosiopatlarda mashhur *yetkazishning yo'qligi* nafaqat super-Egoning nuqsoni haqida, balki boshqa odamlarga odatiy o'zaro mehribonlikning yetishmasligi haqida ham xabar beradi. Antiijtimoiy shaxslar uchun boshqa odamlarning qadriyatlari ularning foydaliligigacha qisqartiriladi, ko'pincha bu keyingilarning yaqqol yoki ixtiyorsiz roziligi bilan "zatreshini" ga to'qnashishida aniqlanadi. Sosiopatik odamlar agar esa eshituvchida kuch va taassurot uyg'otsa, o'zlarining g'alabalari, nayrang yoki yolg'onlari bilan maqtanadilar. Qonun xizmatchilarini jinoyatchilarning qotillikni osongina tan olishlari va ularning fikricha, zaiflik belgisi sifatida baholanuvchi kichik harakatlarni yashirgan holda u haqida dahshatli tafsilotlarigacha sokin so'zlab berishlari hayratga solishdan to'xtamaydi.

Masalan. NTV kanalida (oktyabr 1998 y.) seriyali qotillikda ayblangan Anatoliy Onoprienko teleintervyuda emosional so'zlashicha: uning vazifasi qotillikda. u hech kim va hech narsadan qo'rqmaydi. bu borada Xudodan o'zib ketgan. Jinoyatchi o'z maqsadini "qo'rquv uyg'otish" sifatida ta'rifladi. uning tushuntirishicha. hatto qamoqda ham u odamlarda hayvoniy qo'rquv uyg'otadi. Ko'pchilik o'rtamiyona hollarda jinoiy harakatlarni tushuntirishda o'z rolini kamaytirishga. o'z mas'uliyatini kichraytirishga moyillik kuzatiladi: "shunchaki mojaro qildilar, yomon o'ylapman va h.k.".

*Delinkventlar o'z axloqlari tufayli noqulaylikdan azoblanmasliklari* fakti ularga ijtimoiy va psixoterapevtik ta'sirni murakkablashtiruvchi asosiy sabablardan birini tashkil etadi.

Shunday qilib. sosiopatik shaxsning o'z-o'zini boshqarishidagi asosiy mexanizmlar ichki zo'riqish va salbiy tuyg'ularning *tashqaridan o'yinni tugatish* hisoblanadi. Bunda shunday odamlarda harakatga lahzalik uyg'onish tug'iladi. Ular. shuningdek. o'z shaxsiy impulslari ustidan

nazorat orqali o'z-o'zini hurmatlashni ko'tarishga ega emaslar. Sosiopatlarni ko'pincha *yetarlicha xavotirga tushmaydiganlar* sifatida ko'rib chiqadilar. N. Mak-Vilyame [18, 202-b.] bu holatni lahzalik tashqaridan o'yinni tugatishning "zaif" tuyg'ularni tan olishdan bosh tortish bilan uyg'unligi deb tushuntiradi. Bu shuni anglatadiki, agar sosiopat xavotirni his qilsa-da, u buni shunchalik tez o'yinni tugatadi, atrofdagilar hatto sezishga ham ulgurmaydilar.

Antiijtimoiy yo'nalganlikning shakllanish mexanizmlari mutlaqo tushunarsiz. Go'daklarning tug'ilishidanoq temperament bo'yicha farqlanishi isbotlangan. Bu holda sosiopatning konstitusional zamini bo'lib, masalan katta bazal tajovuz yoki asab tizimining pasaygan reaktivligi (qo'zg'alishning ancha yuqori ostonasi) chiqishi mumkin. Haqiqatan, o'zini bardam va yaxshi sezishi uchun sosiopat keskin, ancha vstryaxivayushem tajribaga muhtoj. Bunday odamlarning doimiy ravishda o'tkir hissiyotlarga intilishi, ularning pedagogik ta'sirni anglash va ijtimoiy-maqbul axloqqa o'rganishga bo'lgan past qobiliyati, ularning boshqa odamlar uchu oddiy bo'lgan narsalar - musiqa, tabiat, yaxshi ishdan qoniqish olishga imkonsizliklarini alohida konstitusiya tushuntirishi mumkin. Tug'ma giperfaol, talabchan yoki parishonxotir bolaga otalik figurasining ishtirok odatdagidan ko'ra ko'proq ahamiyatli. Ota-onasinikidan ko'proq energiyaga ega bo'lgan bola boshqa odamlarning ehtiyojini inobatga olmaslik, atrofdagilar xulqini uddaburro boshqargan holda nimani istasa shuni qilishni o'zlashtirishi mumkin.

Bunday bolalarga nisbatan ota-onalar tomonidan quyidagilar xarakterlidir: noturg'unlik, intizom, erkalatishning yo'qligi, hissiy tushunmaslik, ekspluatasiya va ba'zida shafqatsizlik.

Antiijtimoiy odamlar bolaligi ko'pincha nazoratsizlik, xafv-xatarga to'lalik va xaos (qattiqqo'l intizom va o'ta mehribonlikning xaotik qorishuvchi; zaif ona va tutaquvchan sadist ota; oilada piyonistalik va giyohvandlik; oilaviy ajralishlar) bilan farqlanadi. Bunday noturg'un va xavf soluvchi sharoitlarda bola rivojlanishning zaruriy lahzasida himoyalanganlik tuyg'usini olmaydi, bu esa uning qolgan hayotini o'zining buyukligini tasdiqlashni izlash uchun sarflashga itaradi.

Antiijtimoiy shaxslar oilasi uchun umuman olganda tushunish va o'z tuyg'ulari (aleksitimiya ko'rinishi) ni gapirish xos emas. Bizning ko'pchiligimiz o'z shaxsimizni ifodalash uchun so'zdan foydalansak.

sosiopatik shaxslar ularni manipulyasiya uchun qo'llaydilar. Ota-onalar bolaning hissiy ehtiyojlariga javob qaytarishga qodir emaslar. Ular pedagoglar yoki kimdir ularning bolalari axloqini cheklasa, vaziyatga e'tiroz bilan reaksiya qilib, o'sha shaxslarga nisbatan beixtiyor bo'ysunmaslik va nafratni namoyon etadilar. Umuman olganda ota-onalar bolaga kuchni namoyish qilishga chuqur kirishib ketganlar, sosiopat esa o'z ota-onasining muhabbati va g'ururini boshdan kechirish orqali me'yoriy yo'l bilan o'z-o'zini hurmatlashga erishishda jiddiy qiyinchiliklarga ega bo'ladi.

Birmuncha destruktiv, kriminal psixopatlar tarixida oilaningizchil, muhabbatli, muhofazalovchi ta'sirini topish deyarli mumkin emas. Z.Freyd ko'rsatishicha: "E'tiborning eng muhim va eng dastlabki manbasi *sevgining ishonchliligi* hisoblanadi" [28, 24-b.]. Antiijtimoiy individ, ehtimol, shunchaki me'yoriy darajada mehribonlik va o'zaro muhabbatni hech qachon his qilmagan. U o'ziga g'amxo'rlik qiluvchi bilan o'xshash bo'lmagan. Buning o'rniga yovvoyi kabi his qilinadigan "begona self-ob'ekt bilan" ehtimol o'xshash bo'lgandir.

Meladan sitata keltirarkan, Mak-Vilyam "dastlab ota-ona figurasi va ayniqsa, arxetipik hamda umuman olganda jamiyat va insoniyat madaniyati bilan o'xshash yo'naltirilgan chuqur va beixtiyor o'xshashlikning yetishmasligi" haqida yozadi [18, 204-b.].

Bolaning oiladan tashqarida bo'lgan kattalar bilan keyingi aloqalari uning shaxsini zaruriy o'xshashliklar bilan boyitadi. *Atrofdagi odamlarni hali ular lazzat olishga ko'maklasharkan sevadilar va qachonki ular bunda rad etsalar, yomon ko'radilar.* To'laqonli Sverx-Menning yo'qligi tufayli aybdorlik tuyg'usini uyg'otuvchi hech qanday ichki talablar mavjud emas. Garchi axloqning oqibatlarini intellektual tushunish bor bo'lsa-da, hissiy tushunish yo'q. Kelajakda qoniqmaslik xavfidan ko'ra, ayni damlik qoniqish muhimroq [30, 31-b.].

Shunday qilib, erta ob'ektli munosabatlarning buzilishi mehribonlikni o'rnatish va obro'ni tan olishga noqodirlik sifatida kechadigan jiddiy shaxsiy buzilishga olib keladi.

Navbatdagi o'xshashlikka qaramay, O. Kernberg [7] *"antiijtimoiy shaxs"ning o'z guruhida psixologik jihatdan bir xil emasligini* ta'kidlaydi va unda bir necha tashhisiy guruhchalarni ajratishni taklif qiladi:

1. *Shaxsning o'z antiijtimoiy buzilishi* dastavval super-Egoning

og'ir patologiyasi bilan xarakterlanadi. Bu aybdorlik va afsuslanishni his qilishga qodir bo'lmaslik; hissiy ko'ngil qo'yish (hatto hayvonlar) ga qobiliyatsizlik; odamlarni ekspluatasiya qilishga asoslangan munosabat; yolg'onchilik va nosamimiylik; mulohazalar sustligi va hayotiy tajribadan o'rganishga noqodirlik; hayotiy rejaga rioya qilishga qobiliyatsizlik. Bir holatda bunday axloq faol-tajovuzkor (yovuz-sadistlik), boshqalarida - passiv-parazitlik (ekspluatasiya qiluvchi) shakliga ega bo'lishi mumkin.

2. Agar shaxsan antiijtimoiy buzilish aniqlanmasa, *yomon sifatli narsissizm* deb nomlanishiga o'rin bor. U shaxsning tipik narsissik buzilishida (buyuklik, Menning afzalligi), xarakterologik ildizli tajovuzda (boshqalarga sadistlik yoki o'ziga yo'naltirilgan tajovuz) paranoidal tendensiya va o'zining haqligiga ishonchda namoyon bo'ladi. Antiijtimoiy shaxsdan farqli ravishda yovuz sifatli narsissizmda mehribonlik va boshqa odamlar ishtiroki potensiali yoki aybdorlik tuyg'usi saqlanadi. Bunday odamlar boshqalardagi axloqiy e'tiqodni tushunadilar, o'z o'tmishlariga real munosabatga egadirlar va kelajakni rejalashtira oladilar.

3. Keyinroq. antiijtimoiy axloq (asosan passiv-parazitik tip) shaxsning uzoq muddatli chuqur ko'ngil qo'yishga layoqatsizlik bilan shunchaki *narsissik buzilishi* tuzilmasida uchrashi mumkin. U jinsiy addiqkiya shaklida. mas'uliyatsizlik; boshqalarni hissiy yoki moliyaviy ekspluatasiya qilishda ko'rinishi mumkin.

4. Keyingi guruh *shaxsning boshqa buzilishlari*da (infantil, isteroid va h.k.) *antiijtimoiy axloq*ni o'z ichiga oladi.

5. Shaxsning asabiy buzilishi holatida antiijtimoiy axloq ongsiz aybdorlik tuyg'usida sodir bo'ladi, ko'pincha bu shaxsiy drama sifatida ko'rinishi mumkin. Masalan. odam ishxonada fosh bo'lib. bo'shatilishidan qo'rqqanidan mayda predmetlarni o'g'irlaydi.

6. Antiijtimoiy axloqni *simptomatik asabiylikning qismi sifatida* o'smir isyonkorligining. psixik nizolarning antiijtimoiy axloqqa o'tkazishni yengillashtiruvchi atrofdagilarning ta'siri ostida moslashuvning buzilishi shaklida ko'rib chiqish mumkin.

7. Nihoyat. bu *dissosial reaksiya* – antiijtimoiy axloq bilan ijtimoiy guruhchaga notanqidiy moslashuv bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, shaxsning delinkvent axloqi kabi bunday psixologik reallik o'z ichiga umumiy qonunchilikday. aniq ko'rinib turgan individual

o'ziga xoslikni oladi.

Delinkvent shaxslarga murojaatda ularning ishonchsizligi kabi jazoga fitnasini ham inobatga olmaslik maqsadga muvofiqdir (bu qanchalik mumkin bo'lsa). "Ular o'zlarini tuta olmaydilar, biroq ko'ngil qo'yishning erta bolalikda qoniqmagan noto'g'ri qizg'in xohishiga ega ekanliklari"dan [2, 184-b.].

Antijamoatchilik axloq muammosi nafaqat abstrakt ijtimoiy ko'rinish sifatida mavjud. Kundalik hayot har birimizning oldimizga sodda bo'lmagan vazifalarni qo'yadi: kriminogen sharoitning ta'siriga tushmaslik, qo'rquvdan qochish, o'zi va o'z oilasini himoya qilish, bolalarda qonunga bo'ysunuvchanlikni tarbiyalash, odamlarga (qonunni buzish yo'lida turgan) jamiyatga qaytishda yordamlashish. Qo'yilgan vazifalar davlat va uning fuqarolari tomonidan ulkan kuchni talab qiladi.

Shu bilan bir vaqtning o'zida jinoyatchilik muammosini hal qilish shaxsning og'ishgan xulqi kabi qonunga qarshi axloqni jiddiy ilmiy fikrlash bilan zich bog'liqdir.

### *Nazorat savollari va vazifalar*

1. Shaxsning qonunga zid axloqi bilan bog'liq asosiy tushunchalarni ochib bering.
2. Delinkvent axloq va qonunbuzarlar tipining asosiy shakllarini sanab bering.
3. Delinkvent axloqning ichki va tashki sharoitlarini sanang.
4. Antijamoatchilik axloqning o'ziga xos motivasiyasi qanday?
5. "Antiijtimoiy shaxs" atamasi ortida nima turipti?

## 3-Bo'lim

# TOBE AXLOQ

### Reja

- Tobe axloqning tavsifnomasi
- Konseptual modellar
- Shaxs muhtoj axloqining omillari
- Hammuhtojlik fenomeni
- Kimyoviy tobelik
- Ozuqaga tobelik

### Tobe axloqning umumiy tavsifnomasi

"Shaxsning og'ishgan xulqi" o'ta murakkab va ko'p obrazli kategoriyasi ichida tobe axloq yoki bog'lanib qolgan deb nomlanuvchi guruhcha ajratiladi. Shaxsning tobe axloqi o'zida jiddiy ijtimoiy muammoni aks ettiradi, chunki aniq ko'rinib turgan shaklda ishga layoqatini yo'qotish, atrofdagilar bilan janjallar, jinoyat sodir etish kabi salbiy oqibatlarga ega bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bu deviasiyaning u yoki bu tarzda istalgan oilaga tegishli bo'lgan birmuncha keng tarqalgan turi.

Azal-azaldan tobe axloqning turli shakllarini piyonistalik, ortiqcha yeyish, azart o'yinlar va boshqa *ishqibozlik*ni nazarda tutgancha zararli yoki *vakson etuvchi odatlar* deb ataganlar. Zamonaviy tibbiy adabiyotlarda *patologik odatlar* degan atama keng ishlatilad. ***Bog'lanib qolish*** tushunchasi tibbiyotdan o'zlashtirilgan, hozirgi vaqtda nisbatan yangi va ommaviy atama hisoblanadi.

Tobelik atamasi ostida keng ma'noda "*kimgadir yoki lazzat olish yoxud moslashish maqsadida nimagadir suyanishga intilish*" tushuniladi [20, 71-b.]. Shartli ravishda me'yoriy va o'ta bog'lanib qoltobelik haqida gapirish mumkin. Barcha odamlar havo, suv, ovqat kabi hayotiy muhim ob'ektlarga "me'yoriy" tobelikni his qiladilar. Ko'pchilik odamlar ota-onalari, do'stlari, turmush o'rtoqlariga sog'lom bog'lanib qolishni sezadilar. Ba'zi hollarda *tobelikka me'yoriy munosabatning buzilishi kuzatiladi*. Masalan, shaxsning autik, shizoid, antiijtimoiy buzilishi boshqa odamlarga fojiali tarzda yetarlicha ko'ngil qo'ymaslik oqibatida yuzaga keladi.

*O'ta tobelikka moyillik*, aksincha, muammoli simbiotik munosabat yoki tobe axloqni tug'diradi. Kelgusida "bog'lanib qolish" atamasidan foydalanganda biz nimagadir o'ta bog'lanib qolishni nazarda tutamiz.

Shunday qilib, ***tobe axloq***, shaxs tomonidan nimanidir yoki kimnidir suiiste'mol qilish bilan zich bog'liq bo'lganiday, uning ehtiyojlarini buzilishi bilan bog'liq. Maxsus adabiyotlarda ko'rib chiqilayotgan reallikning yana bir nomi qo'llanadi – ***addiktiv axloq***. Ingliz tilidan tarjima qilganda *addiction* – moyillik, halokatli odat. Agar bu tushunchaning tarixiy ildiziga murojaat qilsak, unda lotincha *addictus* – qarzi tufayli bog'langan shaxs (qarzi uchun qullikka hukm qilingan).

Boshqacha aytganda, bu odam qandaydir yengib bo'lmas hukmronlikdan chuqur qullik bog'lanib qolishga tushgan. "Addiktiv axloq" atamasining ba'zi afzalligi uning baynalminal transkripsiyada, shuningdek, "addikta" yoki "addiktiv shaxs" kabi o'xshash odadmlar bilan shaxsning o'xshashlik imkoniyatidadir.

Bog'lanib qolgan (addiktiv) axloq shaxs deviant axloqining turi sifatida, o'z navbatida, addiksiya ob'ekti bo'yicha ayniqsa, differensiyalanadigan ko'plab turchalarga ega. Nazariy jihatdan (ma'lum bir sharoitlarda) bu har qanday ob'ekt yoki faollik shakllari bo'lishi mumkin – kimyoviy moddalar, pul, ish, o'yinlar, jismoniy mashqlar yoki jinsiy aloqa.

Real hayotda tobelikning shunday ob'ektlari tarqalgan: 1) psixofaol (qonuniy va noqonuniy giyohvand) moddalar: 2) spirtli ichimliklar (ko'pchilik tasniflarda birinchi guruhchaga taalluqli): 3) taom; 4) o'yinlar: 5) jinsiy aloqa: 6) din va diniy ibodatlar.

Sanab o'tilgan ob'ektlarga muvofiq tobe axloqning quyidagi shakllari ajratiladi:

- kimyoviy bog'liqlik (chekish, toksikomaniya, giyohga muxtojlik, dorilarga muxtojlik, ichkilikka bog'liqlik):

- ovqatlanish axloqining buzilishi (ko'p yeyish, ochlik, taomdan voz kechish):

- gembling – o'yinga tobelik (kompyuterga bog'lanib qolish, azart o'yinlar):

- jinsiy addiksiyalar (zoofiliya, fetishizm, pigmalionizm, transvestizm, eksbisionizm, vuayerizm, nekrofiliya, sadomazoxizm (glossariyga

qarang));

- diniy destruktiv axloq (diniy fanatlik, sektaga tortilish).

Hayot o'zgarishi bo'yicha odamlarda tobe axloqning yangi shakllari paydo bo'ladi, masalan, bugungi kunda kompyuterga bog'liqlik juda tez tarqalmoqda. Ayni shu damda ba'zi shakllar deviantlik yorlig'ini yo'qotmoqda. Bizning nazarimizda, zamonaviy ijtimoiy vaziyatda gomoseksuallikni deviantlikka tegishli deyish kerak emas. garchi, shubhasiz, u marginal axloq darajasida qoladi (me'yorning oxirgi chegarasini egallovchi va odamlarda qabul qilmaslikni uyg'otgancha). Tobe axloqqa faollikning real zarar keltirmaydigan kundalik shaklini, masalan, kofe ichish yoki shirinlik yeyish odatini qo'shib qo'yishdan saqlanish lozim.

Modomiki. biz faqat og'ishgan xulq shakllarini ko'rib chiqarkanmiz, axloqning deviantlikning barcha umumiy belgilariga javob berishini diqqat bilan kuzatish maqsadga muvofiqdir (1-bo'limga qarang).

1) Masalan, istalgan jinsiy axloq me'yor chegarasida joylashadi. agar u: 1) o'zaro kelishuvga asoslansa;

2) voyaga yetmagan bolalardan foydalanish bilan bog'liq bo'lmasa;

3) tirik odamga yo'naltirilgan;

4) deviantlikning umumiy belgilariga javob bermaydi. Unda jinsiy axloqning barcha turlari o'qda joylashishi mumkin:

Qonun bilan ta'qiqlangan jinoiy jinsiy harakatlar (jinsiy zo'ravonlik, fohishabozlik, bolalardan foydalanish, yomon yo'lga kirish);

- jinsiy deviasiya (hayvonlar bilan jinsiy aloqa. sadomazoxizm. fetish-seks va h.k.);
- marginal axloq (promiskuitet. nudizm. gomoseksualizm);
- umumqabul qilingan jinsiy axloq (katta odamlarning o'zaro xohish bo'yicha geterojinsiy axloqi).

Demak. *muhtoj (addiktiv) axloq bu nimanidir suiiste'mol qilish yoki kimnidir o'z-o'zini boshqarish yoki moslashuv maqsadida bog'lanuvchi shaxs og'ishgan xulqining shakllaridan biri.*

Addiktiv axloq og'irligining darajasi turlicha - amaliy me'yoriy axloqdan aniq ko'rinib turgan somatik va psixik patologiya bilan birga

boruvchi biologik bog'lanib qolishning og'ir shakligacha bo'lishi mumkin. Shu bilan bog'liq ravishda ba'zi mualliflar bog'lanib qolish darajasiga etmaydigan va fatal xavf tug'dirmaydigan, masalan, ko'p ovqat yeyish yoki chekish kabi addiktiv axloq va shunchaki zararli odatlarni farqlaydilar [5]. O'z navbatida, addiktiv axloqning alohida turchalari turli-tuman ko'rinishlar kontinuumini aks ettiradi. Masalan, mutaxassislarning tan olishicha, piyonistalik (ichkilikka bog'lanib qolishning klinik shakli) monolit hisoblanmaydi, haqiqatan ham "piyonistalar" haqida gapirilsa to'g'riroq bo'ladi.

Shaxsning bog'lanib qolish ob'ektini tanlashi qisman uning inson organizmiga o'ziga xos ta'siri bilan aniqlanadi. Qoidadagiday, odamlar addiksiyaning u yoki bu ob'ektiga individual moyillik bo'yicha farqlanadilar. Ichkilikning alohida ommaviyligi uning keng ta'sir spektriga ega ekanligidir – u birday muvaffaqiyat bilan qo'zg'atish, qizishish, bo'shashish, yallig'lanish kasalliklarini davolash, o'ziga ishonch va erkinligi uchun foydalaniladi.

Tobe axloqning turlicha shakllari uyg'unlashish yoki bir biriga o'tish tendensiyasiga ega, bu esa uning ishlashidagi mexanizmlarning umumlashganini isbotlaydi. Masalan, ko'p yillik stajga ega bo'lgan kashanda sigaretadan voz kechgach, doimiy ravishda ovqatlanishga istakni his qilishi mumkin. Geroinga muhtoj bo'lib qolgan odam ancha yengil giyohvandlar yoki ichkilikni iste'mol qilish yordamida remissiyani qo'llab-quvvatlashga intiladi.

Albatta, tashqi farq bo'lib ko'rinishiga qaramay, axloqning ko'rib chiqilayotgan shakllari prinsipial o'xshash psixologik mexanizmlarga ega. Shu bilan bohliq holda addiktiv axloqning umumi belgilari ajratiladi.

Dastavval shaxsning muhtoj axloqi uning turg'un *psixojismoniy holatning o'zgarishiga intilishida* namoyon bo'ladi. Ushbu mayl inson tomonidan impulsiv-kategoriyali, yengib bo'lmas, to'yinmaydigan sifatda boshdan kechirilgandi. Tashqaridan bu go'yoki o'z o'zi bilan kurash, ko'pincha esa - o'z-o'zini nazorat qilishni yo'qotish bo'lib ko'rinadi.

Addiktiv axloq to'satdan paydo bo'lmaydi, u o'zida *addiksiya* (tobe bo'lib qolish) *ning uzluksiz shakllanish* va *rivojlanish jarayonini* aks ettiradi. Addiksiya boshlanish (ko'pincha beozor), individual oqim (tobe bo'lib qolishning kuchayishi bilan) va natijaga ega. Axloq motivasiyasi bog'lanib qolishning turli bosqichlarida turlichadir. Masalan, giyohvand

moddalarga tobe bo'lib qolishning shakllanish jarayoni quyidagi bosqichlarga ega bo'lishi mumkin: 1. Dastlab yoshlar submadaniyati ta'siri ostida epizodik iste'mol, ijobiy hissiyotlar va saqlangan nazorat fonida giyohvand moddalar bilan tanishuv sodir bo'ladi. 2. Sekin-asta nisbiy saqlangan nazorat bilan iste'molning turg'un individual ritmi shakllanadi. Bu bosqich ko'pincha qachonki ob'ekt haqiqatan uzoq davom etmaydigan muddatga psixojismoniy holatni yaxshilashga yordam bersa, psixologik bog'liqlik bosqichi deb ataladi.

Sekin-asta giyohvand moddalarning kattaroq dozalariga o'rganish sodir bo'ladi, shu bilan bir vaqtning o'zida ijtimoiy-psixologik muammolar yig'iladi va axloqning moslashmagan stereotipi kuchayadi. 3. Keyingi bosqich uchun eng yuqori darajani iste'mol qilganda ritmning tezlashishi xarakterlidir, bekor qilish sindromi va nazoratning to'la yo'qotilishi, intoksikasiya belgisi bilan jismoniy bog'lanib qolish belgilari paydo bo'ladi. Giyohvand moddalar lazzat olib kelishdan to'xtaydi, u azob va og'riqlardan qutulish uchun iste'mol qilinadi. Bularning barchasi shaxsning qo'pol o'zgarishi (psixik buzilishgacha) va aniq ko'rinib turgan ijtimoiy moslashmaganlik bilan birga boradi. Ancha kech bosqichlarda giyohvand moddalarni iste'mol qilishda dozasi kamaytiriladi, iste'mol qilish endi holatni tiklashga olib kelmaydi. 4. Natijada - ijtimoiy yolg'izlanish va fojia (dozani oshirish: suisid; OITS: hayot bilan birga bo'lolmaydigan kasallik).

Bosqichning davomliligi va oqib o'tish xarakteri ob'ektning xususiyatiga (masalan, giyohvand moddalar ko'rinishida) va addiktning individual xislati (masalan, yosh, ijtimoiy aloqalar, intellekt, sublimasiyaga qobiliyat) ga bog'liq.

Muhtoj axloqning yana bir xarakterli xususiyati uning sikllilig hisoblanadi. Bitta sikl fazasini sanaymiz:

- addiktiv axloqqa ichki tayyorlikning mavjudligi;

- istak va zo'riqishning kuchayishi;

- addiksiya ob'ektini kutish va faol izlash;

- ob'ektni olish va o'ziga xos kechinmalarga erishish;

- bo'shashish;

- remissiya fazasi (nisbiy sokinlik).

Keyin sikl individual chastota va ifodalanganligi bilan takrorlanadi. Masalan, addiktning bittasi uchun sikl bir oy, boshqasi uchun – bir kun davom etishi mumkin.

Muhtoj axloq kasallik yoki o'limga olib kelishi shart emas (masalan, piyonistalik yoki giyohvandlik hollaridagi kabi), biroq qonunan *shaxsiy o'zgarishlar* va *ijtimoiy moslashmaganlikni* uyg'otadi. S.P.Korolenko va T.A.Donskiy [9] addiksiyaning shakllanishi bilan birga boruvchi ukazivayut tipik ijtimoiy-psixologik o'zgarishlarni ko'rsatadi. Addiktiv ko'rsatmaning shakllanishiga- hayotga addiktiv munosabatni uyg'otuvchi kognitiv, hissiy va axloqiy xususiyatlarning yig'indisi birinchi darajali ahamiyatga ega.

Addiktiv ko'rsatma *addiksiya ob'ektiga yuqori baholi hissiy munosabat*ning (masalan, sigareta, giyohvand moddalarning doimiy zaxirasi bo'lishi haqidagi xavotir) paydo bo'lishida ifodalanadi. Ob'ekt to'g'risidagi fikrlar va sug'batlar ustunlik qilishni boshlaydi. Rasionalizasiyalash mexanizmi kuchayadi - addiksiyani intellektual oqlash ("hamma chekadi", "stressni ichkiliksiz yengib bo'lmaydi", "kim ichsa, uni kasallik yengmaydi"). Bunda *magik tafakkur* (o'z buyukligi yoki giyohvand moddalarning qudratliligi haqidagi fantaziyalar ko'rinishida) va *"istak bo'yicha tafakkur"* deb nomlanuvchi shakllanadi, buning oqibatida addiktiv axloq va addiktiv muhitning salbiy natijalariga tanqid pasayadi ("hammasi joyida"; "men o'zimni nazorat qila olaman"; "barcha giyohvandlar - yaxshi odamlar").

Parallel tarzda *"boshqa" hamma narsaga*, shu jumladan, addiktga tibbiy-ijtimoiy yordam ko'rsatishga harakat qiladigan mutaxassislarga ham *ishonchsizlik* rivojlanadi ("ular meni tushunmaydilar, chunki o'zlari buning nima ekanini bilmaydilar").

Addiktiv *ko'rsatma bog'lanib qolish ob'ekti mavjud bo'lishning maqsadi, iste'mol esa – hayot tarzi* bo'lishiga olib keladi. Hayotiy borliq ob'ektni olish vaziyatigacha torayadi. Qolgan barchasi – avvalgi axloqiy qadriyatlar, qiziqishlar, munosabatlar ahamiyatli bo'lishdan to'xtaydi. *Ob'ekt bilan "qo'shilish" istagi* shunchalik ustunlik qiladiki, odam unga erishish yo'lida o'tkir ixtirochilikni va sabotni namoyish qilib, barcha to'siqlarni yengadi. Ko'pincha yolg'onning muhtoj axloqning alishtirilmas yo'ldoshi bo'lishi hayron qolarli narsa emas. O'zi va o'z axloqiga tanqidiylik ahamiyatli tarzda pasayadi, muhofaza-tajovuzkor axloq

kuchayadi, ijtimoiy moslashmaganlik belgilari o'sadi.

Ehtimol, addiktiv ko'rsatmaning eng salbiy ko'rinishlaridan biri *anozognoziya* – kasallik yoki uning og'irligini rad etish hisoblanadi. Addiktning o'z muhtojligini tan olmasligi ("men – piyonista emasman"; "agar istasam, ichishni tashlay olaman") uning atrofdagilar o'zaro munosabatini murakkablashtiradi va ahamiyatli tarzda yordam ko'rsatishni qiyinlashtiradi, qator hollarda esa muhtojlikni yengib bo'lmas qiladi.

Shunday qilib, *muhtoj (addiktiv) axloq - bu psixik holatni o'zgartirish maqsadida qandaydir moddani iste'mol qilishga (yoki o'ziga xos faollikga) muhtoj bo'lib qolish bilan bog'liq bo'lgan autodestruktiv axloq*. Sub'ektiv ravishda addiksiya ob'ektisiz yashash mumkin emasday, unga yengib bo'lmas mayl kabi kechiriladi. Bu axloq, modomiki organizm va shaxsni muqarrar ravishda barbod qilarkan aniq ko'rinib turgan autodestruktiv xarakterga ega.

### *Konseptual modellar*

Muhtoj axloq tabiati haqidagi tasavvurlar madaniyatning rivojlanishi bilan parallel ravishda rivojlandi va hozirgacha mukammal deb hisoblash mumkin emas. Tarixan birinchi bo'lib, ehtimol, addiktiv axloq ruhsizlik va ma'naviy nomukamallik oqibati sifatida *ma'naviy model* chiqdi. Bu model halokatli odatlar odamning gunohkorligi ko'rinishlaridan biri hisoblanishiga mos tushuvchi diniy dunyoqarash boshlanadi.

Etik nuqtai nazardan odam o'z axloqiga to'la mas'uliyatni oladi. Masalan, piyonistalar o'z ishqibozligiga beriluvchan gedonistik kayfiyatdagi individ hisoblanadilar. Albatta, axmoqona odatlardan qutulish uchun o'ziga ichishni man etish va sust irodani obrazli qilib aytganda "sochidan ushlab botqoqdan tortib olishga urinish" bilan yengish zarur. Hozirgi vaqtda axloqiy model, agar o'rni bo'lsa, giyohvand moddalarga bog'lanib qolganlarga giyohvand moddalarni iste'mol qilish va qonunbuzarlik sodir etish o'rtasidagi zich aloqaga asosan qo'llaniladi.

Addiktiv axloqning boshqa konseptual paradigmasi kasallik modeli hisoblanadi. Ushbu model mutaxassislar orasida ommaviylikka erishdi va keng jamoatchilik e'tirofini oldi (masalan, "O'n ikki qadam" dasturi doirasida). Ko'rib chiqilgan modelga muvofiq bog'lanib qolish o'zida maxsus yordam olishni talab qiluvchi kasallikni aks ettiradi. Bunda

addikt qisman o'z kasalligining o'tishida mas'uliyatdan qisman ozod bo'ladi. Masalan. kak diabetik o'z diabetiga javob berishi mumkin bo'lmaganiday. piyonista ham o'z piyonistaligi uchun javobgar emas. Addiktlar ekzogen moddalardan bog'lanib qolishga immanent moyilligi bo'lgan odamlar sifatida ko'rib chiqiladi.

Modomiki. muhtojlik qiyin davolanuvchi deb tan olingan ekan, u bilan azoblanuvchi odam butun hayoti davomida bu og'riqli maylga qarshilik ko'rsatishi lozim. Va aynan shuning uchun u shaxsan javobgardir.

Anonim piyonistalar jamiyatida (*AL*) davolashning nisbatan yuqori samarasi kasallik modeli ommaviyligining o'sishiga olib keldi. Giyohvandlikka bog'lanib qolganlar anonim giyohvandlar (*AN*) tashkilotini yaratib. muvaffaqiyatga *AA* erishishga urinmoqdalar. P.Kutterning ta'kidlashicha. bu qisman piyonista shaxslar va giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchi odamlar o'rtasidagi ahamiyatli farqni tushuntiradi [12. 211-b.].

Boshqa **simptomatik model** addiktiv axloqni alohida *axloqiy "simptomlar"* yoki *odatlar* sifatida o'rganishni ko'zda tutadi [5]. Masalan. chekish jiddiy shaxsiy muammolar bilan ham. kasallik buzilishlari bilan ham bog'liq bo'lmagan oddiy odat bo'lishi mumkin. Bunday axloq axloqning boshqa har qanday (shu jumladan. foydali) stereotipi kabi o'rganish qonunlari bo'yicha shakllanadi. Masalan. o'smir chekishga o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan kompaniyada tengdoshlarining ma'qullashini olib va kattalikni his qilib. qo'shilishi mumkin. Albatta. tibbiy-psixologik ta'sir aniq bir simptom odatga yo'nalgan bo'lishi darkor. Buning uchun quyidagilarni aniqlab olish muhim: shaxs ushbu axloqdan (u nima bilan o'z-o'zini mustahkamlaydi) qanday psixologik foyda chiqaradi: u. odatda. qanday sharoitlarda o'tadi (nima uni mustahkamlaydi): nihoyat. qachon va nima uchun u namoyon bo'lmaydi (uning ingibitorlari qanday). Olingan axborotga asosan uni har doim namoyon bo'lganda "jazolab" va aksincha. ijobiy axloqni mstahkamlab. istalmagan axloqqa ta'sir ko'rsatishni rejalashtirish mumkin.

Masalan. agar biz chekishni tashlashni istasak. uyda sigareta saqlamasligimiz: sekin-asta chekilgan sigaretalar sonini kamaytirib borishimiz. chekishdan tiyilganda o'zimizni rag'batlantirishimiz. qachonki chekishga xohish tug'ilganida "boshqa" yoqimli nimanidir qilishimiz kerak.

Ko'rib chiqilgan tamoyil dorivor preparatlardan foydalanish yordamida ham amalga oshirilishi mumkin. Masalan, bog'liqlik bilan ajralishni istagan odamga ichkilik yoki giyohvand moddalarni iste'mol qilganda o'ta noxush reaksiyalarni (yurak urishi, bo'g'ilish, vahima) uyg'otuvchi preparatlarni kiritish mumkin. Ushbu holda avval istalgan ob'ekt qo'rquv yoki nafratlanish bilan assosiasiyalanishni boshlaydi va muhtoj axloq sekin-asta so'nishi mumkin. Boshqa hollarda giyohvand moddalarni qabul qiluvchi reseptorlarni blokirovkalovchi ("o'chiruvchi") dorilardan foydalaniladi. Shunga o'xshash moddalar ta'siri ostida shunchaki kutilgan kayf bo'lmaydi, shu bilan muhtoj axloq mustahkamlanmaydi va iste'mol qilish ma'nosiz bo'lib qoladi.

Simptomatik model yetarlicha ishonchli ko'rinadi. U addiktiv axloqning turlicha shakllarida - mustaqil yoki kompleks reabilitasiya doirasida keng foydalaniladi.

Muhtoj axloqning eng kam tarqalgani ***psixoanalitik modeldir*** [12, 21, 28]. Ehtimol, bu addiktiv buzilishning psixoanalitik terapiyasi hali yuqori samaradorlikka erishmagani bilan bog'liqdir. Ayni vaqtda muhtoj axloq shakllanishining psixodinamik mexanizmlari uning tabiatini tushunish uchun o'ta muhim deb tan olinadi. Psixoanalitik modelga muvofiq *addiktiv axloq shaxsiy dinamikaning buzilgan ko'rinishlaridan biri hisoblanadi.* Muhtoj axloqqa individual moyillik hayotning birinchi yillarida aniqlanadi. Keyin u ixtiyorsiz sabablar kabi inson xarakterining xususiyatlari (masalan, oral xarakter) bilan uyg'otiladi va quvvatlanadi.

*AA* tashkiloti kasallikka bog'lanib qolishni tan olishiga qaramay, uning faoliyati shaxs ichki tuzilmaviy o'zgarishlarini jadal qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Masalan, zich shaxslararo munosabatda ichkilikdan tiyilish kontekstida qachonki odamlar baxtsizlik bo'yicha o'rtoqlari bilan e'tiborli va g'amxo'r birlashishni his qilgandagina erishiladi. G'amxo'rlik qiluvchi figuralar psixoterapevt internalizasiyalangani kabi obrazda internalizasiyalanadi. Bu, o'z navbatida, piyonistaga impulsni nazorat qilishga yordam beradi va uning I gosini kuchaytiradi.

***Tizimli-shaxsiy modelda*** muhtoj axloq shaxsning ahamiyatli munosabatlar tizimi va hayotiy muhim funksiyalarning uzilishi bilan bog'liq disfunksional kabi ko'rib chiqiladi [10, 1]. Masalan, ichkilikni iste'mol qilish chastotasining oshishi ishdagi omadsizliklar bilan bog'liq bo'lishi mumkin, o'smirning giyohvand moddalarga tobe bo'lib qolgan

axloqi – ota-onalarini ajrashishdan to'xtatish maqsadi bo'lib xizmat qilishi: ko'p ovqat yeyish esa – jinsiy-shaxsiy muhitdagi muammolar haqida signal beradi.

Tizimli-shaxsiy model oilaviy maslahatlashish va psixoterapiya doirasida birmuncha to'liq amalga oshadi. Shuningdek, unga ba'zi reabilitasion tizimda ustuvorlik beriladi. Masalan, *"Day-Top International"* dasturi deviant shaxsni moslashmagan, ijtimoiy aloqalardan yulib olingan sifatda ko'rib chiqadi. Dasturning maqsadi addikt yoki delinkventning guruh qoidalari va o'z axloqiga mas'uliyatni qabul qilish orqali guruh (jamiyat)da yashash qobiliyatini tiklash hisoblanadi.

Tobe axloqning sanab o'tilgan konseptual modellari uning murakkabligi va ko'p obrazliligini aks ettiradi. Fan rivojlanishining zamonaviy bosqichida ustuvorlik kompleks – bog'lanib qolishni murakkab ko'p darajali "jamiyat – shaxs – organizm" tizimida ishlashining buzilishi sifatida ko'rib chiquvchi addiktiv axloqning ***biopsixoijtimoiy modeli***ga berilishini ta'kidlash zarur. Bu demakki, addiktiv axloq bir vaqtning o'zida bir necha planda ko'rib chiqilmog'i lozim: madaniy, ijtimoiy, huquqiy, psixologik, tibbiy-biologik.

## Shaxsdagi tobe axloq omillari

Shunday qilib, tobe axloq ko'p omilli ko'rinish deb tan olinadi. Fanning zamonaviy holati addiktiv axloqning quyidagi sharoitlari va sabab (omil) lari haqida gapirish imkonini beradi.

Muhtoj axloqning shakllanishiga yordamlashuvchi ***tashqi ijtimoiy omillarga*** bozorga yangi va yangi mollarni – bog'lanib qolishning potensial ob'ektlarini chiqarib tashlovchi oziq-ovqat sanoati yoki farmasevtik industriya sohasidagi texnik taraqqiyotni kiritish mumkin. Omillarning shu guruhiga yoshlarni kimyoviy moddalarni iste'mol qilishga faol jalb etuvchi giyohvand moddalar bilan savdo qiluvchilarning faoliyati ham tegishlidir. Bundan tashqari, urbanizasiya darajasi bo'yicha biz odamlar orasida o'zaro shaxsiy aloqalar susayayotganini kuzatamiz. Mustaqillikka intilib, odam unga kerakli ko'mak va xavfsizlik hissini yo'qotadi. Insoniy o'zaro munosabatlardan lazzatni izlash o'rniga biz yanada ko'proq taraqqiyotning qalbsiz mahsulotlariga murojaat qilamiz

Ba'zi ijtimoiy guruhlar uchun muhtoj axloq ***guruhli dinamika*** ko'rinishi hisoblanadi. Masalan, o'smirlarning virajennoy guruhlanishining tendensiyasi fonida psixofaol moddalar o'smir submadaniyatiga "ruxsat" rolida chiqadi. Ushbu holda giyohvand moddalar (keng ma'noda) o'smir uchun quyidagi hayotiy muhim vazifalarni bajaradi:

- Kattalik hissi va ota-onadan ozod bo'lishni quvvatlaydi;
- Guruhga, shuningdek, norasmiy muloqot muhitiga mansublik tuyg'usini shakllantiradi;
- Odamlarga yo'naltirmasdan jinsiy va tajovuzkor e'tiqod qayta yutib chiqish imkonini beradi;
- Hissiy holatni boshqarishga yordamlashadi;
- Turlicha moddalar bilan tajriba o'tkazish orqali o'smirning kreativ potensialini amalga oshiradi.

***Submadaniyat*** eng turli-tuman shakllarda chiqishi mumkin: o'smirlar guruhi, norasmiy uyushma. jinsiy kamchilik yoki shunchaki erkaklar kompaniyasi. Har qanday holda uning shaxsga o'zini "o'zinikilar bilan" bir xillashtiruvchi ta'siri o'ta yuqori. Shubhasiz, o'smir va o'spirinlik yoshida submadaniyatning ta'siri eng yuqori darajada. Bizning nazarimizda, bu shaxs muhtoj axloqining birmuncha ahamiyatli ijtimoiy omillaridan biri.

Qoidadagiday. addiktiv axloqning sodir bo'lishida yetakchi rol ***oilaga*** qayd qilinadi. Ko'p sonli tadqiqotlar davomida ota-onalar va bolalarning keyingi muhtoj axloqi o'rtasidagi aloqa aniqlandi. A.Freyd. D.Vinnidata. M.Balinta, M.Klyayn. B.Spoka. M.Maller, R.Spislarning ishlari ishonchli tarzda guvohlik beradiki. *bolaning rivojlanishiga onaning tushunish va uning asosli ehtiyojlarini qondirishga layoqatsizligi zarar keltirarkan* [15. 21. 29].

Qator mualliflarning fikriga ko'ra bog'lanib qolishning shakllanishida yetakchi rol *go'daklik jarohatiga* (hayotining birinchi ikki yilidagi qattiq qiynaydigan kechinmalar shaklida) taalluqli. Jarohat jismoniy og'riq. onani yo'qotish yoki uning ehtiyojlarni qondirishga layoqatsizligi. ona va bola temperamentining birga bo'la olmasligi. go'dakning o'ta tug'ma g'ayratliligi. nihoyat ota-onaning qandaydir harakatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. ota-onalar. qoidadagidek. go'dakka o'zlarining psixojarohat yetkazuvchi ta'sirlari haqida bilmaydilar. masalan. qachonki eng yaxshi niyatda yoki shifokor tavsiyasiga ko'ra uni ovqatlanishning

qat'iy tartibiga o'rgatishga uringanlarida, bolani "erkalash"ni o'zlariga ta'qiqlasalar yoki hatto uning qaysarona didini sindirishga harakat qilsalar. Distressni boshdan kechirib, go'dak o'ziga yordam berish holatida bo'lmaydi va shunchaki uxlaydi. Biroq, G.Kristal ta'kidlaganidek [21, 105-b.], og'ir jarohatlovchi vaziyatning takrorlanishi rivojlanish va apatiya hamda chetlanganlik holatiga o'tishning buzilishiga olib keladi. Keyinroq jarohatni har qanday affektlar oldida qo'rquv, uni o'tkazishga noqodirlik, "xavfsizlik" hissi, noxushlikni kutish bo'yicha aniqlash mumkin. Tobe odamlarning bu xususiyati *past affektiv insonparvarlik* sifatida belgilanadi.

Bunday odamlar o'zlari haqida qayg'ura olmaydilar va o'z kechinmalarini uddalashlari uchun kimdir yordamlashishiga muhtoj bo'ladilar. Shu bilan birgalikda ular odamlarga nisbatan ishonchsizlikni his qiladilar. Bu holda jonli bo'lmagan ob'ekt to'la insoniy munosabatlar o'rniga almashtirilishi mumkin. Shunday qilib, ilk bolalikda psixik jarohat olgan odamlarda tobelikka katta xatar mavjud.

Umuman olganda, oila bolaga zaruriy muhabbatni bermasligi va uni o'zini sevishga o'rgatmasligi mumkin, o'z navbatida, bu yomonlik, bekorchilik, foydasizlik o'ziga ishonchsizlikka olib keladi.

Zamonaviy taassurotlarga muvofiq tobe axloqli odamlar o'z-o'zini hurmat qilishni quvvatlashda jiddiy qiyinchiliklarni his qiladilar. Yaxshi ma'lumki, masalan, odam kayf holatida o'zini erkinroq va odatdagidan o'ziga ishonganroq sezadi. Boshqa tomondan, piyonistalar kompaniyasi uchun dolzarb mavzudagi suhbat xarakterlidir: "Sen meni hurmat qilasanmi?" Tobelik, shunday qilib, shaxsning o'z-o'zini baholashini boshqarishida o'ziga xos vosita bo'lib chiqadi.

Tobe shaxsning jiddiy oilaviy muammosi, qoidadagiday, aleksitimiya – ota-onalarning o'z tuyg'ularini ifodalash (ularni tushunish, belgilash va gapira olish) ga layoqatsizligi bilan birga boradigan *ota-onalarning o'zlaridagi hissiy buzilish* bo'lishi mumkin. Bola oilada nafaqat salbiy tuyg'ularni "yuqtiradi", balki u ota-onasidan o'z kechinmalarini aytmaslikni, ularni bostirishni va hatto ularning mavjudligini rad etishni o'rganadi.

*Avlodlar o'rtasida chegaraning, oila a'zolarining bir biriga o'ta psixologik bog'liqligining yo'qligi, giperstimulyasiya – yana bir salbiy omil.* M.Maller [21, 15-b.] bolaning me'yoriy rivojlanishi uchun *separasiya* – onadan sekin-astalik bilan uning ketishi va qaytishi vositasida

ajralish, shuningdek, bolaning individualizasiyasi jarayonining muhimligiga e'tiborni jamlaydi. Addiktiv axloqning buzilgan chegarali oilalarda boshqa a'zolar axloqiga ta'sir etishning bitta usuli bo'lib chiqishi, bunda bog'lanib qolishning o'zi oiladan mustaqillik hissiyotini berishi mumkin. Buning bittasi isboti kuchaygan oilaviy muammolarda tobe axloqning kuchayishi hisoblanadi.

Oila nafaqat tobe axloqning sodir bo'lishida, balki uni qo'llab-quvvatlashda ham ahamiyatli rol o'ynaydi. Qarindoshlarning o'zlari turlicha garchi undan real tarzda azoblansalar-da, uning kuchida addikt "buzish"ni qo'zg'atadigan psixologik muammolarga ega bo'lishlari mumkin. Addiktning qarindoshlarida oila a'zolaridan qaysilaridir addiktiv axloqning uzoq muddatli saqlanishi hollarida, o'z navbatida, jiddiy muammolar paydo bo'lishi va *hammuhtojlik holati* rivojlanishi mumkin. Oila a'zolarining qaysilaridir tobe axloqning oqibatida shaxs va qarindoshlarining axloqidagi salbiy o'zgarishlar nazarda tutiladi.

Ayni vaqtda kuzatishlarning aytishicha, bitta oilada bolalar turlicha axloqni namoyish qiladilar. Bundan tashqari, hatto ota-onalar piyonistalikdan azob chekadigan oilalardagi bolalarda tobe axloq shakllanishi shart emas. Albatta, ***aniq shaxsning individual xususiyatlari*** kam bo'lmagan muhim rolni o'ynaydi.

Individual farq doirasida dastavval *muhtoj axloqning jinsiy saylov*ini ta'kidlash zarur. Masalan, ovqat addiksiyasi ancha ayollar uchun xarakterlidir, gembling esa erkak jinsi vakillarida ko'proq uchraydi. Qator hollarda *yosh omilining* harakati haqida ham gapirish mumkin, agar giyohvandlik bilan ayniqsa, 14 dan 25 yoshgacha bo'lganlar azoblansalar, piyonistalik umuman olganda ancha katta yoshdagilar uchun xarakterlidir.

Insonning *psixofiziologik xususiyatlari*, shubhasiz, addiktiv axloqning individual o'ziga xosligini aniqlovchi omil rolida chiqadi. Ular ahamiyatli tarzda bog'lanib qolishning ob'ektini tanlashga, ifodalanganlik darajasi va bartaraf etish imkoniyatiga ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

Ko'p sonli munozaralarning predmeti bog'lanib qolishning ba'zi shakllariga *nasliy moyillik*ning mavjudligi haqidagi masala hisoblanadi. Birmuncha tarqalgan nuqtai nazar – piyonistaning bolasi katta ehtimol bilan bu muammoni voris qilib oladi. Biroq tobe axloqqa nasliy moyillik gipotezasi qator faktlarni tushuntirmaydi. Masalan, zamonaviy o'smirlar ota-onalarining ichkilik iste'mol qilishga moyilliklariga qaramay

giyohvand moddalarni iste'mol qiladilar. Tobe axloq har qanday oilada shakllanishi mumkin. Uning shakllanishiga ko'plab oilaviy omillar ta'sir qilishi mumkin. Shu munosabat bilan tobe axloqqa nasliy emas, oilaviy moyillik to'g'risidagi gapirish maqsadga muvofiqdir.

Tobe axloqqa bilvosita moyillik *asab tizimining* tipologik *xususiyatlari* bilan aniqlanadi. Yangi vaziyatga moslashuvchanlik, kayfiyat sifati, ta'sirchanlik, aloqaviylik kabi tug'ma xislatlar boshqa noxush sharoitlarda addiktiv axloqning shakllanishiga ta'sir ko'rsatishini taxmin qilish mumkin.

*Xarakter tipi* va tobe axloqning ba'zi turlari orasida muayyan bog'liqlik mavjud. Xullas, piyonistalik va giyohvand moddalarni iste'mol qilish [7] ko'pincha eksploziv va xarakterning noturg'un aksentuasiyasida, yetarlicha tez-tez - epileptoid va gipertimda uchraydi.

Muhtoj axloqni *obsessiv yoki kompulsiv xarakterlar oqibati* sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Obsessiv-impulsiv shaxslarning asosli nizosi N. Mak-Vilyams fikricha, bu muhokama qilinishdan qo'rquv bilan kurashuvchi shaxslardir [15, 362-b.]. Shaxs beixtiyoriy aybdorlik tuyg'usi va o'z standartlariga mos kelmaslik oqibatida anglangan uyatdan ozod bo'lishga intiladi. Tan olish va ushbu affektni ifodalash o'rniga odam himoyaviy fikriy konstruksiyalar (obsessivlik) quradi, yoxud harakatda xavotirdan ozod bo'lishga (kompulsivlik) intiladi. Obsessivlik suisidal axloqda ishtirok etishi mumkin. Kompulsivlik qandaydir harakatning (hatto shaxsning istagiga qarshi) takroriy stereotipi sifatida bevosita addiktiv axloqning turlicha shakllari bilan bog'liq. N.Mak-Vilyam ichkilikbozlik, ko'p ovqat yeyish, giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish, azart o'yinlar, xaridlar yoki jinsiy sarguzashtlarga ishqivozlikni *"g'oyatda zararli kompulsiv axloqning turli ko'rinishlari"* deb ataydi [11, 358-b.]. Kompulsiv xarakterning farqli xususiyatlari destruktivlik emas, balki o'ta tortilishga moyillikdir.

Qator tadqiqotlar *shaxsning asabiy rivojlanishi va uning addiktiv axloqi o'rtasidagi aloqa*ni o'rganishga bag'ishlangan. Masalan, ozuqaviy va jinsiy addiksiya asabiy simptomlar bilan shunchalik tez uyg'unlashadiki, ba'zi mualliflar ularni psixosomatik yoki asabiy buzilishlar sifatida ko'rib chiqadilar [23].

Shaxs axloqiga ta'sir qiluvchi boshqa muhim individual omillar *stressga chidamlilik* bo'lib chiqishi mumkin. Keyingi yillarda shaxsning

stressni yengishga sust layoqati natijasida xorij va Rossiyada addiktiv axloqqa qarash rivojlandi [10, 29]. Addiktiv axloq koping-funksii - stressni uddalash mexanizmlarining buzilishida yuzaga kelishi taxmin qilinadi. Tadqiqotlar sog'lom va tobe odamlarning koping-axloqidagi farqlar haqida guvohlik beradi. Masalan, giyohvandlikka bog'lanib qolgan o'smirlar stressga *muammodan ketish, uni rad etish, yolg'izlanish* kabi xarakterli reaksiyalarni namoyish qiladilar [29].

Ilhomsizlik, hayot mazmunining yo'qligi, o'z hayoti uchun mas'uliyatni o'ziga olishga qobiliyatsizlik – bu va odamning boshqa ahamiyatli tavsifnomasi, aniqrog'i, ularning deformasiyasi, shubhasiz, tobe axloq va uni saqlashning shakllanishiga yordamlashadi.

Tobe axloqning omillari haqida gapirganda uning asosida odamning tabiiy ehtiyojlari yotishini yana bir bor ta'kidlash lozim. Tobelikka moyillik, umuman olganda, insonning universal xususiyati hisoblanadi. Biroq muayyan sharoitlarda ba'zi neytral ob'ektlar shaxs uchun hayotiy muhimga, ehtiyoj esa ularda nazorat qilinmaydiganga aylanadi.

### *Hammuhtojlik fenomeni*

Zamonaviy nuqtai nazarlarga muvofiq oila nafaqat tobe axloqning sodir bo'lishida, balki quvvatlanishida ham ahamiyatli rol o'ynaydi. Qarindoshlarning o'zlari garchi real tarzda azoblansalar-da, ko'pincha addiktni ko'tarilishga qo'zg'aydigan turlicha psixologik muammolarga ega bo'lishlari mumkin. Addiktning qarindoshlaridan oila a'zolaridan kimdir addiktiv axloqni uzoq muddat saqlagan holda, birinchi navbatda, jiddiy muammolar paydo bo'ladi va *hammuhtojlik holati* rivojlanadi. Hammuhtojlik tushunchasi ostida shaxsdagi *salbiy o'zgarishlar va oila a'zolaridan kimningdir tobe axloqi oqibati* tushuniladi [2, 17]. Qarindoshlarning psixologik holatida aniq ko'rinuvchi jarohatli o'zgarishni qo'zg'atuvchi oilaning tobe a'zosi va qarindoshlari (ko'pincha ota-onasi) o'rtasidagi o'zaro munosabatlar nazarda tutiladi. Bu nafaqat oiladagi janjalli vaziyatni samarali hal qilishga, balki tobelikni yengish jarayoniga ham to'sqinlik qiladi.

Hammuhtojlik muhtojlikni qo'llab-quvvatlaydi. Shunday qilib, hammuhtojlik bu oilaviy psixologik muammolarning yopiq doirasidir.

Masalan, giyohlarga tobe bo'lib qolgan o'smirlarning ota-onalari

giyohlarni iste'mol qilish jarayoniga tortilgan bo'lishi mumkin. Ularning barcha oilaviy hayoti bolaning giyohlarni qabul qilish sikli atrofida aylanadi. Oila miflar, o'zaro navbatma-navbat va'dalar va illyuziyalar bilan yashaydi. Navbatdagi ko'tarilishdan keyin o'smir samimiy afsuslanadi. U o'z gunohini silliqlashga tayyor va oliyhimmat va'dalar beradi. Ota-onalar evaziga "zaif" o'smirlar bilan yaqinlik hissiyoti va umidni olgan holda eng dahshatlisi ortda qoldi deya o'zlarini qayta va qayta aldashga tayyordirlar.

Bog'lanib qolish muammosi bilan to'qnash kelganda oila juda turli-tuman oilaviy miflar, proeksiya, muammoni inkor etish, yolg'izlikni kuchaytiruvchi muammo haqida indamaslik va boshqa *muhofaza tizimlari*ni quradi. Qarindoshlari o'zlari anglamagan holda addiktni ko'tarilishga itaradilar.

"Iste'mol qilmagan" muddatda oilada asta-sekin zo'riqish, xavotir o'sadi, shubha va gumonlar kuchayadi. Nihoyat, zo'riqish shunday yuqori bo'ladiki, kimdir chiday olmaydi – ko'tarilishni anglatuvchi janjal chiqaradi. Hammasi qayta takrorlanadi.

Paradoksal tarzda, biroq addiksiya oilani mutelik ob'ekti bilan kurashda jipslashtiradi, u yaqinlik illyuziyasini beradi.

Hammuhtojligi bo'lgan oilada *rollar va javobgarlikning taqsimlanishi buzilgan.* Addikt o'z harakatlari uchun javobgarlikni juda kam hollardagina o'ziga oladi. U sodir bo'layotganlar uchun barcha aybni boshqalarga yuklaydi. Va nihoyat qarindoshlar unga faqat – addiksiyani qoldirib, addiktning hayoti uchun bor mas'uliyatni o'zlariga qabul qiladilar.

Hammuhtojlik munosabatlari doirasida ovoz chiqarib aytilmaydigan "o'zaro kelishuv" - "men sening iste'mol qilishingga ko'z yumaman, buning evaziga sen uni, buni qilasan" vaziyati bo'lishi ham ehtimol.

Shunday qilib, xotin erining ichkilikka ruju qo'yganligini, qachonki, masalan, qandaydir sovg'a yoki pul olganida yutib ketishi mumkin.

"Parallel tarzda mavjud bo'lish" tipidagi munosabat ham bo'lishi mumkin. Addikt va oila a'zolarining har biri o'z hayoti bilan yashayotgan kabi tutadilar va bir birlarining muammolariga mutlaq aralashmaydilar. Bunday munosabatlar aniq alohida sharoit, avtonom yashashga amal qiluvchi masofali oilalardagina mumkin.

Oila a'zolari yotoqxonada turganday yashaydilar. Ularda faqat bitta

umumiy masala mavjud - uydan axlatni chiqarib tashlamaslik.

Munosabatlar tipidan qat'i nazar hammuhtoj oilalar a'zolarining o'zlarini his qilishlari yomonlashadi. Oila a'zolari quyidagi o'zgarishlarga duch qilinadi:

- shaxsiylik yo'qoladi, iste'molga fiksasiya sodir bo'ladi;

- addiktning axloqi oilaning boshqa a'zolarining hissiy holatini to'liq belgilaydi;

- shiddatlilik,aybdorlik, umidsizlik affektlari ustunlik qiladi;

- o'z-o'zini baholash va o'z-o'zini hurmatlash keskin pasayadi, masalan "biz yomonmiz, biz hamma narsada aybdormiz" hissiyoti keladi;

- yolg'on turi kuchayadi: qurbon ("nima uchun menga shunday qiynoqlar"), qutqaruvchi ("men uni menga nima bo'lishidan qat'i nazar qutqaraman");

- hissiy meros bo'lib qolish va apatiya holati his qilinadi; yolg'izlanish boshlanadi;

- surunkali stress fonida hech so'zsiz salomatlik yomonlashadi: somatik kasalliklar zo'rayadi. ruhiy azoblanish holati rivojlanadi.

Ruhiy azoblanish holati nafaqat ishga qobiliyatni pasaytirishi bilan. balki o'zini his qilishni yomonlashtirishi bilan ham xavflidir. Ruhiy azoblanish holati suisidal axloqni uyg'otadi. Shunday qilib, tobe axloq muammosi oilaviy buzilishgacha kengayadi.

### *Kimyoviy tobelik*

Ko'pgina odamlar ichkilik. kofe. trankvilizatorlar kabi kimyoviy moddalardan keng foydalanadi.

Ularning ko'pchiligi bu narsalarni butun hayotlari davomida iste'mol qilish ustidan nazorat qilishga erishadilar. faqat ba'zilarigina bu tobelikning quliga aylanadilar.

Keng ma'noda *kimyoviy tobelik tushunchasi ostida (boshqa nomlari - dorivor. giyohlar)* qonuniy (tamaki. ichkilik. dorilar) va noqonuniy giyohlar (kokain. nasha. og'u ishlab chiqarish va boshqalar) ga bo'linadigan *har qanday psixofaol moddalarni iste'mol qilishga tobelik tushuniladi*. Ushbu bo'limda biz addiktiv axloq *giyohlarga tobelik*ning

birmuncha xavfli shakllaridan birini ko'rib chiqamiz.

2000 yili Sankt-Peterburgning 2,5 minglik aholisi o'rtasida olib borilgan sosiologik tadqiqotlar guvohlik berishicha, 20 yoshdagilarning 70 foizigacha noqonuniy giyohlar bilan tanish, u yoki bu darajada ularga aralashganlar. Qizlarda bu ko'rsatkich 30 foizdan oshmaydi. Giyohvandlikka qo'shilganlarning to'rtdan bir qismi aniq ko'rinib turgan tobelik bilan azoblanadi. Nasha yoki boshqa og'ularni ishlab chiqarishga qo'shilganlar miqdori deyarli yoshlarning umumiy hisobiga teng. Barcha faol iste'mol qiluvchilarning beshtadan to'rttasi og'ular bilan 15 yoshdan 17 yoshgacha to'qnash kelganlar [4, 130-b.].

Noqonuniy giyohlarni iste'mol qilish ko'pincha 14 yoshgacha uchraydi. Yosh avji 21 yoshga to'g'ri keladi. Albatta, shakllanmagan shaxsning giyohlarni iste'mol qilishi ijtimoiy-psixologik muammolarni tug'diradi: me'yoriy psixik va jismoniy yetilish imkonsizligi, maktabga moslashmaganlik, kasb va bandlikni tanlash muammosi, sheriklik munosabatlarini yaratishdagi qiyinchilik, asosiallik va h.k. Mutaxassislarning fikricha, Rossiyada giyohlarni iste'mol qilish keyingi 10 yil ichida ijtimoiy fojia darajasiga yetdi.

Kimyoviy bog'liqlikning o'ziga xos xususiyatlari uning ikki aspekti o'rtasidagi zich aloqaning mavjudligi hisoblanadi - klinik va psixoijtimoiy. Bu shuni anglatadiki, giyohvand moddalar iste'moli bilan bog'liq axloqni ijtimoiy-psixologik muammolar majmui sifatida ham, organizmda taraqqiy qiluvchi fizik-kimyoviy o'zgarishlar oqibati sifatida ham ko'rib chiqish zarur. Addiksiyaning shakllanishidagi muayyan bosqich (jismoniy bog'liqlik bosqichi) da organizmdagi kimyoviy jarayonlar addiktiv axloqni quvvatlashda yetakchi roli o'ynashni boshlaydi. Ushbu xususiyat mutaxassislarni giyohvand moddalarga bog'liqlikning klinik ko'rinishlari sohasida ba'zi bilimlarni egallashga yo'llaydi.

Jismoniy bog'liqlik sindromi uchun [16, 71-b.] quyidagi klinik belgilar xarakterlidir:

- psixofaol moddalarni iste'mol qilishga yengib bo'lmas istak;

- boshlanishi, oxiri yoki uni qabul qilishning umumiy dozirovkasi uchun pasaytirilgan nazorat;

- bekor qilish sindromini yumshatish maqsadida iste'mol qilish (abstinent sindrom);

- giyohvand moddalarga tolerantlikni oshirish (hiyla yuqori dozalarga ehtiyoj);

- vaziyatli nazoratning pasayishi (noodatiy sharoitlarda iste'mol qilish);

- giyohlarni qabul qilish uchungina boshqa lazzatlarni inkor qilish;

- iste'mol qilish oqibatidagi psixik buzilishlar yoki jiddiy ijtimoiy muammolar.

Shunday fikr mavjudki, hamma moddalar ham jismoniy bog'liqlikni chaqirmaydi. Masalan, opiat, barbiturat yoki ichkilikni suiiste'mol qilganda bog'liqlik rivojlanadi, biroq amfetamin yoki kokainni iste'mol qilgan paydo bo'lmaydi. Bog'lanib qolishning turi va darajasini aniq baholash uchun mutaxassislarning (narkologlarning qoidasi kabi) aralashuvi talab qilinadi. Jismoniy bog'liqlik bosqichida psixoijtimoiy yordam og'riqli simptomla davosi bilan ham birga borishi kerak.

Kimyoviy bog'liqlikning alohida shaklini klinik ko'rinishlari farqiga qaramay, oxirgilari umumiy ijtimoiy-psixologik belgilarga ega. Ushbu addiksiva asosida qulaylik tuyg'usiga erishish yoki noxush hissiyotlarni bartaraf etish (masalan, abstinent sindrom) maqsadida giyohlarni qabul qilishni davom ettirishga ehtiyoj yotadi. Giyohlarga ishqibozlik o'ta kuchli xarakterga ega. Saraton o'simtasiga o'xshash u shaxs va bemor hayotini tezda parchalaydi. Giyohlarni suiiste'mol qilishda ko'rsatmalardan biri dastavval tezda ijtimoiy moslashmaganlikka o'sib o'tishda ko'zga tashlanadigan *ijtimoiy degradasiya* hisoblanadi. Bunda o'zlashtirishning pasayishi. o'qish yoki professional faoliyatdan voz kechish. ijtimoiy muhit bilan nizolar. qonun bilan muammolar. oila va do'stlaridan yiroqlashish. muloqotning giyohvandlar doirasigacha torayishi. yolg'izlanish.

Ijtimoiy degradasiya bilan parallel tarzda aniq ko'rinib turgan *xarakter o'zgarishi* sodir bo'ladi. Giyohvand moddalar bilan tashvishlanishlik fonida umumiy mas'uliyatsizlik o'sadi. amotivasion sindrom shakllanadi (avvalgi qiziqishlarning yo'qolishi). *Rad etish* axloq usuliga aylanadi. Giyohvand moddalarga bog'lanib qolgan shaxs hamma narsani rad etadi: iste'mol qilish fakti. qoidalar. o'z harakatlari. o'z javobgarligi. muammoning mavjudligi. nihoyat. bog'lanib qolganlik va uni davolash zaruriyatini. Atrofdagilarning yordamga urinishlari yoki qadrsizlanadi. yoki tajovuzkorlikni uyg'otadi. Reallik mevasiz orzular. bajarilmaydigan va'dalar. yolg'on. illyuziya shaklidagi fantaziyalar bilan to'liq almashinadi.

Giyohvand moddalarga bog'lanib qolganlar dunyosi - bu miflar dunyosidir: "men bir marta ukol qilsam bo'lgani", "men qachon xohlasamgina iste'mol qilaman", "dozani nazorat qilish mumkin", "men giyohlarsiz ham yashay olaman", "sinishni boshdan kechirish mumkin emas", "boshqalar uning nima ekanini bilmaganliklari uchun iste'mol qilmaydilar", "shifokorlar bunda hech narsani tushunmaydilar", "giyohvandlikni davolab bo'lmaydi".

Agar addiktiv shaxs dastlab muammolar yechimidan ketishga intilsa, unda sekin-asta u umuman harakatga layoqatini yo'qotadi. Ruhiy azoblanish holati, yolg'izlanish, zaiflik, qonun bilan kelishmaslik - bularning barchasi, nihoyat, muammoning jiddiyligini anglashga olib keladi.

Giyohvandlikka bog'liq axloqning motivasiyalari haqidagi masala birmuncha muhim hisoblanadi. Dastlabki iste'mol qilish sabablari orasida quyidagilami ajratish mumkin:

- ataraktik (psixologik qulaylik va relaksasiyaga erishish);
- submissiv (guruhning oqlashi va mansublikka intilish);
- gedonistik (o'ziga xos jismoniy qoniqish olish);
- giperfaolliklar (tonus va o'z-o'zini baholashning oshishi);
- psevdomadaniy (qandaydir sifatni namoyish qilish, masalan, kattalar axloqini);
- bilish-tadqiqot (yangi taassurotlarga intilish, qiziquvchanlik).

Shuni nazarda tutish lozimki, yoshlar giyohvand moddalarni o'z muhitining qismi sifatida ko'radilar va ko'pincha bir marta iste'mol qilib ko'rish yoki sotuvchilarning bosimiga qarshi tura olmaydilar.

Qator tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, oddiy kayfni izlashga o'ta ahamiyat beriladi. Birinchidan, "giyohli ochlikdan" lazzatlanish eyforiyasi uzoq cho'zilmaydi va tezda uyqusirash, harakatsizlik bilan almashinadi. Ikkinchidan, ko'pchilik giyohlarni sinab ko'radi, biroq hamma ham unga bog'lanib qolmaydi.

Psixodinamik tadqiqotlar kimyoviy moddalarni iste'mol qilishning chuqur tushunarsiz sabablarini ochib beradi [12, 21, 28]. Sistemaik tarzda iste'mol qilishga yetakchi qo'zg'atuvchi sabablar *zo'riqish* va *og'riqdan qochishga intilish* bo'lishi mumkin. Bu holda har qanday zo'riqish ochlikning differensiyalanmagan go'dak tuyg'usiga o'xshash mavjud

bo'lishga yaqqol xavfning elchisi sifatida anglanadi. Shubhasiz, giyohvan moddalar, avvalo, *o'z-o'zini davolovchi* sifatida ishlatiladi. Ko'pchilik tadqiqotchilar shaxsiy ruhiy azoblanish buzilishi va giyohvand moddalarga muhtojlikning rivojlanishi o'rtasidagi aloqani ta'kidlaydilar. Agar marixuanani iste'mol qilishga tengdoshlar ahamiyatli ta'sir ko'rsatsalar, "og'ir" giyohlardan foydalanish ko'proq ota-onalar bilan chuqur buzilgan munosabatlar va *ruhiy azoblanish holatiga* bog'liq.

Har bir odamda addiktiv moyillik ishtirok etadi, qator mualliflar fikriga ko'ra *jiddiy shaxsiy buzilishlarning* mavjudligi bu xususiyatning surunkali buzilishga o'tishida yetakchi sharoit hisoblanadi. Giyohvand moddalarni suiiste'mol qiluvchilar, umuman olganda, ancha shaxsiy buzilgan, yakkalangan va o'z hayotidan kam qoniqqanlardir. Dj.Xanzyan "Addiktiv bemorlarda o'z-o'zini boshqarish muhitining zaifligi" maqolasida [21, 28-b.] kimyoviy bog'liqlikda yetakchi muammo sifatida o'z-o'zini boshqarishning asosli qiyinchiligi to'rtta asosiy muhitda ekanligini aytadi: *tuyg'u, o'z-o'zini baholash, o'zaro munosabat, o'zi haqidagi g'amxo'rlik.*

Addiktiv shaxslar o'zlarini "yaxshi" deb his qilmasliklaridan azoblanadilar, bu esa, o'z navbatida, ularning boshqa odamlar bilan munosabatlarini qonitirmaydi. Kimyoviy moddalar ichki bo'shliq, uyg'unlashmaganlik va og'riq tuyg'usiga qarshi ulkan vosita bo'lib xizmat qiladi. Bog'lanib qolishga moyil odamlar o'zlarining muhtojliklarini yashirishga urinib, reallikdan qochish, rad etish, voz kechish, o'z-o'ziga yetarliligini tasdiqlash, tajovuz va o'z-o'zini salbiy namoyon qilish kabi himoya vositalaridan foydalanadilar.

Giyohvandlikni alam, uyat va ruhiy azoblanish holati kabi chidab bo'lmas affektlarga qarshi *nuqsonli himoyaning rivojlanishi* sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Giyohlarga tobe bo'lib qolganlar, ko'rinadiki, bunga o'xshash affektlarni ko'tarishga qodir emaslar - ular tahlikaga yaqin bo'lgan holatni his qiladilar. O'z tuyg'ularini anglash, gapirish va ifodalash - ulardan ozod bo'lish o'rniga muhtoj odamlar o'z tuyg'ularini "o'chirib" va nazorat illyuziyasini yaratib, ularni boshqarish uchun kimyoviy moddalar qo'llaydilar.

Giyohlar haqiqatan aniq ko'rinib turgan farmakologik ta'sirga ega va qisqa muddatga psixohissiy holatni o'zgartirishga qodir. Xullas, Tak, *psixostimulyatorlar* (amfetamin, kokain) ruhiy azoblanish holati va

giperfaollikni susaytiradi; *analgetik-opiatlar* (geroin, morfiy, metadon) qahr va ruhiy azoblanish holatini ko'taradi, uyat va aybdorlik tuyg'usini pasaytiradi; *gallyusinogenlar* ruhiy azoblanish holati va bo'shliq tuyg'usini yengishga yordamlashadi. Umuman olganda giyohlar turg'unlikka ehtiyojni qondiradi, ideallashgan ob'ektni beruvchi jazolaydigan super-Egoni neytrallaydi. X.Kogutning ta'kidlashicha, *"giyohvand moddalar psixologik tuzilmada nuqsonning o'rnini bosishga xizmat qiladi"* [21, 36-b.].

Giyohvand moddalarga bog'lanib qolgan shaxslarni chuqur o'rganish S. Blattni [21, 34-b.] geroinga (eng kuchli giyohlardan biri bo'lgan) bog'liqlik ahamiyatli tarzda quyidagi ustunlikka olib keladi, degan xulosaga olib keldi: 1) tajovuzni konteyn qilish ehtiyoji; 2) ona figurasi bilan ramziy munosabatlarni qoniqtirish istagini izlash; 3) ruhiy azoblanish affektlarini susaytirish istagi.

Giyohlar. bir tomondan. zaiflikni yengish illyuziyasi va o'z-o'zini nazoratni kuchaytrishni paydo qiladi, boshqa tomondan esa – o'z hayoti va o'zi ustidan nazoratni yo'qotishga olib keladi. Va nihoyat tobelik insonda hech qanday tanlash imkonini qoldirmaydi. *Nazoratni to'liq yo'qotish* va *kuchsizlikni his qilish* tobe shaxslar uchun shunchalik tipikki. "O'n ikki qadam" dasturi bo'yicha reabilitasiya aynan giyohlar oldida o'z kuchsizligini tan olishdan boshlanadi.

Giyohvand moddalar bilan bog'liq boshqa aniq shaxsiy buzilish – bu *o'zi haqida g'amxo'rlik qilish qobiliyatining buzilishidir.* U o'ziga nisbatan "pisand qilmay" munosabatda bo'ladi. giyohlarni iste'mol qilishning o'limga teng xavfli oqibatlari va oxirgi natijada o'z-o'zini parchalovchi ulkan tendensiyasini inobatga olmaslik. Masalan. ko'pchilik geroin giyohvandlari geroinni iste'mol qiluvchilar hayotining o'rtacha davomiyligi – 7 yil. uning alishtirmas yo'ldoshlari – OITS. gepatit yoki dozani oshirib yuborish. geroin – bu o'lim. uni iste'mol qilish esa o'z-o'zini o'ldirish varianti ekani haqidagi statistik faktni biladilar. Tragik oqibatlarni bilish ham yaxshi yordam bermaydi. hatto yaqin do'stlarining giyohvandlikdan o'lganlarini eshitish ham ularni keyinroq giyohvand moddalarni iste'mol qilishdan to'xtatmaydi.

Addiktiv shaxsning o'z-o'zi va boshqa odamlar bilan munosabatida fantaziya va xafsalasi pir bo'lish cheksiz ustunlik qiladi. Umuman olganda. bu *hayotdan u qanday bo'lsa shundayligicha lazzat olishdan mahrum*

*bo'lgan* haqiqatan azoblanayotgan odamlar. Turli sabablar kuchida bu odamlarning hayoti "ishlamaydi". Giyohlarni iste'mol qilish o'zi va o'z hayoti haqida eng yaxshi obrazda g'amxo'rlik qilish layoqatsizligi fonida chidab bo'lmas azoblardan (moddalar yordamida) qutulishning individual bo'yalgan urinishi bo'lishi mumkin.

Haqiqatan, barcha giyohlarga tobe odamlar shaxsiy muammoga ega bo'lishi mumkin, biroq *psixologik muammosi bo'lgan hamma odamlar ham tobe bo'lib qolmaydi.* Odam agar u o'z tuyg'ularini (shu jumladan, salbiy) barobar ifodalashga qodir bo'lsa, kimyoviy tobelikka qarshi psixologik immunitetga ega bo'ladi; hayotni qanday bo'lsa shundayigicha anglasa; o'zi oldida to'g'riso'z bo'lsa; boshqalar bilan sog'lom munosabat o'rnatish va o'zi haqida hamxo'rlik qilishga qodir bo'lsa; maqsad qo'yishni va uni amalga oshirishni uddalasa; ijodkorlikka qodir va ish bilan band bo'lsa; turli buyumlardan lazzat olishni uddalasa.

### *Ovqatga tobelik*

Addiktiv axloqning boshqa, uncha xavfli bo'lmagan, biroq ancha keng tarqalgan turi – bu ovqatga tobelik. Ozuqa suiiste'mol qilishning eng sodda ob'ekti hisoblanadi. Sistematik tarzda ko'p ovqat eyish yoki aksincha ozish uchun miyadan ketmaydigan intilish. taomni serhasham tanlash. "ortiqcha og'irlik" bilan sermashaqqat kurash. yangi va yangi dieta bilan qiziqish - bu va ovqatlanish axloqining boshqa turlari bizning davrimizda keng tarqalgan. Bularning barchasi me'yordan og'ishdan ko'ra me'yorning o'zidir. Shu bilan birga ovqatlanish uslubi inson ruhiy holati va affektiv ehtiyojini aks ettiradi.

Rus tilida *muhabbat va ovqatlanish o'rtasidagi aloqa* keng aks etgan: "Sevimli – demak shirin". "Kimnidir istash - demak sevgi ochligini his qilish". "Kimningdir qalbini zabt etish – kimningdir oshqozonini zabt etish demakdir". Ushbu aloqa to'qlik va qulaylik bittaga qo'shilgandagi go'daklik kechinmalarida. ovqatlanishdagi onaning issiq bag'ri esa sevgi hissini berganida boshlangan.

*Ilk yoshda vital ehtiyojlar frustrasiyasi* katta ehtimol bilan bola rivojlanishida muammolarga olib keladi. Tadqiqotchilar ovqat addiksiyasi sababini *go'dak va ona o'rtasidan o'zaro munosabatning erta buzilishida ko'radilar* [21, 23]. Shu jumladan. ona go'dak haqida go'dakning ehtiyojlaridan kelib chiqib emas. o'zining ehtiyojlariga muvofiq

g'amxo'rlik qilishi mumkin. Qachonki bolaning signallari javob olmasa, bola o'zligining sog'lom hissiyotini ishlab chiqolmaydi. Buning o'rniga bola o'zini to'lahuquqli avtonom mavjudot sifatida emas, shunchaki onaning davomi sifatida his qiladi.

Go'dakni oziqlantirish vaqtida onaning hissiy holati ham kam ahamiyatga ega emas. R.Spis tadqiqotlarining natijasi shu faktni ishonchli tarzda tasdiqladiki, go'dakni muntazam ravishda hissiz oziqlantirish uning ehtiyojlariga javob bermaydi [23, 62-b.]. Agar bolalar uyining go'daklari 5 oydan ortiq shu tartibda qolsa, ularning to'rtdan biri ovqat hazm qilishning buzilishidan o'lganlar, qolganlari esa og'ir ruhiy va jismoniy buzilishni namoyon qilganlar. Agar har bir bolani oziqlantirishda qo'liga olib, tabassum bilan ovqatlantiradigan qarovchilar soni ko'paytirilsa, bunda buzilishlar paydo bo'lmagan yoki yo'qolgan. Shunday qilib, go'dakni oziqlantirish kommunikativ jarayondir.

Buzilgan ovqatlanish axloqi dastavval unga ahamiyatli bo'lgan ob'ekt bilan munosabatlarning erta buzilishi, *himoyalanganlik va muhabbatning tanqisligini kechirish* bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shaxs boshidanoq to'qlik va qoniqish layoqatini yo'qotadi. Ozuqa giyohlar kabi beixtiyor infantil affektlar, masalan, ruhiy azoblanish holati va qo'rquvdan himoya uchun tanlaydi. Buning oqibatida ovqat iste'mol qilish ustidan nazorat murakkablashadi. Odam nazoratsiz ozuqani tanovvul qilishga yoki aksincha o'z ishtahasini nazorat qilishga bor kuchini sarflaydi.

Ushbu axloq yana shu bilan bog'liqki, zamonaviy ommaviy axborot vositalari ozg'in go'zallarni ideal obraz sifatida tiqishtiradilar. Bundan tashqari, ko'pincha noteng ozuqa axloqiga ko'maklashuvchi ozuqa madaniyati juda serob.

Umuman olganda, ozuqa addiksiyasi shaxs va jamiyat uchun jiddiy xavf tug'dirmaydi. Ayni vaqtda ovqatga tobelikning asabiy anoreksiya (grek tilidan "eyish istagining yo'qligi") va asabiy bulimiya (grek tilidan "bo'rilar ochligi") kabi oxirgi variantlari o'ta jiddiy va qiyin yengiladigan muammolarni aks ettiradi.

***"Asabiy anoreksiya"*** nomi chalg'itishi mumkin, chunki u ushbu holda markaziy muammo ishtahaning yo'qolishi hisoblanadi, degan fikrga olib kelishi mumkin. Faktik jihatdan muammo xushqomatlilik fanatik intilish va semiz bo'lishdan qo'rqishni bostirish bilan bog'liq. Asabiy anoreksiyadagi axloq taomdan voz kechish yoki ovqatlanishdan keskin

chegaralanish sifatida ko'rinishi mumkin. Masalan, qiz bolaning kunduzgi rasioni yarimta olma, yarimta yogurt va ikki bo'lak pechenedan iborat bo'lishi mumkin. Ko'ngil aynishni chaqirish, bo'shashtiruvchi dorilarni qabul qilish, o'ta jismoniy faollik, ishtahani susaytiruvchi vositalarni iste'mol qilish bilan birga borishi mumkin. Bunda, albatta, aniq ko'rinib turgan og'irlikni yo'qotish kuzatiladi. *Maxsus yuqori qadriyatli g'oyalar – astenik qaddi-qomatga ega bo'lishga mubtalolik* xarakterlidir. Buzilish, qoidadagiday, pubertat muddat oldidan boshlanadi, remissiyada ko'pincha teskarisi bo'ladigan tana o'sishini kiritgan holda jinsiy rivojlanishning buzilishiga olib keladi. O'ta aniq ko'rinib turgan kaxeksiya (toliqish) bosqichida neyrofiziologik buzilishlar boshlanadi: diqqatni jamlashga layoqatsizlik, tezda psixik toliqish.

Ko'pchilik ozuqa addiktlarida quyidagilar belgilanadi: nazoratning yo'qolishi; tana sxemasining buzilishi (birmuncha ta'sirchan sohalarning barchasiga – qorin, dumba va bo'ksaning yuqori qismi kabilarga taalluqli). Vaqt o'tishi bilan ochlik va to'qlikni anglash yo'qoladi, deyarli doimo *istisnoviy past o'z-o'zini baholash*ga joy bor. Kasallik davomida va o'sib boruvchi kaxeksiyada qiziqishlar doirasi torayadi, ijtimoiy aloqalar yo'qoladi va kayfiyatning ruhiy azoblanish holatiga surilishi o'sadi. Aniq ko'rinib turgan *taom qabul qilish ritualları* va asosan taom hamda kaloriyaga *taalluqli miyaga o'rnashib qolgan fikrlar* kuzatiladi. Jinsiy aloqaga ahamiyatsiz qiziqish va muvaffaqiyatga o'ta yuqori intilish ko'zga tashlanadi. Psixopatologik fenomenlar qisman tananing og'irligiga bog'liq va uni tiklashda yo'qoladi.

Ozuqa axloqining buzilishi biologik, madaniy, oilaviy va intrapsixik omillar bilan bog'liq. Xatarning quyidagi omillari ajratiladi: pubertat yosh; ayol jinsi (90-95 foiz hollarda), ozish idealining kuchli ta'siri (masalan, fotomodellar yoki professional sportchilarda); o'ziga bo'lgan yuqori talablar bilan bog'liq stress (masalan, tibbiyotni o'rganayotgan talabalarda); shaxsiy hissiyotlarning anglashga yetarlicha bo'lmagan iqtidor; oilaviy janjallar va o'ta zich o'zaro munosabatlar; pubertatning juda erta boshlanishi; egizakli omil; insulinga tobe bo'lgan diabet.

Ushbu buzilish, ayniqsa, o'smir yoshidagi muammolar bilan zich bog'langan. Quyidagicha izoh keng tarqalgan: anoreksiya *og'irlikni kamaytirish yo'li bilan* muammoni hal qilish usuli hisoblanadi. Bu nazariyaga muvofiq ochlik yordamida jinsiy yetilishning jismoniy belgilari "yo'q"qa chiqadi va qiz bolaga "bola bo'lib qolish" va yoshga xos

psixojinsiy talablardan berkinish imkonini beradi. O'z-o'ziga o'xshashlik va avtonomiyaning (ota-onadan yiroqlashish) yosh muammolari "ozuqa sohasidagi kurash maydoni"ga o'tkaziladi, buning sharofati bilan *oila bilan simbiotik munosabatlar uzoq muddat saqlanib qoladi.*

Asabiy anoreksiyasi bo'lgan ko'pchilik qizlarda o'zlarini "yomon, xunuk, omadsiz" ekanliklari haqidagi turg'un ishonch mavjud. Haqiqatan bunday buzilishlar aynan "yaxshi qizlarda" ko'p uchraydi. Asabiy anoreskiyani ba'zida a'lochilar kasalligi deydilar. Bu qizlar butun hayotlari davomida ota-onalarining kutishlariga mos tushishga intilganlar, biroq kutilmaganda o'smir yoshida qaysar va yaramas bo'lib qoladilar. Ko'rinadiki, asabiy anoreksiya "o'z-o'zini davolash"ga urinish sifatida rivojlanadi – tana tartibi orqali o'zligini va shaxslararo samaradorlikni his qilishga urinish ishlab chiqiladi.

Anorektik shaxsning oilasi tashqaridan uyg'unlashgandek ko'rinishi mumkin. Ayni vaqtda oilaviy atmosfera uchun quyidagilar xarakterlidir: ijtimoiy muvaffaqiyat. zo'riqish. yopishqoqlikka nihoyatda kuchli orientasiya; o'ta g'amxo'rlik ko'rsatish va gipervasiylik. nizolar yechimidan ketish [23]. Buzilgan axloq oiladagi o'ta qattiq nazoratga qarshi e'tirozni aks ettirishi mumkin.

Boshqa ozuqa addiksiyasi bo'lgan shaxslar – *asabiy bulimiya* -- odatda. nisbatan me'yordagi og'irlik bilan farqlanadi. Bulimiya – bu kasallik emas va shunchaki odat ham emas. Bu axloqiy pattern bo'lib. bulimiya kengroq tarqalgan madaniyatda ildiz otgan sabablar turi uning oqibati hisoblanadi. Masalan. odamlar quyidagi sxemalardan birida buzilgan ozuqa axloqiga ega bo'lishlari mumkin:

- taomning ulkan miqdorini jinoyatkorona yutib yuboradi (ishtaha to'satdan paydo bo'ladi):

- doimiy ovqatlanish (odamning to'xtamay ovqatlanishi):

- to'yinganlikning yo'qligi (odam to'yganini his qilmasdan ovqatning katta miqdorini yeydi):

- tungi ovqatlanish (ochlik kuchayishi tunda sodir bo'ladi).

Ko'p ovqatlanishning tez-tez kuchayishidan tashqari bulimiya tez-tez qusish yoki bo'shashtiruvchilardan foydalanish yordamida og'irlikni faol nazorat qilish bilan ham xarakterlanadi.

Ayni vaqtda anoreksik shaxs Egoning katta kuchi va Super-Egoning

katta nazorati bilan xarakterlanganida. bulimik shaxs zaiflashgan Ego va ishonchsiz super-Egoda asoslanuvchi impulsning razryadkasini saqlab qolishga umumiy layoqatsizlikdan azoblanadi. O'ta ko'p ovqat yeyish va oshqozonni tozalash yagona muammo hisoblanmaydi. ko'pincha ular impulsiv parchalovchi jinosiy munosabatlar yoki giyohlarni iste'mol qilish bilan birga mavjud bo'ladi.

*Bulimik shaxslar, odatda, o'zaro shaxsiy munosabatlardan o'z-o'zini jazolash sifatida ham foydalandilar.* Jazolashga ehtiyoj manbai ota-ona figurasiga qarshi yo'naltirilgan *ongsiz tajovuzkorlik* bo'lishi mumkin. Bu qahr tanovvul qilinadigan va parchalanadigan ovqatga aralashadi. Ozuqaga tobe bo'lgan odamlar o'z munosabatlarini qoniqarli obrazda boshqara olmaydilar, ular o'zaro munosabatlardagi nizolarni taomga qo'shib yuboradilar. Agar anoreksik shaxslar o'zlarining odamlarga nisbatan tajovuzkor tuyg'ulari ustidan nazoratni ovqatlanishni rad etish bilan ushlab tursalar, bulimik odamlar – ramziy ma'noda ko'p ovqat yeyish yo'li bilan odamlarni ko'ngil aynishi va qusishgacha parchalaydilar.

Bulimik oilaviy tizim uning har bir a'zosida o'zini "to'liq yaxshi"day qabul qilishga kuchli ehtiyojdan iborat. Ota-onalardagi nomaqbul sifatlar bulimik bo'lgan bolagan proeksiyalanadi va u o'zida hamma "yomonlik"larni yig'uvchi bo'lib qoladi. Ixtiyorsiz ravishda bu proeksiyalar bilan tenglashib, bola oilaviy qizg'anchiqlik va impulsivlikni olib yuruvchi hisoblanadi. Natijada "muammoli" bolaga diqqati ota-onalar o'rtasidagi nizolar bilan aralashadi. Tadqiqotlarning tasdiqlashicha, ko'p ovqat yeyish, haqiqatan, nazoratni yo'qotish va tashlab ketishlaridan beixtiyor qo'rquvga qarshi himoya hisoblanadi [23].

Ko'rib chiqilgan ozuqa addiksiyalari korreksiyaga yomon beriladi. Bu shu bilan tushuntiriladiki, ozuqa o'ta odatiy va yetishish mumkin bo'lgan ob'ekt hisoblanadi, ushbu buzilishning sodir bo'lishida oila faol ishtirok etadi, jamiyatda xushqomatlilik ideali ustunlik qiladi, nihoyat, buzilgan ozuqa axloqi qator hollarda tizimli funksional buzilish xarakterini oladi. Ozuqaga tobe shaxsga yordam ko'rsatishda unga buzilgan axloqning psixologik ahamiyatini tushunishi uchun yordamlashish muhim.

Korreksiya, shuningdek, oilaning (dastavval oilaviy terapiya shaklida) faol jalb qilinishini ko'zda tutadi. Og'ir hollarda addiktni oiladan ajratish, tibbiy aralashuv va ozuqa axloqi hamda og'irlikning tibbiy muassasalar sharoitida jadal psixoterapiya bilan uyg'unlikdagi qat'iy nazorati tavsiya

etiladi.

Giyohlarga va ovqatga tobelik misolida biz addiktiv axloqning o'zida qandaydir ob'ektdan foydalanishni qayd qiluvchi ko'p bosqichli (biopsixoijtimoiy) buzilishlarni aks ettirishiga ishonch hosil qildik. Addiktiv axloqning aniq bir holatida yetakchi sabablarni aniqlashda, shuningdek, psixologik-ijtimoiy yordamni rejalashtirish uchun majmuaviy va individual yondoshuv talab qilinadi. Ilk kechinmalar va jarohatlarni (taxminan ovqatlanish buzilishi uchun – hayotining birinchi yili, kimyoviy tobelik uchun – birinchi ikki-uch yil) o'rganilayotgan muammolar bilan aloqasi qisman tobe axloqning alohida turg'unligini tushuntiradi. Ayni vaqtda fatallik va ayniqsa, piyonistalik va giyohvandlikka nisbatan alohida tarqalgan tobelikni davolab bo'lmaslik haqidagi qarash o'ta xavfni aks ettiradi. Hayot uchun xavfli bo'lgan tobelikni to'xtatish mumkin va zarur. Tobe *odamni "davolash" esa uning istagidan qat'i nazar juda zarur. Biroq insonning o'zi ijobiy o'zgarishlar uchun shaxsiy mas'uliyatni anglash hamda zaruriy yordamni olib, tobelikni tan olgan holda tobe axloqni to'la yengishi, uddalashi mumkin.* Hayot bunday ijobiy namunalarning ko'pini namoyon etgan.

### *Nazorat savollari va topshiriqlar*

1. Addiksiya nima degani?

2. Addiksiyaning shakllanish bosqichlarini ifodalang.

3. Tobe addiktiv axloq nima degani va uning asosiy belgilari qanday? Tobe axloq zararli odatdan nimasi bilan farqlanadi?

4. Hozirgi vaqtda tobe axloqning qanday turlari birmuncha tarqalgan?

5. Tobe axloqning o'zingizga ma'lum konseptual modelini sanab bering.

6. Addiksiyaning shakllanishiga yordamlashuvchi omillar qanday?

7. Addiktiv axloqning ongli va ongsiz sabablarni sanang.

8. Giyohvandlikka va ovqatga tobelikning yetakchi tavsifnomalari qanday?

# 4-Bo'lim. SUISIDAL AXLOQ

## Reja

- Tushunchani ta'riflash
- Suisidlar tipologiyasi
- Suisidal axloqda yosh xususiyatlari
- Suisidlar shakllanishining konsepsiyasi
- Suisidal motivasiya.

## Tushunchani ta'riflash

O'lim mavzusi yosh bilan dolzarblashib, bizning butun hayotimiz ichiga kirib boradi. Ba'zilar uchun u alohida ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi vaqtda suisidal axloq global jamoatchilik muammosi hisoblanadi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha dunyoda har yili 400-500 mingga yaqin odam o'z-o'zini o'ldirish bilan hayotini yakunlaydi, o'z-o'zini o'ldirishga urinishlar esa – o'n barobar ortiq. Yevropa mamlakatlarida o'z-o'zini o'ldirish miqdori qotillikdan taxminan uch barobar yuqori turadi.

Ko'pchilik mualliflar fikriga ko'ra, o'z-o'zini o'ldirish darajasi turg'un milliy ko'rsatkich hisoblanadi. O'z-o'zini o'ldirishning yuqori darajasi qator zamonaviy davlatlarda – Vengriya, Germaniya, Avstriya, Daniya, Shveysariyada saqlanib qolgan. O'z-o'zini o'ldirishning past darajasi Ispaniyada, Italiyada, Isroil va Lotin Amerikasi davlatlarida. Masalan, Nikaraguada 100 ming aholiga 3.2 hol to'g'ri keladi. Rossiyada 1980 yillar oxirida 23 hol (100 ming odamga) belgilandi, bu taxminan Germaniyada – 21 yoki Fransiyada – 22 holga muvofiqdir. 1994 yildan boshlab dunyoda birinchi o'rinni quyidagi davlatlar egalladi: Litva – 45.8; Rossiya – 41.8; Estoniya – 40.9; Latviya – 40.6; Vengriya – 35.3 [7].

O'z-o'zini o'ldirishning birmuncha yuqori darajasi aholi soni 500 mingdan 1 milliongacha bo'lgan shaharlardadir. Millionerlar shaharlarida bu daraja – o'rtachadan past. Taxmin qilish mumkinki, megapolisda oddiy yirik shaharlarga qaraganda ijtimoiy sharoit yaxshi, chunki ularda ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish ancha yuqori darajada. Qishloq joylarda suisidlarning past darajasi aholi orasida bolalarning nisbatan yuqori ulushi, milliy-diniy an'analar, [illegible] zich shaxslararo munosabatlar va odatiy hayot tarzi bilan [illegible].

*O'z-o'zini o'ldirish, suisid* (lat. "o'zini o'ldirish") – bu ongli ravishda qilingan o'zini hayotdan mahrum etish. O'ziga hisob bermaydigan yoki ularni boshqara olmaydigan, shuningdek, sub'ektning ehtiyotkorsizligi tufayli sodir bo'lgan o'lim vaziyati o'z-o'zini o'ldirishga emasYa, baxtsiz hodisalarga kiradi.

Bizning kunda suisidal axloq patologikday ma'nodosh ko'rib chiqilmaydi. Ko'pchilik hollarda bu psixik jihatdan me'yoriy odamning axloqi. Ayni vaqtda suisidga o'z-o'zini parchalovchi axloqning o'zaro bir-biriga o'tuvchi shakli qatorida oxirgi nuqta sifatidagi qarash keng tarqalgan.

Suisidal axloq – o'zini hayotdan mahrum qilish haqidagi tasavvurlarga yo'naltirilgan anglangan harakatdir. Ko'ib chiqilayotgan axloq tuzilmasida quyidagilar ajratiladi:

- shaxsiy suisidal harakatlar;

- suisidal ko'rinishlar (fikrlar, maqsadlar, tuyg'ular, mulohazalar, ishoralar).

Shunday qilib, suisidal axloq ichki va tashqi planda bir vaqtda amalga oshiriladi.

Suisidal harakat suisidal urinish va tugallangan suisiddan iborat. Suisidal urinish - bu o'lim bilan tugamaydigan, o'zini hayotdan mahrum qilish vositalarining maqsadga yo'naltirilgan operasiyasi. Urinish o'zini yoki boshqalarni hayotdan mahrum qilishga yo'naltirilgan qaytishli va qaytarilmaydigan bo'lishi mumkin. Tugallangan suisid - letal natija bilan yakunlangan harakat.

Suisidal ko'rinish o'z ichiga quyidagilarni oladi: 1) passiv suisidal fikrlar (tasavvur, kechinmalar); 2) suisidal g'oyalar; 3) suisidal maqsad. Passiv suisidal fikrlar o'z o'limi mavzusidagi tasavvurlar, fantaziyalar bilan xarakterlanadi (biroq o'z ixtiyoridagi harakat sifatida o'zini hayotdan mahrum qilishmavzusida emas), masalan: "o'lib qolsam yaxshi bo'lardi", "uxlasangu, qaytib uyg'onmasang".

Suisidal g'oyalar - bu suisidallikni namoyish qilishning hiyla faol shakli, o'z-o'zini o'ldirish tendensiyasi reja ishlab chiqish shaklida o'sadi: o'z-o'zini o'ldirish usullari, vaqti va joyi o'ylab chiqiladi. Suisidal g'oyaga iroda komponenti - qaror, tashqi axloqqa bevosita o'tishga tayyorlik birlashgandagina paydo bo'ladi.

Period ot vozniknoveniya suisidal fikrlarning paydo bo'lishidan boshlab, ularni amalga oshirguncha bo'lgan muddatni suisidoldi deb nomlanadi. Uning davomiyligi daqiqalar (o'tkir suisidoldi) yoki oylar (surunkali suisidoldi) hisoblanishi mumkin. Davomli suisidoldi hollarida suisidal axloqning ichki shakllarining rivojlanish jarayoni yuqorida ifodalangan bosqichlarda ochiq-oydin o'tadi. O'tkir suisidoldi davrida ketma-ketlik aniqlanmaydi va suisidal g'oya hamda maqsadning darrov namoyon bo'lishini kuzatish mumkin.

### Suisidlar tipologiyasi

Suisidlar uchta asosiy guruhga bo'linadi: haqiqiy, namoyishkorona va yashirin [6, 12, 17]. ***Haqiqiy suisid*** yetarli darajada kutilmagan ko'rinsa-da, to'satdan bo'lmaydi, o'lish istagiga yo'naltiriladi. Bunday suisidga ruhiy ezilgan kayfiyat, ruhiy azoblanish holati yoki shunchaki hayotdan ketish haqidagi fikr yo'ldoshlik qiladi. Shu bilan birga atrofdagilar bunday holatni sezmasliklari mumkin. Haqiqiy suisidning boshqa xususiyati hayot mazmuni yuzasidan mulohaza va kechinmalar hisoblanadi.

***Namoyishkorona suisid*** o'lish istagi bilan bog'liq emas, o'z muammolariga e'tiborni qaratish, yordamga chorlash, dialog olib borish usuli hisoblanadi. Bu o'zicha shantaj urinishi ham bo'lishi mumkin.

Ushbu holda o'lim bilan tugash mash'um tasodif oqibati hisoblanadi.

***Yashirin suisid*** (bevosita o'z-o'zini o'ldirish) – uning belgilariga qat'iy javob bermaydigan, biroq o'sha yo'nalish va natijaga ega bo'lmagan suisidal axloqning turi. Bu letal natijaning yuqori ehtimolligi bilan birga boruvchi harakat. Bu axloq yuqori darajada xatarga, hayotdan ketishdan ko'ra o'lim bilan o'ynashishga yo'naltirilgan. Bunday odamlar "shaxsiy xohishi bo'yicha" hayotdan ochiq ketishni emas, ***suisidal shartlangan axloq***ni tanlaydilar. Bu avtomobilda xatarli safar, sportning ekstremal turi yoki xavfli biznes bilan shug'ullanish, qizg'in nuqtalarga ixtiyoriy sayohat, kuchli giyohlarni iste'mol qilish, o'z-o'zini ajratib qo'yish.

Shu bilan bog'liq holda tanatolog E. Shneydman [25] shaxsning ikki tavsifini farqlaydi: suisidallik va letallik. *Suisidallik* o'z-o'zini o'ldirishning individual xavfi demakdir. *Letallik* odamning o'zi umuman, uning o'z destruktivligi uchun xavf darajasi bilan bog'liq.

Suisidal axloq turlarini tasniflashdagi farq ko'rib chiqilayotgan

reallikning turli-tuman shakllarini aks ettiradi. A.G.Ambruychyuv ajratadi: *o'z-o'zini o'ldirish* – haqiqiy suisidlar, *o'z-o'zini o'ldirishga urinish* esa – tugallanmagan suisiddir. Brukbenk *suisid* haqida maqsadli o'z-o'zini o'ldirish kabi, *parasuisid* haqida esa o'lim oqibatisiz maqsadli o'z-o'ziga zarar etkazishday gapiradi. A.E.Lichko fikriga ko'ra, o'smirlardagi suisidal axloq *namoyishkorona, affektiv* va *haqiqiy* bo'ladi. Ye. Shir quyidagicha farqlaydi: *qasddan qilingan suisidal axloq, yengib bo'lmas, ambivalentli, impulsiv va namoyishkorona* [12, 128-b.].

E. Dyurkgeym [19, 239-b.] o'z-o'zini o'ldirishni shaxsning ijtimoiy xususiyatlariga bog'liq holda turlarga bo'ldi. *"Anomik" o'z-o'zini o'ldirish* shaxs va uning atrofidagi muhit o'rtasida og'ir kelishmovchilik natijasida sodir bo'ladi. *"Fatalistik" o'z-o'zini o'ldirish* shaxsiy tragediyalar holarida o'ringa ega, masalan, yaqinlarining o'limi, ishga layoqatlilikni yo'qotish, baxtsiz sevgi. *"Altruistik" o'z-o'zini o'ldirish* boshqa odamlar yoki yuqori maqsadlar uchun sodir etiladi. Nihoyat, *"egoistik" o'z-o'zini o'ldirish* notinch vaziyatlar – nizolar, nomaqbul talablardan ketish hisoblanadi.

V.A.Tixonenko [19] o'lish istagining darajasini inobatga olgan holda suisidal urinishlarni axloqning bir necha bog'liq turlari bilan to'ldirdi. Birinchidan, o'lish maqsadini namoyish qiluvchi o'z maqsadiga ega bo'lgan namoyishkorona-shantajli suisidal axloqni ajratadi. Ikkinchidan, muallif faqat u yoki bu organni zararlash bilan cheklanuvchi va o'lim haqidagi tasavvurlarga umuman yo'naltirilmagan o'z-o'zini zararlar yoki a'zolarga zarar yetkazish haqida gapiradi. Uchinchidan, bunday axloq shunchaki baxtsiz hodisaning natijasi bo'lishi mumkin.

Shunday qilib, *suisidal axloq tashhisi o'limni istash darajasini aniq baholashga asoslanmog'i zarur.* Masalan, yelkaoldini piska bilan o'zi kesishini quyidagi holatlarga kiritish mumkin:

a) agar oxirgi maqsad qon yo'qotishdan o'lish bo'lsa, haqiqiy suisidal urinish qatoriga;

b) agar maqsad atrofdagilarga o'lish maqsadini namoyish qilish bo'lgan bo'lsa, namoyishkorona-shantajli suiqasd razryadiga;

v) agar maqsad jismoniy og'riqni his qilish yoki giyohiy kayf holatini qon yo'qotish bilan kuchaytirish istagi bilan cheklansa, o'z-o'ziga zarar yetkazish;

g) agar, masalan, o'z-o'zini kesish bema'ni fikr bo'yicha "qondan

shaytonni quvib chiqarish" maqsadini qo'ygan bo'lsa baxtsiz hodisaga.

Har bir hodisaning navbatdagi noyobligiga qaramay o'z-o'zini o'ldirish qator umumiy tavsifnomaga ega. Suisidal axloq, qoidadagiday, hayotiy vaziyatlar va yetakchi ehtiyojlar frustrasiyasining stressogenli xarakteri bilan birga boradi. Suisident uchun quyidagilar xarakterli: azobga dosh bera olmaslik, vaziyatdan chiqishni izlash, vaziyatning umidsizligi va shaxsiy zaiflikni boshdan kechirish, shaxsning suisidga ambivalent munosabati, anglangan reallikni noto'g'ri talqin qilish - muammoda qotib qolganlik, "tonnel ko'rishi". Bularning barchasi tanlovni "suisid"ga qochib borishgacha toraytiradi. Bunda suisidal axloq, qoidadagiday, hayotning umumiy stili va shaxsiy ko'rsatmalarga mos keladi.

### *Suisidal axloqning yosh xususiyatlari*

Yosh suisidal axloq xususiyatlariga ahamiyatli tarzda ta'sir ko'rsatadi. Masalan, hayotning yoshlik yoki qarilikning boshlanishi kabi krizis davri baland suisidal tayyorgarlik bilan xarakterlanadi.

***Bola yoshidagi*** suisidal axloq vaziyatli-shaxsiy reaksiya xarakterini oladi, ya'ni o'lish istagining o'zi bilan emas, balki stressli vaziyatlar yoki jazodan qochishga urinish bilan bog'liq. Ko'pchilik tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, 13 yoshgacha bo'lgan bolalardagi suisidal axloq -kam uchraydigan ko'rinish, va faqat 14-15 yoshga yetgandagina suisidal faollik keskin o'sadi. 16-19 yoshda eng yuqori darajaga yetadi [4, 5. 15].

Po dannim issledovaniya A.G.Ambrumova tadqiqotlarining ma'lumoti bo'yicha suisidal axloqli 770 bola va o'smir bola tekshirilganda, ularning eng yoshi 7 yoshda bo'lgan. Ko'pchiligini qizlar tashkil etgan (80,8 %). Qizlarda zaharlanish, o'g'il bolalarda esa yo'g'on tomirlarni qirqish va o'z-o'zini osish bo'lgan [12. 131-b.].

Ko'pchilik mualliflarning hisoblashicha, boladagi o'lim konsepsiyasi faqat 11-14 yoshga yetganidagina babbarobar yaqinlashadi, shundan keyin bola o'limning realligi va qaytarib bo'lmasligini chindan anglaydi. Kichik bola yashash va o'lish o'rtasidagi farqni yaxshi tushunmaganidan o'limdan ko'ra yaxshiroq fantaziya qiladi. Va faqat o'smir yoshiga yaqinlashgach garchi o'zi uchun kam ehtimolli bo'lib ko'rinsa, rad etsa-da, o'limni real ko'rinish sifatida anglaydi. Albatta, "suisid" va "suisidal axloq" atamasi qat'iy ma'noda ilk yoshdagilar uchun kam muvofiq keladi.

Bolalar o'z axloqi uchun tushuntiradigan sabablar jiddiy emas va bir

lahzalik bo'lib tuyulishi mumkin. Bolalar uchun umuman olganda ta'sirchanlik, ishonuvchanlik, o'z axloqiga past tanqid, kayfiyatning o'zgarishi, impulsivlik, yorqin his qilish va boshdan kechirish layoqati xarakterlidir. Bola yoshida o'z-o'zini o'ldirish g'azab, qo'rquv, o'zi yoki boshqalarni jazolash bilan uyg'onadi. Ko'pincha suisidal axloq boshqa axloqiy muammolar bilan, masalan, maktabga qatnamaslik yoki nizolar bilan uyg'unlashadi.

Suisidal axloqning tug'ilishiga, shuningdek, *xavotirli* va *ruhiy azoblanish holati* ham ko'maklashadi. Bolalarda ruhiy azoblanish holatining belgilari quyidagilar bo'lishi mumkin: qayg'u, bolalarga xos bo'lmagan kuchsizlik, uyqu va ishtahaning buzilishi. og'irlikning pasayishi va somatik arzlar, omadsizlikdan qo'rqish va o'qishga qiziqishning susayishi, to'laqonli emaslik va inkor etilganlik tuyg'usi, o'z-o'zini o'ta tanqid qilish, odamovilik, xavotirlilik, tajovuzkorlik va frustrasiyaga past chidamlilik. Biz ***o'smir yoshida*** suisidal axloqning birmuncha boshqacha kartinasini kuzatamiz. O'smirlar orasida o'z-o'zini o'ldirishga urinish bolalarga qaraganda ahamiyatli tarzda ko'p uchraydi, shu bilan birga ularning kamchiligigina o'z maqsadlariga erishadilar. Tugallangan suisidlarning soni barcha suisidal harakatlarning 1 foizidan oshmaydi [4]. Bu yoshda suisidal axloq namoyishkorona. shu jumladan, shantaj xarakteriga ega. A.E.Lichkoning ta'kidlashicha, faqat 10 foiz o'smirlardagina o'z-o'zini o'ldirishning haqiqiy istagi mavjud. qolgan 90 foizida - bu yordam haqidagi qichqiriqdir [13, 73-b.]. B.N.Almazov 14-18 yoshdagi o'zini atayin kesgan o'smirlar guruhini tekshirib. belgiladiki. faqat 4 foizigina o'z-o'zini kesayotgan lahzasida suisidal mazmundagi fikrga ega bo'lgan. Ko'pgina ekssesslar tengdoshlari bilan urushib qolganidan keyin. shuningdek. "birodarlashuv" an'anasi yoki o'z-o'zini salbiy namoyon etish sifatida sodir etilgan [13, 132-b.]. A.E.Lichko. A.A.Aleksandrov. 14-18 yoshdagi o'smirlar guruhida tekshiruv o'tkazib. 49 foizida suisidal harakat *o'tkir affektiv reaksiya fonida* sodir etilgan degan xulosaga keldilar [13, 133-b.]. O'smirlar guruhida. shuningdek. psixik buzilishlar roli, masalan, ruhiy azoblanish holati birmuncha o'sgan. Ruhiy azoblanishning "bolalik" belgisiga zerikish va charchash tuyg'usi. mayda narsalarga diqqatni jamlash. isyon va bo'ysunmaslikka moyillik. ichkilik va giyohlarni suiiste'mol qilish qo'shiladi.

Umuman olganda. *o'smirlarning suisidal axloqiga tengdoshlari va ota-onalari bilan shaxslararo munosabatlarning ahamiyatli ta'siri* haqida

gapirish mumkin. L.Ya.Jezlovaning fikriga ko'ra [11], pubertat yosh oldidan "oilaviy", pubertat yoshida esa "jinsiy" va "muhabatli" muammolar ustunlik qiladi.

Boshqa, afsuski, nisbatan kam o'rganilgan o'ta muhim omil – *o'smir submadaniyatining ta'siri*dir. OAV ning 1999 yilda "Ivanushki interneshnl" yoshlarning pop-guruhining sardori Igorya Sorinning o'z-o'zini o'ldirganligi haqidagi xabariga javoban bir necha o'smir qizlar o'zlarining sevimli shaxslaridan namuna olib, unga ergashganlar.

14 yoshdan keyin suisidal axloq qizlarda ham, o'g'il bolalarda ham taxminan bir xil namoyon bo'ladi.

***O'smir yoshida*** suisidal axloq ko'pincha jinsiy-shaxsiy munosabatlar, masalan, baxtsiz muhabbat bilan bog'liq bo'ladi. Yoshlar guruhi ruhiy azoblanish holatiga duchor bo'ladi. Ruhiy azoblanish holatining darajasi ko'pincha suisidal xavfning jiddiyligining ko'rsatkichidir.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tugallangan o'z-o'zini o'ldirishning birmuncha miqdori 40 dan 65 yoshgacha oraliqda sodir etiladi. o'z-o'zini o'ldirish darajasi erkaklar orasida yuqori. ***Yetuk yoshning*** tipik stressorlari ajrashish vaziyati, yaqin odamini yo'qotish, ishdan bo'shash, moliyaviy krizis, oiladagi o'lim hisoblanadi.

***Keksa yosh*** yolg'izlik, professional faoliyatning yakunlanishi, imkoniyatlarning yo'qolishi, oila va do'stlardan ayrilish va h.k. kabi jiddiy ijtimoiy-psixologik muammolar bilan to'qnashadi. Keksa odamlardagi ruhiy azoblanish holati charchaganlik, fatallik va umidsizlik bilan xarakterlanadi.

Umidsizlik o'lishning mustahkam istagida namoyon bo'ladi. Keksa yosh qator sabablar kuchida suisidal axloqqa birmuncha mubtalo bo'lganlardan biri hisoblanadi.

### *Suisidlarning shakllanish konsepsiyalari*

Suisidal axloqni tushuntiruvchi asosiy konsepsiyalarni shartli ravishda uch guruhga ajratish mumkin: sosiologik, psixopatologik va ijtimoiy-psixologik.

***Sosiologik yondoshuv*** doirasida [7] svyaz mejdu suisidal axloq va ijtimoiy sharoitlar o'rtasidagi aloqa deklarasiyalanadi. Bunga o'xshash

qarashlar asosida E.Dyurkgeymning [10, 19] "anomiya" - jamiyatning qadriyatli-me'yoriy tizimidagi buzilish haqidagi ta'lim yotadi. Dyurkgeym ta'kidlaydiki, jamiyatda o'z-o'zini o'ldirish miqdori dunyo (qadriyatlar axloqiy me'yorlar) ni individual ko'rishni belgilovchi ijtimoiy hayotning alohida faktlari kabi "jamoaviy tasavvurlar" aniqlaydi. Masalan, jamoaviy aloqa, *jamiyatning jipslashganligi* bu ma'noda o'z-o'zini o'ldirishni to'xtatadi. Qachonki jamiyatning jipsligi zaiflashsa, shaxs ijtimoiy hayotdan chekinadi va umumiy farovonlikka o'zining shaxsiy maqsadlarini qo'yishga intiladi, bu esa hayotdan ketish qaroriga sabab bo'lishi mumkin.

O'z-o'zini o'ldirishga, qisman *siyosiy vaziyat*, shu jumladan, urushlar ham ta'sir ko'rsatadi. 1866 yili Avstriya va Italiya o'rtasida urush kechganida har ikki davlatda o'z-o'zini o'ldirish miqdori 14 foizga pasaygan. Xuddi shu tendensiya Ikkinchi Jahon urushida ham kuzatilgan. Aksincha, tinch vaqtda armiya o'z-o'zini o'ldirish uchun farovon ijtimoiy muhit hisoblanadi, ehtimol, o'z manfaatidan kechish va javobgarsiz atmosferasi kuchidadir. Barcha Yevropa davlatlari uchun o'z-o'zini o'ldirishga moyillik harbiylarda shu yoshdagi fuqarolarga qaraganda ahamiyatli tarzda jadaldir [7].

Ma'lumki, *iqtisodiy krizislar* o'z-o'zini o'ldirishga moyillikni kuchaytirish imkoniyatiga ega. Davlatlarning iqtisodiy holati va o'z-o'zini o'ldirish foizi o'rtasidagi nisbat umumiy qonun hisoblanadi. Masalan, bankrot bo'lish sonining to'satdan ko'tarilishi, odatda, o'z-o'zini o'ldirish sonining o'sishiga olib keladi [7].

Zamonaviy tadqiqotchilar o'z-o'zini o'ldirish ijtimoiy ko'rinish kabi *jamiyatning diniy ongini rivojlanishida* muhim omil sifatida ajratadilar. E'tiqod, ayniqsa, islom, suisidal axloq ehtimolini ahamiyatli tarzda pasaytiradi. Diniy etikada o'z-o'zini o'ldirish og'ir gunoh sifatida baholanadi, shuning uchun e'tiqodli odamning suisidal axloqiga ma'naviy ta'qiq qo'yadi. Xristian davlatlarida bugungi kunda o'z-o'zini o'ldirishga jamoatchilikning liberallashgan munosabati kuzatilmoqda. Yanada ko'proq *evtanaziya* imkoniyati – shifokor yordamida hayotdan ixtiyoriy ketish jiddiy muhokama qilinmoqda. 2002 yili Gollandiyada (insoniyat tarixida birinchi bor) evtanaziyani boshqaruvchi qonun qabul qilingan.

*Oilaviy ta'sir* muhim bo'lib qoladi. Oila tarixida o'z-o'zini o'ldirishning mavjudligi suisid yuzaga kelishining xavfini oshiradi. Bundan tashqari, ota-onalarning shaxsiy xususiyatlari, masalan, ruhiy

azoblanganlik suisidal dinamika omili bo'lib chiqishi mumkin.

Boshqa, ***psixopatologik yondoshuv*** suisidni o'tkir yoki surunkali psixik buzilish sifatida ko'rib chiqadi. O'z-o'zini o'ldirishni alohida nozologik birlik – suisidomaniyaga ajratishga urinish bo'ldi, biroq muvaffaqiyatli chiqmadi. Suisidal axloqqa birmuncha o'xshash nuqtai nazarni *chegaradagi holat* kabi qarash ifodalaydi. A.E.Lichko [13, 73-b.] yozadi: "O'smirlarda suisidal axloq – bu asosan cheklangan *chegara yonidagi psixiatriya* muammosi, ya'ni xarakter aksentuasiyasi fonida reaktiv psixopatik va nopsixotik holatlarni o'rganish sohasidir". Muallifning kuzatishi bo'yicha, faqat 5 foizgina suisid va urinish psixozga tushadi, aqni vaqtda psixopatiyaga 20-30 foizi kiradi, qolganlari esa o'smir krizidir.

Umuman olganda, statistik jihatdan suisidal axloq va aniq psixik buzilish o'rtasidagi yetarlicha aloqa aniqlanmagan. Shu bilan birga, bi'zi bir patologik holat va buzilishlar uchun suisidal axloq yuqori, masalan, *o'tkir psixotik holatlar* va *ruhiy azoblanish holati* uchun. Ruhiy azoblanish holati suisid bilan aloqada birmuncha tez yodga olinadi, bu esa uni izchil ko'rib chiqish zaruriyatini belgilaydi.

Tashhisiy ma'noda "ruhiy azoblanish holati" atamasi turlicha etiologiya va klinik ko'rinishlar bilan nozologik birlikning keng spektrida ishtirok etuvchi affektiv buzilishni bildiradi. Ruhiy azoblanish holati sub'ektiv jihatdan tushkun kayfiyat, ruhiy ezilgan, umidsizlik, zaiflik, aybdorlik sifatida boshdan kechiriladi. Kasalliklarning xalqaro tasnifini 10-ko'rib chiqishda F32 [15, 101-b.] rubrikasida ruhiy azoblanish holatini tashhis qilish uchun yetakchi sifatida *somatik sindrom* aytiladi. Aniq odamda ikki haftadan kam bo'lmagan muddat ichida uning uch yoki undan ortiq belgilari namoyon bo'ladi:

- odatda yoqimli bo'lgan faoliyatidan qoniqish yoki qiziqishlarning pasayishi;

- me'yorda uni chaqiruvchi faoliyat (hodisa)ga reaksiyaning yo'qligi;

- ertalablari odatdagi vaqtdan ikki (yoki undan ortiq) soat avval uyg'onish;

- tashqaridan aniq ko'rinib turgan psixomotorli tormozlanish yoki qattiq hayajon;

- ishtahaning sezilari pasayishi (ko'tarilishi);

- og'irlikning pasayishi;

- libidoning sezilarli pasayishi;

- energiyaning susayishi;

- yuqori toliqish.

Somatikka qo'shimcha ravishda quyidagi *psixologik belgilar* aytiladi: o'z-o'zini past baholash; o'z-o'zini sababsiz muhokama qilish tuyg'usi; aybdorlikning haddan tashqari va noteng tuyg'usi; o'lim haqida takrorlanuvchi xayollar, suisidal axloq; qat'iyatsizlik. Odamga jiddiy xavotir keltiradigan boshqa tez-tez uchraydigan simptom ba'zida shunchalik aniq ko'rinib. hatto organik demensiya kabi qabul qilish mumkin bo'lgan yaqqollikning yoki tafakkur samaradorligining buzilishi hisoblanadi. Ruhiy azoblanish holati. shunday qilib. sub'ektiv yomon kayfiyatdan tashqari. aniq ko'rinib turgan somatik ko'rinish, o'z-o'zini past baholash, tafakkurning buzilishiga ega.

Suisidal axloqning psixik buzilish (ayniqsa. affektiv buzilishlar) bilan aloqasiga birday bo'lmasa-da o'rin bo'lishiga qaramay, hozirgi vaqtda ko'pchilik mualliflar *suisidal harakatni psixik kasalligi bo'lgan odamlar bir qatorda sog'lom shaxslar ham sodir etishlari mumkin.* Birinchi holatda gap ko'pincha tibbiy aralashuvchi talab qiluvchi patologiyaning ko'rinishlari haqida borishi lozim. Ikkinchi holatda esa butunlay sog'lom odamning psixik jarohat yetkazuvchi vaziyatga javoban tezda ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishni taqozo qiluvchi og'ishgan axloqi haqida so'zlash mumkin.

***Ijtimoiy-psixologik konsepsiyalar*** suisidal axloqni ijtimoiy-psixologik yoki individual omillar bilan tushuntiradi. Dastavval. o'z-o'zini o'ldirish *hayot mazmunining yo'qolishi* bilan bog'lanadi. V.Franklning ko'rsatishicha. bu bilan bog'liq ekzistensial xavotir umidsizlik. bo'shliq va ma'nosizlik tuyg'usi. aybdorlik va muhokamalardan qo'rqish oldidan dahshat kabi boshdan kechiriladi [22].

A.G.Ambrumova va boshqa qator tadqiqotchilar *suisidal axloqni shaxsning mikroijtimoiy nizolar sharoitida ijtimoiy-psixologik moslashmaganligi oqibati sifatida* baholaydilar [1.3. 4. 6. 9].

Ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik organizm va muhitning nomuvofiqligi kabi turli daraja va turli shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Muallif *limitasiyalangan (nopatologik) va transformasiyalangan*

*(patologik) moslashmaganlikni* farqlaydi. Bu shakllarning har biri parsial (qisman) va total (butunumum) bo'lishi mumkin.

Ekstremal vaziyat sharoitlarida shaxs o'zining moslashuvchan taktikasini birday qaytadan tuzadi. Individlardan birmuncha mahkamlari plastiklik va zahira hisobiga moslashuvning avvalgi umumiy darajasini saqlab qoladi. Odamlarning boshqa guruhi darajaning vaqtinchalik pasayishi bilan xarakterlanadi, biroq bunda moslashuvning asosiy yo'nalishi sinmaydi. Bu holatda moslashmaganlik miqdoriy xarakterni oladi, u limitasiyalangan va moslashuv jarayonining sifatli muqarrarlik chegarasidan chiqmaydi, ya'ni moslashmaganlik kasallikka olib kelmaydi. moslashuvning patologik shaklini tug'dirmaydi. Qachonki ekstremal yuklama individual muammolar (masalan, nevroz) bilan uyg'unlashgan hollardagina buzilish ehtimoli ahamiyatli tarzda o'sadi. Bunday holatda ijtimoiy-psixologik moslashmaganlik o'z ortidan moslashuvchi jarayonning sifatli transformasiyasi. moslashuvning patologik shakli namoyon bo'lishini ergashtirib keladi. Bu variant. A. G. Ambrumovaning fikricha. moslashish jarayonining jadalligi va plastikligini umumiy pasayishida qadriyatli-orientasion va kommunikativ faoliyatni birmuncha ko'tarilishga mubtalo bo'lgan chegarali buzilishlar uchun xarakterlidir. Psixotik buzilish o'zida patologik reaksiya qilishning yangi sifat darajasiga o'tish bilan global moslashmaganlikni aks ettiradi.

*Ob'ektiv sabablar va sub'ektiv kechinmalar bir biriga mos tushmasligi mumkin.* Moslashmaganlik suisidning faqat ehtimoliy shartlaridan biridir. Suisidga olib keluvchi ijtimoiy-psixologik moslashmaganlikni dinamikada ko'rib chiqib. muallif ikki fazani ajratadi: predispozision i suisidal. *Predispozisiya (moslashmaganlikning mavjudligi) suisidal axloqning to'g'ridan-to'g'ri determinanti bo'lib xizmat qilmaydi.* Uning suisidal fazagi o'tishida *shaxs tomonidan boshdan kechirilgan nizolar* hal qiluvchi ahamiyatga ega. Nizolar shaxslararo va shaxslar ichidagi xarakterni olishi mumkin. U holda ham. bu holatda ham u ikki yoki bir necha turli yo'nalishli tendensiyalardan tashkil topadi. bittasi asosiy. inson uchun ushbu daqiqada dolzarb ehtiyojdan. boshqasi esa – uni qondirishga to'sqinlikdan iborat. Nizolarni yechish u sodir bo'lgan muhit va zaxiradagi moslashuv mexanizmlari tizimining ahamiyatiga bog'liq. *Shaxsning moslashmaganlik ostonasidan o'tuvchi nizolar krizisli hisoblanadi* Shunday qilib. predispozision moslashmaganlik va nizoli vaziyatni o'zgartirishga qodir real usullarning

imkonsizligi sharoitida suisid shaxsning o'zida boshqa hamma harakatlarning o'rnini bosib ketadigan yagona reaksiyasi, har qanday faoliyatdan o'z-o'zini chetlatish usuli sifatida yuzaga chiqadi.

E.Shneydman [19, 25] suisidni *psixologik ehtiyojlar* nuqtai nazaridan ko'rib chiqishni taklif qiladi. Uning nazariyasiga muvofiq suisidal axloq ikki tayanch lahzani aniqlaydi:

- qolgan boshqa hamma narsadan kuchli bo'lgan qalb og'rig'i;

- frustrasiya holati yoki shaxsning birmuncha ahamiyatli ehtiyojiga noto'g'ri ma'no berish.

Ijtimoiy-psixologik yondoshuvlar doirasida *shaxsiy xususiyatlar va suisidal axloq o'rtasidagi aloqani* o'rganuvchi ishlar ham keng taqdim etilgan. Deviasiya tipi, masalan, zo'ravonlik yoki o'z-o'zini destruksiyalash tipi shaxsning xususiyati bilan aniqlanishi haqidagi fikr tarqalgan. A.E.Lichko [13, 78-b.] *o'smir xarakterining aksentuasiyasi tipi* va suisidal axloq o'rtasidagi aloqani ta'kidlaydi. Xullas, suisidal namoyishlar 50 foiz hollarda asabiy, noturg'un, gipertim tiplar bilan, suiqasd esa sensitiv (63 foiz), sikloid (25 foiz) tiplar bilan uyg'unlashadi. Ye.I.Lichko shizoidlarning o'ta past suisidal faolligini ta'kidlaydi. V.T.Kondratenko [12, 138-b.], aksincha, shizoid, psixastenik, sensitiv, qo'zg'aluvchan va epileptoid tiplar foydasiga ma'lumotlar keltiradi. Mualliflar bir fikrda qo'shilishadilar, o'smirlarning asteniq, gipertim, noturg'un tiplari suiqasd va suisidga moyil emasdirlar.

N.V.Konanchuk, V.K.Myager [12, 137-b.] suisident uchun uchta asosiy xislatni ajratdilar:

1) ehtiyojlarning yuqori zo'riqishi: Yuqori ahamiyatli munosabatlarda hissiy yaqinlikka ko'tarinki ehtiyoj;

2) past frustrasiyali tolerantlik va to'lovlarga zaif qobiliyat.

Turli mualliflardan olinagn ma'lumotlarni yig'ib, suisidentning qandaydir umumlashgan psixologik portretini tasavvur qilish mumkin. Uning uchun o'z-o'zini past baholashdek, o'z-o'zini amalga oshirishga yuqori ehtiyoj xarakterlidir. Bu og'riqni yengishga past qobiliyatli sensitiv, empatik inson. Uni baland xavotirlilik va pessimizm, o'z-o'zini ayblash tendensiyasi va toraygan (dixotomik) fikrlashga moyilligi farqlaydi. Iroda kuchining qiyinchiligi va muammoning yechimidan ketish tendensiyasi ham ta'kidlanadi. Keltirilgan portret ushbu qismning ikkinchi

bo'limida yoritilgan antiijtimoiy shaxs tavsifnomasiga to'g'ridan-to'g'ri qaratama-qarshidir.

Suisidal axloq xarakteri va determinasiyani yorug'likka olib chiquvchi nazariyalar sharhi ushbu ko'rinishning murakkabligi, polietiologikligi haqida xulosa qilish imkonini beradi. Shu bilan birgalikda, shaxs suisidal axloqining bir necha xatar omillarini ajratish mumkin:

- suisidning avvalgi urinishlari (ushbu odamning);

- suisidning oilaviy tarixi;

- krizisli vaziyat (tuzalmaydigan kasallik, yaqin kishisining o'limi, ishsizlik va moliyaviy muammolar, ajrashish);

- oilaviy omil (ota-onalarning ruhiy azoblanish holati, bolalar jarohati, surunkali janjallar, uyg'unlashmagan tarbiya);

- hissiy buzilishlar (dastavval ruhiy azoblanish holati);

- psixik kasalliklar (piyonistalik, giyohvandlik, shizofreniya);

- ijtimoiy modellashtirish (OAV dagi suisid namoyishi, ularning adabiy asarlardagi surati – "Verter samarasi").

Bundan tashqari, xatarning quyidagi guruhlari ajratiladi: yoshlar, keksa odamlar, jinsiy kamchilik, harbiy xizmatchilar, urush va urush nizolari veteranlari, shifokorlar va ba'zi bir boshqa kasb vakillari.

### *Suisidal motivasiya*

Tashqi va ichki sharoit suisidal axloqning paydo bo'lishini osonlashtiradi, biroq uni oldindan aniqlamaydi. Suisidni "chiqarib yuboruvchi" haqiqiy sabablar ichki motiv hisoblanadi.

Ko'pincha suisidal motivasiya *krizisli vaziyatga hissiy sado* shakliga ega. Shaxs boshiga yog'iladigan tipik hodisa – yaqin odamni yo'qotish, ajrashish yoki firoq hisoblanadi. Ish yoki sog'liqni yo'qotish, jinoiy jazo xavfi yoki fosh bo'lish ham suisidal axloqning paydo bo'lishiga yordamlashadi. Ba'zida o'xshash reaksiyalar yirik muvaffaqiyatlar ketidan keladi – xizmat bo'yicha ko'tarilish, mas'uliyatning keskin oshishi, orzu qilingan maqsadga erishish va h.k.

Turli vaziyatlarda suisidal axloqning [6] turli motivlari ta'sir ko'rsatishi mumkin: e'tiroz; o'ch; chaqiruv (e'tibor, yordam); qochish (jazo,

azobdan); o'z-o'zini jazolash; rad etish (mavjudlikdan).

Masalan, o'smirlarning suisidal urinishlarida quyidagi tilakni ajratish mumkin. Bu "Menga e'tibor qiling, men sizning yordamingizga juda muhtojman" deguvchi distress signali bo'lishi mumkin.

Shuningdek, o'smir boshqalarni manipulyasiya qilishga urinishi mumkin, masalan, qizlar do'stlarini o'zlariga qaytarish uchun katta dozadagi tabletkani qabul qilishlari mumkin. Boshqa variant – boshqalarni jazolashga intilish, ehtimol, ota-onalariga "Men o'lsam, afsuslanasizlar" deyish uchundir. Yuqori kuchli uyat yoki aybdorlik tuyg'usiga reaksiya, o'ta og'riqli vaziyat bilan to'qnashishdan qochishga intilish; giyohvand moddalarning ta'siri – bularning hammasi motivasiyalovchi omillarga misoldir.

Stressli vaziyatlar mustahkam-shaxsiy bo'lganiday, vaziyatli xarakterni oluvchi *individual bo'yalgan yuqori qadriyatli kechinmalar* (individual mazmunlar) ni dolzarblashtiradi. A.G.Ambrumova [3] suisidal axloqli katta odamlarda nopatologik reaksiyaning olti tipini ajratab ko'rsatadi:

- *hissiy disbalans* (salbiy affektlarning mavjudligi);

- *pessimizm* (hammasi yomon, vaziyat chiqishga ega emas, kelgusida hech qanday yaxshilik yo'q);

- *salbiy balans* (rasional yuqori tanqidiy "hayotiy yakunni chiqarish");

- *demobilizasiya* (yolg'izlik va rad etilganlik tuyg'usi tufayli aloqalar va faoliyatdan voz kechish);

- *oppozisiya* (atrofdagilar adresiga ayblov bilan ko'pincha namoyishkorona autotajovuzkorlikka o'tuvchi tajovuzkor nuqtai nazar);

- *tartib-intizomni buzish* (aniq ko'rinib turgan somatovegetativ buzilish bilan xavotir holati).

Ko'pincha *suisid bilan ishqiy mayl* o'rtasida *zich aloqa* ta'kidlanadi. Bu holda o'lim sevuvchi odam uchun alohida mazmunga ega - sevgan odami bilan o'limdan keyin birlashish yoki hayotligida u behuda umid qilgan muhabbatga erishish imkoniyati. Ehtirosli sevishda suisidal axloq o'zi ustidan yo'qotilgan nazoratni tiklash, chidab bo'lmas zo'riqishni olib tashlashga urinish hisoblanadi.

Seyr [14] suisidal harakatlar ortida turgan tuyg'ularni tahlil qilib, o'z-

o'zini o'ldirishning to'rtta asosiy sabablarini ajratdi:

- *izolyasiya* (hech kim seni tushunmasligi, hech kimning sen bilan qiziqmasligi tuyg'usi);

- *zaiflik* (o'z hayotingni nazorat qilolmasliging, hamma narsa senga bog'liq emasligi hissiyoti);

- *umidsizlik* (qachonki kelajak hech qanday yaxshi narsadan darak bermaydi);

- *shaxsiy ahamiyatsizlik tuyg'usi* (o'z qimmatining haqoratlangan tuyg'usi, o'z-o'zini past baholash, vakolatsizlik kechinmasi, o'zidan uyalish).

***Psixoanalitik an'ana*** suisidal axloqning chuqur mexanizmlari - uning ongsiz motivlarini tushunishga yaqinlashish imkonini beradi. Allaqachon ta'kidlanganki, axloqning deklarasiyalangan motivlari ko'pincha uning asl sabablariga mos kelmaydi. Psixoanalitik tadqiqotlar suisidallikning ongli va ongsiz determinantlarni chegaralash imkonini beradi [14, 19, 23, 26].

Psixotahlilda dastlab K. Abraxam (1912) va Z.Freydning (1916) suisidal axloqni *ob'ektni yo'qotish oqibatida tajovuzni o'z shaxsiga qarshi yo'naltirish natijasi* sifatida tushuntiruvchi gipotezasi qabul qilingan. Z. Freyd "Qayg'u va melanxoliya" nomli ishida Menning jarohatlangan (yo'qotilgan) ob'ektni introesirlovchi qismiga tajovuz orqali o'z-o'zini o'ldirish dinamikasini ochib beradi.

Shunday qilib, Men "yomon" ichki ob'ektlarning ta'zirini beradi [23]. Ushbu nazariya bitta muhim yangilikdan iborat - suisidal axloq dinamikasida yaqin odamning yetakchi rolini tan olish.

Ruhiy azoblanish holatiga beriluvchan odam ob'ektni yo'qotishga (mahrum bo'lish, ixlosi qaytish, buzilish) boshida nafrat bilan reaksiya qiladi. Biroq ob'ektning o'ta ahamiyatliligi kuchida u affektdan himoyalanishga majbur. Himoya yo'qotilgan ob'ektni singdirish haqidagi fantaziyali oral kechinmalarga tajovuz orqali amalga oshiriladi. Endi ob'ekt sub'ekt shaxsi bilan bir xillik sharofati evaziga qutqarildi. Ob'ekt o'z shaxsining qismiga aylandi. Yo'qotilgan ob'ektga dastlab yo'naltirilgan nafrat endi o'z shaxsiga qarshi qaratiladi. Og'ir ruhiy azoblanish holati (Freyd bo'yicha melanxoliya) rivojlanadi, oqibatda suisid boshlanadi.

Z.Freyd ta'kidlaydiki, melanxolik mexanizm bo'yicha suisidal

axloqning rivojlanishi faqat ikki sharoitda mumkin: 1) agar oral pallasi qayd qilingan bo'lsa; 2) agar ob'ektli munosabatlarda ambivalentlik mavjud bo'lsa.

Z. Freyd o'zining hiyla keyingi ishlarida (1920 yildan 1923 yilgacha) o'z-o'zini o'ldirishni *o'limga tug'ma maylning ko'rinishi* sifatida ko'rib chiqadi. Suisidal axloq – parchalash impulslari o'z-o'zini saqlash impulsidan ahamiyatli tarzda ustunlik qilgan hollardagina o'ringa ega. Urush vaqtida o'z-o'zini o'ldirishning kamayganligi, qotillikning yuqori darajasi bo'lgan davlatlarda, masalan, Lotin Amerikasida ular darajasining pasayganligi kabi faktlar o'z-o'zini o'ldirishga tubdan o'zgartirilgan qotillik sifatida qarash foydasiga gapiradi.

Bu g'oyalarni rivojlantirib, Menninger (1938) har bir suisidal harakatda uchta tendensiyani aniqlash mumkinligini ta'kidlaydi:

- o'ldirish istagi (tajovuzdan tashqariga yo'naltirilgan derivat);

- o'ldirilgan bo'lish istagi (birinchi istak bilan bog'liq vijdon ta'nasi oqibati);

- o'lish istagi – jonsiz bo'lish (toza ko'rinishda o'limga yasama qiziqish) [26, 92-b.].

Bunda "jonsiz bo'lish istagi" o'limning real bo'lmagan oqibatlarini emas, muhofazalanganlik, xotirjamlik, tinchlik haqidagi ongsiz fantaziyani ko'zda tutadi. Uchta tendensiya qasos, autotajovuz, ketish, "vaqtincha o'lish", o'z-o'zini jazolash, jinsiy istaklarni ramziy bajarish va h.k. motilarda ko'rinadi.

Modomiki, o'limga mayldan tashqari hayotga (jinsiy mayl va o'z-o'zini saqlashga mayldan tarkib topgan ) mayl ham bor, demak suisidal harakat destruktiv bilan bir qatorda konstruktiv motivlardan iborat. Bunday bo'lishi mumkin: yordam haqida chaqiruv, xavfdan qochish, pauza yoki ketish istagi. Shunday qilib, har bir suisidal harakatda bir vaqtning o'zida tajovuzkorlik-autotajovuz, chaqiruv-qochishning qarama-qarshi maqsadlari namoyon bo'ladi.

Ringel (1953) har qanday suisidal harakatga uch komponentdan tashkil topgan ilgari bo'lgan sindrom muhim xulosaga keldi. Bular:

- tajovuz inversiyasi (o'zga murojaat);

- suisidal fantaziyalar;

- torayish [26, 94-b.].

Xafagarchilik, ko'ngil sovushi va omadsizlik bilan chaqirilgan torayish rivojlanishning (avvalgi bosqichga qisman qaytish) regressiv tendensiyasidir. Natijada rivojlanishning ichki va tashqi imkoniyatlari cheklanadi, shaxslararo munosabatlar redusiyalanadi, ob'ektiv anglash buzi ko'rsatiladi. Muallif regressiya asosida bolalikdagi "himoyalanmaganlik" kechinmasi bilan og'ir asabiylashish yotadi deb hisoblaydi.

O'ziga yo'naltirilgan internalizasiyalangan ob'ekt yoki tajovuzni o'ldirish suisidal dinamikaning yagona varianti emas. Xendin (1963) uchta Yevropa davlati aholisining suisidlari motivasiyasidagi farqlarni tadqiq etishga urinishga kirishdi. U ta'kidlaydiki, hayot darajasi o'xshash bo'lgan bir-biriga yaqin joylashgan davlatlar - Daniya, Shvesiya va Norvegiya - o'z-o'zini o'ldirish darajasi bo'yicha ahamiyatli tarzda bir-biridan farq qiladi (100 ming aholiga nisbatan – 22; 22; 7). U bu tafovutni madaniyatda deb tushuntiradi. Daniyaliklar – passiv, firoqqa ta'sirchan, tajovuzni bostirish va boshqalarda aybdorlik hissini uyg'otishga moyildirlar. Shvedlar esa yutuqqa, mustaqillik va o'z tajovuzini qat'iy nazorat qilishga orientir olgan. nisbatan bolalarni barvaqt onasidan uzoqlashtiradilar. Norveglar – ular ham mustaqillikni rag'batlantiradilar, biroq hissiyotlarini erkinroq namoyish qiladilar, muvaffaqiyat va omadsizlikda o'z-o'zini jazolashga kamroq orientir qiladilar [26, 91-b.].

Milliy xarakterdagi tafovut suisidning motivasiyasida farqlar bilan uyg'unlashadi. Daniyaliklar uchun tobelik va yo'qotish; shvedlar uchun – omad frustrasiyasi motivlari. norveglar uchun – tajovuzkor (antiijtimoiy) axloq tufayli aybdorlik tuyg'usi bilan bog'liq suisid xarakterlidir. Shu bilan bog'liq ravishda Xendin buyuklik va qudratlilikka talab bo'lib chiqish tuyg'usini suisidal dinamikaning muhim omillari sifatida ko'rib chiqadi. Masalan, qudratli narsissik tuyg'usi. uning yordamida vaziyatni yaxshiroq nazorat qilish. unga ta'sir ko'rsatish uchun o'z-o'zini o'ldirishga itarishi mumkin.

Ruhiy azoblanish holati va suisidal axloqning boshqa belgilari o'z-o'zini baholashni boshqarishning buzilishi hisoblanadi. Bunday narsissik zaiflikning rivojlanishi uchun quyidagilar asos bo'lishi mumkin:

- olti oyligida onadan erta ayrilish va u bilan birga boruvchi anaklitik ruhiy azoblanish holati (R. Shpis);

- 16-24 oyligida. ya'ni ilk yoshida ona tomonidan hissiy qabul qilish

va tushunishning yo'qligi (M. Maller).

Bu, o'z navbatida, ambivalentlikka, ota-onalarning tajovuzkor majburlashiga, ruhiy azoblanish affektiga olib keladi. Bolada o'z-o'zini baholashga qodir ichki psixologik tuzilmalar shakllanmaydi.

Shubhasiz, suisidal axloq shakllanishining ongsiz mexanizmlaridan yana biri *o'ta narsissik ehtiyojdir.* Ma'lumki, narsissizm buyuklik tuyg'usi va o'zining qadrliligiga tashqaridan tasdiq olish zaruriyati bilan bog'liq. Narsissik dinamikaning boshqa tomoni uyat, hasad, bo'shliq va to'laqonli emaslik hisoblanadi. Omadsizlik, janjal, stresslar bilan bog'liq notinch vaziyatlar ob'ektiv ravishda ushbu affektlarni suisidal axloqning paydo bo'lishi va ularga chidab bo'lmas darajagacha kuchaytirishi mumkin.

Narsissizm nazariyasiga muvofiq suisidal axloq uyg'unlashgan dastlabki holatga regressiya hisobiga narsissik krizis to'lovi hisoblanadi. Bu modeldan ham deviant axloqning boshqa shakllarini tushuntirish uchun foydalanish mumkin (tobelik, uydan ketish, daydilik).

Shunday qilib, psixoanalitik konsepsiya shaxsning yaqin odamlari bilan erta munosabatiga o'z ildizi bilan ketuvchi suisidal axloqning chuqurlashgan motivasiyalarini tushunishga yordamlashadi. Shaxsning keyingi axloqida oilaning ahamiyatini qayta baholash qiyin.

Boshqa tomondan, *shaxsning suisidal axloqi atrofdagilar uchun og'ir sinov* hisoblanadi. Hammutelik bilan o'xshash bo'lgan fenomen haqida gapirish mumkin. Suisidentni yaqin odamlarining hissiy kechinmalari qismi qisqa muddatli, boshqalari uzoq yillar, ba'zilari - butun hayotda davom etadi.

Oilaning har bir a'zosi buning uchun ma'lum bir psixologik narx to'laydi. K.Lukas va G. Seygen [16, 66-b.] buni kelishuv deb ataydilar. Yaqin odamining o'limiga javob sifatida istalmagan axloqning quyidagi modeli kuzatiladi:

- sodir bo'lgan hodisani suisidentning shaxsiy ixtiyori sifatida qabul qilish o'rniga o'zini o'zi o'ldirgan odamning o'limi uchun javobgar bo'lishi mumkin bo'lgan insonlarni izlash;
- yashashda davom etish o'rniga uzoq yillar traur qabul qilish;
- aybdorlik va o'z-o'zini azoblash kechinmasi;
- somatizasiya - tuyg'ularni yuzaga chiqarish o'rniga kasallikka ketish;

- o'z-o'zini cheklash - hayot quvonchlaridan ketish;

- o'z tuyg'ularini tan olish va uni ifodalash o'rniga ishga, jinsiy aloqalarga, addiksiyaga qochib borish;

- nihoyat, yangi suisid – "sen o'lding, demak men ham o'laman".

Shunday qilib, suisidentga yaqin bo'lgan odamlar kuchli qayg'u, aybdorlik va g'azab tuyg'ulari bilan to'ladilar, ulardan muhofazalagancha o'zlarini autodestruktiv tuta boshlaydilar.

Muhokama qilinayotgan mavzuga xulosa qilib, suisidal axloqning murakkab majmuaviy xarakteriga yana bir e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Aniq shaxs bilan ishlash uchun yetakchi sifatida psixologik tahlilni ajratib, biz, shubhasiz, ijtimoiy, huquqiy, tarixiy, kulturologik, tibbiy, etik kabi muammolarning boshqa muhim aspektlarini ham inobatga olishimiz zarur.

**Nazorat savollari va topshiriqlar**

1. O'z-o'zini o'ldirish birmuncha jiddiy jamoatchilik muammolaridan biri hisoblanishini isbotlang.
2. "Suisid", "suisidal urinish", "suisidal axloq"tushunchalarini ochib bering.
3. Suisidal axloq tuzilmasiga nimalar kiradi?
4. O'z-o'zini o'ldirish tipologiyasini keltiring.
5. Suisidal axloqning yosh xususiyatlari qanday?
6. Suisidal axloq psixologik nazariyalar bilan qanday tushuntiriladi?
7. Suisidal axloqning sabablari qanday?
8. Suisidal axloqqa yordamlashuvchi sharoitlar qanday?
9. O'z-o'zini o'ldirishga nima to'sqinlik qiladi?
10. Suisidal axloqning ongsiz va anglangan motivlarini ayting.

# IV-bob. SHAXSNING OG'ISHGAN AXLOQIGA IJTIMOIY-PSIXOLOGIK TA'SIR

## 1-bo'lim

## SHAXS OG'ISHGAN AXLOQINING PREVENSIYASI VA INTERVENSIYASI

**Reja**

- Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir
- Og'ishgan axloq profilaktikasi
- Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intervensiyasi
- Og'ishgan axloqning turli shakllarida ijtimoiy-psixologik aralashuv strategiyalari.

### Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir

Shaxsning og'ishgan xulqi turlicha ijtimoiy institutlar tomonidan boshqariladi. *Jamoatchilik ta'siri* huquqiy qonunlar, tibbiy aralashuv, pedagogik ta'sir, ijtimoiy ko'mak va psixologik yordam xarakterini olishi mumkin. Axloqiy buzilish murakkab xarakteri kuchida ularni ogohlantirish va bartaraf etish yaxshi uyushtirilgan ijtimoiy ta'sirlar tizimini talab qiladi.

Psixologik yordam ko'rib chiqilayotgan tizim bosqichlaridan biri sifatida unda boshlovchi rol o'ynaydi va aniq ko'rinib turgan gumanistik yo'nalganligi bilan farqlanadi. Bu fakt psixologik ishning maxfiylik, ixtiyoriylik va shaxsiy manfaatdorlik, inson tomonidan o'z hayoti uchun mas'uliyatni qabul qilish, o'zaro ishonch, qo'llab-quvvatlash, shaxs va individuallikni hurmatlash kabi tamoyillarida o'z aksini topdi.

Psixologik yordam ikkita yetakchi yo'nalishga ega. Bu *psixologik prevensiya* (ogohlantirish, psixoprofilaktika) va *psixologik intervensiya* (bartaraf etish, korreksiya, reabilitasiya). Psixotashhis, qoidadagiday, ishning mustaqil yo'nalishi hisoblanmaydi va psixologik yordamning maqsadi bo'lmasligi zarur. Bu faoliyatning yordamchi turi, muhim, biroq majburiy emas, qoidadagiday, hal qiluvchi oraliq amaliy vazifa.

Psixologik yordamning ikki asosiy turini batafsil ko'rib chiqamiz.

Og'ishgan axloq profilaktikasi ijtimoiy uyushganlikning turli darajalarida umumiy va maxsus tadbirlar tizimini ko'zda tutadi: umumdavlat, huquqiy, jamoatchilik, iqtisodiy, tibbiy-sanitar, pedagogik, ijtimoiy-psixologik. Muvaffaqiyatli profilaktik ishning shartlari uning majmuaviyligi, ketma-ketlgi, differensialligi, o'z vaqtidaligidir. Oxirgi shart faol shakllanayotgan shaxs, masalan, ***o'smirlar*** bilan ishlashda, ayniqsa, muhim. Shuning uchun kelgusida og'ishgan axloqning psixologik prevensiyasi ko'pincha aynan o'smir yoshidagilar misolida ko'rib chiqiladi.

BSST (Butunjahon sog'liqni saqlash tashkiloti) birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi profilaktikani ajratishni taklif qiladi [11, 160-b.]. *Birlamchi profilaktika* muayyan ko'rinishni chaqiruvchi noxush omillarni bartaraf etishga, shuningdek, shaxsning bu omillar ta'siriga chidamliligini ko'tarishga yo'naltirilgan. Birlamchi profilaktika o'smirlar o'rtasida keng olib borilishi mumkin. *Ikkilamchi profilaktikaning vazifasi* – asabiy-psixik buzilishlarni erta aniqlash va reabilitasiya qilish hamda "xatar guruhidagi"lar bilan, masalan. hozirgi vaqtda bu namoyish etilmagan bo'lmasa-da, og'ishgan axloqqa aniq ko'rinib turgan moyilligi bo'lgan o'smirlar bilan ishlash. *Uchlamchi profilaktika* axloq buzilishi bilan birga boradigan asabiy-psixik buzilishlarni davolashdek maxsus vazifalarni hal qiladi. Uchlamchi profilaktika shakllangan deviant axloqli shaxslarda residivni ogohlantirishga yo'naltirilgan.

Psixoprofilaktik ish barcha uch bosqichning tadbirlar majmuasiga kirishi mumkin. Hisoblanadiki. u muammoning paydo bo'lishidagi ilk bosqichlarda deviant axloqni chaqiruvchi shart va sabablar ta'siri shaklida birmuncha samaralidir.

Psixoprofilaktik ishlarning turlicha shakllari mavjud [5, 12. 19. 24].

Birinchi shakl – ***ijtimoiy muhitni tashkil etish***. Uning asosida deviasiyaning shakllanishida atrofdagi muhitning determinasiyalanuvchi ta'siri haqidagi tasavvurlar yotadi. Ijtimoiy omillarga ta'sir ko'rsatib shaxsning istalmagan axloqi oldini olish mumkin. Ta'sir butun jamiyatga yo'naltirilgan bo'lishi mumkin, masalan. *og'ishgan axloqqa munosabat bo'yicha jamoatchilikning salbiy fikrini yaratish* orqali. Ish ob'ekti. shuningdek, oila. ijtimoiy guruh (maktab. sinf) yoki aniq shaxs bo'lishi mumkin.

Ushbu model doirasida tobe axloq profilaktikasi o'smirlarda dastavval sog'lom turmush tarzi va sergaklikka ko'rsatmani shakllantirish bo'yicha

*ijtimoiy reklama*dan iborat. Ommavy axborot vositalari siyosati alohida ahamiyatga ega. Maxsus dasturlar, yoshlar suyuklilarining chiqishlari, maxsus tanlangan kinofilmlar – bularning barchasi hozirgi vaqtda kuzatilayotganga qaraganda boshqa sifatli darajaga ega.

*Yoshlar submadaniyati bilan ishlash* "Yoshlar giyohvandlikka qarshi" harakati yoki ommaviy rok-guruhlarning chiqishlari bilan shu nomdagi aksiya shaklida tashkil etilgan bo'lishi mumkin. Yoshlar o'zlarining bo'sh vaqtlarini o'tkazadigan va muloqot qiladigan joylarda ular bilan ish8lash muhimdir. Masalan, diskotekalarda niqobdagi sirli odamlar paydo bo'lishi mumkin. Oqshom yakunida yoshlar ulardan giyohvand moddalardan yaqin odamlarini yo'qotish bilan bog'liq kechinmalar va tragik taqdirlar haqida bilib olishlari mumkin.

O'smirlar bilan ishlash, shuningdek, ko'chada tashkil etilishi mumkin. Qator davlatlarda tegishli ishlarni olib borish uchun o'smirlar sardorini tayyorlash mavjud.

Shuningdek, ushbu yondoshuv doirasida istalmagan axloq bilan qo'shilmaydigan sharoit va ko'maklashuvchi "zona"larni yaratishga urinish qo'llanilmoqda. Modelning asosiy kamchiligi ijtimoiy omillar va og'ishgan axloq o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikning yo'qligi hisoblanadi. Umuman olganda, ushbu yondoshuv yetarlicha samarador bo'lib ko'rinadi.

Psixoprofilaktik ishning ikkilamchi shakli – ***xabardor qilishdir***. Bu biz uchun birmuncha odatiy psixoprofilaktik ishni olib borishning ma'ruza, suhbat, adabiyotlar yoki video- va telefilmlarni tarqatish shaklidagi ko'rinishi. Yondoshuv mohiyati konstruktiv qarorlar qabul qilishga uning layoqatini ko'tarish maqsadida shaxsning kognitiv jarayonlarida ta'sir ko'rsatishga urinishdir.

Buning uchun, odatda, statistik ma'lumotlar bilan tasdiqlangan, masalan, giyohvand moddalarning salomatlik va shaxsga halokatli ta'siri haqidagi axborotlardan keng foydalaniladi. Ko'pincha axborot qo'rqituvchi xarakterga ega. Bunda giyohvand moddalarni iste'mol qilishning salbiy oqibatlari sanab o'tiladi yoki deviantlarning dramatik taqdiri, ularning shaxsiy degradasiyasi yoritib beriladi.

Usul haqiqatan *bilimni kuchaytiradi, biroq axloqni o'zgartirishga yomon ta'sir ko'rsatadi*. O'z-o'zidan xabardor qilish deviasiya darajasini pasaytirmaydi. Ba'zi hollarda, aksincha, deviasiya bilan erta tanishuv unga

qiziqishni kuchaytiradi. *Cho'chitish* ham axloqning ushbu turini motivasiyalovchi *kognitiv-hissiy dissonansni* uyg'otishi mumkin.

Qator hollarda axborot o'z vaqtida berilmaydi: o'ta kech yoki o'ta erta. Masalan, o'smirlar bilan ishlash tajribasining ko'rsatishicha, giyohvand moddalarga tobe bo'luvchi axloqni ogohlantirish bo'yicha suhbatlar 14 yoshdan kech bo'lmaganda olib borilishi lozim. Ular giyohvand moddalar va ular keltirib chiqaruvchi kuchli ta'sirni batafsil yoritishdan iborat bo'lmasligi darkor. Bunday suhbatlar deviant axloq va undan saqlanish usullarining oqibatlarini muhokama qilishga, faol shaxsiy nuqtai nazarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Ushbu yondoshuvning istiqbolli rivojlanishiga cho'chituvchi axborotlarning ustunlik qilishidan, shuningdek, jins, yosh, ijtimoiy-iqtisodiy tavsifnomasi bo'yicha axborotlarni differensiasiyalashdan voz kechish yordamlashishi mumkin.

Psixoprofilaktik ishning uchinchi shakli – ***ijtimoiy-muhim malakalarga faol ijtimoiy o'rgatish***dir. Ushbu model ko'pincha guruhli treninglar shaklida amalga oshiriladi. Hozirgi vaqtda quyidagi shakllar tarqalgan.

1. *Salbiy ijtimoiy ta'sirga rezistentlik (mahkamlik) treningi.* Trening davomida deviant axloqqa ko'rsatmalar o'zgaradi. reklamali strategiyani tanib olish malakasi shakllanadi. tendoshlari bosim o'tkazganida "yo'q" deya olish layoqati rivojlanadi. ota-onalar va boshqa kattalarning (masalan. ichkilik iste'mol qiluvchi) salbiy ta'sir ehtimoli haqida axborot beriladi va h.k.

2. *Assertivlik yoki affektiv-qadriyatli ta'lim treningi.* Deviant axloq bevosita hissiy buzilish bilan bog'liq degan tasavvurga asoslangan. O'smirlarni ushbu muammolaridan oldindan xabar berish uchun hissiyotlarni tanish. ularni maqbul obrazda ifodalash va stressni mahsuldor uddalashga o'rgatiladi. Guruhli psixologik ish davomida qaror qabul qilish malakasi shakllanadi. o'z-o'zini baholash ko'tariladi. o'z-o'zini aniqlash va ijobiy qadriyatlarni rivojlantirish jarayoni rag'batlantiriladi.

3. *Hayotiy malakalarni shakllantirish treningi.* Hayotiy malalkalar tushunchasi ostida shaxsning birmuncha muhim ijtimoiy ko'nikmalari tushuniladi. Dastavval. bu muloqot qilish. do'stona aloqalarni saqlash va shaxslararo munosabatlardagi nizolar konstruktiv hal qilish malakasidir.

Shuningdek. bu o'z zimmasiga mas'uliyatni ola bilish, maqsad qo'yish, o'z nuqtai nazari va manfaatlarini himoyalash qobiliyati hamdir. Nihoyat, o'z-o'zini nazorat qilish, o'zi va atrofdagi vaziyatni o'zgartirishga ishonchli axloq malkasi hisoblanadi.

O'smirlar bilan ishlashda ushbu model birmuncha istiqbollilardan birini aks ettiradi.

To'rtinchi shakl – ***alternativ deviant axloq faoliyatini tashkil etish***. Ishning bu shakli deviant axloqning o'rinbosar samarasi haqidagi tasavvurlari bilan bog'liq. Masalan, addiksiya shaxsiy dinamika – o'z-o'zini baholashni oshirish yoki referent muhit integrasiyasida muhim rol o'ynashi mumkin. Taxmin qilinadiki. odamlar kayfiyatni yaxshilovchi psixofaol moddalardan uning o'rniga nimadir yaxshirog'ini olmagunlaricha foydalanadilar. Faollikning alternativ shakllari sifatida quyidagilar tan olindi: bilim (sayohat). o'zini sinash (toqqa sayohat, xatarli sport), ahamiyatli muloqot. sevgi, ijodkorlik. faoliyat (shu jumladan. professional, diniy-ma'naviy. homiylik).

Bu shakl shakllangan og'ishgan axloq holatida yordam ko'rsatishning deyarli barcha dasturlarida amalga oshiriladi. Oilaviy tarbiyada yetakchi profilaktik vazifa sifatida *mustahkam qiziqishlarni erta tarbiyalash*. sevish va sevimli bo'lishga qobiliyatni rivojlantirish. o'zini band qilish va mehnat qilish ko'nikmasini shakllantirish chiqadi. Ota-onalar *bolani faollikning xilma-xil turlariga – sport. san'at. bilimga jalb etish orqali shaxs ehtiyojlarini shakllantirishlarini* tushunishlari kerak. Agar o'smir yoshida ijobiy ehtiyojlar shakllanmagan bo'lsa. shaxs salbiy ehtiyoj va bilimlarga nisbatan zaif bo'lib qoladi.

Beshinchi shakl – ***sog'lom turmush tarzini tashkil etish***. U salomatlik uchun shaxsiy javobgarlik. atrofdagi dunyo va o'z organizmi bilan uyg'unlik haqidagi tasavvurlardan kelib chiqadi. Odamning maqbul holatga erishish va muhitning noxush omillariga muvaffaqiyatli qarshi tura olish ko'nikmasi. ayniqsa. qimmatli hisoblanadi. Sog'lom turmush usuli sog'lom ovqatlanish. muntazam jismoniy yuklama, mehnat va dam olish tartibiga amal qilish. tabiat bilan muloqot. ortiqcha narsalarni istisno qilishni ko'zda tutadi. Bunda usul ekologik tafakkurga asoslangan va ahamiyatli tarzda jamiyat rivojlanishining darajasiga bog'liq.

Oltinchi shakl – ***shaxsiy resurslarning faollashuvi.*** O'smirlarning sport bilan faol shug'ullanishi. guruhlardagi muloqot va shaxsiy o'sishdagi

ishtiroki. artterapiya – bularning barchasi. o'z navbatida. shaxs faolligi, uning sog'ligi va tashqi salbiy ta'sirga mahkamligini ta'minlovchi shaxsiy resurslarni faollashtiradi.

Ettinchi shakl – ***deviant axloqning salbiy oqibatlarini minimallashtirish.*** Ishning ushbu shaklidan shakllanib bo'lgan og'ishgan axloq hollarida foydalaniladi. U residiv yoki uning salbiy oqibatlarini profilaktika qilishga yo'naltirilgan. Masalan, giyohvandlikka tobe bo'lib qolgan o'smirlar o'z vaqtida tibbiy yordam. shuningdek, shunga o'xshash kasalliklar va ularni davolash bo'yicha zaruriy bilimlarni olishlari mumkin.

Psixoprofilaktik ishning xilma-xil ko'rinishlarida o'xshash shakllar va usullardan foydalanish mumkin. Ishni tashkil etish usuli bo'yicha psixoprofilaktikaning quyidagi shakllarini ajratish mumkin: individual, oilaviy, guruhli ish. Og'ishgan axloqni oldini olish maqsadida turlicha ijtimoiy-psixologik usullardan foydalaniladi. Psixoprofilaktik ishning yetakchi usullari orasida: xabardor qilish. guruhli munozaralar. trening mashqlari. rolli o'yinlar. samarador ijtimoiy axloqni modellashtirish, psixoterapevtik uslublar bor.

Foydalanilgan usullarga bog'liq ravishda psixoprofilaktik ish trening, ta'lim dasturlari (masalan. maktabdagi maxsus kurslar). psixologik maslahatlar. krizis yordami (ishonch telefonlari). shuningdek. chegara holati va asabiy-psixichk buzilish psixoterapiyasi shaklida amalga oshirilishi mumkin.

Deviant axloqning o'ziga xosligiga muvofiq ravishda psixoprofilaktika ishlarining quyidagi tamoyillarini ajratish mumkin:

- majmuaviylik (oila va shaxs. ijtimoiy borliqning turli darajasiga ta'sirni uyushtirish):
- manzillilik (yosh. jinsiy va ijtimoiy tavsifnomalarni hisobga lish):
- ommaviylik (ishning guruhli shakli birlamchiligi):
- axborotning ijobiyligi:
- salbiy oqibatlarni eng kam darajaga tushirish:
- ishtirokchilarning shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyati:
- shaxsning eng yuqori darajadagi faolligi:
- kelajakka intiluvchanlik (axloq oqibatlarini baholash. ijodiy qadriyatlar va maqsadlarni

dolzarblashtirish, deviant axloqsiz kelajakni rejalashirish).

### *Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intervensiyasi*

Shaxs og'ishgan xulqining intervensiyasi ijtimoiy-psixologik ta'sirning yana bir yo'nalishi hisoblanadi. *Psixologik intervensiya bu ijobiy o'zgarishlarni rag'batlantirish uchun shaxsiy borliqqa psixologik aralashuv.* Shaxs deviant axloqi intervensiyasi bo'shashish yoki uning axloqidagi ijtimoiy moslashuvga to'sqinlik qiluvchi shakllarni bartaraf etishdan iborat.

Psixologik intervensiyaning farqli xususiyatlari umuman olganda shaxsning o'zi tomonidan *o'zgarishga bo'lgan istak*, uning psixolog bilan hamkorlik qilishga tayyorligi hisoblanadi. Voyaga etmaganlarning og'ishgan xulqi holatida tashabbus va rozilik bola manfaatlarining qonuniy vakillaridan chiqishi darkor.

Shaxs og'ishgan xulqi bilan ishlashda asosiy qiyinchilik, qoidadagiday, ijtimoiy-psixologik yordamning birinchi bosqichida odam o'z axloqining aniq ko'rinib turgan salbiy oqibatlariga qaramay o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatishidan iborat. Bunday hollarda aralashuv uchun asos deviasiya yetkazga zarar darajasi yoki shaxsning ijtimoiy moslashmaganligi darajasi bo'lishi mumkin. Masalan, giyohvand moddalarga tobe insonning yordam uchun murojaatiga sabab ko'pincha yoxud sog'ligi blilan jiddiy muammo, yoxud uning "ijtimoiy jarlik" vaziyatiga erishishi bo'lishi mumkin. Giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar bilan birga yuradigan kasalliklar yaxshi ma'lum - gepatit, OIV-infeksiya, psixik buzilishlar. Ijtimoiy degradasiya, o'z navbatida, kriminalizasiyada, mehnatga layoqatning yo'qolishida, yakkalanishda, turar-joy va oilani yo'qotishda ifodalanadi.

Shunday qilib, deviant axloqda psixologik aralashuvning yetakchi vazifalari quyidagi tarzda ifodalash mumkin:

- ijtimoiy moslashuv yoki sog'ayishga motivasiyaning shakllanishi;
- shaxsiy o'zgarishlarni rag'batlantirish;
- og'ishgan xulq aniq shaklining korreksiyasi;
- shaxsiy o'zgarishlar yoki sog'ayish uchun yoqimli ijtimoiy-psixologik

sharoitlarni yaratish.

Ishning samaradorligi istalmagan axloq (masalan. giyohvand moddalarni iste'mol qilish holati) ni kamaytirishning ob'ektiv belgilari bo'yicha bo'lganiday, sub'ektiv o'zgarishlar (masalan, sog'lom turmush tarzini kechirishga istakning kuchayishi) bo'yicha ham baholanadi. Ijobiy o'zgarishlarning birmuncha muhim mezonlaridan biri shaxsning ijtimoiy moslashganlik darajasini ko'tarish bo'lib chiqadi.

Og'ishgan xulqning psixologik intervensiyasi holatida psixologik ta'sirning ko'pincha psixoprofilaktik ishdagi barcha ma'lum usullaridan foydalaniladi. Psixologik intervensiyaning etakchi usullari psixoterapiya. psixologik maslahat berish. psixologik trening. organizasiya terapevtik yoki sanogenli muhitlar hisoblanadi.

Shaxs bilan psixologik ish olib borishning birmuncha ommaviy shakli *psixoterapiya bilan uyg'unlikda maslahat berish* hisoblanadi. Deviant axloq holatida yordamning ajratilgan ikki shakli o'rtasidagi chegaralarni farqlash amaliy jihatdan juda qiyin. "Maslahat berish" atamasi sog'lom odamlar bilan ishlash uchun anchagina maqbul. Axloqiy deviasiyaning murakkab xarakteri. uning og'riqli buzilishga o'tishga moyilligini inobatga olib. kelgusida psixoterapiya yoki maslahab berish haqida gapirganda biz aynan ularning munosib birkmasini nazarda tutamiz.

Shaxsning yagona nazariyasi yo'qligida maslahat berish (psixoterapiya) ning turlicha konsepsiya va shakllari mavjud. Uchta yetakchi yo'nalish birmuncha rivojlanish va tan olishni oldi: psixoanalitik. kognitiv-axloqiy. gumanistik. Bu tarixiy modellar hayotga yuzlab modifikasiyani berdi. buning oqibatida turlicha tasniflar paydo bo'ldi. Intervensiya maqsadiga bog'liq holda psixoterapiyaning uch turi ajratiladi [18]:

- *qo'llab-quvvatlovchi psixoterapiya* - mavjud himoya kuchi va ancha yangi samarali axloq usullarini ishlab chiqishni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash:

- *qayta o'rganuvchi psixoterapiya* - axloqni o'zgartirishga intilish:

- *shaxsiy-rekonstruktiv* - intrapsixik janjallarni anglash orqali ichki shaxsiy o'zgarishlarga yo'naltirilgan.

Klinik amaliyotda psixoterapiya usullarini *simptom-markazlashgan. shaxsiy-markazlashgan* va *ijtimoiy markazlashgan*ga bo'lish qabul

qilingan. Psixoterapiya turlicha shakllarda amalga oshirilishi mumkin, masalan: guruhli, oilaviy yoki individual, uzoq muddatli yoki qisqa muddatli, muammolarni echish yoki shaxsiy o'zgarishlarga mo'ljallangan direktiv yoki nodirektiv. Amaliyotda ko'pincha kombinasiyalangan usullardan foydalaniladi. Bundan tashqari, asosiy psixoterapevtik usullarning ko'plab modifikasiyasi mavjud. Masalan, B. D. Karvasarskiy [22] tahriri ostidagi Psixoterapevtik ensiklopediyada yuzga yaqin psixoterapevtik usullar yoritilgan, ularning real miqdori esa yanada ko'proq. Ko'pgina mualliflar ayni vaqtda mutaxassis shaxsining ahamiyatiga diqqatni tortgan holda psixoterapiyaning taxminan teng ta'sir qiluvchi xilma-xil turlarini ta'kidlaydi.

### *Og'ishgan axloqning turli shakllarida ijtimoiy-psixologik aralashuv strategiyalari*

Deviant axloqning turli shakllari asosiy psixologik usullardan foydalanishda ba'zi tuzatishlar kiritishni talab qiladi. Shartlilikning ma'lum ulushi bilan og'ishgan xulqning asosiy turlariga nisbatan ijtimoiy-psixologik aralashuvning ba'zi bir umumiy strategiyasini belgilash mumkin.

### *Delinkvent axloq*

Axloqning qonunbuzarlik va antijamoatchilik holatida ijtimoiy-psixologik ta'sirning asosiy strategiyasi *jamoatchilik jazosining sharoitlarini tashkil etish* (ayniqsa, qamoqxona va mehnat-tuzatish koloniyalarida) hisoblanadi. Qator davlatlarda qonunbuzarlikni sodir etgan shaxslarga jamoatchilik qoralashi va delinkventning huquqlarini cheklash (jazosiz yoki jazoni o'tab qaytgach), masalan, kasb tanlashda, ishga qabul qilish yoki farzand asrab olishda cheklash qo'llaniladi.

Delinkvent axloq holatida psixologik-ijtimoiy ishning asosiy shakllari maslahat berish, psixoterapiya, sud-psixologik ekspertiza (ayniqsa, voyaga yetmaganlarga nisbatan). SPT va sanogenli muhitni tashkil etish bo'ladi. Psixik va buzilishi bo'lgan delinkvent shaxslar uchun psixiatrik shifoxonalarning ixtisoslashtirilgan bo'limlari nisbatan yangi shakl hisoblanadi. Ushbu muassasalarda shaxsning ijtimoiy-psixologik reabilitasiyasiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ozodlikdan mahrum etilgan sharoitdagi psixoterapiya – *penitensiar*

*psixoterapiya* – intervensiyaning garchi yomon ishlab chiqilgan bo'lsa-da, muhim shakli. Uning maxsusligi shaxs uchun oxirgi stressli vaziyat, asosial maqsaddagi sardorlar ta'siri, terapevtik alyansning odatiy munosabatlarini imkonsizligi sifatida ta'riflanadi. Odatiy usullar samarasiz. Shu munosabat bilan penitensiar muhitga moslashtirilgan maxsus usullardan foydalaniladi.

Yopiq turdagi muassasalardagi psixoterapiya qator vazifalarni hal qilishga mo'ljallangan. Dastavval individning psixoterapevtik yordamga ehtiyojini belgilash zarur. Keyin penitensiar muhitga moslashtirilgan metodika yoki maxsus ishlab chiqilgan shkala (muhitning buzilgan ta'sirini hisobga olishni ta'minlovchi) yordamida shaxsiy xususiyatlarni aniqlash muhim. Muhim vazifa - destruktiv harakatdagi ta'sirdan pasaytirilgan munosabatlar yoki guruhlarning "psixoterapevtik oazis"ni yaratishdir. Keyingi dolzarb masala psixik zo'riqishni (dastavval relaksasiya usuli bilan) olib tashlash va kriminal, stressli ta'sirga ta'sirchanlikni pasaytirish hisoblanadi. Nihoyat, mahkumning ushbu muhit muammolarini hal qilish va undan chiqish yuzasidan layoqatini ko'tarish va ijtimoiy ta'lim zarurdir. Qator hollarda psixologik ish ruhiy psixoterapiya bilan uyg'unlashadi.

Ta'kidlash zarurki, penitensiar psixoterapiyasi jiddiy, ko'pincha yengib bo'lmas qiyinchiliklar bilan to'qnash keladi. Shuning uchun ruhoniylarning faoliyati qator hollarda jazoni o'tayotgan inson shaxsiga psixologik-ijtimoiy ta'sirning yagona shakli hisoblanadi.

Delinkvent axloq holatida psixologik ta'sirning samaradorligi majmuaviy tadbirlar samarasiga bog'liq: tashkiliy (masalan, muassasada tartib va insonparvarlik atmosferasini yaratish), iqtisodiy, pedagogik, tibbiy, ijtimoiy choralar (masalan, ozod bo'lgandan keyin ijtimoiy reabilitasiya).

*Sanogenli muhit yoki terapevtik "oazis"ni yaratish* qiyin amalga oshuvchi, biroq mexanik tarzda samarali namoyon bo'ladi. Ushbu yondoshuvning asosiy maqsadi odamni o'rgangan, qo'zg'atuvchi muhitdan olib chiqish hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, insonni turmush tarzi va shaxsan o'zgartirishga chaqiruvchi bo'lmog'i zarur. Muhitni yaratishning shunga o'xshash shakliga og'ishgan axloqli o'smirlar uchun mehnat kommunalarini kiritish mumkin. Bunday "ijtimoiy orollarda"gi hayot qator qoidalarga bo'ysunadi. Asosiy qoidalar - hayotini mustaqil ta'minlash, o'zaro yordam, rahbar va tanlangan organga qat'iy bo'ysunish.

ichki hayot me'yorlari hamda intizomga qat'iy rioya qilish, an'analarga amal qilish.

Delinkvent axloq uchun ijtimoiy ta'sirning birmuncha teng usullari jamoatchilik jazosi va uning turli modifikasiyalarida axloqiy terapiya hisoblanishini tan olish kerak.

## *Addiktiv axloq*

Autodestruktiv axloqda aralashuvning xususiyatlari addiksiyaning turi va tobelik darajasiga bog'liq.

Turli davlatlar tajribasini baholab, tobe axloqli shaxsga ta'sirning uchta global ijtimoiy ta'sir strategiyasini ajratish mumkin:

- repressiv siyosat (jamiyatni uning alohida a'zolari bilan kurashi);

- xatarni minimallashtirish siyosati (zararni pasaytirish) - pragmatik yondoshuv;

- resosializasiya siyosati (ijtimoiy-psixologik reabilitasiyada).

*Repressiv siyosatning mohiyati* qat'iy yondoshuvdan iborat. Masalan. giyohvand moddalar davlat tomonidan man etiladi. unga bog'liq barcha harakatlar qonun bo'yicha jazolanadi. AQSH da geroin yoki kokainni saqlagani uchun 5 yildan 40 yilgacha qamoq jazosi mavjud. Xitoy yoki Singapurda bunday harakat uchun o'lim jazosi belgilanadi. Giyohvand moddalarga nisbatan shunga o'xshash qattiq ijtimoiy siyosat ko'plab davlatlarda amal qiladi. Ba'zi davlatlarda ichkilik "quruq qonun"ni kiritishga qadar ta'qiqlanadi. Davlat karatel choralarni kiritib, psixofaol moddalarni iste'mol etishni nazorat qilishni ko'zda tutadi. Biroq piyonistalik va giyohvandlik saqlanadi. iste'molchilar bitta muammo - kimyoviy tobelikdan tashqari - avtomatik tarzda ikkinchisini - delinkventlikni egallaydi. demak iste'mol qilish jinoyatni bildiradi. Bundan tashqari. mafiya uchun giyohvand moddalariga har qanday ta'qiq foydalidir. chunki u giyohvand moddalarga nisbatan qiziqishning ortishi va noqonuniy giyohvand mahsulotlarga narx oshishini rag'batlantiradi.

*Zararni pasaytirishning liberal siyosati* kamroq tarqalgan. Zararni pasaytirish konsepsiyasi iste'mol qilingan, iste'mol qilinmoqda va iste'mol qilinadi. iste'molchilar esa jamiyatning bir qismi, hatto agar jamiyat bu haqda bilishni istamasa-da. Bu konsepsiya dunyoda yanada ommaviy

bo'lib bormoqda, Niderlandiya va Avstraliyada esa rasman amalga oshiriladi. Asosida shunday ishonch yotadi, muayyan vaqt muddatidan keyin ko'pincha 10 yilga yaqin iste'mol qilgach, odamda yoxud iste'molni to'xtatish, yoxud turg'unlashish va uni nazorat qilish istagi tug'iladi. Boshqa tomondan, ma'lum bir qism odamlar gihyovand moddalar iste'mol qilishni hech qachon tashlamasliklari faktini qayd qiladi.

Zararni pasaytirish harakatining tarixi bizning vaqtdagi 80-yillar [illegible] o'z [illegible] in'eksion giyohlarni iste'mol qiluvchilar orasida OIV epidemiyasi [illegible] bilan [illegible] bog'liqdir. Tibbiy professionallarga agar qandaydir tezkor profilaktik choralar qabul qilinmasa, in'eksion giyohlarni iste'mol qiluvchilar (IGIQ) orasida epidemiyaning shiddatli rivojlanishini to'xtatish mumkin emasligi aniq bo'ldi. Shu tarzda jamoatchilik sog'liqni saqlash sohasida ta'sir dasturining yangi modeli – *shprislarni almashtirish dasturi* tug'ildi. Keyin u giyohvand moddalarni iste'mol qilishning xavfsiz usullari, iste'mol bilan birga boruvchi kasalliklar haqida xabardor qilish, prezervativlar va xavfsiz jinsiy aloqa usullarini o'rgatishning tarqalishi kabi yo'nalishlar bilan to'ldirildi.

Shunday qilib, o'z-o'zidan faoliyat yurituvchi tashkilotlarning bosh siyosiy maqsadi – bu *dekriminallashtirish* va *giyohlarni iste'mol qilishni me'yorlashtirish.* Bu giyohlarni iste'mol qilish bilan kurash bo'yicha o'xshash va ochiq dasturni ishlab chiqish strategiyasiga qo'shimcha ravishda giyohlarga tobelarni kriminallashtirishning avvalgi siyosatiga qarshi yo'naltirilgan strategiyalar ishlab chiqilishi zarur. Giyohvand moddalarni iste'mol qilishga repressiv siyosat "giyohvandlik muammosi" deb nomlanuvchi ko'rinishning tug'ilishi uchun mas'ul hisoblanadi.

90-yillar boshida temir parda parchalanganidan keyin OIV-infeksiya va giyohvandlik epidemiyasi muammosi Sharqiy Yevropa va Rossiya davlatlari uchun ham dolzarb bo'lib qoldi. OIV-infeksiyasining birdan avj olishi Ukraina hududida, Rossiya bir necha shaharlarida shiddat bilan boshlandi. Hozir bu shaharlarda zararni pasaytirish bo'yicha profilaktik dasturlarning ishi boshlandi, biroq moliyaning etishmasligidan bu dasturlar zaruriy qamrovga ega bo'lmadi, umummilliy emas, yagonaviy xarakterga ega va xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar ko'magida milliy byudjetdan to'lanadi.

Bugungi kunda bizning davlatda shprislarni almashtirish va autrich-

ishni o'tkazishni o'z ichiga olgan zararni pasaytirish bo'yicha 20 ga yaqin dastur moliyalangan. *Autrich-ish* ("tashqaridan") - profilaktik axborotlarni ular uchun odatiy bo'lgan joylardagi yopiq ijtimoiy guruhlar (giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilar, gomoseksuallar, fohishalar) gacha yetkazish.

Autrich-ishning maqsadlari:

- OIV, virusli gepatitlar. IGIQ (in'eksiyali giyohlarni iste'mol qiluvchilar) orasida teri-tanosil kasalliklarining tarqalish xavfi haqida xabardor qilish;

- in'eksiyali instrumentariylardan takror foydalanish darajasini pasaytirish;

- giyohvand moddalarni iste'mol qilish bilan (qonun, xavfli hollarda birinchi yordam ko'rsatish) bog'liq bo'lgan xavf to'g'risidagi axborot;

- giyohlarni qabul qilish va jinsiy aloqa bilan bog'liq xatarli axloqni o'zgartirishga ta'sir

(giyohlarni iste'mol qilishning hiyla xavfsiz usulini o'rgatish);

- IGIQ ni tibbiy va ijtimoiy xizmatlar bilan aloqaga jalb etish;

- ijtimoiy moslashuv va ishga joylashishga ko'maklashish;

- faol iste'molchilarni volontyorlar sifatida zararni pasaytirish bo'yicha ishga jalb etish:

- psixologik ko'mak berish:

- qaytadigan aloqa (IGIQ muammolari haqidagi axborotni tibbiy xodimlar, shuningdek, davlat qarorlari bog'liq bo'lgan mutaxassislargacha yetkazish).

Zararni pasaytirish dasturi hukumat darajasida tan olinmadi, ularning ishi ko'pincha qonunchilik bazasi va federal moliyaviy ko'makning yo'qligidan qiyinlashadi. Shuningdek, bizning davlatimiz hududida o'z fuqarolik huquqlarini himoya qilishga tayyor bo'lgan giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarning mavjudligi haqida hech narsa ma'lum emas.

Giyohlarni iste'mol qiluvchilarga jamiyatdagi mavjud munosabatda axloq o'zgarishi jarayoni ular uchun juda murakkab bo'lib qoladi. Yolg'izlikda porochniy doirani yorib chiqish juda qiyin. Jamiyat hali

kimyoviy tobelik hukmi ostiga tushgan odamlarga kam yordam bermoqda. Giyohvandlikka real tobe shaxslarga mutaxassislar yordamlashadilar. Mutaxassislar ularning ijobiy o'zgarishga bo'lgan intilishlarida odamlarni tushunib, qo'llab-quvvatlab, yordam ko'rsatadilar. Ular, odatda, ijtimoiy-psixologik reabilitasiya doirasida yordam ko'rsatadilar.

*3.* ***Resosializasiya siyosati (ijtimoiy-psixologik reabilitasiya)*** tobe axloq oqibatida moslashmagan individning hayotiy vazifalari tiklanishi bo'yicha majmuaviy dasturni ko'zda tutadi. Reabilitasion dastur bir necha darajadagi tadbirdan iborat: *huquqiy himoya* va *ijtimoiy ko'mak* (ijtimoiy guruhga kirish, yuridik himoya, ishga joylashish, turar-joy muammosini hal qilish); *psixologik reabilitasiya* (remissiyani psixologik quvvatlash, shaxsiy resurslarni kengaytirish); *tibbiy yordam* (abstinent sindromni olib tashlash, residivga qarshi terapiya, birga boruvchi somatik va asabiy-psixik buzilishlarni davolash).

Psixologik yordam barcha hollarda majburiy hisoblanadi. Nisbatan kamroq xavfli shakllarda (chekish, azart o'yinlar, ovqatga tobelik) yoki tobelikning boshlang'ich bosqichlarida maslahat berish va psixoterapiya keng qo'llaniladi. Ayniqsa, *kognitiv-axloqiy individual (qisqa muddatli) va shaxsiy-rekonstruktiv guruhli psixoterapiya* o'zini yaxshi tavsiya eta oldi. Mohiyati bo'yicha oxirgi mashg'ulot jamoatchilik guruhlari va tashkilotlariga yaqinlashtiriladi (anonim piyonistalar, anonim giyohvandlar, diniy tashkilotlar).

Tizimli kasallik (jismoniy tobelik) darajasiga erishgan kimyoviy tobelik holatida yordam birmuncha murakkab va davomli bo'ladi. Ushbu holatda boshlang'ich bosqichlardagi tibbiy aralashuvning yetakchi rolida majmuaviy reabilitasiyaga aynan o'xshash bo'ladi.

Birmuncha umumiy ko'rinishda piyonistalik va giyohvandlikni majmuaviy reabilitasiya qilishning quyidagi sxemasi haqida gapirish mumkin.

Dastlab *maslahat berish* yoki *davolash to'g'risida qaror qabul qilish maqsadidagi psixoterapiya* (kasallikni anglash, bundan keyin bunaqa yashash imkonsizligini his qilish, davolanishga tayyorlikning oshishi), davolashning birmuncha babbarobar shaklini tanlash o'tkaziladi. Bu bosqich uzoq davom etishi mumkin. Ko'pincha tobe odamlar fojia vaziyatidagina davolanishga rozi bo'ladilar: tuzalmaydigan kasallik haqidagi xabar, sudlanish xavfi, delinkvent muhit tomonidan hayotiga real

xavf, klinik o'lim holati kechinmasi.

Davolash haqidagi qaror qabul qilinganidan keyin *detoksikasiya* – organizmni zaharli moddalardan ozod qilishni o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Majmuaviy reabilitasiyaning keyingi bosqichida *remissiyani kuzatishdasturi – hushyorlikni qo'llab-quvvatlashni kuzatish dasturi* amalga oshiriladi. Jahon tajribasi ushbu ishni 12-14 oy davomida olib borish maqsadga muvofiq ekani to'g'risida guvohlik beradi. Remissiyani ta'minlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- tibbiy-psixiatrik yordam, masalan, antidepressantlarni belgilash;

- tibbiy-narkologik, masalan, residiv qarshi terapiya yoki ichkilikka qarshi reaksiya beruvchi yoki giyohvandlik kayfi holatini blokirovkalovchi preparatlarni kiritish shaklidagi "kimyoviy himoya".

Remissiyani quvvatlashdagi psixologik yordam turli yo'nalish va shakllarda amalga oshirilishi ham mumkin:

- tobe shaxs va uning oila a'zolariga psixologik maslahat berish;

- ijobiy shaxsiy o'zgarishlar va dastavval hushyorlikka ko'rsatmani shakllantirishga mo'ljallangan individual va guruhli psixoterapiya;

- ishonch telefonlarining maxsus liniyasi.

Amaliyot ko'rsatadiki. yordamning nafi ixtisoslantirilgan markazlardagi sharoitlarda ahamiyatli tarzda o'sadi. Mutaxassislar tobelikni muvaffaqiyatli davolashning to'rtta asosiy shartini aytadilar [18. 20]:

- kimyoviy tobelikni boshqasiga almashtirish (AP guruhidagi odamdan diniy tashkilotga);

- tegishli psixotrop preparatlari yoki psixoterapiyani kiritgan holda boshqa psixiatrik buzilishlarni aynan o'xshash davolash;

- psixologik ulg'ayish jarayonida nafsini tiyishni qo'llab-quvvatlash (masalan, nazorat-testlari, giyohlarning o'rnini bosuvchilar, o'z-o'ziga yordam guruhlari);

- psixoterapiya yordami bilan shaxsiy o'sish va tuzilmaviy o'zgarishlar.

Jismoniy tobelikning kamayishi darajasi bo'yicha ijtimoiy yordam roli

o'sadi.

Hozirgi vaqtda ijtimoiy-psixologik reabilitasiya tobe o'smirlarga yordam ko'rsatishning anchagina o'xshash shakli deb tan olinadi. Oila o'smirni ijtimoiy yordam olish zarurligiga ishontirishi zarur.

O'smir yoki maslahatchi-psixolog bilan birga oila u va o'smir uchun birmuncha o'xshash ijtimoiy-psixologik reabilitasiya shaklini tanlashi mumkin:

1. "12 qadam" dasturiga muvofiq harakatlanuvchi "Anonim giyohvandlar", "Anonim piyonistalar" nomli *o'z-o'ziga yordam* guruhi.

Ijtimoiy-psixologik yordamning bu shakli, ayniqsa, keng tarqaldi. Anonim piyonistalar (giyohvandlar) ning bosh vazifasi - hushyor bo'lib qolish va boshqalarga hushyorlikka erishishga yordamlashishdir.

Mana ular hushyorlikka izchil boruvchi ruhiy tug'ilishning "zinalari":

Biz ichkilik oldida o'z zaifligimizni tan oldin: biz o'z hayotimiz ustidan nazoratni yo'qotdik.

Biz o'zimizdan ustunroq kuchgina bizni o'ylab ish qilishga qaytarishi mumkinligini tushundik va ishondik.

Biz o'zimiz tushunadigan Ollohga o'z ixtiyorimiz va hayotimizni berishga qaror qildik.

Biz o'z axloqimizning chuqur va qat'iyatli tadqiqotini o'tkazdik.

Biz Olloh oldida axloqsizligimizni angladik, o'zimiz va boshqalar oldida o'zimizning yomon ishlarimizni tan oldik.

Biz Ollohdan bizni xarakterimizdagi yetishmovchiliklardan ozod qilishga yordamlashishi uchun to'liq tayyormiz.

Biz undan bizni yomon ishlardan ozod qilishni oyog'iga bosh urib so'radik.

Biz kimga zarar yetkazgan bo'lsak, barchalarining nomlarini yozib chiqdik va ularning barchalariga etkazilgan zarar yoki xafagarchilik o'rnini to'ldirishga tayyorlandik.

Biz barcha odamlarga, faqat o'rnini to'ldirish ularga zarar keltiruvchi hollardan tashqari, imkoni boricha yo'qotish o'rnini to'ladik.

Biz o'z axloqimiz ustidan kuzatuvni davom ettirdik va yomon ish qilganda, darhol bu haqda tan oldik.

Tilovat va tafakkur yordamida biz Ollohni qanday tushunsak, shundayligicha u bilan o'z aloqamizni chuqurlashtirishga Uning ixtiyori va kuchini, ulami bajarish uchun tushunish haqidagina iltijo qilgancha intildik.

Bu qadamlar natijasida ruhiy e'tiqodga erishib, biz bu tajribani boshqa kasallarga so'zlab berish va bu tamoyillarni barcha ishlarimizda qo'llashga intildik.

Guruhni qo'llab-quvvatlashda dastur ishtirokchilari har bir qadamni his qilishlari va uni individual tempda o'tishlarini anglashga imkon ber. Bunday hissiy, diniyga yaqin ta'sirga to'g'ridan-to'g'ri maslahatlar, AP ish amaliyotida bemorlarning jamiyat ishida qatnashishining davomiyligi doirasida murakkablashib boruvchi tavsiyalardan foydalaniladi. Masalan, dastlab bu maslahatlar piyonistalikni to'xtatishga yoki ko'tarilishni oldindan aytishga yo'naltirilgan: "Birinchi ichkilikvozlikka yo'l qo'yma". Dastur o'z tobeligining qurboni bo'layotgan va undan qutulishni istovchi odamga real imkoniyat beradi.

Bu dasturning kamchiliklari - odatiy muhitda yashash:

1. Mutaxassislar bilan birga sobiq giyohvandlik tobelari ishlaydigan *ijtimoiy-psixologik reabilitasiya markazlari.* Markazlar turli dasturlar bo'yicha ishlaydilar: Minessot modeli, Dey-top Interneyshenl, ruhiy tiklanish, "shok terapiyasi", o'z-o'zini boshqarish modeli. (Kamchilik – bu erda, kelgusida avvalgi muhitga qaytish, biroq ko'mak guruhlarini davriy ziyorat qilishi bilan 2 oygacha bo'lishning qisqa muddatliligi.)

2. Uzoq muddatli yashash bilan *mehnat kommunalari va lagerlar.* (Kamchiligi - yashashning yetarlicha qattiq sharoiti, albatta, kommunadan ketishning katta foizi.)

3. *Ovoserkvlenie* – dinga murojaat, cherkovga xizmat qilish, monastirga vaqtinchalik yoki uzoq muddatga ko'chib o'tish. (Cheklash – shaxsiy qabul qilinmagan e'tiqod).

Oila nafaqat reabilitasiya shaklini tanlashi, balki reabilitasiya maqsadlari va foydalaniladigan usullar haqidagi mukammal axborotni joyida olishi darkor. O'smir oilada qoladimi yoki reabilitasion markazga joylashtiriladimi, bundan qat'i nazar oilaning a'zolari parallel tarzda yordam oladilar.

Shu maqsadda ota-onalar bilan quyidagi shakllarda psixologik ish olib

boriladi:

-tobe o'smirlar oilasi (ota-onalari)ning mutaxassislar (narkologlar, oilaviy psixologlar, psixoterapevtlar) bilan davriy maslahatlashishi;

- ota-onalar bilan guruhli trening ishini tashkil etish va o'tkazish (masalan, "Ota-onalar muvaffaqiyatining treningi", "Tobe o'smirlar bilan samarali o'zaro ta'sir treningi");

- o'z-o'ziga yordam guruhini tashkil etish (masalan, ""Onalar giyohvandlikka qarshi").

Addiktiv axloqning boshlang'ich ko'rinishlari bo'lgan o'smirlar bilan ishlashda *guruhli psixoterapiya* (kognitiv-axloqiy orientasiyalar) va bir vaqtning o'zida profilaktik va korreksion vazifalarni hal qiluvchi *trening ishi* o'zini yaxshi tavsiya etdi.

Addiktiv axloqning ba'zi turlari ko'pincha maxsus tibbiy yordam bilan uyg'unlashgan psixoterapevtik aralashuvni talab qiladi. Bu, misol uchun, ozuqa buzilishi yoki jinsiy addiksiya.

*Umuman olganda, tobe axloqli shaxsga psixologik-ijtimoiy yordam ko'rsatishning muvaffaqiyatliligi, ayniqsa, uning hamkorlikka tayyorlik darajasi bilan belgilanadi.* Shuning uchun birgalikdagi ishning boshlanishida mutaxassis kontakt yoki ishchi alyansiga erishishda alohida vaqt va e'tibor ajratishi lozim. Bu vazifa birinchi uchrashuvdayoq amalga oshirilishi mumkin, biroq, ayniqsa, aniq ko'rinib turgan shaxsiy o'zgarishlar bilan kimyoviy tobelik holatida ko'proq vaqt talab qilinadi.

Aloqaga erishish uchun turli usullardan foydalaniladi. Dastavval, mijozni empatik tinglash, qabul qilish va qo'llab-quvvatlash, shuningdek, mijozning tuyg'ularini aytib berish; murojaat motivasiyasini ifodalash; psixologik aralashuv yuzasidan mijozning kutganlari va xavfsirashini aniqlash ham naf ko'rsatadi.

Hamkorlik munosabatlariga yetishish uchun *ishning natijalari uchun mas'uliyatni bo'lishish* prinsipial tarzda muhimdir. Buning uchun birgalikda maqsad qo'yiladi, har birining ulushi baholanadi, ishning namunaviy rejasi tuziladi, ishning muddati va shartlari aniqlanadi, ya'ni terapevtik shartnoma tuziladi. Ishda shaxsiy imkoniyatlarga suyanish (nafaqat muammolar va nuqsonlarga); mijozning o'zgarishlarga psixologik ta'sirga qarshiligini muhokama qilish; addiktiv axloqni saqlashda va usiz mijozning kelajagini modellashtirish lozim.

## *Suisidal axloq*

Suisidal axloq ***profilaktikasi*** turlicha vazifalarni hal qilishi mumkin: autotajovuzning har xil vositalariga ochiqdan-ochiq cheklov va nazorat, omillar va xatar guruhini nazorat qilish, aniq shaxslarga tibbiy-psixologik yordam ko'rsatish. ***Suisidning psixologik prevensiyasi*** (suisidal axloqning oldini olish) ko'pincha suisidal ko'rinishni tan olish va yaqin odamlarga o'z vaqtida yordam ko'rsatishga o'rgatish shaklida amalga oshiriladi.

Cyisidal axloq bilan shakllanib bo'lgan odamga psixologik yordamni ***krizisli intervensiya*** deb atash qabul qilingan. Bu holatda yetakchi usul krizisli maslahat berishdir, uning maqsadi esa – odamni tirik tutib turish.

Butunittifoq suisidologik ilmiy-uslubiy markaz [26] tadqiqotlarining natijalariga muvofiq o'z-o'zini o'ldirishni quyidagilar sodir etadi:

- sog'lom odamlar tomonidan;
- chegarali asabiy-psixik buzilishi bo'lgan shaxslar tomonidan;
- psixik kasallik bilan azoblanuvchilar tomonidan.

Dastlabki ikki guruh uchun dastavval tibbiy-psixologik yordamning telefon xizmati – *Tezkor psixologik yordam telefoni (Ishonch telefoni)* tayinlab qo'yilgan. Krizisli maslahat berish ham ixtisoslashtirilgan markazlar va kabinetlarda amalga oshiriladi. Psixik kasalliklar bilan azoblanuvchilar uchun psixonevrologik dispanserlar va psixiatrik shifoxonalarning ixtisoslashtirilgan bo'limlarida suisidologik kabinetlar mavjud.

Ko'pchiligi deyarli sog'lom odamlar bo'lgan *o'tkir suisidal reaksiyali* insonlarga psixologik yordam, ayniqsa, dolzarb. Suisidoxavfli reaksiyalar shaxsiy ishlashning bir necha bosqichlarida namoyon bo'ladi. *Affektiv muhitda* bu – jadal salbiy hissiyotlar (xavotir, yolg'izlik, umidsizlik, sog'inch, xafalik). *Kognitiv sohada* hozir va kelajakni pessimistik baholash, vaqtni anglashga noto'g'ri ma'no berish bilan vaziyatning moslashmagan konsepsiyasi tug'iladi. *Shaxsiy barobarlikning buzilishi* o'z-o'zini baholashga tegib o'tadi, qaror qabul qilish qobiliyatini pasaytiradi, affektiv zo'riqishga chidamlilikka ishonchni buzadi. *Axloq* ko'pincha impulsiv, samarasiz bo'ladi. Hisoblanishicha, o'tkir suisidal reaksiya muddati o'rtacha olganda bir oyga yaqin davom etadi.

Kechiktirib bo'lmaydigan yordamning asosiy maqsadi - o'z-o'zini o'ldirish suiqasdi va reaksiyaning kelgusida rivojlanishini oldini olishdir

[17, 26]. Bu odam uchun vaziyatni o'rganish, shuningdek, krizis holati va suisidal tendensiyaning rivojlanishiga sabab bo'luvchi moslashmagan shaxsiy yo'nalishni korreksiyalashda yordam talab qilinadi. Biz krizis - nafaqat sharoit, balki unga salbiy munosabat oqibati ekanligidan kelib chiqishimiz zarur. Ko'pgina hollarda o'z hayotiga qaraganda oilaviy, professional yoki ijtimoiy qadriyatlar kattaroq ahamiyatga ega bo'lgan vaziyatlarga o'rin bor.

Psixojarohatlovchi hodisalarni turg'un qayd qilish kuzatiladi.

Kechiktirib bo'lmaydigan yordam – krizisli intervensiyaning qadamlari.

Birinchi qadam – *suhbat* (1,5-2 soat) hal qiluvchi ahamiyatga ega. Birinchi muhim vazifa – *kontakt o'rnatish* va *ishonchga erishish*. Buning uchun mijozning hissiy qabul qilinishiga ishontirish ("Siz uchun nima qilib berishim mumkin?"), rahmdillik bilan qilingan empatiya yordamida fikrlar va tuyg'ularni ochiq ifodalashni rag'batlantirish, "koyish" orqali zo'riqishni kamaytirish zarur.

Ushbu bosqichda *suisid xavfining holati va darajasini baholashni* o'tkazish ham zarur.

"1"-Suisidning tahdidi – murojaat qiluvchida suisidal fikrlar bo'lgan, biroq u qachon va qay tarzda buni amalga oshirishni bilmaydi ("Men boshqa bunday yashay olmayman..."; "O'lganimda yaxshi edi...").

"2"-Suisidning tahdidi – murojaat qiluvchida suisidal fikr va reja bor, biroq u tezda hayotini tugatishga harakat qilmayotganini gapiradi ("Menda uyqu dori bor, agar hech narsa yaxshi tomonga o'zgarmasa...").

"3"-Suisidning tahdidi – murojaat qiluvchi yoxud shu yerning o'zidayoq (agar u qo'ng'iroq qilayotgan bo'lsa, pichoq yoki tabletka yonida bo'ladi), yoxud suhbat davomida, yoxud undan keyin darhol o'z-o'zini o'ldirmoqchi.

Oxirgi holatda (agar xavf real bo'lsa va qaror qabul qilingan bo'lsa) suhbat uni bajarishni orqaga surish haqidagi qarorga erishishga yo'naltirilishi mumkin.

Birinchi ikki holatda ikkinchi qadamni amalga oshirish mumkin va maqsadga muvofiqdir – *vaziyatni intellektual bilib olish*. Maxsus savollar va aytilgan fikrlar yordamida vaziyatning istisnoligi tuyg'usini bartaraf etish zarur: "Bunday vaziyatlar ko'p uchraydi". Shuningdek, hayotiy yo'l

kontekstida dolzarb vaziyatlarni kiritish yordamida uning tasodifiyligi va yengilmasligi tuyg'usini olib tashlash zarur. Kechinmaning o'tkirligini avvalgi yutuq va muvaffaqiyatlarni yig'ish yoki o'ylab ko'rishga vaqt borligini ta'kidlash yordamida kamaytirish mumkin. Suhbatning ushbu bosqichida aytilganlar mazmunini takrorlash. hissiyotlarni ifodalash va ajratish. suisidal kechinmalarni verballash. hissiyotlar manbaini izlash ("Sizni nima aynan shunday bezovta qilyapti?") kabi usullardan foydalaniladi.

Uchinchi qadam – *shartnoma tuzish* – pasient uchun birmuncha maqbul va kritik vaziyatni bartaraf etish uchun zaruriy harakatlarni rejalashtirish. Masalan, qaytarib bo'lmaydigan yo'qotishda pasient yangi ahamiyatli munosabatlarni o'rnata oladigan yaqin atrofdagilardan shaxs izlash mumkin. Bu bosqichda pasientga krizis mohiyati va ijobiy alternativ izlashdan ketishga to'sqinlik qilish muhim ("vaziyatga diqqatni qaratish" usuli). Asosiy usullar: izoh berish (vaziyatni hal qilishning ehtimolli usullari haqidagi gipotezalar); yaqqol aniq rejani loyihalashtirish va rasmiylashtirishga rag'bat; pasientning tashabbusini rag'batlantirish va o'rganish uchun zaruriy vaqtni berish maqsadida pauzani ushlab qolish ("ma'qullovchi sukunut").

To'rtinchi qadam – *faol psixologik ko'mak* va *o'z kuchiga ishonchning oshishi.* Bu bosqichda yetakchi usullar: mantiqiy asoslash. ishontirish, oqilona nasihat. shaxsiy imkoniyatlarni faollashtirish. Krizisli ishning yakunlovchi bosqichida kelgusida hayotiy qiyinchiliklarni yengish uchun ushbu psixik jarohatlovchi vaziyatni qay tarzda bartaraf etish foydali bo'lishini muhokama qilish zarur.

Shunday qilib. *krizisli intervensiyaning yetakchi vazifasi - odamning suisidal yo'l tutishini korreksiyalashdir.* Ishning natijasi mijozning quyidagi ishonchi bo'lishi mumkin:

- og'ir hissiy holat vaqtinchalik bo'lib. terapiya davomida yaxshilanadi:

- aynan shunga o'xshash holatdagi boshqa odamlar ham o'zlarini shunday og'ir his qilganlar. keyin esa ularning holati to'liq me'yorga kelgan:

- qaytarilgan hayot uning qarindoshlari. yaqinlari. do'stlariga kerak. uning hayotdan ketishi esa ular uchun og'ir jarohatdir.

So'nggi holatda suisidentni har bir odam o'z hayotini o'zi boshqarishi.

biroq qarorni yaxshilab o'ylab ko'rish uchun bir necha kun yoki bir necha haftaga keyinga qoldirish mumkinligiga ishontirishga urinish mumkin. Umuman olganda. *suisidal axloq bilan ishlashning samarasi suisidal xatarni yuzaga chiqarish aniqligi va suisidal maqsad motivasiyasiga bog'liq.*

Krizisli yordam ko'rsatishdan tashqari. hiyla chuqur shaxsiy o'zgarishlarga – ***postvensiya va ikkilamchi intervensiya***ga yo'naltirilgan keyingi ishlar maqsadga muvofiqdir. Ushbu bosqichda turlicha usullar va metodikalarni qo'llash mumkin. Ijobiy va kognitiv psixoterapiya. logoterapiya. aksiopsixoterapiya. ijodiy o'z-o'zini namoyish etish terapiyasi. ruhiy psixoterapiya o'zini yaxshi tavsiya etdi.

Suisidal ko'rinishga ega odamlar bilan ishlashda. ayniqsa. xushmuomalalik va shaxsning o'z tanloviga ko'ra huquqlarini hurmatni namoyon qilish muhim. Suisid vaziyati prevensiyasi (oldini olish) ning paradoksalligi shundan iboratki. har bir katta odam o'z hayotini o'z xohishiga ko'ra qurishga huquqiga ega. biroq boshqa odamlar unga o'z qarorini qayta ko'rib chiqishga yordamlashish huquqiga egadirlar.

Psixik buzilishlar fonida (psixik kasalliklar. piyonistalik. giyohvandlik) suisidal axloq holatida yordam "Psixiatrik yordam va uni ko'rsatishda fuqarolarning huquqlarini himoyalash haqida" Qonuniga (1993) muvofiq amalga oshiriladi.

Xulosada ko'rib chiqilgan og'ishgan xulqning asosiy shakllarini intervensiyalash strategiyalari umumlashgan xarakterga ega va aniq shaxs hamda vaziyatga moslashishni talab etishini qo'shimcha qilish lozim.

### *Nazorat savollari va topshiriqlar*

1. Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir ko'rsatishda komplekslilik tamoyilini ochib bering.

2. Og'ishgan xulq psixoprofilaktikasining maqsadlari. tamoyillari va shakllari qanday?

3. Psixoprofilaktikaning asosiy konseptual modelini sanab bering.

4. Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intervensiyasi nima degani? Uning vazifalari. shakl va usullari qanday?

5. Og'ishgan alohida turlariga nisbatan ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatishning namunali dasturlarini ifodalang.

# XULOSA

Og'ishgan xulqni zamonaviy jamiyatning dolzarb muammosi deb atash mumkin. U aholining psixologik yordam uchun murojaatida yetakchi sabablardan biri bo'lib chiqadi.

Ushbu qo'llanmada *og'ishgan xulqining psixologiyasi bo'yicha* ko'p sonli turli-tuman tarqoqlik ilmiy ma'lumotlarni tizimlashtirishga urinish qilindi. (o'rganilayotgan reallikning boshqa, kam bo'lmagan qiziqarli tomonlari ushbu tadqiqot doirasidan tashqarida qoladi). Axloqiy deviasiyali odamlarga yordam ko'rsatuvchi mutaxassis etiologiya, ishlashning mexanizmlari, og'ishgan axloqning turli shakllari sharoiti va qonunchilikning shakllanishi kabi masalalarda ishonch va vakolatlilikni his qilishi muhim. Shaxs og'ishgan xulqqa ta'sirning teng tasavvurlari va ijobiy ko'nikmalarni ifodalash, ayniqsa, muhim.

*Axloqiy psixologiya* – faol rivojlanuvchi soha. Boshqa yondoshuvlar bilan taqqoslaganda axloqiy intervensiya, ehtimol shaxs axloqiga birmuncha teng va samarali usullardan biri bo'lishi mumkin.

Ayni vaqtda psixologik va psixoterapevtik yordam ko'rsatishning zamonaviy amaliyotida aniq amaliy vazifalarni hal qilish uchun turlicha metodologiyalarga asoslangan turli-tuman usullar integrasiyasining tendensiyasi kuzatiladi. Axloqiy buzilish holatida strategik vazifa – *ijobiy shaxsiy o'zgarishlarga erishishga* yo'naltirilgan integrativ yondoshuvlardan yetarlicha keng va muvaffaqiyatli foydalaniladi.

Ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatuvchi *mutaxassisning o'z shaxsi* istalgan usulni qo'llashning muvaffaqiyatliligini kafolatlovchi, hal qiluvchi omil bo'lib yuzaga chiqadi.

Psixolog-deviantologning moslashganlik, hayotiy muhim ko'nikmalarni rivojlantirishning yuqori darajasi, odamlarga ishonch, samimiy qiziqish, ijodkorlik kabi professional muhim sifatlar haqida gapirish mumkin.

Umid qilamizki, ushbu qo'llanma mutaxassisning professional-shaxsiy nuqtai nazarining muvaffaqiyatli shakllanishiga yordam beradi.

## TAYANCH G'OYALAR

Shaxsning og'ishgan/deviant axloqi – murakkab ko'p darajali polietiologik jarayon.

Og'ishgan xulq shaxs faolligining eng turli-tuman shakllarida namoyon bo'lishi mumkin.

Deviant axloqning asosiy farqli belgilari – ijtimoiy me'yordan og'ish, destruktivlik, atrofdagilarning salbiy bahosi, takrorlanish, kuchaytirilgan moslashmaganlik.

Og'ishgan axloqning ko'p sonli konsepsiyalari qarama-qarshi bo'lmaydi, ushbu ko'rinishni turli tomondan yoritib, uyg'unlashgan holda bir birini to'ldiradi.

Shaxs og'ishgan xulqini dastavval uning rivojlanish va ijtimoiy muhitga moslashish aspektida ko'rib chiqish zarur.

Shaxs rivojlanishini rag'batlantirish va uning ijtimoiy moslashuvi darajasini oshirish – deviant axloqning psixologik-ijtimoiy intervensiyasining yetakchi maqsadi.

Og'ishgan axloqning nazariyasi tamg'a osishga emas, balki shaxsni uning o'zgarish va hamkorlikka rag'batlantirish orqali real yordam ko'rsatishga xizmat qilish uchun chaqirilgan.

Og'ishgan axloq holatida psixologik-ijtimoiy yordamning farqli xususiyati uning faol, uyushtiruvchi va ijobiy xarakteri hisoblanadi.

Yordamning samaradorligi uning o'z vaqtidaligi, tengligi va majmuaviyligi bilan belgilanadi.

Mutaxassis uning imkoniyatlari sarf qilingan kuchga qaramay chegarasiz emasligini tushunish muhim, deviant axloqli aniq shaxsga psixologik-ijtimoiy ta'sir natijalari ko'plab sabablar oqibatida ahamiyatsiz bo'lishi mumkin.

Shuni tan olish lozimki, shaxs og'ishgan xulqining tabiati haqidagi zamonaviy bilimlar ko'proq ularga to'liq javob olishdan ko'ra yangi savollarni tug'diradi.

Bu sohadagi keyingi ilmiy tadqiqotlar, amaliy ish tajribasining yig'ini, alohida shaxslar kuchi bilan turli mutaxassislar kuchini birlashtirish - bularning barchasi qonuniy qiyinchiliklarni bartaraf etishda yordamlashadi.

## GLOSSARIY

***Tajovuz*** – kimnidir o'ziga bo'ysundirish yoxud ulardan ustunlik qilish maqsadida real axloq yoki fantaziyalashda namoyon qilinadigan tendensiya (intilish).

***Tajovuzkor axloq*** – bunday murojaatni istamaydigan boshqa tirik mavjudotga zarar yetkazish yoki bosim o'tkzishga yo'naltirilgan axloq.

***Moslashuv*** – atrof-muhit talablariga moslashish jarayoni.

***Axloqning tengligi*** – aniq vaziyat, sharoit bilan axloqning muvofiqligi.

***Addiktiv axloq*** – tobe axloq.

***Addiksiya*** – tobelik.

***Anozognoziya*** – og'riq yoki uning og'irligini inkor qilish.

***Antiijtimoiy axloq*** – ijtimoiy tartib va atrofdagi odamlarning tinchligiga xavf tug'diruvchi, ijtimoiy me'yorlarga zid axloq.

***Asosial axloq*** – axloqiy-ma'naviy me'yorlarni bajarishdan og'ishuvchi axloq.

***Attityud*** – ijtimoiy ko'rsatma – shaxsning guruhli yoki ijtimoiy qadriyatlarga orientasiyasi, ular bilan muvofiq harakat qilishga tayyorligi.

***Autistik axloq*** – odamlar va atrofdagi voqelikdan bevosita chegaralangan, shaxsiy fantaziyalari olamiga sho'ng'igan ko'rinishida namoyon bo'ladigan axloq.

***Autodestruktiv axloq*** – o'z organizmi va shaxsini barbod qilish, o'ziga zarar yetkazish bilan bog'liq axloq.

***Axloq*** – shaxsning ichki faollik va ko'pincha tashqi harakat va qiliqlar shakliga ega bo'lgan individual xususiyatlari vositasida muhit bilan o'zaro harakati jarayoni. Insoniy axloq tuzilmasiga quyidagilar kiradi: motivasiya va maqsad qo'yish, hissiy jarayonlar, o'z-o'zini boshqarish, axborotga kognitiv ishlov berish, nutq, vegeto-somatik ko'rinish, harakat va faoliyat. Axloqning asosiy shakllari: verbal va noverbal, anglangan va anglanmagan, ixtiyoriy va beixtiyor.

***Axloq determinasiyasi*** – muayyan axloqni uyg'otuvchi, qo'zg'atuvchi, kuchaytiruvchi va qo'llab-quvvatlovchi omillar jamlanmasi.

***Axloqning motivasiyalanganligi*** – shaxsning yetakchi ehtiyojlari,

qadriyatlari va maqsadlari bilan boshqariladigan harakatga ichki tayyorlik.

***Vuayerizm (vizionizm)*** – jinsiy munosabatlar yoki yalang'och odamlarga mo'ralashga intilish bilan bog'liq jinsiy deviasiya.

***Gender*** – jins.

***Gerontofiliya*** – keksa odamlar va qariyalarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy deviasiya.

***Gomoseksualizm*** – sub'ekt tomonidan jinsiy qo'zg'alish va qoniqishga erishish uchun bitta jinsdagi ob'ektni tanlash.

***Gembling*** – o'yinli tobelik.

***Deviantologiya*** – deviasiyani o'rganuvchi fan bo'limi.

***Deviasiya*** – me'yordan og'ishish.

***Delikt*** – huquqiy me'yorlarni buzuvchi harakatlar.

***Delinkvent axloq*** – ushbu jamiyatda va ayni vaqtda o'rnatilgan huquqiy me'yorlardan og'ishgan, jamoatchilik tartibiga xavf soluvchi muayyan shaxs harakati.

***Destruktiv axloq*** – barbod bo'lishga olib keluvchi, zarar yetkazuvchi axloq.

***Evtanaziya*** – shifokor yordamida o'z-o'zini o'ldirish, qachonki bemorning azoblari chidab bo'lmas darajada bo'lib, uning kasali davolanmaydigan va u sog'lom aql bilan evtanaziya haqida bir necha bor so'rasa.

***Zoofiliya (sodomiya)*** – hayvonlarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy deviasiya.

***Ijtimoiy og'ishlar*** – ommaviylik, turg'unlik va tarqalganlik bilan xarakterlanuvchi ijtimoiy me'yorlarning buzilishi, masalan, jinoyatchilik yoki piyonistalik.

***Intervensiya*** – ijobiy o'zgarishlar maqsadi bilan, masalan, istalmagan axloqni yengish (axloq korreksiyasi, shaxs reabilitasiyasi) bilan ta'sir ko'rsatish.

***Klassik shartlanganlik*** (shartli yoki respondent refleks) – bu shartsiz rag'bat bilan vaqt va borliqda (organizmning tug'ma reaksiyasini chaqiruvchi) shartli reaksiyaga o'rganish (indifferent rag'batga reaksiya).

***Kleptomaniya*** – patologik o'g'rilik.

***Konformistik axloq*** – tashqi nufuzga istisnoviy mo'ljal olgan, individuallikdan mahrum axloq.

***Koping-axloq*** – stressni yengmoq.

***Koping-resurslar*** – aniq shaxsning stressni muvaffaqiyatli yengishiga yordamlashuvchi ichki va tashqi resurslar yig'indisi.

***Koping-strategiyalar*** – stressni yengishning individual strategiyalari.

***Marginallik*** – me'yorning oxirgi chegarasi, shuningdek, chegarali submadaniyatga mansublik.

***Moslashmaganlik*** – shaxsiy ahamiyatli bo'lganiday muhit talablarini qabul qilish va bajarishga, shuningdek, aniq ijtimoiy sharoitlarda o'z individualligini amalga oshira olishga sust qobiliyat holati (istamaslik, uddalamaslik).

***Muhofazalovchi axloq*** – odamlar uning vositasida ijtimoiy munosabatlarda og'riq va frustrasiyadan qochadigan harakat.

***Narsissik axloq*** – shaxsiy buyuklik tuyg'usi va o'ziga libido murojaat, shuningdek, o'zining ahamiyatliligiga tashqaridan tasdiqlashlariga yuqori ehtiyoj bilan boshqariladigan axloq.

***Nekrofiliya*** – murdalarga jinsiy mayl bilan bog'liq jinsiy deviasiya.

***Operant*** – o'z oqibati bilan belgilangan axloq.

***Operant shartlanganlik*** – axloq va o'z-o'zini mustahkamlash sharofati bilan shartli reaksiya (ta'lim) ni ishlab chiqish.

***Operant axloq*** – natija paydo qilib, atrof muhitda operasiyalanadigan axloq.

***Og'ishgan (deviant) axloq*** – birmuncha muhim ijtimoiy me'yorlardan og'ishgan, shaxsning o'zi yoki jamiyatga real zarar keltiruvchi, shuningdek, uning ijtimoiy moslashmaganligi bilan birga boruvchi shaxsning turg'un axloqi.

***Pedofiliya*** – bolalarga jinsiy qiziqish bilan bog'liq jinsiy deviasiya.

***Penitensiar tizim*** – qonunbuzarlarni saqlash tizimi, ularning jazoni o'tash joyi.

***Perversiya*** – jinsiy ob'ekt yoki jinsiy qoniqish usullarini tanlashda

og'ish bilan bog'liq qayd qilingan kuchli jinsiy axloq.

***Piromaniya*** – kuydirishga patologik ishqivozlik.

***Prevensiya*** – ogog'lantirish maqsadidagi ta'sir – istalmagan ko'rinish profilaktikasi.

***Promiskuitet*** – sub'ekt sog'ligi va uning shaxslararo munosabatlar uchun xavf tug'diruvchi tartibsiz jinsiy aloqalar.

***Psixologik himoya*** – shaxsning maqsadliligi va mustahkamligiga xavf soluvchi har qanday o'zgarishlarni bartaraf qilish yoki kamaytirishning ongsiz mexanizmlari.

***Relaksasiya*** – bo'shashish.

***Retrizm*** – ijtimoiy me'yorlar, ijtimoiy o'zaro ta'sirdan ketish.

***Sadomazoxizm*** – azoblanish yoki sherigiga azob berish yo'li bilan jinsiy qoniqishga erishish bilan bog'liq jinsiy addiksiya.

***Sosiopatik shaxs*** – atrofdagi odamlarga ishonch tanqisligi va dushmanlikni his qiluvchi, uzoq vaqt yaqin munosabatlar o'rnatishga qodir bo'lmagan, o'z maqsadlariga erishish uchun kuch va manipulyasiyadan faol foydalanuvchi antiijtimoiy shaxs.

***Suisid*** – atayin o'zini hayotdan mahrum qilish.

***Suisidal axloq*** – o'zini hayotdan mahrum qilish haqidagi tasavvurlarga yo'naltirilgan anglangan harakat.

***Ta'lim*** – yuzaga kelgan vaziyat asosida muayyan axloq turlarini saqlash va egallash jarayon.

***Tobe (addiktiv) axloq*** – psixik holatni o'zgartirish maqsadida qandaydir modda yoki o'ziga xos faollikni iste'mol qilishga psixologik yoki jismoniy tobelik bilan bog'liq axloq.

***Tobelik*** – lazzat olish yoki moslashish maqsadida kimgadir yoki nimagadir suyanishga umid qilgan intilish.

***Transvestizm*** – perversiya. psixologik qulaylik yoki jinsiy qo'zg'alishga erishish maqsadida tasavvurda yoki haqiqatan ayollar kiyimini kiyib olish bilan bog'liq erkaklarga nisbat beriladigan jinsiy deviasiya.

***Transseksualizm*** – o'z jinsini xirurgik o'zgartirishga intilishda ko'rinuvchi jinsiy mansublikning buzilishi (qarama-qarshi jins bilan

o'xshashlik oqibatida).

***Trixotilomaniya*** – patologik soch yulish.

***Tolerantlik*** – nimagadir chidash berish, bardosh berish, ta'sirga berilmaslik.

***Fanatik axloq*** – qandaydir g'oya, qarashlarga ko'r-ko'rona ixlosmandlik shaklida chiquvchi axloq.

***Fetishizm*** – shaxs jinsiy qo'zg'alish va qoniqish uchun fetish (jonsiz predmet yoki tana qismi) dan foydalanadigan jinsiy deviasiya.

***Frustrasiya*** – ehtiyojni qondirish imkonsizligi yoki maqsadga erishish yo'lidagi to'siqlar bilan bog'liq psixik holat.

***Eksgibisionizm*** – jinsiy qoniqish uchun yechinishdan foydalaniladigan jinsiy deviasiya.

## MUNDARIJA


**Kirish**

I -bob. Muammoga kirish

1-Bo'lim. Ta'lim predmeti

1. Axloq shaxsning psixologik kategoriyasi va xususiyati sifatida

2. "Og'ishgan xulq" tushunchasini aniqlash mezonlari

3. Tushunchaning ta'rifi

II-bob. Og'ishgan xulq determinasiyasi

1-bo'lim. Shaxs og'ishgan xulqining determinasiyasida ijtimoiy va tabiiy birlik

1.Muammoga kirish

2.Og'ishgan xulqning ijtimoiy omillari

3.Axloqiy deviasiyalarning biologik zamini.

2-bo'lim. Shaxs og'ishgan xulqining psixologik mexanizmlari

1. Deviant axloqqa ekzistensional-gumanistik yondoshuv

2.Og'ishgan xulqning psixodinamik aspektlari

3. Og'ishgan xulq – o'rgatish natijasi sifatida

4.Og'ishgan xulq tahlilining sxemasi.

III-bob. Shaxs og'ishgan xulqi asosiy turlarining qisqacha psixologik tavsifnomasi

1-Bo'lim. Tajovuzkor axloq

1. Tajovuz va tajovuzkor axloq

2. Shaxs tajovuzkor axloqining shakllanish sharoitlari

3. Tajovuz va delinkvent axloq

2-Bo'lim. Delinkvent axloq

1. Delinkvent axloq – shaxs og'ishgan xulqining shakli sifatida
2. Delinkvent axloqning shakllanish shartlari
3. Qonunga qarshi motivasiya
4. Antiijtimoiy (sosiopatik) shaxs

3-bo'lim. Tobe axloq

1. Tobe axloqning tavsifnomasi
2. Konseptual modellar
3. Shaxs tobe axloqining omillari
4. Hammuhtojlik fenomeni
5. Kimyoviy tobelik
6. Ovqatga tobelik

4-Bo'lim. Suisidal axloq

1. Tushunchani ta'riflash
2. Suisidlar tipologiyasi
3. Suisidal axloqda yosh xususiyatlari
4. Suisidlar shakllanishining konsepsiyasi
5. Suisidal motivasiya

IV-bob. Shaxsning og'ishgan axloqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir

1-Bo'lim. Shaxs og'ishgan axloqining prevensiyasi va intervensiyasi

1. Shaxs og'ishgan xulqiga ijtimoiy-psixologik ta'sir
2. Og'ishgan axloq profilaktikasi
3. Shaxs og'ishgan xulqining psixologik intervensiyasi
4. Og'ishgan axloqning turli shakllarida ijtimoiy-psixologik aralashuv strategiyalari.

Xulosa

Glossariy